O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

A.V.Vaxabov, Sh.Sh. Zaxidova, Sh.X.Xajibakiyev, Sh.I.Raxmanov, D.Sh.Odinayev, J.N.Fayzullayev, B.B.Baxtiyorov, S.N.Abdulxakimov

IJTIMOIY SIYOSAT

O‘QUV QO‘LLANMA

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 5520100 – Ijtimoiy ish (pensiya ta’minoti) yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etiladi

Toshkent
«MUMTOZ SO‘Z»
2019

UO‘K 338:91(075)
KBK 65:04(5O‘)73

“Ijtimoiy siyosat”. O‘quv qo‘llanma i.f.d., prof. A.V.Vaxabovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: “MUMTOZ SO‘Z”, 2019. 312 bet.

O‘quv qo‘llanmada ijtimoiy siyosatning shakllanishi, tarkibi va rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy muammolar, ijtimoiy himoya dasturlariga bo‘lgan ehtiyojning vujudga kelish omillari, ijtimoiy siyosatning maqsadi, vazifalari va uslublari, ijtimoiy siyosatning nazariy konsepsiyalari, tarkibiy qismlari, darajalari va amal qilish tamoyillari tahlil qilingan. Ijtimoiy siyosatni tartibga solish dastaklari, ijtimoiy xizmatlar, aholini ijtimoiy himoya qilishning manzilliligini kuchaytirish zaruriyati va uni amalga oshirish mexanizmi, aholining yoshi bo‘yicha turli guruhlari, jumladan, bolalar, yoshlar, keksalar, nogironlar, migrantlarning ijtimoiy himoya amaliyoti keng yoritilgan. Jahonda ijtimoiy siyosatni amalga oshirish mexanizmi, modellari, mohiyati va xususiyatlari chuqur tahlil etilgan. Ijtimoiy ta’minot tizimining aholi farovonligi darajasini oshirishga ta’sirini baholashda davlat va tijorat tashkilotlarining tutgan o‘rni yoritilgan. Ijtimoiy sohaning ta’lim tizimi va sog‘liqni saqlash kabi tarmoqlari vazifalari, ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmat turlari va rivojlanish indikatorlari, moliyalashtirish amaliyoti, isloh etishni milliy dasturlari mazmuni va ustuvor yo‘nalishlari bayon etilgan.

O‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarining ijtimoiy ish (pensiya ta’minoti) yo‘nalishida o‘qiyotgan bakalavr, magistrantlarga, ushbu fanni o‘qitadigan professor-o‘qituvchilar, ijtimoiy siyosat sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan doktorant, mustaqil tadqiqotchilar, ijtimoiy siyosatni mustaqil o‘rganuvchilar uchun mo‘ljallangan.

5520100 – Ijtimoiy ish (pensiya ta’minoti) yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etiladi.

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining PZ-20170930109 “Aholini ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini aniqlash va ularni ijtimoiy himoya qilish tizimini manzilliligini kuchaytirish mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari” mavzusidagi amaliy davlat ilmiy granti doirasida tayyorlandi va nashr etildi.

Prof. **A.V.Vaxabov**ning umumiy tahriri ostida

Taqrizchilar:
Abulqosimov X.P. – O‘zMU professori, iqtisod fanlari doktori;
Xoshimov P.Z. – O‘zMU dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi

ISBN 978-9943-5562-7-0

© Ijtimoiy siyosat”, 2019
©“MUMTOZ SO‘Z”, 2019

KIRISH

O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotini shakllantirishning “O‘zbek” milliy modelining muhim tamoyillaridan biri kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish hisoblanadi. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Xarakatlar strategiyasining to‘rtinchi bandi aholini ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish va 2019-yil “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” davlat dasturida ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish va ijtimoiy siyosatning samaradorligini oshirishga qaratilgan qator ustuvor vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

XXI asr boshlarida rivojlangan mamlakatlarda “Ijtimoiy davlat” modeliga asoslangan ijtimoiy siyosatni amalga oshirish va amal qilayotgan ijtimoiy siyosatni modernizatsiya qilinishi “ijtimoiy ish”, “ijtimoiy soha iqtisodiyoti” yo‘nalishlari va mutaxassisliklarida o‘qiyotgan bakalavr va magistrantlarga kadrlar tayyorlashni o‘quv rejasida ko‘rsatilgan “ijtimoiy siyosat” fani bo‘yicha xalqaro andozalar talablariga javob beradigan zamonaviy darslik va o‘quv qo‘llanmalariga bo‘lgan katta ehtiyojni vujudga keltirdi.

O‘zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti “Makroiqtisodiyot” kafedrasining yetakchi professor-o‘qituvchilari tomonidan Buyuk Britaniyada besh marta qayta nashr ettirilgan Oksford universiteti iqtisodchi olimlari tomonidan yozilgan “Social Policy: An Introduction, Fifth Edition Pate Alcock, Tina Haux, Margaret May and Sharon Wright © 2016 John Wiley & Sons Ltd. 526 p.” darsligi ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilindi va O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatni huquqiy-institutsional asoslari, tarkibi, amalga oshirish mexanizmi va dastaklari, ustuvor yo‘nalishlariga oid materiallari bilan uyg‘unlashgan holda to‘ldirildi.

O‘quv qo‘llanmaning maqsadi jahonda “ijtimoiy siyosat”ning fan sifatida shakllanishi tarixi, nazariy asoslari, davlat tomonidan ijtimoiy siyosatni tartibga solish dastaklari va amalga oshirishning milliy xususiyatlari, aholi farovonligini ta’minlashda ijtimoiy ta’minot va xizmatlarning o‘rni, ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning jahon tajribasidan O‘zbekiston amaliyotida ijodiy foydalanish imkoniyatlariga oid tizimli bilimlar berishdan iborat.

O‘quv qo‘llanma tarkibi kirish, to‘qqiz bob va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. O‘quv qo‘llanmaning har bir mavzusi o‘qitishning zamonaviy interfaol usullaridan foydalanilgan holda

yozilgan hamda matn,tayanch atamalar, nazorat uchun savollar va olingan bilimni nazorat qilish, baholash uchun qo‘llaniladigan testlardan iborat.

O‘quv qo‘llanmaning muhim afzalligi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, milliy statistika davlat tashkilotlarining ko‘p sonli statistik to‘plamlari materiallaridan turli mamlakatlardagi ijtimoiy siyosatning holatini qiyosiy baholash, taqqoslash, rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, ular uchun xos bo‘lgan milliy xususiyatlarni tahlil etishda keng qo‘llanilgan.

O‘quv qo‘llanmaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari va tarkibi bayon etilgan. “Ijtimoiy siyosat fanining predmeti va metodlari” deb nomlangan birinchi bobda ijtimoiy siyosat tushunchasining kelib chiqish tarixi, tor va keng mazmundagi ta’rifi va rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy ta’minot, ijtimoiy yordam, ijtimoiy himoya, ijtimoiy sug‘urta kabi tushunchalarning umumiy jihatlari va farqlari bayon etilgan. “Ijtimoiy siyosat” fanining predmeti va tadqiq etish usullari tahlil etilgan. Jahonda ijtimoiy jarayonlarning globallashuvi bilan birgalikda yangidan XX asr boshlarida vujudga kelayotgan ijtimoiy muammolar, ularni guruhlanishi va hal etish uslublari, bozor iqtisodiyoti jarayonida samaradorlik va ijtimoiy adolat o‘rtasidagi munosabatlar kompleks bayon etilgan.

O‘quv qo‘llanmaning “Ijtimoiy siyosatning nazariy asoslari” deb atalgan ikkinchi bobida ijtimoiy siyosatning iqtisodiy kategoriya sifatida shakllanishi va uni rivojlanish evolyutsiyasi bayon etilgan. Ushbu bobda ijtimoiy siyosatning tamoyillari, mohiyati ochib berilgan va amaliy jihatlarini rivojlantirishda turli ilmiy maktablarning tutgan o‘rni qiyosiy baholangan va uni modernizatsiyalashga bo‘lgan yondashuvlar chuqur tahlil etilgan.

“Ijtimoiy siyosatning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari” deb nomlangan uchinchi bobda Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy siyosatning kelib chiqish zaruriyati, rivojlanish shart-sharoitlari va omillari o‘rganilgan. Ijtimoiy siyosat borasida amalga oshirilgan islohotlar qiyosiy tahlil etilgan, guruhlashtirilgan. Yevropa mamlakatlarida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida amalga oshirilgan islohotlar tavsiflangan, tasniflangan hamda turli modellarga ajratilgan. XXI asr boshlarida jahondagi globallashuv jarayonlarining kuchayishi turli risklar ta’siri ostida yetakchi mamlakatlarda ijtimoiy siyosat borasida amalga oshirilayotgan modernizatsiyalash milliy dasturlari qiyosiy baholangan va ularni amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari o‘rganilgan.

O‘quv qo‘llanmaning to‘rtinchi “Ijtimoiy siyosatni tartibga solish dastaklari” deb atalgan bobida ijtimoiy siyosatning ayrim mamlakatlarda amalga oshirishni tashkil etish, boshqarish, moliyalashtirish va monitoring qilishning huquqiy-tashkiliy va amaliy jihatlari bayon etilgan. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda mahalliy boshqaruv organlari o‘rtasidagi huquq, mas’uliyat va majburiyatlarni taqsimlanish nisbatining holati va belgilovchi omillari tahlil etilgan hamda ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning samaradorligini kuchaytirish yo‘nalishlari tahlil etilgan.

“Modernizatsiyalash sharoitida ijtimoiy siyosatni amalga oshirish xususiyatlari” deb nomlangan beshinchi bobda ijtimoiy siyosatning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar tavsiflangan, guruhlangan. Yetakchi omillar hisoblangan iqtisodiy, demografik, din, oila, jamiyatning ijtimoiy tarkibi va qatlamlarning ijtimoiy siyosatga ta’siri o‘rganilgan. Ushbu bobda global ijtimoiy muammolarni hal etishda ijtimoiy siyosatni tutgan o‘rni baholangan.

O‘quv qo‘llanmaning “Aholi farovonligi va ijtimoiy ta’minot” deb nomlangan oltinchi bobida aholi farovonligi, turmush darajasi va sifatiga ta’sir etuvchi omillar va ko‘rsatkichlari kompleks tadqiq etilgan. “Ijtimoiy farovonlik davlati”ni vujudga kelish xususiyatlari va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish masalalari tahlil qilingan. Aholini ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlariga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar mazmuni, turlari va ularni moliyalashtirish masalalari yoritilgan.

“Ijtimoiy xizmatlar” deb nomlangan yettinchi bobda taraqqiy etgan mamlakatlarda, O‘zbekistonda aholini ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlarini aniqlash usullari va ularga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tamoyillari, turlari tahlil etilgan. Ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishning yetakchi turlarini amalga oshirish xususiyatlari va ularni moliyalashtirish masalalari o‘rganilgan. Davlat bilan bozor mexanizmi o‘rtasidagi nisbat masalasini yoritishga alohida e’tibor qaratilgan.

O‘quv qo‘llanmani “Aholini ijtimoiy himoyalash tizimi va uning manzilliligini kuchaytirish” deb nomlangan sakkizinchi bobida bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida aholini yoppasiga ijtimoiy himoya qilish tizimidan manzilli ijtimoiy himoya tizimiga o‘tishning zarurligi va mohiyati yoritilgan. Jahon amaliyotida aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini aniqlash uslublari qiyosiy o‘rganilgan. Aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlari hisoblangan ko‘p bolali oilalar, bolalar, yoshlar, keksalar, nogironlarni ijtimoiy himoyalash tamoyillari, amalga oshirish mexanizmi va mamlakatimiz uchun xos bo‘lgan

xususiyatlari bayon etilgan. Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilliligini kuchaytirishning ustuvor yo‘nalishlari tahlil etilgan.

“Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning jahon tajribasi” deb nomlangan to‘qqizinchi bobda jahon amaliyotida ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning modellari kompleks tahlil etilib, ularning umumiy jihatlari va farqli xususiyatlari aniqlangan. Jahon iqtisodiyotining yetakchi markazlari hisoblangan Shimoliy Amerika, Yevropa Ittifoqi, Sharqiy Osiyoda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning holati baholangan va isloh etishning ustuvor jihatlari aniqlangan. Jahonda jamlangan kuchli, samarali ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning boy, ilg‘or tajribasidan O‘zbekistonning o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olgan holda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatni modernizatsiyalash jarayonida ijodiy foydalanish imkoniyatlari bayon etilgan.

Mualliflar guruhi ushbu qo‘llanmaning mazmuni, tarkibi va o‘quv materiallarini uzatishning uslubiy jihatlari yuzasidan o‘quvchilardan o‘z fikr va mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma i.f.d., prof. A.V.Vaxabov rahbarligidagi quyidagi mualliflar guruhi tomonidan tayyorlangan: kirish, II, VIII boblar – i.f.d. prof. A.V.Vaxabov; I bob – i.f.n. Sh.Sh. Zaxidova, III bob – kat. o‘qit. Sh.I.Raxmanov, IV bob – o‘qit. B.B.Baxtiyorov, V bob – o‘qit. B.B.Baxtiyorov, o‘qit. S.N.Abdulxakimov, VI bob – kat. o‘qit. D.Sh.Odinayev, VII – dots. v.b. Sh.X.Xajibakiyev, IX bob – o‘qit. J.N.Fayzullayev.

I bob. IJTIMOIY SIYOSAT FANINING PREDMETI VA METODLARI

1.1. Ijtimoiy siyosat fanining predmeti va rivojlanish bosqichlari.
1.2. Ijtimoiy siyosatning nazariy asoslari.
1.3. Ijtimoiy siyosat metodlari.
1.4. Ijtimoiy ehtiyojlar, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy muammolar.
1.5. Ijtimoiy adolat. Samaradorlik va tanlov.

1.1. Ijtimoiy siyosat fanining predmeti va rivojlanish bosqichlari

Ijtimoiy siyosat fani ijtimoiy fanlardan farqli o'laroq aholining turmush farovonligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar tizimini o'rganadi. *Ijtimoiy siyosat* atamasi faqatgina ilmiy tadqiqotlarni olib borish maqsadida qo'llanilib qolmasdan, davlatning ijtimoiy dasturlari majmuasini ham o'zida ifodalaydi. Ijtimoiy siyosat – aholi farovonligini oshirishga qaratilgan qarorlarning ilmiy asoslarini o'rganishga qaratilgan fandir.[1]

Ijtimoiy siyosat fanining predmeti – ijtimoiy guruhlarni jamiyatda tutgan o'rni borasidagi o'zaro harakatlari jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy amaliyot shakllari qonuniyatlarini o'rganishdan iborat.

Ijtimoiy siyosat – davlat, jamoat tashkilotlari va xayriya fondlarining aholi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan va ijtimoiy soha orqali amalga oshiriladigan faoliyatidir.

Ijtimoiy siyosatning tor ma'nodagi ta'rifi davlatning ma'lum sababga ko'ra ijtimoiy jihatdan nochor bo'lgan va o'zining moddiy holatini o'z kuchlari orqali yaxshilay olmaydigan aholi guruhlari yoki qatlamlarini (pensioner, yetim bolalar, talabalar, mehnat nogironlari hamda kam ish haqi oluvchi ishlovchilar kategoriyalari)ni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidan iborat.

Ijtimoiy siyosatning keng ma'nodagi ta'rifi jamiyatning barcha a'zolarining ijtimoiy rivojlanishi uchun normal yashash va qulay imkoniyatlar yaratishga qaratilgan davlat chora-tadbirlari yig'indisidir.

Umuman, ijtimoiy siyosat davlatning ijtimoiy rivojlanish, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish sohasida muvofiqlashtirilgan siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlari tizimidan iborat.

[1] Alcock P., May M. and Wright Sh. "Social Policy". 2012. John Wiley & Sons Ltd. P. 5-6.

Ijtimoiy siyosatning maqsadi kishilar ijtimoiy ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish, ayrim fuqarolar va ijtimoiy guruhlarni qo‘llab-quvvatlash, himoyalash, to‘g‘ri yo‘naltirish va mehnat qobiliyatini qayta tiklash uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Bunga samarali me’yoriy-qadriyatlar tizimini yaratish; fuqarolarga ijtimoiy me’yorlarni amalda ta’sir ettirish, ularning xulq-atvorini ijtimoiy tartibga solish vositasi sifatida yuqori darajaga ko‘tarish, ijtimoiy shakllanayotgan ehtiyojlar, manfaatlar bilan ularni qanoatlantirish imkoniyatlari – aniqligi, ob’ektivligi, me’yoriy ko‘rsatmalarga zid bo‘lmasligi va shu kabilar o‘rtasidagi o‘xshashlik tushuniladi.

Ijtimoiy siyosat ikki xil – yaqin davrga va uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin. Yaqin yillar uchun mo‘ljallangan ijtimoiy siyosat aholi turmush darajasining yanada yomonlashuviga yo‘l qo‘ymaslik, bandlik siyosatini samarali olib borish va ishsizlikning jadal sur’atlarda ko‘payishini cheklash; aholi turli qatlamlari va guruhlarining moddiy holati va turmush sharoitlarini tadrijiy ravishda yaxshilash uchun zarur imkoniyatlarni yaratishni nazarda tutadi.

Uzoq muddatli ijtimoiy siyosatga samarali rag‘batlantirish vositalarini ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta’minlash yo‘li bilan fuqarolar tashabbuskorligi va tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish kiritiladi. Ijtimoiy siyosat davlatning ustun darajadagi aralashuvlarisiz o‘tkazilgandagina shaxs rivoji va jamiyat ijtimoiy barqarorligining kuchli vositasi bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy siyosatning vazifalari quyidagilardan iborat: shaxsning mehnat qilish, bilim olish huquqlarini amalga oshirishni iqtisodiy va huquqiy jihatdan kafolatlash; aholining barcha qatlamlarini, birinchi navbatda ijtimoiy jihatdan kam himoya qilingan qatlamlarining ijtimoiy himoya mexanizmini yaratish; ommaviy ishsizlikning oldini olish, ish joyini yo‘qotgan taqdirda ishsizlarga qayta o‘qish va qayta tayyorlash imkoniyatini berib, ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta’minlash; ijtimoiy sug‘urta tizimini yaratish; ijtimoiy jihatdan nochor aholi qatlamlari turmush darajasining keskin pasayishiga yo‘l qo‘ymaslik; fuqarolar daromadlarining barqaror o‘sishi va kompensatsion to‘lovlarni ishonchli amal qiluvchi mexanizmini yaratmasdan aholini majburiy xarajatlari va to‘lovlarini ortishiga olib keluvchi qarorlarni qabul qilmaslik.

Ijtimoiy siyosat tarkibiy jihatdan quyidagilarni qamrab oladi:

- aholini ijtimoiy himoya tizimi (mehnat qobiliyatini yo‘qotib o‘zi tirikchilik vositalarini ishlab topa olmaydigan yoki qaramog‘ida bolalari, boqimandalarga ega bo‘lgan shaxslarga nafaqa berish);

- ijtimoiy sug‘urta (pensiyaga chiqish va ishsizlik bilan bog‘liq ish haqidagi yo‘qotishlarni vaqtinchalik qoplash;

- ijtimoiy xizmatlar (inson kapitalini investitsiyalash, ya’ni shaxsning takror ishlab chiqarish, ma’naviy salohiyatini tiklash va kengaytirishga qaratilgan investitsiyalarni amalga oshirish);

- mehnat bozori va bandlikni ta’minlash (mehnat bozoridagi ishchi kuchiga talab va taklif o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblikni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini joriy etish, ishchi kuchini tayyorlash va qayta tayyorlash va boshqalar).

Davlat ijtimoiy siyosatining muhim tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy adolat;
- ijtimoiy javobgarlik;
- ijtimoiy hamkorlik;
- ijtimoiy kafolatlar;
- har bir shaxsning zarur ijtimoiy ne’mat va xizmatlarni olishdagi teng imkoniyatlari;
- davlat tomonidan hayotiy zarur moddiy ne’matlar va xizmatlarni (minimal ish haqi, pensiyalar, minimal iste’mol byudjeti) minimal ijtimoiy standartlar darajasida olishni kafolatlash.

Ijtimoiy siyosat o‘tish davrida aktiv va passiv shaklda amalga oshirilishi mumkin. Aktiv ijtimoiy siyosat – mamlakatda ishlab chiqarishni rag‘batlantirish mexanizmi orqali amalga oshirilib aholining aksariyat qismining daromadlarini oshirish imkoniyatini ta’minlaydi va mustaqil yashash uchun tegishli sharoitlar yaratadi.

Passiv ijtimoiy siyosatda davlat fuqarolarning ayrim kategoriyalariga nisbatan chora-tadbirlarni (yordam, qo‘llab-quvvatlash, rivojlantirish) amalga oshiradi. Uning uchun xos xususiyatlar selektiv yondashuv, samarasizlik va vaqtinchalikdan iborat. Passiv ijtimoiy siyosatni amalga oshirish dactaklari quyidagilar hisoblanadi:

- iqtisodiy dastaklar – baholar, tariflar, ish haqi, stipendiyalar, nafaqalar va barcha ijtimoiy to‘lovlarni to‘lash;
- ma’muriy dastaklar – ruxsat berish va man etishga qaratilgan chora-tadbirlar (kvota va litsenziyalar berish, man etish va boshqalar);
- huquqiy yoki qonuniy dastaklar – amal qilayotgan qonuniy va normativ aktlar tarkibini tartibga solish orqali;

- g‘oyaviy dastaklar – ma’naviy etik tushuncha va jamiyat normalarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar (“yaxshi” va “yomon”, “axloqiy” va “noaxloqiy” va boshqalar);

- davlatning kompleks maqsadli ijtimoiy dasturlari (keksalarni e’zozlash, sog‘lom bola va boshqalar).

1.2. Ijtimoiy siyosatning nazariy asoslari

Ijtimoiy siyosatning vujudga kelishi va shakllanish bosqichlari ilk bor XIX asrda Buyuk Britaniyada namoyon bo‘lgan. Uning tarixi Buyuk Britaniyada “Fabian jamiyati”ning rivojlanishi va mazkur jamiyatda qo‘llanilgan siyosatga borib taqaladi. Fabian jamiyati 1884-yilda tashkil topgan bo‘lib, unda qo‘llanilgan siyosatning asoslari hukumat parlamenti Leyboristlar partiyasi vakili Sidni Vebb va uning tarafdorlari ilmiy ishlarida yoritib berilgan. Fabianslar XIX asrning oxirida Britaniya kapitalizmi amal qilishida mamlakatdagi vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tanqidiy tahlil qilgan holda, ushbu muammolarning yechimini topishga qaratilgan ijtimoiy siyosatni davlat tomonidan amalga oshirish zarurligini ta’kidlab o‘tishgan.[2] Fabianslarning ijtimoiy siyosatga oid qarashlari But va Rauntrilarning empirik tadqiqotlariga asoslangan. Ushbu tadqiqot ishi XIX asrda mamlakatda kambag‘allikning darajasi va uni kelib chiqish sabablarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, iqtisodiy bozor, ya’ni kapitalizm faqatgina zaruriy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan, degan xulosaga kelingan. Fabianslar ushbu tadqiqot natijalarini rivojlantirgan holda, jamiyatda vujudga kelayotgan ijtimoiy muammolarni bozor (kapitalizm) dastaklari orqali hal etishning iloji yo‘qligi va shuning uchun ularni hal etishda davlatning aralashuvi zarur, degan xulosaga keladilar.[3]

XX asrning boshlariga kelib, Leyboristlar partiyasi Britaniya hukumatini boshqarishda mamlakatda kambag‘allarni himoya qilish to‘g‘risida, aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan qator qonunlar va me’yoriy xujjatlar qabul qilindi. 1905-yilda Buyuk Britaniyada ijtimoiy siyosatni amalga oshirish va uning ijrosini nazorat qiluvchi Qirollik komissiyasi tashkil etilganligi ijtimoiy siyosatda katta burilish bo‘ldi. Fabianslar maktabi vakili Beatris Vebb tomonidan aholi farovonligini ta’minlashda davlat xizmatlaridan foydalanish usullari yoritilgan. “Bag‘rikenglik jamiyati (COS)” a’zolari Yelena va Bernar Bozanketlar esa o‘z ilmiy asarlarida ijtimoiy siyosatni nodavlat

[2] “Social Policy”. P. 6.
[3] “Social Policy”. P. 6.

dastaklari orqali amalga oshirish yo‘nalishlari borasida tadqiqotlar olib borganlar.[4] Davlat va nodavlat tashkilotlarining ijtimoiy siyosatni olib borish usullari bo‘yicha turli munozaralar vujudga keldi. Vebb va Bozanketlarning ilmiy tadqiqotlaridan olingan xulosalarga tayangan holda shuni aytish mumkinki, ushbu tadqiqotlar mamlakatdagi ijtimoiy siyosatni amalga oshirish shakli, uni baholash va qay darajada rivojlanganligini isbotlashga asoslangan. Ijtimoiy ta’minot tizimini isloh etish yo‘nalishlari yoritilgan. Ijtimoiy siyosatning mohiyati Klement Ettli (Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda Qirollikda Leyboristlar hukumati islohotlarini amalga oshirilishini o‘z ilmiy izlanishlarida yoritib bergan), Beveridj (zamonaviy ijtimoiy ta’minot tizimi asoschisi) va T.X. Marshall (“Ijtimoiy davlat” tushunchasining nazariy asoslarini yaratgan) kabi olimlar tomonidan ochib berilgan.

1950-yilga kelib London iqtisodiyot maktabi (LSE) vakili Richard Titmass Buyuk Britaniya tarixida ilk bor ijtimoiy boshqaruv bo‘yicha professor ilmiy unvonini qo‘lga kiritdi.[5] Titmassning ijtimoiy siyosat mohiyatini yoritishga oid fikrlari hozirda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatni mohiyatini ochib bera oladi. Keyingi 15 yil mobaynida Britaniyaning turli ilmiy-tadqiqot markazlari, universitetlar, kollej va maktablarida ijtimoiy soha bo‘yicha fanlar o‘qitila boshlandi. Ushbu tadbirlardan ko‘zlangan maqsad mamlakatda ijtimoiy ta’minotga aloqador xizmat ko‘rsatish sohasi va aholi farovonligi yo‘lida xizmat qiluvchi malakali ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish bo‘lgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda Buyuk Britaniyada ijtimoiy davlatning barpo etilishi ijtimoiy siyosat sohasidagi katta o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Mazkur sohada erishilgan yutuqning asosini aholining hayotiy zarur iste’mol tovarlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishdan iborat bo‘ldi. 1942-yilda Beveridj tomonidan Britaniyadagi ijtimoiy davlatning quyidagi xususiyatlari yoritib berildi:[6]

- aholi savodxonligini ta’minlash maqsadida 15 yillik bepul ta’limning joriy etilishi (keyinchalik 16 yilga uzaytirilgan);
- jamiyatda turli yuqumli kasalliklarning tarqalishiga qarshi kurashish maqsadida bepul tibbiy xizmat ko‘rsatishni joriy etilganligi;
- ishsizlikka qarshi kurashish maqsadida davlat aholining to‘liq bandligini ta’minlashi zarurligi;

[4] “Social Policy”. P. 6-7.
[5] “Social Policy”. P. 7.
[6] “Social Policy”. P. 8.

- davlatning mamlakatda qashshoqlikni qisqartirish va aholini turar uy-joy bilan ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishi;

- aholining ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlariga ijtimoiy sug‘urta imtiyozlarining berilishi.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni amalga oshirilishi va moliyalashtirilishi davlatning zimmasiga yuklatilgan edi. Ushbu holat ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda ijtimoiy siyosat mamlakatda aholi farovonlik darajasini oshirishga qaratilganligidan dalolat beradi.

1970-yilda ijtimoiy ta’minotning tarkibiga kiruvchi xizmatlarni amalga oshirilishining funksional jihatlariga katta e’tibor qaratildi. Ushbu o‘zgarish ijtimoiy siyosatning qamrov darajasini ortishiga olib keldi. Ijtimoiy siyosatni boshqarishga bag‘ishlangan turli ilmiy munozaralar o‘tkazildi. Bu davrda olimlar aholi farovonligini oshirishdan davlatning qanday manfaatlari borligini isbotlashga harakat qildilar.[7]

1960–1970-yillarda ko‘plab olimlar tomonidan xalq farovonligini ta’minlashga qaratilgan davlat ijtimoiy siyosatining salbiy jihatlari tanqid qilinib, kapitalistik jamiyat (Marks ta’limotiga asoslangan bozor iqtisodiyoti) davlat uchun eng maqbul tanlov ekanligi asoslangan. Ularning qarashlariga ko‘ra, ijtimoiy xizmatlar mehnat bozori mexanizmi amal qilishiga hech qanday ta’sir ko‘rsatmagan. Ular aholining ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlari va mehnatkashlar sinfini ijtimoiy himoyalanganligi kapitalizmning rivojlanishiga zamin yaratdi degan fikrni ham berishgan. Ushbu davrda ijtimoiy davlat tushunchasini yoritishda ikki turdagi yondashuvlar shakllangan:

- ijtimoiy davlat aholi turmush farovonligini ta’minlash maqsadida aholining birlamchi ehtiyojlarini qondirish vazifasini bajaradi;

- ijtimoiy davlat bozor iqtisodiyoti rivojlanishi uchun zamin yaratishga xizmat qiladi.[8]

1970–1980 yillarda ijtimoiy ehtiyojlarni to‘xtovsiz o‘sib borishi tufayli ijtimoiy davlatga nisbatan turli tanqidiy qarashlar rivojlana bordi. 1970 yilda mamlakatda iqtisodiy tanazzulning vujudga kelishi va xalq farovonligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat zimmasiga katta yuk tusha boshladi. Bu holat o‘z navbatida ijtimoiy davlat konsepsiyasining shubha ostiga tushib qolishiga sabab bo‘ldi.

---

[7] “Social Policy”. P. 8-9.
[8] “Social Policy”. P. 9.

XX asrning so‘ngi yillarida ijtimoiy davlat konsepsiyasi turli tanqidlarga duch keldi. Ushbu davrning o‘ziga xosligi ijtimoiy ta’minot xizmatlarini ko‘rsatishda erkak va ayollarga nisbatan turli yondashuvlarning mavjudligi va aholi farovonligini ta’minlashda gender tengligi (erkak va ayollarning teng huquqliligi) omilini e’tiborga olish zaruriyatini vujudga kelishidan iborat.[9]

XXI asrning boshlarida ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda “Ijtimoiy davlat” tushunchasidan farqli o‘laroq xalq farovonligini ta’minlovchi “Aralash iqtisodiyot” tushunchasi iqtisodiy muomalaga kiritildi. “Aralash iqtisodiyot” tushunchasi ijtimoiy siyosat va bozor iqtisodiyotining amal qilishida davlat tomonidan tartibga solish bilan samarali ishlayotgan bozor mexanizmi bilan aralash holda qo‘llashni o‘zida aks ettiradi.

1.3. Ijtimoiy siyosat metodlari

Ijtimoiy siyosatning samaradorligini tadqiq etishda sotsiologik bilimni aniqlash va asoslash usullaridan iborat bo‘lgan turli uslublar, ijtimoiy voqelikni empirik va nazariy bilishning usul, muolaja va opretsiyalaridan foydalaniladi. Ijtimoiy siyosatni tadqiq etish va ta’minlashda quyidagi usullardan foydalaniladi:

I. Umumilmiy – analiz va sintez, abstraktlash, abstraktlikdan konkretlikka borish, mantiqiy va tarixiy tahlilni uyg‘unlashtirish, modellashtirish, matematik uslublar;

II. Empirik – statistik ma’lumotlar, hujjatlar tahlili, anketa so‘rovlari, labaratoriya eksperimentlari, kishilarning kundalik va ekstrimal holatlardagi xulqi ustidan kuzatish va boshqalar.

Ijtimoiy siyosatni tahlil etish jarayonida ma’lumotlarni to‘plash, tarkibiy ketma-ketlik asosida tartibga solish, miqdoriy tahlil, sifat tahlili, aralash tahlil, ko‘p ukladli, iyerarxik metodlardan uzviy ketma-ketlikda foydalanish orqali yuqori samaraga erishish mumkin bo‘ladi.[10]

Ma’lumotlarni to‘plash anketa so‘rovnomalari o‘tkazish, intervyu olish yoki kuzatish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bunda birlamchi ma’lumotlar to‘planadi. Ushbu ma’lumotlarni yig‘ish har bir mamlakatda muntazam tarzda o‘tkazilishi lozim. Jamiyatda vujudga kelayotgan ijtimoiy muammolarni uzviy tarzda kuzatish va ularni hal etish chora-tadbirlarini amalga oshirish natijalari to‘g‘risida ma’lumotlar bazasini shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi.

---

[9] “Social Policy”. P. 9.
[10] “Social Policy”. P. 12-17.

Yig‘ilgan ma’lumotlarni tarkibiy ketma-ketlik asosida tartibga solish ma’lumotlarni tizimli tarzda o‘rganish imkonini beradi. Bunda ma’lumotlarning dolzarbligi yoki rivojlanish darajasi yoki muammolarning soni bo‘yicha guruhlash asosida yaxlit tizimlashtiriladi.

Tizimlashtirilgan ma’lumotlar miqdoriy va sifat jihatidan tahlil etiladi. Miqdoriy tahlilda yig‘ilgan ma’lumotlarning son jihatidan tahlili amalga oshirilsa, ma’lumotlarni sifat jihatidan tahlil qilish esa ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda qo‘llanilgan chora-tadbirlarning samaradorligi ko‘rsatkichida ifodalanadi. Ushbu ikki metodni bir vaqtning o‘zida qo‘llanilishi aralash metod hisoblanadi.

Ko‘p ukladli metodlar ikki yoki undan ortiq metodlarni birdaniga qo‘llashni bildiradi. Umuman olganda har bir ijtimoiy tadqiqotlar amaliyotda bir necha metodlarni qo‘llash orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa o‘z navbatida yuqori samara beradi.

Iyerarxik metod – ijtimoiy tadqiqotlarning tuzilishi, ya’ni tarkibi, o‘zgarishlarning o‘zaro uzviy ketma-ketligi, rivojlanish bosqichlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Mazkur metod odatda tibbiyot sohasida ko‘p qo‘llaniladi. Masalan, kasallikning vujudga kelish sabablari, uning rivojlanishi yoki unga qarshi vositalarning qo‘llanilishi natijasida kishida namoyon bo‘ladigan ijobiy o‘zgarishlarni uzviy tarzda qayd etib borish iyerarxik metodni ifodalaydi. Tibbiyot sohasida mazkur metodning qo‘llanilishi meta-analiz yoki kvazi-eksperimentlarni o‘tkazish jarayonidagi “Oltin standart” hisoblanadi.

1.4. Ijtimoiy ehtiyojlar, ijtimoiy ta’minot va ijtimoiy muammolar

Ijtimoiy ta’minot jamiyatning ayrim qatlamlari yoki kishilarning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish va turli ijtimoiy muammolarni hal etishda qo‘llaniladigan ijtimoiy mexanizmlar majmuasini anglatadi. Ijtimoiy siyosatda ijtimoiy ta’minot aholi farovonligini ta’minlashni anglatadi. Ijtimoiy ta’minot ijtimoiy siyosatdan farqli o‘laroq oila, ijtimoiy guruhlar yoki ayrim aholi qatlamlarida mavjud ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini anglatadi. Jamiyatning ijtimoiy tarkibida oila, ijtimoiy guruhlar, nodavlat tashkilotlar va o‘zaro aloqador assotsiatsiyalar mavjud bo‘lib, ular mamlakatda ijtimoiy ta’minotni amalga oshirilishida muhim o‘rin egallaydi.

Ijtimoiy ehtiyojlar ijtimoiy ta’minot institutlari tomonidan o‘rganiladigan va belgilanadigan tovar va xizmatlar tarkibi hisoblanadi. Ijtimoiy ehtiyojni belgilashda uni xohish-istak tushunchasidan farqlash

zarur bo‘ladi. Xohish-istak kishiga yashashi uchun hayotiy zarur bo‘lmagan boshqa tovar yoki xizmatlarni ham o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy ehtiyojlar esa ayrim ijtimoiy guruhlarning yashashi uchun zarur bo‘lgan hayotiy zarur tovar va xizmatlar tarkibini o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy ehtiyojlarni belgilash talabdan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Ya’ni bunda ijtimoiy talabni ajratib olish zarurati vujudga keladi. Ijtimoiy talab kasallik bilan og‘rigan kishilar yoki turli kam ta’minlangan aholi qatlamlarining hayotiy zaruriy tovar va xizmatlarga bo‘lgan talabini o‘zida ifodalaydi.[11]

Ijtimoiy ehtiyojlar jamiyatning ijtimoiy farovonlik darajasidan kelib chiqqan holda belgilanishi zarur. Ijtimoiy ehtiyojlar ijtimoiy ta’minot orqali qondiriladi. Bunda bir oila uchun zarur barcha tovar va xizmatlar tarkibidan eng muhimlarini yetarli darajada, qolgan ikkilamchi tovar va xizmatlar (masalan, internet, kiyim-kechak, televizor va boshqalar) esa mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda minimal tarzda belgilanishi yoki umuman belgilanmasligi mumkin. Umuman olganda ijtimoiy ehtiyojlarni belgilashda asosiy (birlamchi) va ikkilamchi tovar va xizmatlar tarkibini ajratib olish zarurati tug‘iladi.

Ijtimoiy ta’minot tashkilotlari ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish va ijtimoiy muammolarni hal etish jarayonida qatnashishlari zarur. S.R. Mills fikriga ko‘ra, bir kishining ishsiz bo‘lishi uning ish joyiga bo‘lgan ehtiyojini bildiradi.[12] Jamiyatda ishsizlar sonining ortib borishi bevosita mamlakatda ijtimoiy muammolarni vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Ijtimoiy muammolar individual ijtimoiy ehtiyojlardan farqlanadi. Jamiyatda kambag‘allik muammosining vujudga kelishi ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog‘liq bo‘lishidan qat’iy nazar ijtimoiy muammo hisoblanadi. Ijtimoiy muammo mamlakat miqyosida vujudga keladi va makro darajadaga xususiyatga ega bo‘ladi. Ijtimoiy muammolar xalq hayoti uchun xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni o‘zida aks ettiradi. Masalan, OIV/OITS kabi kasalliklar tarqalishi yoki kishidan-kishiga yuqishi inson hayoti uchun xavfli hisoblanganligi sababli ijtimoiy muammolar qatoriga kiradi. Bu esa ijtimoiy ta’minot muassasalari tomonidan ushbu kasallikning oldini olish va kasallangan kishilarni tegishli dori-darmonlar bilan ta’minlashni taqozo etadi.

[11] “Social Policy”. P. 21-22.
[12] “Social Policy”. P. 22.

1.5. Ijtimoiy adolat. Samaradorlik va tanlov

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda jamiyatning turli aholi ijtimoiy guruhlarining bir xil baholanishi ijtimoiy tenglikni anglatadi. Amaliyotda ushbu vaziyat ijtimoiy xizmatlardan foydalanish huquqlari, ijtimoiy qarorlarni qabul qilish jarayonida qatnashish huquqi, ijtimoiy ta'minot muassalari tomonidan beriladigan ijtimoiy transfertlarni (nogironlik nafaqasi, stipendiya, ishsizlik nafaqasi, pensiya va boshqalar) olish kabi huquqlarga egalik qilishda namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy tenglikni jamiyatda amal qilishida ma'lum bir me'yorlarni o‘rnatish zarur bo‘ladi. Neoklassik nazariyaga asosan kishilar o‘z manfaatlarini yuqori qo‘ygan holda ijtimoiy nafaqa olish imkoni bo‘lgan vaziyatda mehnat qilishdan bosh tortishlari va ishsizlik nafaqasi kabi boshqa turdagi nafaqalar olishlari mumkin.[13] Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy ta'minot tizimida va jamiyatda ijtimoiy muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida aholi mintaliteti va madaniyatiga bog‘liq holdir.

Huquq – bu mohiyatan yuridik tushuncha bo‘lib, individual davolarni legitimligini anglatadi. Ijtimoiy siyosatda ushbu tushuncha ijtimoiy transfertlar olish va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish davlat tomonidan qonuniy kafolatlanganligi bilan birgalikda fuqarolarga mazkur huquqlar berilganligida o‘z aksini topadi. Ijtimoiy huquqlarning quyidagi turlari mavjud:[14]

- mehnat (sug‘urta) staji mobaynida ijtimoiy sug‘urta fondlariga to‘langan badallar hisobidan ijtimoiy nafaqa olish huquqi. Ushbu usul amaliyotda yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan usullardan hisoblanadi;
- turli ijtimoiy aholi guruhlarini qo‘llab-quvvatlash. Ushbu huquq yosh bola, nogiron, turli og‘ir kasalliklar bilan og‘rigan kishilar va qarilar parvarishi bilan bandlarga nisbatan qo‘llaniladi. Ushbu xizmatdan foydalanish ko‘p hollarda yosh va jins bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, ta'lim olish, tibbiyot xizmatlaridan foydalanish xizmatlari ham ushbu guruhga kiradi.

Ijtimoiy huquqning predmeti quyidagilardan iborat: bandlikni huquqiy tartibga solish; mehnat va aholi sog‘lig‘ini himoyalash; ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy sug‘urta va pensiya ta'minoti, aholining ayrim guruhlarini ijtimoiy himoyalashni huquqiy tartibga solish, ijtimoiy himoya organlari faoliyatini tartibga solish.

---

[13] "Social Policy". P. 26-27.
[14] "Social Policy". P. 27-29.

Ijtimoiy huquq quyidagi funksiyalarni bajaradi: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, tarbiyaviy.

Ijtimoiy adolat har bir kishining jamiyatdagi o‘zining statusidan kelib chiqqan holda tegishli tarzda farovonlik darajasiga egalik qilishida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy adolat tenglik va huquq doirasida amalga oshirilishi zarur. Bu esa har bir shaxsning tegishli ijtimoiy xizmatlardan foydalanishi mumkinligi yoki ijtimoiy ta’minotdan foydalanish huquqini qo‘lga kiritishida namoyon bo‘ladi. Tenglik, huquq va ijtimoiy adolat ijtimoiy siyosatning asosini tashkil qiladi.[15]

Iqtisodiy tahlil jarayonini amalga oshirishda cheklangan resurslar omilini e’tiborga olish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham hech kim o‘zi istaganlarining bariga egalik qila olmaydi. Defitsit (resurslar cheklanganligi) omili bilan to‘qnash kelinganda kishilar tanlovni amalga oshirishga majbur bo‘ladilar. Bunda kishining xohish-istagidan kelib chiqqan holda u egalik qilishni istagan narsalari o‘rtasida tanlovni amalga oshiradi. Ushbu jarayonda inson mablag‘, vaqt va shunga o‘xshash boshqa omillarni e’tiborga olgan holda tovar yoki xizmatlar tarkibidan qaysi birini ko‘proq yoki kamroq iste’mol qilishini tanlaydi. Iqtisodchilar tanlov jarayonini amalga oshirishda tanlangan tovar yoki xizmatning insonga foydalilik koeffitsiyenti (qaytimi) tanlovini rag‘batlantirishini ta’kidlaydilar.[16]

Iqtisodiyotda samaradorlik muhim ahamiyat kasb etadigan kategoriya sifatida qaraladi. Mamlakatda qancha miqdorda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish kerak bo‘ladi degan savolga javob topishda ularning jamiyatga qay darajada foydaliligini, jumladan uning samarasini e’tiborga olish zarur bo‘ladi. Jamiyat tomonidan ishlab chiqarishga ajratilgan resurslar hajmi va uning (tayyor mahsulot, tovar va xizmatlar) qiymati (narxi) qoniqarli deb baholansa, iqtisodchilar ushbu holatni ishlab chiqarishning samarali darajasi deb belgilaydilar. Ushbu tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga resurslarni yo‘naltirish samarali hisoblanadi.

Samaradorlikni hisoblashda iste’mol afzalligini inobatga olish zarur. Masalan, qorni och odamning birinchi ovqatlanish jarayonini oladigan bo‘lsak. Bunda uning birinchi qoshiqdan oladigan afzalligi yuqori darajada bo‘ladi. Keyingi qoshiqlarda esa kishining qorni to‘ygani sari uning nafliligi mutanosib ravishda kamayib boradi. Ushbu tahlil jarayonini mamlakat miqyosida amalga oshirilganda ma’lum bir tovar

[15] “Social Policy”. P. 30-31.
[16] “Social Policy”. P. 45.

yoki xizmatning iste'molchi uchun qay darajada afzalligini hisoblash kerak bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda ushbu jarayon iqtisodchi olim Engel tomonidan “Chekli naflilikning kamayib borish” qonunida o‘z ifodasini topgan.[17]

Tanlov iqtisodchilar tomonidan hal etuvchi omil sifatida qaraladigan mexanizm hisoblanadi. tanlovni amalga oshirish orqali insonlar tovar yoki xizmatga baho beradilar. Tovar yoki xizmatga berilgan baho orqali ularni qay darajada ishlab chiqarilishi aniqlab olinadi. Tanlov ko‘p hollarda raqobat bilan bog‘liq bo‘ladi, raqobat esa iste'molchilarning tanlovni amalga oshirishiga o‘z ta'sirini ko‘rsatuvchi omil hisoblanadi. Oila keng yoki tor darajada jamiyatdagi resurslarni avlodlar, jumladan erkaklar va ayollar o‘rtasidagi taqsimot tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

Glossariy

O‘zbekcha	Ruscha	Inglizcha	Izoh
Aktiv ijtimoiy siyosat	Активная социальная политика	Active social policy	mamlakatda ishlab chiqarishni rag‘batlantirish mexanizmi orqali amalga oshirilib, aholining aksariyat qismining daromadlarini oshirish imkoniyatini ta'minlaydi va mustaqil yashash uchun tegishli sharoitlar yaratish.
Birdamlik tamoyili	Принцип солидарности	Principle of Solidarity	ijtimoiy yordam miqdorini to‘lanayotgan soliqlar va sug‘urta badallarini hisobga olmagan holda mavjud ehtiyojga mos holda taqsimlanishi.
Ijtimoiy adolat	Социальная спарведливость	Social justice	jamiyatni moddiy va ma'naviy rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda aholi, kishilar, sinflar va ijtimoiy qatlamlarni turmush darajasidagi tenglik mezoni.
Ijtimoiy yordam nafaqalari	Пособии социальной помощи	Social assistance benefits	Ijtimoiy yordam nafaqalari umumiy soliq tushumlaridan moliyalashtiriladi va yordamga muhtoj kishilarga ularning daromadini yoki moddiy ahvolini baholash asosida kam ta'minlanganlik nafaqasi shaklida to‘lanadi.
Ijtimoiy yordam tizimi	Система социальной помощи	Social safety net	Ijtimoiy yordam tizimi tor ma'noda kambag‘allikka qarshi kurash maqsadida to‘lanadigan pulli nafaqalar tizimidir. Keng ma'noda esa, kam ta'minlanganlarga yo‘naltirilgan barcha turdagi ijtimoiy harajatlarni qamrab oladi.

[17] “Social Policy”. P. 41-46.

Ijtimoiy javobgarlik	Социальная ответственность	Social responsi-bility	Ijtimoiy javobgarlik shaxs, ijtimoiy guruh va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi me’yoriy xujjatlardan kelib chiqadigan, ularni o‘zaro anglangan burch va majburiyatlarini bajarishga bo‘lgan munosabati.
Ijtimoiy ish	Социальная работа	Social work	O‘zi-o‘ziga g‘amxo‘rlik qila olmaydigan, harakati cheklangan insonlarni va oilalarni, jumladan, kasalmand qariyalarni, nogironlarni va ruhiy kasallanganlarni o‘ziga xos ravishda parvarish qilishdir.
Ijtimoiy kafolatlar	Социальные гаратии	Social guarantees	jamiyatning har bir a’zosini muhim ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklarini amalga oshirishni ta’minlaydigan ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy kafolatlari majmuasi.
Ijtimoiy siyosat	Социальная политика	Social policy	davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni, iqtisodiyot qatnashchilari o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo‘naltirilgan siyosat.
Ijtimoiy siyosat metodlari	Методы социальной политики	Methods of social policy	Ma’lumotlarni jamlash, tahlil etish, miqdor tahlili, sifat tahlili, aralash tahlili, ko‘p ukladli metod, iyerarxik metod.
Ijtimoiy siyosatning egalitar modeli	Эгалитарный модел социальной политики	Egalitarian model of social policy	Ushbu modelda minimal ish haqi, ishsizlik sharoitida ishsizlarni ijtimoiy sug‘urtalash, mehnat qobiliyatini yo‘qotgan va aholining nochor qatlamlarini ijtimoiy ta’minlash to‘g‘risidagi qonunlarning qabul qilinishi daromadlar va iste’molni teng taqsimlashga olib keladi va progressiv soliq tizimi amal qiladi.
Ijtimoiy sug‘urta	Социальное страхование	Social insurance	Pensiyaga chiqish va ishsizlik bilan bog‘liq ish haqini yo‘qotishlarni vaqtinchalik qoplash. Majburiy badallar asosida davlat tomonidan tashkil etiladigan pulli nafaqalar tizimidir. Ushbu nafaqalarning turlariga quyidagilar kiradi: ishsizlik nafaqasi, mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi, xomiladorlik va farzand ko‘rganlik uchun nafaqalar, yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo‘qotganlik uchun pensiyalar.
Ijtimoiy ta’minot	Социальное обеспечение	Social welfare	Ijtimoiy ishlab chiqarishga qo‘shgan hissasidan qat’iy nazar vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik, ishsizlik, ayollar va bolalarga, keksalarga nafaqalar to‘lashning davlat tizimi

Ijtimoiy xizmatlar	Социальные услуги	Social services	Inson kapitali rivojlanishini investitsiyalash, ya’ni shaxsning takror ishlab chiqarish, ma’naviy salohiyatini tiklash va kengaytirishga qaratilgan investitsiyalarni amalga oshirish.
Ijtimoiy hamkorlik	Социальное сотрудничество	Social cooperation	- turli fikr va qarashlarga ega bo‘lgan, turli millat, irq va dinga mansub shaxs va guruhlarning umumiy maqsad yo‘lidagi hamjihatligi.
Ijtimoiy himoya	Социальная защита	Social security	Keng ma’noda, aholining barcha qatlamlariga nisbatan qo‘llaniladigan ijtimoiy xatar (risk) yuz berganda moddiy va boshqa ijtimoiy yordam ko‘rsatishga qaratilgan chora-tadbirlar yig‘indisidan iborat. Tor ma’noda aholini ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni ko‘zda tutadi.
Ijtimoiy himoya tizimi	Система социальной защити	System of social security	Mehnat qobiliyatini yo‘qotib o‘zi tirikchilik vositalarini ishlab topa olmaydigan yoki qaramog‘ida bolalar, boqimandalarga ega bo‘lgan shaxslarga nafaqa berish tizimi.
Ijtimoiy huquqlar	Социальные права	Social rights	insonning ijtimoiy ta’minot, ta’lim olish, kasb tanlash, sog‘liqni saqlash, tibbiy yordam olish va boshqa turdagi ijtimoiy himoya olishga bo‘lgan konstitutsion huquqi
Ijtimoiy ehtiyojlar	Социальные потребности	Social needs	Ijtimoiy xulq-atvor ma’lum bir jihatlariga bog‘liq ehtiyojlar, jumladan do‘stlik, hamfikrlikka bo‘lgan ehtiyoj.
Liberal ijtimoiy siyosat modeli	Либеральная модел социальной политики	Liberal model of social policy	jamiyatning har bir a’zosi o‘zi va oilasi taqdiri uchun shaxsan o‘zi mas’ul. Davlat institutlarining ijtimoiy siyosatga aralashuvi minimallashtirishni ko‘zda tutuvchi model. Afzalligi jamiyat a’zolarining qobiliyatlarini ochib berishga yo‘naltirilgan. Kamchiligi iqtisodiy jihatdan boy va kambag‘al aholi iste’moli darajasidagi keskin tabaqalashuvning mavjudligi.
Passiv ijtimoiy siyosat	Пассивная социальная политика	Passive social policy	davlat fuqarolarning ayrim kategoriyalariga nisbatan chora-tadbirlarni (yordam, qo‘llab-quvvatlash, rivojlantirish) amalga oshiradi. Uning uchun xos xususiyatlar selektivlik, samarasizlik, vaqtinchalik yordam ko‘rsatishdan iborat
Subsidarlik tamoyili	Принцип субсидарности	Principle of subsidiary	ijtimoiy yordam miqdorini to‘lanayotgan soliqlar va sug‘urta badallarini hisobga olgan holda mavjud ehtiyojga mos holda taqsimlanishi.

Nazorat savollari:

1. Ijtimoiy siyosat tushunchasini tavsiflang va uni keng, tor ma’nodagi tavsiflari farqlarini tushuntirib bering?
2. Ijtimoiy siyosat qanday mezonlarga asosan guruhlanadi va uning vazifalarini aniqlang?
3. Ijtimoiy siyosatni shakllanishi va rivojlanishining bosqichlarini sharhlab bering?
4. Ijtimoiy siyosatning nazariy asoslarini vujudga kelishi va rivojlanishi bosqichlarini tushuntirib bering?
5. Ijtimoiy siyosatning tarkibi va tamoyillarini sharhlab bering?
6. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirish shakllari va dastaklarini tushuntirib bering?
7. Ijtimoiy davlat uchun qanday xususiyatlar xos va unga nisbatan bo‘lgan iqtisodiy qarashlar evolyutsiyasini sharhlab bering?
8. Ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish metodlarini tahlil qilib bering?
9. Ijtimoiy ehtiyojlarni mazmuni, turlari, tarkibi va ijtimoiy ta’minotni tashkil etish tamoyillarini aytib bering?
10. Ijtimoiy adolat tamoyillari va ularni amalga oshirish holatini baholang?
11. Ijtimoiy adolat va samaradorlik nisbati muammolarini tushuntirib bering?

Testlar:

1. Ijtimoiy siyosatninig tor ma’nodagi ta’rifi:

a) davlatning ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami va guruhlarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi chora-tadbirlar tizimi;
b) davlat, jamoat tashkilotlari va xayriya fondlarining aholi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan va ijtimoiy soha orqali amalga oshiriladigan faoliyati;
c) davlatning jamiyatni boshqarish borasida amalga oshiradigan faoliyati;
d) ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish chora-tadbirlari.

2. Ijtimoiy siyosatninig keng ma’nodagi ta’rifi:

a) Jamiyatning barcha a’zolarini ijtimoiy rivojlanishi uchun normal yashash va qulay imkoniyatlar yaratishga qaratilgan davlat chora-tadbirlari yig‘indisi;

b) davlat, jamoat tashkilotlari, xayriya fondlarining aholi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan va ijtimoiy soha orqali amalga oshiriladigan faoliyatidir;
c) davlatning jamiyatni boshqarish borasida amalga oshiradigan faoliyati.
d) ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish chora-tadbirlari.

3. Quyidagilardan qaysi biri ijtimoiy siyosat sub'ekti hisoblanadi?

a) pensiya;
b) bolalar uyi;
c) davlat;
d) ish haqi;
e) nafaqa.

4. Kambag'allikka qarshi kurashishning quyidagi yo'nalishlaridan qaysi biri samaraliroq ?

a) mehnat resurslari sifatini oshirish;
b) mehnat bozorini rivojlantirish va aholining samarali bandligini ta'minlash, mulkchilikning barcha shaklidagi korxonalarda ish o'rinlarini yaratishni rag'batlantirish;
c) kambag'allikni monitoring qilish tizimini va bartaraf etish mexanizmlarini yaratish.
d) ijtimoiy nafaqalarni kengaytirish.

5. Ijtimoiy siyosatning asosiy mezoni nima?

a) umr davomiyligi;
b) ish haqi miqdori;
c) kishi boshiga to'g'ri keladigan turar joy maydoni;
d) pensiya miqdori.

6. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti quyidagilardan qaysi birini talab qiladi?

a) ustuvor raqobatni;
b) ijtimoiy yordamni;
c) xayriyalar stavkasini.
d) minimal ijtimoiy standartlarni ta'minlashni.

7. Ijtimoiy siyosatning qaysi tamoyili aholining ijtimoiy holatidan kelib chiqadigan cheklovlar o'rnini qoplash maqsadida ularning ijtimoiy xavfsizligini ta'minlash uchun mo'ljallangan?

a) Ijtimoiy birdamlik tamoyili;
b) Ijtimoiy kompensatsiya tamoyili;
c) Ijtimoiy subsidiya tamoyili;

d) Ijtimoiy kafolatlar tamoyili.

8. Ijtimoiy siyosatning qaysi modelida ijtimoiy to‘lovlar kechiktirilgan daromad shaklida qabul qilinadi;

a) Ijtimoiy-demokratik;
b) Liberal;
c) Konservativ;
d) Katolik.

9. Quyidagi mulohazalardan qaysi biri to‘g‘ri?

a) Ijtimoiy siyosatning liberal modeli amal qiladigan mamlakatlarda ijtimoiy ta’minotning asosiy tamoyili – universallik;

b) Konservativ model amal qiladigan mamlakatlarda ijtimoiy siyosat barqaror narxlar darajasini ta’minlash orqali amalga oshiriladi;

c) Katolik modelining bosh tamoyili yaqinlarning bir-biriga yordam berishidir;

d) Liberal model ijtimoiy ta’minotni qoldiq tamoyil bo‘yicha amalga oshiradi.

10.Ijtimoiy siyosat natijasida hukm o‘tkazuvchi va bo‘ysunuvchi guruhlarning tinch ijtimoiy hamjihatligiga erishiladi; Gap qanday jamiyat haqida bormoqda?

a) ijtimoiy barqaror jamiyat;
b) tizimli inqirozdagi jamiyat;
c) deformatsiya holatidagi jamiyat;
d) o‘tish davridagi jamiyat.

11. Passiv ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning iqtisodiy dastaklari ...

a) ruxsat berish va man etishga qaratilgan chora-tadbirlar (kvota va litsenziyalar berish, man etish va boshqalar);

b) baholar, tariflar, ish haqi, stipendiyalar, nafaqalar va barcha ijtimoiy to‘lovlarni to‘lash;

c) amal qilayotgan qonuniy va normativ aktlar tarkibini tartibga solish;

d) ma’naviy etik tushuncha va jamiyat normalarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar.

II bob. IJTIMOIY SIYOSATNING NAZARIY ASOSLARI

2.1. Ijtimoiy siyosat tushunchasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.

2.2. Ijtimoiy siyosat tamoyillari va uning rivojlanishida neoliberal ilmiy maktabning o‘rni.

2.3. O‘ng partiyalarning ijtimoiy siyosat to‘g‘risidagi qarashlarining o‘zgarishi.

2.4. Ijtimoiy siyosat va so‘l partiyalarning ijtimoiy siyosat sohasidagi yondashuvlari.

2.5. XXI asr arafasida ijtimoiy siyosatga bag‘ishlangan feministik, yashillar va post modernizatsiyalash yondashuvlarining rivojlanishi.

2.1. Ijtimoiy siyosat tushunchasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari

Ijtimoiy siyosat jamiyatni birlashtirish, unda vujudga kelayotgan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan davlatning maqsadli dasturlar doirasidagi faoliyatini anglatadi. Qadimgi davrlarda olimlar jamiyatda turli ijtimoiy muammolarning vujudga kelishi jamiyat tarkibi, undagi tengsizlik, davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlardagi nomutanosibliklarning mavjudligi bilan bog‘langanlar. Masalan, Daos maktabi vakillari (Xitoy) tomonidan yozilgan “Mo-tszi” nomli asarda yoshlarga ta’lim-tarbiya berish, davlatning samarali boshqarish yo‘llarini tavsiflash, turmush kechirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kabi fikrlar ilgari surilgan. Hindlarning “Maxabxorat” asariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mazkur asarda hukmdorlarning jamiyat hayotini tartibga solish asosida uning barcha vakillari uchun farovon hayotni ta’minlanishi aytib o‘tilgan. Ushbu holat ijtimoiy siyosat tushunchasining shakllanishi uzoq qadimgi davrlarga borib taqalishidan dalolat beradi.

Antik davrga kelib ijtimoiy siyosat borasidagi tadqiqotlarga yanada aniqlik kirituvchi fikrlar yuzaga kela boshladi. Masalan, Platonning “Davlat va qonunlar”, Aristotelning “Siyosat” nomli asarlarida ijtimoiy siyosat tushunchasining shakllanishi jarayonini ko‘rishimiz mumkin. Aristotelning fikriga ko‘ra, davlat baxtli yashash maqsadida tashkil topadi. Jamiyat barqarorligi va uning farovonligini ta’minlashga erishish uchun aholini yetarli darajada iste’mol tovarlari va xizmatlari bilan

ta’minlash zarur bo‘ladi, jumladan, aholi ijtimoiy tarkibida o‘rta qatlamni rivojlantirish zarur hisoblanadi.

Keyingi davrlarda davlatning o‘z fuqarolari oldidagi majburiyatlarini o‘rganish, ijtimoiy adolatlilik va tenglikni ta’minlashga qaratilgan izlanishlar olib borildi. V. Fon Gumbolt xalq farovonligini, xavfsizligini, erkinligini va har bir insonning haq – huquqini ta’minlashda davlatning huquqiy funksiyalarini tadqiq etadi. Mamlakatda aholi farovonligini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy siyosat konsepsiyasining rivojlanishi I. Fixtening “Yopiq savdo davlati” asarida o‘z aksini topgan.[18]

Ijtimoiy siyosatning shakllanishining amaliy jihatlari XVIII asrning oxirlarida Yevropada davlat boshqaruvining ma’muriy tizimining salbiy jihatlari orqali namoyon bo‘la boshladi. Ushbu davr uchun institutsional yordam tizimi, huquqiy bazani shakllanishi, ma’muriy boshqaruv, ma’lum darajada ijtimoiy himoyaning davlat tomonidan moliyalashtirilishi kabi xususiyatlar xos hisoblanadi. Ushbu bosqichning o‘ziga xos jihati davlatning ijtimoiy siyosatni olib borishdagi javobgarlikni, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishida namoyon bo‘ladi. Bunda ijtimoiy siyosat jamiyatning barcha a’zolariga nisbatan yo‘naltirilgan bo‘lib, konsolidatsiyalashgan jamiyatni yaratilishi va avvalgi kapitalizm tizimining salbiy jihatlari, oqibatlarini yumshatishga qaratilgan bo‘lgan.

Ushbu davrda ijtimoiy siyosat fani terminologiyasiga “ijtimoiy sug‘urta” va “o‘zaro yordam” tushunchalari kirib keldi. Ijtimoiy sug‘urta g‘oyasi individual risklarni qisqartirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy mexanizm hisoblangan. Bunda gildiya va ishlab chiqarish sexlarida umumiy g‘aznalar (kassa) tashkil etilib, mazkur g‘aznada jamlangan pul mablag‘laridan xodimlar tarkibidagi yetimlar va kambag‘allarga ijtimoiy yordam ko‘rsatilgan. [19]

XIX asrning o‘rtalariga kelib, ishlab chiqarish kuchlarining jadal rivojlanishi ijtimoiy siyosatni yanada takomillashtirishni talab etdi. Bunda konsolidatsiyalashgan jamiyatni tashkil etishda davlatning aralashuvi zarurligi belgilab berildi. 1850-yilga kelib iqtisodchi olim L. Shteyn tomonidan “ijtimoiy davlat” g‘oyasi ilgari surildi. Bunday davlatning maqsadi umumjamiyat farovonligini ta’minlashga qaratilgan hisoblanadi.

---

[18] Social policy. P. 57-63
[19] Social policy. P. 57-83

XIX asrda sanoat va qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan islohotlarga asoslangan holda Yevropada ijtimoiy jarayonlar rivojlana bordi. Kapitalistik tizim rivoji va sanoat inqilobi natijasida jamiyatda aholi tabaqalanishi jarayoni vujudga keldi. Migratsiya, urbanizatsiya kabi demografik jarayonlar kuchayib bordi. Ishsizlar soni orta borishi oqibatida 1834 yilga kelib Angliyada kambag‘allar to‘g‘risida qonun qabul qilindi. Ushbu qonunga ko‘ra ishsizlar va nochorlarga mahalliy tushumlardan nafaqalar to‘lash ishlari amalga oshirilishi zarur deb belgilangan. Ushbu holat ijtimoiy siyosat fani tarixidagi jiddiy yutuq hisoblanadi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib nemis iqtisodchi olimlari tomonidan ijtimoiy siyosatning nazariy konseptual asoslari o‘rganila boshlandi. Nemis olimlari ushbu davrning so‘nggi choragida “ijtimoiy siyosatni o‘rganish to‘garagi”ni tashkil etish orqali kapitalizm tizimi amal qilishi doirasida ijtimoiy muammolar mavjudligini aniqlab, ularni hal etishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiflar ishlab chiqdilar. V. Zombart XIX asr oxirlaridagi ijtimoiy muammolarning nazariy jihatlarini tadqiq etib, bir xil va turli ijtimoiy muammolarni o‘rganib, “ijtimoiy siyosat” tushunchasini iqtisodiy aylanmaga kiritish zarurligini ta’kidlaydi.[20]

Shunday qilib, XIX asr Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy siyosatning rivojlanishi va aholi farovonligini ta’minlashga qaratilgan asr bo‘ldi. 1890 yilda Germaniya imperatori Vilgelm II tomonidan mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida konferensiya o‘tkazildi (1980-yil mart, Berlin) va ushbu anjumanda Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya, Avstro-Vengriya, Shveysariya, Ispaniya va Portugaliya kabi mamlakatlar vakillari qatnashdilar. Ushbu konferensiyada 12 yosh, janub mamlakatlarida esa 10 yoshgacha bo‘lgan bolalarga ishlashni taqiqlash, 14 yoshgacha bo‘lgan bolalarga 6 soat, 14–16 yoshgacha bolalarga 10 soatlik ish kuni joriy etish taklif qilindi. Ularga boshlang‘ich ta’lim berish zarurligi taklifi olg‘a surildi. Bundan tashqari ayollarga nisbatan 11 soatdan ortiq ish vaqti belgilanmasligi va ularga bola tug‘ilgandan so‘ng oylik mehnat ta’tili berilishi belgilandi. Shu bilan bir qatorda, yosh bolalar va ayollarga 6 kunlik ish kuni belgilanib, tungi vaqtda ishlamasliklari belgilab qo‘yildi. Erkaklarga esa yakshanba kuni dam olish kuni deb e’lon qilish tavsiya etildi. 1900 yilga kelib Parijda “Mehnatni muhofaza qilish ittifoqi” tashkil etildi. Birinchi

[20] Зомбарт В. Идеалы социальной политики / пер. с нем. СПБ. 1906. С. 61

jahon urushidan so‘ng 1919-yilda Xalqaro mehnat tashkiloti faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Keyingi davrda ijtimoy siyosat muammolari “ijtimoiy davlat” tasavvuri bilan birgalikda tadqiq etila boshlandi. Ijtimoiy siyosatning mazmuni, maqsadi, vazifalari va yo‘nalishlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar tahlili quyidagi xulosalar qilish imkonini beradi: birinchidan, “ijtimoiy siyosat” jamiyat miqyosidagi muammolarni hal etishga qaratilgan harakatlar majmuidan iborat. Ikkinchidan, “ijtimoiy siyosat” tushunchasi ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan mehnatkashlar ahvolini, mehnat va ijtimoiy qonunchilikni takomillashtirish, ijtimoiy sug‘urta tizimini yaratishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi. Uchinchidan, ijtimoiy siyosatning ob’ekti jamiyatning kambag‘al, mehnat qobiliyatiga ega bo‘lmagan jamiyat ijtimoiy qatlamidan iborat. To‘rtinchidan, ijtimoiy siyosat bozor tizimining salbiy oqibatlarini to‘g‘rilash va daromadlarni taqsimlash jarayonlarini tartibga solish vositasi deb qaraladi. Beshinchidan, ijtimoiy siyosat aholi, ijtimoiy guruhlar, qatlamlar turlarining farovonligini tartibga soluvchi faoliyat deb qaraladi.

Ijtimoiy siyosat – ko‘pqirrali jarayon va tarkibiy jihatdan murakkab holat hisoblanadi. Milliy iqtisodiyot holati bilan ijtimoiy siyosat o‘zaro bog‘liq bo‘lib, uni mamlakat va mintaqa darajasida ustuvorliklarini belgilashda e’tiborga olish kerak.

Ijtimoiy siyosat “ijtimoiy bozor iqtisodiyoti” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqdir. “Ijtimoiy bozor iqtisodiyoti” asosini bozor iqtisodiyoti tashkil etadi. Bozor iqtisodiyoti maqsadi va vazifasi ishlab chiqarish samaradorligi va foydani ko‘paytirish hisoblanib, asosini raqobat kurashi tashkil etadi.

Ijtimoiy adolat, ijtimoiy himoya davlatning iqtisodiyotga aralashuvi orqali ta’minlanadi. Davlat aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida iqtisodiy samaradorlikka jiddiy e’tibor bermaydi. Jumladan, svetoforlarni ovozli signalizatsiya bilan, jamoat transportlarini (avtobuslarni) nogironlar uchun ko‘tarma moslamalar bilan qurollantirish shular jumlasidandir.

Ijtimoiy siyosatning vazifalari quyidagilardan iborat:

- jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va ijtimoiy xavfsizligini ta’minlash;
- jamiyatning siyosiy barqarorligini ta’minlash;
- mamlakatda mulkni adolatli taqsimlanishini ta’minlash;
- jamiyatda iqtisodiy resurslar va iqtisodiy samaradorlikni to‘g‘ri taqsimlash;

- jamiyat va davlat tomonidan ekologik xavfsizlikning zarur va yetarli darajasini ta’minlash;
- jamiyat va davlat tomonidan aholi, jumladan, uning ayrim ijtimoiy qatlamlarining ijtimoiy himoyasini zarur va yetarli darajada ta’minlashi lozim.

Ijtimoiy siyosatning ob’ekti va predmeti ko‘pdarajali va tizimli hisoblanadi. ijtimoiy siyosatning ob’ektlariga tor ma’noda sinflar va ijtimoiy guruhlar millat va elatlarning ayrim oila, insonning jamiyatdagi o‘rni va aholi farovonligining hamma jihatlari kiradi. Ijtimoiy siyosat ob’ektlariga keng ma’noda quyidagilar kiradi:

- ijtimoiy soha tarmoqlari (ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport, turizm, uy-joy kommunal sektor va boshqalar);
- mehnat bozori bandlik, ishsizlik;
- ijtimoiy hamkorlik;
- ijtimoiy himoya;
- mehnatga haq to‘lash va muhofaza qilish;
- ijtimoiy sug‘urta;
- pensiya tizimi va boshqalar.

Davlat ijtimoiy siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda uch tomon: hukumat, jamiyat va aholi qatnashadi. Ijtimoiy siyosat sub’ektlari quyidagilardan iborat:

- davlat idoralari va tashkilotlari;
- mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari;
- byudjetdan tashqari jamg‘armalar;
- jamoat, diniy, xayriya tashkilotlari;
- nodavlat birlashmalari;
- tijorat tashkilotlari va biznes;
- ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish bilan shug‘ullanuvchi kasb egalari;
- fuqarolar.

Mustaqillikka qadar ijtimoiy siyosatning asosiy sub’ekti davlat va uning mutasaddi organlari hisoblangan bo‘lsa, bozor munosabatlariga o‘tish va jamiyatning demokratlashuvi sharoitida nodavlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining ijtimoiy institutlari real ijtimoiy siyosat sub’ektlariga aylanmoqdalar. Yuqorida qayd etilgan mustaqil ijtimoiy siyosat sub’ektlarining mavjudlari mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatni egiluvchanligi va samaradorligini oshiradi va aholiga

ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar turlarini ko‘paytiradi va o‘zaro to‘ldiradi.

Ijtimoiy siyosatning asosiy qadriyatlari aholi turmush sifatini yaxshilash va insonni o‘sib borayotgan hayotiy zarur ehtiyojlarni qondirish, siyosiy tizimning muvozanati, barqarorligi va rivojlanishini ta’minlash, mamlakatdagi moddiy va ma’naviy resurslardan foydalangan holda jamiyatda ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlash uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Ijtimoiy siyosatning muhim vazifasi jamiyatda ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlash va fuqarolikning hamma qatlamlari ijtimoiy imkoniyatlari tengligini amalga oshirishdan iborat.

Ijtimoiy xavfsizlik – ijtimoiy tizimning amal qilishi, takror ishlab chiqarish va rivojlantirishning optimal darajasiga erishish holatini ta’minlaydigan davlat va jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, g‘oyaviy, tashkiliy va ijtimoiy-psixologik chora-tadbirlar yig‘indisidan iborat.

Xavfsizlik quyidagilarni ko‘zda tutadi: ijtimoiy tizim mavjudligi va amal qilishi uchun xavf-xatarning yo‘qligi, yetarli zahiraga ega bo‘lgan holda xavf-xatarga barqarorlik; xavfni inkor etish, yo‘qotish va bartaraf etish uchun kuch, ko‘nikma va vositalarga ega bo‘lish; ijtimoiy xavfsizlik jamiyatning maqsadi va rivojlanish yo‘nalishi, ijtimoiy tarkibning hamma elementlarini o‘zaro aloqalarida, insonparvarlik va uyg‘unlikni ta’minlashga yo‘naltirilishi lozim.

Ijtimoiy xavfsizlikning sub’ektlari – bu mamlakat fuqarolari, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud organlari, o‘zini-o‘zi boshqarish mahalliy organlari ko‘rinishidagi davlat, partiyalar va boshqa jamoat tashkilotlaridan iborat.

Ijtimoiy xavfsizlik ob’ektlari esa davlat va jamiyat ijtimoiy siyosatni yurituvchi institutlar tizimi, jamiyatdagi mulk shakllari va ular asosida shakllangan ijtimoiy tarkib – aholi qatlamlari, guruhlari, ijtimoiy birikmalari va ular o‘rtasidagi munosabatlar, shaxslar, shaxslarni huquq va erkinliklari, ularning sog‘ligi va hayoti, ijtimoiy manfaatlaridan iborat.

Ijtimoiy xavfsizlikka xavf tug‘dirayotgan xatarlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

- davlat va siyosiy yetakchilar, hukumat institutlari siyosatida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar va xatolar tufayli vujudga keladigan xatarlar;
- markaz va mintaqalar manfaatlari o‘rtasidagi nifoqlar, millatga tegishli shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy huquqlarining

buzilishi tufayli vujudga keladigan millatlararo, dinlararo va turli etnik aholi qatlamlari o‘rtasidagi muammolar;

- siyosiy ekstrimizm va terrorizm bilan bog‘liq xavf-xatarlar;
- shaxsning qonuniy huquq, erkinlik va manfaatlarining buzilishi bilan bog‘liq xavf-xatarlar;
- sog‘liqni saqlash va tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimining yomonlashuvi, ekologik muhitning buzilishi bilan bog‘liq xavf-xatarlar;
- mamlakatdagi, ayrim mintaqa, etnosdagi demografik vaziyatni miqdor va sifat jihatdan yomonlashuvi bilan bog‘liq xavf-xatarlar.

2.2. Ijtimoiy siyosat tamoyillari va uning rivojlanishida neoliberal ilmiy maktabning o‘rni

Ijtimoiy siyosat tushunchasi uzoq yillar mobaynida shakllanib kelgan bo‘lib, so‘nggi o‘n yillik mobaynida tadqiqotchilar tomonidan ijtimoiy davlat tushunchasi umumjamiyat farovonligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi zarurligi asoslandi.

Ijtimoiy davlat – bu insonning erkin rivojlanishi va uning yashashi uchun munosib turmush sharoiti yaratilgan davlat hisoblanadi.[21]

Ijtimoiy davlatning quyidagi xususiyatlari mavjud:

- barcha jamiyat a’zolarining ijtimoiy himoya tizimidan foydalanish imkoniyatining mavjudligi;
- ijtimoiy jarayonlarni boshqarishda fuqarolar haq-huquqlarining asoslanganligi va ta’minlanganligi;
- ijtimoiy xarajatlarning byudjet tomonidan qoplanishi;
- mamlakatda ijtimoiy himoya, ijtimoiy sug‘urta va bandlikni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning mavjudligi;
- aholi farovonligining ta’minlanishi uchun davlatning javobgarligi;
- davlat tomonidan fuqarolik jamiyati rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi.

Davlat ijtimoiy siyosatining muhim tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy adolat – mehnat va uning natijalari taqsimotini kordinatsiyalash, qonunchilikka muvofiq mehnat va ijtimoiy jarayonlarni tartibga solish;;
- individual ijtimoiy javobgarlik – shaxs, oila, kichik guruhlarning o‘z-o‘ziga yordam berishi va ta’minlashi ;

[21] Social policy. P. 57-63

- ijtimoiy birdamlik – ijtimoiy kuchlilardan kuchsizlarga qayta taqsimlash;

- ijtimoiy kafolatlar – fuqaroarga kafolatlangan ta’lim olish, tarbiyalanish, ma’naviy va jismoniy rivojlanish, kasbiy tayyorgarlik va ishga joylashtirish;

- har bir shaxsning zarur ijtimoiy ne’mat va xizmatlarni olishdagi teng imkoniyatlari;

- ijtimoiy hamkorlik – olingan majburiyatni boshqarish uchun teng huquqlilik, majburiyat va teng javobgarlik;

- davlat tomonidan asosiy hayotiy zarur moddiy ne’matlar va xizmatlarni (minimal ish haqi, pensiyalar, minimal iste’mol byudjeti) minimal ijtimoiy standartlar darajasida olishni kafolatlash;

- ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash – ijtimoiy siyosat doirasidagi tadbirlarni moliyalashtirishda davlat idoralari va tashkilotlariga nisbatan jamoat tashkilotlari tashabbusiga ustuvorlik berish.

Ijtimoiy siyosatning rivojlanishi qonuniyatlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, ijtimoiy siyosatning ob’ektiv zarurligi va uni amalga oshirish infratuzilmasining mavjudligi;

Ikkinchidan, o‘z ijtimoiy xavfsizligini ta’minlash uchun shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi;

Uchinchidan, ijtimoiy siyosat darajasini uni amalga oshirishning real imkoniyati bilan qiyosiy taqqoslash.

O‘zbekistonda 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Xarakatlar strategiyasida ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning o‘rta muddatlarga mo‘ljallangan maqsadlari belgilangan:

- aholining bandligi va real daromadlarini bosqichma-bosqich oshirish;
- aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimlarini takomillashtirish;
- arzon uy-joylar qurish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta’minlovchi yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiya qilish;
- ta’lim va fan sohasini rivojlantirish – uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli ta’lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash;

• yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish – jismonan sog‘lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat’iy, hayotiy nuqtai-nazarga ega, vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish.

Jumladan, o‘rta muddatga mo‘ljallangan ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda 2018-yilda salmoqli natijalarga erishildi. 2018-yilda aholining real umumiy daromadlari 2017-yilga nisbatan 12 foiz oshdi. “Har bir oila tadbirkor”, “Yoshlar – kelajagimiz” davlat maqsadli dasturlari doirasida 2 trln. so‘m mablag‘ ajratilib, joylarda 2 600 dan ortiq biznes loyihalari amalga oshirildi. “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida qurilish va obodonlashtirish ishlariga 3 trln. so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. 416 qishloq yangicha qiyofaga ega bo‘ldi.[22]

Iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy siyosat, ijtimoiy himoya tizimi o‘zaro uzviy bog‘liq tushunchalar bo‘lib, ularni bir-biridan ajratgan holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. 2019-yil – “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur:

Birinchidan, aholi o‘rtasida ishsizlikni kamaytirish, aholi va oilalar daromadini oshirish lozim.

Ikkinchidan, pensiya va nafaqalarni tayinlash va to‘lash tartibini qayta ko‘rib chiqish, pensiya tizimini tubdan isloh qilish zarur.

Uchinchidan, ilm-fan, zamonaviy va uzluksiz ta’im tizimini yanada takomillashtirish zarur. Rivojlangan mamlakatlarda ta’limning to‘liq shakliga investitsiya kiritishga, ya’ni bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflash jamiyatga 15–17 barobar miqdorda foyda keltiradi. O‘zbekistonda ushbu ko‘rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. 2019-yilda bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini hozirgi 34 foizdan 44 foizga yetkaziladi. Bitiruvchilarni oliy ta’lim bilan qamrab olish ko‘rsatkichini 15 foizdan 2019-yilda 20 foizga yetkazish va pirovardda 60–70 foizga yetkazish rejalashtirilmoqda. Oliy o‘quv yurtlari nufuzini oshirish, nodavlat ta’lim muassasalari sonini ko‘paytirib, sohaga yuqori malakali kadrlarni jalb etish va raqobatni kuchaytirish lozim. Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy salohiyatni yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash ko‘lamini kengaytirish zarur.

---

[22] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони

To‘rtinchidan, xalqimiz genofondini mustahkamlash maqsadida tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash va ko‘lamini kengaytirish lozim.

Beshinchidan, xotin-qizlar va yoshlarni davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish lozim.

Oltinchidan, aholi turmush shaproitini yaxshilash, ularni munosib turar-joy bilan ta’minlash, xalqimiz farovonligini oshirish va turmush sifatini yaxshilash lozim.

Yettinchidan, jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish muhim ahamiyatga ega.

Sakkizinchidan, turizmni rivojlantirish, sohaga investitsiyalar jalb etish, kadrlar salohiyatini oshirish lozim.[23]

XX asrning 70-yillarida Tomas Marshall, Kosta Espis-Anderson, Timoti Tilton, Norman Fernis kabi yetakchi iqtisodchi olimlar tomonidan “Farovonlik davlati” tushunchasi iqtisodiy fanga kiritildi va uning quyidagi turlari ajratib ko‘rsatildi:[24]

Birinchi – “Pozitiv ijtimoiy himoya davlati”. Bunda barcha fuqarolarning farovonligini ta’minlash imkoniyatlari davlat tomonidan boshqariladi va barcha uchun “teng imkoniyatlar” davlat tomonidan kafolatlanadi. Bunday tizim AQShda amal qilmoqda.

Ikkinchi – “Ijtimoiy xavfsiz davlat”. Bunda to‘liq bandlikni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi va fuqarolar oladigan maoshlari hajmi yashash minimumi miqdorlaridan yuqori bo‘lishi davlat tomonidan kafolatlanadi. Buyuk Britaniyada ushbu turdagi ijtimoiy tizim amal qilmoqda.

Uchinchi – “Umumxalq farovonligi davlati”. Mamlakatda to‘liq bandlik ta’minlangan holda, aholi daromadlari o‘rtasidagi nomutanosibliklar qisqartiriladi. Davlat va jamiyat tomonidan doimiy ijtimoiy xizmatlar sohasi tashkil etiladi. Ushbu tizim Shvetsiyada amal qiladi.

2.3. O‘ng partiyalarning ijtimoiy siyosat to‘g‘risidagi qarashlarining o‘zgarishi

G‘arbiy Yevropada “Ijtimoiy davlat” konsepsiyasining rivojlanishida ikki omil yetakchi o‘rin tutadi: birinchi – ikkinchi jahon

[23] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг Парламентга мурожатномасидан. 29.12.2018 йил. www.xs.uz

[24] Social policy. P. 57-83

urushining salbiy oqibatlari; ikkinchi – ijtimoiy jarayonlarni asoslashga qaratilgan liberal nazariyalarning vujudga kelishi.

Liberal (chegaralangan) ijtimoiy davlat. Bunda kam ta'minlangan aholiga moddiy yordam ko'rsatish (kam ta'minlanganlik nafaqasi, nogironlik nafaqasi va boshqalar) davlat byudjeti tomonidan moliyalashtiriladi. Nafaqa olish huquqini qo'lga kiritish qattiq nazorat qilinadi, nafaqalar miqdori yuqori darajada belgilanmaydi, mehnatga layoqatli kam ta'minlanganlik nafaqasini olishni istaganlar ishga joylashishlari talab etiladi. Ushbu tizim AQShda qo'llanishi an'anaviy hisoblanib, yaqin yillardan boshlab esa Buyuk Britaniya, Kanada va Avstraliya kabi mamlakatlarda ham qo'llanila boshlandi.[25]

Konservativ (korporativ) ijtimoiy davlat. Ijtimoiy ta'minot davlat tomonidan kafolatlanadi va turli sug'urta fondlari tomonidan moliyalashtiriladi. Ijtimoiy ta'minotdan olinadigan nafaqa miqdori mehnat staji, ish haqi darajasi kabi omillarga bog'liq bo'ladi. Davlat tomonidan davlat xizmatchilariga tegishli imtiyozlar beriladi. Mazkur imtiyozlar odatda pensiya nafaqalarini tayinlash va tibbiy xizmatlardan foydalanishda namoyon bo'ladi. Ushbu tizim Germaniyada amal qiladi. Umuman olganda konservativ ijtimoiy davlat shakli Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan hisoblanadi.[26]

Ijtimoiy (sotsial)-demokratik davlat. Bunda barcha fuqarolar ijtimoiy ta'minotdan foydalanishda teng huquqli bo'lib, ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda to'liq bandlikni ta'minlashga katta ahamiyat beriladi. Agar ijtimoiy ta'minot summasi xalq farovonligini ta'minlashga yetarli miqdorda bo'lgan taqdirda, u ko'p mablag' talab etuvchi tizim hisoblanadi. Shuning uchun soliqlar miqdori yuqori darajada belgilanadi. Jumladan, Shvetsiyada ikki darajali ijtimoiy ta'minot tizimi amal qiladi. Bunda farovonlikning minimal miqdori davlat tomonidan ta'minlansa, yuqori miqdori pensiya yoki turli ijtimoiy sug'urta fondlari nafaqalari va boshqa manbalar hisobidan ta'minlanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ijtimoiy davlatlarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishda ularda amal qilayotgan iqtisodiy modellar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday vaziyatda ijtimoiy davlat uchun quyidagi xususiyatlar xos bo'ladi:

- ijtimoiy sug'urta fondlariga pul o'tkazmalari va ijtimoiy sug'urta soliqlari hajmini oshirish, shakllangan byudjet mablag'laridan ijtimoiy siyosatni moliyalashtirish;

---

[25] Social policy. P. 57-63
[26] Social policy. P. 64-69.

- aholining barcha guruhlari uchun ijtimoiy xizmatlar tizimi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash chora tadbirlarini rivojlantirish;

- ijtimoiy siyosatning huquqiy-institutsional asoslarini rivojlantirish;

- xalq farovonligini ta’minlash vazifasini davlatning o‘z zimmasiga olishi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, ijtimoiy davlat quyidagilarni ta’minlashi kerak bo‘ladi:

- jamiyat hayotida ijtimoiy adolatlilikni ta’minlash;

- ijtimoiy tengsizlikni qisqartirish;

- har bir fuqaroning ish bilan bandligini ta’minlash (daromad keltiruvchi faoliyat yuritishiga shart-sharoit yaratish);

- tinchlikni ta’minlash;

- insonlarning farovon yashashlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

Iqtisodiy adabiyotlarda ijtimoiy siyosatning modellari quyidagi omillarga tayangan holda tasniflangan:

- ijtimoiy siyosatning milliy dasturlar tizimida tutgan o‘rni;

- ijtimoiy vazifalarni davlat, jamiyat tashkilotlari va xususiy sektor zimmalariga taqsimlanishi;

- mamlakat iqtisodiyotida davlat sektorining ulushi;

- mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan kelib chiqqan holda davlatning ijtimoiy siyosatni amalga oshirish mexanizmi va dastaklarining belgilanishi.

Yuqoridagi xususiyatlardan kelib chiqqan holda anglosakson (Buyuk Britaniya, Irlandiya), kontinental (Avstriya, Belgiya, Germaniya, Niderlandiya, Fransiya, Shveysariya), Skandinaviya (Daniya, Finlandiya, Shvetsiya), Janubiy Yevropa (Gretsiya, Ispaniya, Italiya, Portugaliya) modellarini farqlash mumkin.[27] Aksariyat holatlarda ijtimoiy siyosat modellari ularni ishlab chiqqan olimlarning ismlari bilan nomlanadi. Masalan, kontinental model Germaniya kansleri O. Bismark nomi bilan nomlanadi (Bismark modeli). Ushbu model ijtimoiy himoya darajasi ishchi xodimning mehnat staji davomiyligi bilan bog‘liq bo‘lib, uning asosida ijtimoiy sug‘urta mexanizmi yotadi. Ish haqidan ijtimoiy sug‘urta fondlariga to‘lanadigan badallar hisobidan ijtimoiy nafaqalar moliyalashtiriladi. Anglosakson modeli ingliz iqtisodchisi U. Beveridj sharafiga nomlangan (Beveridj modeli). Bunda moddiy jihatdan ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan har bir fuqaro minimal darajada ijtimoiy jihatdan ta’minlanish huquqini qo‘lga kiritadi. Ijtimoiy (sotsial)-

[27] Social policy p. 57–83.

demokratik model skandinaviya modeli hisoblanadi. Mazkur modelda barcha aholi ijtimoiy ta’minotdan foydalanishda teng huquqli hisoblanadi. Ijtimoiy ta’minotni moliyalashtirish soliqlar hisobidan amalga oshiriladi. Janubiy Yevropa modelida esa ijtimoiy himoya oila va xayriya ishlari orqali amalga oshiriladi.

2.4. Ijtimoiy siyosat va so‘l partiyalarning ijtimoiy siyosat sohasidagi qarashlari

Ijtimoiy siyosatni tasniflashda uning ob’ektlari va sub’ektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimidan foydalaniladi. Bunda ijtimoiy siyosat amal qilishiga ko‘ra aktiv va passiv turlarga ajratiladi.

Davlat ijtimoiy siyosatni olib borishda ustuvor yo‘nalishlarni belgilab oladi.Ustuvor yo‘nalishlar dasturlari amalga oshirilishi zarur bo‘lgan chora-tadbirlarni bajarilish muddati va zimmasiga javobgarlik majburiyati yuklatilgan tashkilot va mansabdor shaxslar ro‘yxatini o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy siyosatni tahlil qilish jarayonida ijtimoiy xavfsizlikka to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy xavfsizlik tizimi tarkibiga quyidagi yo‘nalishlar kiradi:

- global va mintaqaviy xavfsizlik: milliy manfaatlar, jamiyat xavfsizligi va strategik barqarorlik;
- jamiyat xavfsizligi: ijtimoiy-iqtisodiy, milliy-madaniy, ekologik, informatsion-texnologik va boshqalar;
- shaxsiy xavfsizlikni ta’minlash;
- favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta’minlash.

Ijtimoiy xavfsizlik shaxsiy va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan holda inson ehtiyojlarining qondirilishini anglatadi. Insonni moddiy va ma’naviy jihatdan to‘liq ta’minlanishi orqali ijtimoiy xavfsizlikka erishiladi. Ijtimoiy xavfsizlik quyidagi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi:

- aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real daromadlar hajmi;
- tovar va xizmatlarni iste’mol qilish darajasi;
- tovar va xizmatlarning narxlari darajasi;
- aholini turar uy-joy bilan ta’minlanishi;
- ta’lim, tibbiyot, madaniy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari, ekologik xavfsizlik va boshqalar.

Ijtimoiy ish ijtimoiy siyosatning tarkibiy elementi hisoblanadi. Ijtimoiy ishning maqsadi kishilarda o‘z hayotlari mobaynida vujudga keladigan ijtimoiy muammolarini mustaqil tarzda hal etishga oid ko‘nikmalarni shakllantirishga o‘rgatishdan iborat.

Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida ijtimoiy ish quyidagi vazifalarni o‘z zimmasiga oladi:

- ijtimoiy muammolarni hal etishda kishilarda mustaqil harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- kishilarni yangi jamiyatda amal qilayotgan muhitga moslashtirish (adaptatsiya) va qayta moslashtirish;
- aholi o‘rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish orqali insonning tinch va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratish. Bunda kishilar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantirish nazarda tutiladi.



2.4.1-rasm. Ijtimoiy davlat va boshqa ijtimoiy institutlarning o‘zaro bog‘liqligi[28]

Ijtimoiy siyosatni o‘rganishga oid tadqiqotlarning tobora rivojlanib borishi natijasida bugungi kunga kelib “umumjamiyat farovonligi davlati” tushunchasi fanga kirib keldi va ijtimoiy siyosatning amal qilish doirasiga qarab uning quyidagi turlari farqlanadi:

Birinchi – jamiyatdagi mavjud ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan va uning barcha a’zolari uchun yo‘naltirilgan ijtimoiy siyosatning amal qilishidir. Bunda jamiyat maqsadlarini amalga oshirish ijtimoiy siyosatning maqsadi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi – ijtimoiy-mehnat munosabatlarini barqarorlashtirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy siyosatning qo‘llanilishi.

Uchinchi – ijtimoiy jihatdan nochor va turli og‘ir kasalliklarga mubtalo bo‘lganlar, nogironlar, yolg‘iz qariyalar, parvarishga muhtoj kishilar, mehnat qobiliyatini yo‘qotganlar uchun minimal turmush farovonligi darajasini ta’minlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy siyosat chora-tadbirlarini amalga oshirilishi.

[28] Social policy. P. 57-83.

To‘rtinchi – ijtimoiy siyosatning qayta taqsimlash mexanizmi uning jamiyatda ijtimoiy tengsizlikning oldini olishga qaratilganligini bildiradi. Bunda daromadlarning keskin tabaqalanishining oldini olish asosiy maqsad hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishishda soliq siyosatidan foydalaniladi.

Beshinchi – ijtimoiy davlatda ijtimoiy adolat va ijtimoiy hamkorlik qo‘llanilishini anglatadi. Bu esa zamonaviy kishilik jamiyatida amal qilayotgan ijtimoiy siyosatning muhim jihatlari hisoblanadi.

XX asrning boshlarida ingliz iqtisodchisi J.M. Keyns tomonidan iqtisodiyotga davlat aralashuvining zarurligi asoslab berildi. Bunda bozor iqtisodiyoti rivojlanishi natijasida ijtimoiy muammolarni hal etishda davlatning aralashuvi zarurligi belgilab berildi. Keyns iqtisodiy o‘sishda noiqtisodiy omillarning (davlat va inson psixologiyasini) o‘rnini tadqiq etdi. [29]

Iqtisodchi olimlar tomonidan Keynsning “Umumiy nazariya”si iqtisodiy fanlar rivojida katta burilish yasadi, deb ta’kidalanadi. Uning fikridagi yangicha g‘oya mamlakatda yuqori bandlik va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda davlatning aralashuvi zarurligi bilan ifodalanadi.

Keyns o‘zining makroiqtisodiy tahlillarida mikroiqtisodiy yondashuvdan foydalangan. U ish haqi darajasining qisqartirilmasligini ta’minlashda davlatning aralashuvi va buning natijasida jamg‘armalar hajmining ortishiga erishilishini tadqiq etgan.

Keyns tadqiqotlari xulosasiga ko‘ra, davlat iqtisodiyotni tartibga solishda foiz stavkalari va soliq tizimi kabi dastaklardan foydalanadi. Davlatning samarali bandlikni ta’minlashi ko‘zda tutiladi. Mamlakatda yuqori bandlikka erishish va aholi daromadlarining ortishi natijasida foiz stavkasi kamayishiga erishiladi.

2.5. XXI asr arafasida ijtimoiy siyosatga bag‘ishlangan feministik, yashillar va post modernizatsiyalash yondashuvlarining rivojlanishi

XX asrda keynschilik bilan bir vaqtda neoliberalizm yo‘nalishi shakllandi. Mazkur yo‘nalishning asosiy g‘oyasi davlatning iqtisodiyotga aralashuvi ma’lum bir chegara doirasida bo‘lishi zarurligi bilan ifodalanadi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda Germaniyada neoliberalizm g‘oyasi amalda qo‘llanila boshladi. Neoliberalizm g‘oyalari V. Oyken L.

[29] Social policy. P. 57-83

Erxard va uning izdoshlari tomonidan Germaniya milliy xususiyatlariga moslashtirilishi bilan mamlakatda “Ordolibe-ralizm” g‘oyasi ko‘rinishida shakllantirildi.

XX asrning 60–70-yillariga kelib neoliberalizm konsepsiyasi asosida “ijtimoiy bozor xo‘jaligi” va “umumjamiyat farovonligi” davlatlari modellari shakillandi. Har ikkala ijtimoiy davlat modellarining umumiy xususiyati ularning amal qilishida davlatning aktiv ijtimoiy siyosat olib borishida namoyon bo‘ladi.

Davlatning iqtisodiyotni tartibga solish jarayonida qatnashishi va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish tamoyillari quyidagilardan iborat:

- inson erkinligi – bunda fuqarolarning istalgan faoliyat turlari bilan shug‘ullanishi belgilab qo‘yiladi;
- iqtisodiy munosabatlarga davlatning aralashuvini iloji boricha kamaytirish, ya’ni ma’lum bir chegara doirasida bo‘lishi;
- qonun ustuvorligini ta’minlash – har qanday munosabatlarni amalga oshirilishida konstitutsion tizimning yaratilganligi;
- minimal ijtimoiy ta’minot – jamiyatda sog‘lom hayotni ta’minlash uchun ayrim tovar va xizmatlar miqdori va tarkibining davlat tomonidan tartibga solinishi;
- xavfsizlik – ishsizlarni (mehnat layoqatiga ega bo‘lmaganlar va uni yo‘qotganlar) va ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlarining turmush kechirishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish.

1950–1964-yillarda Buyuk Britaniyada konservativ boshqaruv tizimi amal qila boshladi. Ushbu tizim mamlakatda umumjamiyat farovonligini ta’minlashga qaratilgan aralash iqtisodiyotning amal qilishi bilan ifodalanadi. Bu esa o‘z navbatida neoliberalizm g‘oyalari asosida konservativ nazariyalarning shakllanishiga turtki bo‘ldi. [30]

Konservatizmning rivojlanishi davrida 1944-yilga kelib U.Cherchil tomonidan barcha aholining ta’lim olishi uchun asos bo‘luvchi ta’lim to‘g‘risida Qonun qabul qilindi, 1945-yilda aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish maqsadida oilalarga nafaqa berish to‘g‘risida Qonun qabul qilindi. Ijtimoiy siyosatni olib borishda konservatizmning amal qilish muddati tahlil etiladigan bo‘lsa, mazkur davrda to‘liq bandlikni ta’minlash, aholi daromadlarini shakllantirish va ularni ijtimoiy himoya qilish kabi umumjamiyat farovonligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilgan.

[30] Social policy. P. 64-67

1979–1997-yillarda Buyuk Britaniyada ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda “Tetcherizm” g‘oyalariga tayanila boshlandi va u quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:[31]

- monetarizm (pul massasini boshqarish orqali inflyatsiya darajasini jilovlash. Bu esa o‘z navbatida tetcherizmda ish haqi darajasini oshirish bilan bevosita bog‘langan);
- xususiylashtirishni rivojlantirish va raqobat muhitini shakllantirish;
- kasaba uyushmalari faoliyatini isloh etish;
- davlat boshqaruvi tizimini isloh etish;
- kesuvchi soliq (soliq stavkasi darajasini kamaytirish);

1979–1997-yillarda ijtimoiy siyosatning modernizatsiyalashgan shakli – ijtimoiy-demokratik ijtimoiy siyosat vujudga keldi. Ushbu ijtimoiy siyosat shaklining rivojlanishida yangi leyboristlarning o‘rni katta bo‘ldi. Ularning fikricha demokratik ijtimoiy farovon davlat uchun quyidagi xususiyatlar xos bo‘ladi:[32]

- aktiv ijtimoiy ta’minot tizimini yuritish;
- ijtimoiy chora-tadbirlar dasturlarini moliyalashtirish manbalarining turli-tuman va tanlovli bo‘lishi (bunda davlat va nodavlat tashkilotlar, maqsadli fondlar, xususiy jamg‘armalar orqali ijtimoiy siyosat dasturlari moliyalashtiriladi);
- iste’molchi manfaatlarini himoya qilishi;
- muvozanatlashtirish;
- teng huquqlilikni ta’minlash;
- jamiyat a’zolari faolligini ta’minlash;
- ijtimoiy siyosatda ko‘zlangan chora-tadbirlarning bajarilishi va ularning natijalari ustidan davlat nazoratini o‘rnatish.

XXI asr boshlarida Yevropada Yevropa ijtimoiy modeli shakllandi. Yevropa ijtimoiy modeli bu yevropa demokratiyasi, iqtisodiy rivojlanishi, ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti natijasidir. Ushbu model tenglik, samaradorlik va qatnashuv majburiyati o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi. Yevropa ijtimoiy modeli – bu jamiyat rivojlanishining strategik chizmasi bo‘lib, inson qadriyatini hurmat qilish, ijtimoiy birdamlik va adolat, ijtimoiy yo‘naltirilgan raqobatbardosh iqtisodiyot va muhofazalangan ekologiyaga asoslanadi.

Ijtimoiy siyosatni rivojlanishi va jamiyat a’zolarining teng huquqligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish

[31] Social policy. P. 67-68
[32] Social policy. P. 70-75.

jarayonlarida feminizm yo‘nalishi vujudga keldi. 1792-yilda Meri Vulstonkraft tomonidan ayollar haq-huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi ishlari feminizmning rivojiga katta hissa qo‘shdi. Ushbu yo‘nalishning maqsadi ayollarning turmush sifatini yaxshilashdan iborat bo‘lgan.[33]

Feminizm g‘oyalarining rivojlanishi natijasida fanga gender tengligi tushunchasi kirib keldi. Gender tengligi mohiyatan ayollar va erkaklar teng huquqliligini ta’minlashga qaratilgan faoliyat hisoblanadi. Gender tengligiga oid hisob-kitoblarni amalga oshirish ilk bor Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida sodir bo‘ldi.

Glossariy

O‘zbekcha	Ruscha	Inglizcha	Izoh
“Ijtimoiy davlat” belgilari	Признаки “социального государства”	Signs of “social state”	- barcha jamiyat a’zolarining ijtimoiy himoyadan foydalanish imkoniyatining mavjudligi; - ijtimoiy jarayonlarni boshqarishda fuqarolar haq-huquqlarining asoslanganligi va ta’minlanganligi; - ijtimoiy xarajatlarni byudjet tomonidan moliyalashtirilishi; - mamlakatda ijtimoiy himoya, ijtimoiy sug‘urta va bandlikni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning mavjudligi; - aholi farovonligini ta’minlanishi uchun davlatning javobgarligi; - davlat tomonidan fuqarolik jamiyati rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi.
“Yashillar”	“Зеленые”	“The Greens”	Atrof-muhit va ekologiya muhofazasi harakati a’zolari va tarafdorlari
Barqaror iqtisodiy rivojlanish	Устойсивое экономичес-кое развитие	Sustainable economic develop-ment	Aholi ehtiyojlarini to‘la qondirish va kelajak avlod ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini xavf ostiga qo‘ymaslikka asoslangan rivojlanish

[33] Social policy. P. 83-89

Ijtimoiy demokratiya	Социальная демократия	Social democracy	Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy adolat, ijtimoiy birdamlik va erkinlikni ta’minlash maqsadida amalga oshiriladigan ijtimoiy siyosat va siyosiy-mafkuraviy oqim
Ijtimoiy farovonlik davlati belgilari	Признаки государства социальной благоденствия	Signs of welfare state	- ijtimoiy sug‘urta fondlariga pul o‘tkazmalari va ijtimoiy sug‘urta soliqlari hajmini oshirish, shakllangan byudjet mablag‘laridan ijtimoiy siyosatni moliyalashtirish; - aholining barcha guruhlari uchun ijtimoiy xizmatlar tizimi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash chora tadbirlarini rivojlantirish; - ijtimoiy siyosatning huquqiy-institutsional asoslarini rivojlantirish; - xalq farovonligini ta’minlash uchun davlat javobgarlikni o‘z zimmasiga olishi.
Kasaba uyushmasi	Профсоюз	Trade union	Ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish sohalarida faoliyat yuritayotgan ishchilarni iqtisodiy-ijtimoiy huquqlarini himoya qilish maqsadida ixtiyoriy ravishda birlashtiruvchi tashkilot
Soliq imtiyozlari	Налоговые льготы	Tax cutting	Davlat yoki mahalliy hokimiyat tomonidan soliq to‘lovchilarning ayrim guruhlariga beriladigan imtiyozlar
Konsensus	Консенсус	consensus	Qaror qabul qilishda munozaralarni hal etishning usuli, unga ko‘ra manfaatdor shaxslarda asosli qarshiliklar bo‘lmagan yoki hech kim tomonidan qarshilik bildirilmagan sharoitda umumiy rozilik asosida kelishuvga kelish.
Konservatorlar	Консерваторы	Conserva-tors	Konservatizm g‘oyalari tarafdorlari. Konservatizmdagi mavjud an’anaviy tartib-

			qoidalarni (ijtimoiy, axloqiy, huquqiy) saqlanishi.
Leyboristlar	Лейбористы	Labour’s	Ishchilar sinfi, kasaba uyushmalari manfaatini himoya qiluvchi Buyuk Britaniya “Ishchilar” partiyasi a’zolari.
Liberalizm	Либерализм	Liberalism	Demokratik erkinlik va xususiy tardbirkorlikni himoya qiluvchi g‘oyalar yig‘indisi.
Monetarizm	Монетаризм	Monetaris m	Iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni tartibga solishda pul taklifi dastagidan foydalanish tarafdori bo‘lgan iqtisodiy nazariya
Neoliberalizm	Неолибера-лизм	Neo-liberalism	XX asr oxirlarida liberalizm g‘oyalari asosida shakllangan va rivojlangan, individning siyosat, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotda maksimal erkin faoliyat yuritishini talab etuvchi konsepsiya. Mazkur yo‘nalishning bosh g‘oyasi davlatning iqtisodiyotga aralashuvi ma’lum bir chegara doirasida bo‘lishi zarurligi bilan ifodalanadi.
Umumhalq farovonlik davlati	Государство всеобщего благоденствия	General welfare state	Mamlakatda to‘liq bandlikni ta’minlagan holda, aholi daromadlari o‘rtasidagi nomutanosibliklar qisqartiriladi. Davlat va jamiyat tomonidan doimiy ijtimoiy xizmatlar sohasi tashkil etiladi. Ushbu tizim Shvetsiyada amal qiladi.
Umumxalq farovonlik davlati belgilari	Признаки государства всеобщего благоденствия	The signs of general welfare state	- ijtimoiy sug‘urta fondlariga pul o‘tkazmalari va ijtimoiy sug‘urta soliqlari hajmini oshirish, shakllangan byudjet mablag‘laridan ijtimoiy siyosatni moliyalashtirish; - aholining barcha guruhlari uchun ijtimoiy xizmatlar tizimi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash chora tadbirlarini rivojlantirish; - ijtimoiy siyosatning huquqiy-

			institutsional asoslarini rivojlantirish; - xalq farovonligini ta’minlash uchun davlat javobgarlikni o‘z zimmasiga olishi.
Postmoder-nizm	Постмодер-низм	Postmoder-nism	Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ijtimoiy hayotni tadqiq etishga mo‘ljallangan yo‘nalish.
Pragmatizm	Прагматизм	Pragmatism	Nazariy qonuniyatlar ahamiyatini inkor etuvchi, faqat haqiqiy amaliy naf keltiruvchilarini hisoblovchi qarash.
Tetcherizm	Тетчеризм	Thatche-rism	Buyuk Britaniya bosh vaziri Margaret Tetcher rahbarligi davrida olib borilgan konservatorlar siyosati. Xususiylashtirish, monetarizm, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish, ijtimoiy sohalarni xususiylashtirish tadbirlari amalga oshirilgan.
Feminizm	Феминизм	Feminism	Erkaklar bilan ayollar huquqlarining, jamiyatdagi o‘rnini to‘la tengligini yoqlovchi harakat.
Xususiylash-tirish	Приватизация	Privatiza-tion	Davlat mulkining xususiy mulkka aylanishi
Ekspluatatsiya	Эксплуатация	Exploita-tion	Mulkdorlar tomonidan ishlab chiqarish jarayonida mehnatkashlar mehnatining o‘zlashtirilishi
Ijtimoiy davlat	Социальное государстов	Social state	Insonning erkin rivojlanishi va uning yashashi uchun munosib turmush sharoiti yaratilgan davlat hisoblanadi. Bunda barcha fuqarolar ijtimoiy ta’minotdan foydalanishda teng huquqli bo‘lib, ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda to‘liq bandlikni ta’minlashga katta ahamiyat qaratiladi. Agar ijtimoiy ta’minot miqdori xalq farovonligini ta’minlashga yetarli miqdorda

			bo‘lgan taqdirda, u mablag‘ ko‘p talab etuvchi tizim hisoblanadi. Shuning uchun soliqlar miqdori yuqori darajada belgilanadi. Jumladan, Shvetsiyada ikki darajali ijtimoiy ta’minot tizimi amal qiladi. Bunda farovonlikning minimal miqdori davlat tomonidan ta’minlansa, yuqori miqdori pensiya yoki turli ijtimoiy sug‘urta fondlari nafaqalari va boshqa manbalar hisobidan ta’minlanadi
“Pozitiv ijtimoiy himoya davlati”	Государство позитивной социальной защиты	Positive social protection state	Ushbu modelda barcha fuqarolarning farovonligini ta’minlash imkoniyatlari davlat tomonidan boshqariladi va barcha uchun “teng imkoniyatlar” davlat tomonidan kafolatlanadi. Bunday tizim AQShda amal qilmoqda.
“Ijtimoiy xavfsiz davlat”	Социально безопасное государство	Socially Safe State	Bunda to‘liq bandlikni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi va fuqarolar oladigan ish haqi hajmi yashash minimumi miqdorlaridan yuqori bo‘lishi davlat tomonidan kafolatlanadi. Buyuk Britaniyada ushbu ijtimoiy tizim amal qilmoqda.
Liberal ijtimoiy davlat	Либерально-социальное государство	Liberal social state	Bunda kam ta’minlangan aholiga moddiy yordam ko‘rsatish (kam ta’minlanganlik nafaqasi, nogironlik nafaqasi va boshqalar) davlat byudjeti tomonidan moliyalashtiriladi. Nafaqa olish huquqini qo‘lga kiritish qattiq nazorat qilinadi, nafaqalar miqdori yuqori darajada belgilanmaydi, mehnatga layoqatli kam ta’minlanganlik nafaqasini olishni istaganlar ishga joylashishlari talab etiladi.

			Ushbu tizim AQShda an’anaviy hisoblanib, yaqin yillardan boshlab Buyuk Britaniya, Kanada va Avstraliyada qo‘llanila boshlandi
Konservativ ijtimoiy davlat	Консервативное социальное государство	Conservative social state	Ijtimoiy ta’minot davlat tomonidan kafolatlanadi va turli sug‘urta fondlari tomonidan moliyalashtiriladi. Ijtimoiy ta’minotdan olinadigan nafaqa miqdori mehnat staji va ish haqi darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Davlat tomonidan davlat xizmatchilariga tegishli imtiyozlar beriladi. Ushbu imtiyozlar odatda pensiya nafaqalarini tayinlash va tibbiy xizmatlardan foydalanishda namoyon bo‘ladi. Ushbu tizim Yevropa, jumladan Germaniyada amal qiladi.
Aholini ijtimoiy himoya qilishning Bismark modeli	Модель социальной защиты населения Бисмарка	Bismarck model of social protection of population	Ushbu modelda ijtimoiy himoya darajasi ishchi xodimning mehnat staji davomiyligi bilan bog‘liq bo‘lib, uning asosida ijtimoiy sug‘urta mexanizmi yotadi. Ish haqidan ijtimoiy sug‘urta fondlariga to‘lanadigan badallar hisobidan ijtimoiy nafaqalar moliyalashtiriladi.
Aholini ijtimoiy himoya qilishning Beveridj modeli	Модель социальной защиты населения Бевериджа	Beverage model of social protection of population	Anglosakson modeli ingliz iqtisodchisi U. Beveridj sharafiga nomlangan (Beveridj modeli). Bunda moddiy jihatdan ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan har bir fuqaro minimal darajada ijtimoiy jihatdan ta’minlanish huquqini qo‘lga kiritadi.
Aholini ijtimoiy himoya qilishning Skandinaviya modeli	Скандинавская модел социальной защиты населения	Scandinavian model of social protection of population	Ijtimoiy (sotsial)-demokratik model Skandinaviya modeli hisoblanadi. Ushbu modelda barcha aholi ijtimoiy ta’minotdan foydalanishda teng huquqli hisoblanadi. Ijtimoiy ta’minotni moliyalashtirish soliqlar hisobidan amalga oshiriladi.

Aholini ijtimoiy himoya qilishning rudemental modeli	Рудементаль-ный модель социальной защиты населения	Rudimental model of social protection of population	Janubiy Yevropa mamlakatlarida qo‘llaniladigan model bo‘lib, ijtimoiy himoya oila va xayriya ishlari orqali amalga oshiriladi.
Aholini ijtimoiy himoya qilishning tamoyillari	Принципы социальной защиты населения	Principles of social protection of population	Davlatning iqtisodiyotni tartibga solish jarayonida qatnashishi va ijtimoiy siyosatni olib borish tamoyillari quyidagilardan iborat: - inson erkinligi – bunda fuqarolarning istalgan faoliyat turlari bilan shug‘ullanishi belgilab qo‘yiladi; - iqtisodiy munosabatlarga davlatning aralashuvini iloji boricha kamaytirish, ya’ni ma’lum bir chegara doirasida bo‘lishi; - qonun ustuvorligini ta’minlash – har qanday munosabatlarni amalga oshirilishida konstitutsion tizimning yaratilganligi; - minimal ijtimoiy ta’minot – jamiyatda sog‘lom hayotni ta’minlash uchun ayrim tovar va xizmatlar miqdori, tarkibini davlat tomonidan tartibga solinishi; - xavfsizlik – ishsizlarni (mehnat layoqatiga ega bo‘lmaganlar va uni yo‘qotganlar) va ijtimoiy jihatdan muhtoj aholini turmush kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratish.

Nazorat savollari:

1. Ijtimoiy siyosat tushunchasini tavsiflang va uni keng, tor ma’nodagi tavsiflari farqlarini tushuntirib bering.
2. Ijtimoiy siyosat qanday mezonlarga asosan guruhlanadi va uning vazifalarini aniqlang.
3. Ijtimoiy siyosatning shakllanishi va rivojlanishining bosqichlarini sharhlab bering?

4. Ijtimoiy siyosatning nazariy asoslarining vujudga kelishi va rivojlanishi bosqichlarini tushuntirib bering.
5. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirish shakllari va dastaklarini izohlab bering.
6. Ijtimoiy davlat uchun qanday xususiyatlar xos va unga nisbatan bo‘lgan iqtisodiy qarashlar evolyutsiyasini tushuntirib bering.
7. Ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish metodlarini tahlil qilib bering.
8. Ijtimoiy ehtiyojlarning mazmuni, turlari, tarkibi va ijtimoiy ta’minotini tashkil etish tamoyillarini aytib bering.
9. Ijtimoiy adolat tamoyillari va ularni amalga oshirish holatini baholang.
10. Ijtimoiy adolat va samaradorlik nisbati muammolarini tushuntirib bering.

Testlar:

1. Quyidagilardan qaysi biri ijtimoiy siyosat tarkibiga kirmaydi?
a) ijtimoiy himoya tizimi;
b) ijtimoiy sug‘urta;
c) mudofaa tizimi;
d) mehnat bozori va bandlikni ta’minlash;

2. Mamlakatdagi daromadlarning umumiy darajasi bilan taqqoslaganda insonning yomonroq holatini ifodalovchi tushuncha – bu ...
a) mutlaq qashshoqlik;
b) joriy qashshoqlik;
c) surunkali qashshoqlik;
d) nisbiy qashshoqlik.

3. Ijtimoiy davlat – bu ...
a) oliy davlat hokimiyati to‘liq yoki qisman bir shaxsga (monarx, qirol, imperator, sulton va h.k.) tegishli bo‘lgan va avloddan-avlodga o‘tadigan siyosiy tizim;
b) insonning erkin rivojlanishi va uning yashashi uchun munosib turmush sharoiti yaratuvchi davlat;
c) kundalik faoliyati huquqiy normalar va fundamental tamoyillarga asoslangan davlat;
d) jamiyat hayoti ustidan to‘liq davlat nazorati o‘rnatilgan siyosiy rejim.

4. **“Ijtimoiy davlat” tushunchasini iqtisodiy adabiyotlar aylanmasiga birinchi bo‘lib kim olib kirdi?**
   a) Lorens fon Shteyn;
   b) U. Beveridj;
   c) Otto fon Bismark;
   d) F. D. Ruzvelt.
5. **Ijtimoiy davlatning “ijtimoiy bozor xo‘jaligi” va “umumjamiyat farovonligi” modellari qaysi ilmiy yo‘nalish g‘oyalari asosida qurildi?**
   a) tetcherizm;
   b) konservatizm;
   c) feminizm;
   d) neoliberalizm.
6. **Qaysi yo‘nalishning asosiy g‘oyasi davlatning iqtisodiyotga aralashuvi ma’lum bir chegara doirasida bo‘lishi zarurligi bilan ifodalanadi.**
   a) keynschilik;
   b) neoliberalizm;
   c) tetcherizm;
   d) konservatizm.
7. **Neoliberalistlar fikricha:**
   a) ijtimoiy davlat bu sotsializmdir;
   b) umumjamiyat farovonligi davlati iqtisodiyot samaradorligini pasayishiga olib keladi va o‘ziga jamiyatda siyosiy erkinlikning yo‘qolishi riskini oladi;
   c) ijtimoiy davlat mehnatkashlarga davlat kapitalidan imtiyozlar berishni anglatadi;
   d) ijtimoiy kafolatlarni ta’minlashning zarur sharti faqatgina kapitalizmdan sotsializmga o‘tishdir;
8. **Ijtimoiy davlatning vazifalari o‘z fuqorolarini quyidagi shart-sharoitlardan qaysi biri bilan ta’minlashni nazarda tutmaydi?**
   a) har bir fuqoro yashash minimumiga ega inson bo‘lishi kerak;
   b) har bir mehnatga layoqatli fuqoro o‘zi va barcha oila a’zolari uchun ishlab pul topish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak;
   c) har bir fuqoro ishlamasa ham davlatga soliq to‘lash imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak;
   d) mehnatga layoqatsiz yoki qandaydir sabab bilan ishlash imkoniyatiga ega bo‘lmagan fuqorolar (bolalar, bemorlar, nogironlar, pensionerlar, ishsizlar, qochoqlar va ko‘chirilgan shaxslar) davlat

tomonidan mamlakat iqtisodiy hayotida faol ishtirok etayotgan sub’ektlarning jamg‘arilgan mablag‘larini qayta taqsimlash hisobiga odatdagi yashash standartlarini saqlab turish imkoniyatlariga ega bo‘lishi kerak.

9. Ijtimoiy siyosatning kontinental modeliga kim tomonidan asos solingan?

a) Lorens fon Shteyn;
b) U. Beveridj;
c) Otto fon Bismark;
d) F. D. Ruzvelt.

10. Ijtimoiy siyosatning anglosakson modelining asoschisi kim?

a) Lorens fon Shteyn;
e) U. Beveridj;
f) Otto fon Bismark;
g) F. D. Ruzvelt.

III bob. IJTIMOIY SIYOSATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

3.1. Ijtimoiy siyosatning shakllanish shart-sharoitlari va omillari.
3.2. XIX asrda Yevropada ijtimoiy siyosat.
3.3. XX asr boshlarida ijtimoiy siyosatdagi islohotlar.
3.4. Aholini ijtimoiy ta'minoti tizimini isloh etishning neoliberal modeli.
3.5. XXI asr boshlarida ijtimoiy siyosatni modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishlari.

3.1. Ijtimoiy siyosatning shakllanish shart-sharoitlari va omillari

Milliy iqtisodiyotda ijtimoiy ta'minot tizimining rivojlanib borishi bilan ijtimoiy ta'minotga oid bo'lgan atamalar – ijtimoiy ta'minot tushunchasi, uning mezonlari va belgilari, vazifalari shakllanib bordi.

Ijtimoiy ta'minot fuqarolar va davlat organlari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni ifoda etib, aholining ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan guruhlarini moddiy jihatdan ta'minlashni nazarda tutadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan ijtimoiy ta'minot risk paydo bo'lishi bilan ijtimoiy himoya va yordamga muhtoj bo'lgan shaxslar o'rtasida mablag'larni qayta taqsimlashni o'zida ifoda etadi. Ijtimoiy xavf-xatar (risk) deganda ishlovchining ish haqidan mahrum bo'lish, daromadlarning yashash minimumidan pasayishi, tibbiy yordamga ehtiyoj sezish va boshqa ijtimoiy xizmatlarga ob'ektiv tarzda muhtoj bo'lish holatlarining ro'y berish ehtimolligi tushuniladi. Jahon amaliyotida xavf-xatar(risk)larning to'rtta turlari ajratib ko'rsatiladi: salomatlik, umr davomiyligi, iqtisodiy-kasbiy, atrof muhit bilan bog'liq bo'lgan risklar.[34]

Amaliyotda ijtimoiy ta'minotning quyidagi mezonlari mavjud:

1. *Moliyalashtirish manbalari*ga davlat tomonidan tashkil etilgan maxsus maqsadli fondlar kiradi. (Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi, bandlikka ko'maklashuvchi fond va sh.k.)

2. *Ijtimoiy ta'minotga taalluqli bo'lgan shaxslar doirasi*ga qonunchilik bilan belgilangan fuqarolar kiradi. Jumladan, mehnatga layoqatsizlar (qarilik va nogironlik bo'yicha), boquvchisini yo'qotganlar, faxriylar, ishsizlar, urush qatnashchilari va boshqalar.

[34] The student's companion to Social Policy P. 107-108.

3. *Ijtimoiy ta'minotdan foydalanish uchun ko'rsatmalar* faqatgina unga ehtiyoj vujudga kelgan hollarda qonunchilik bilan belgilangan tartibda beriladi.

4. *Ijtimoiy ta'minot xizmatini ko'rsatishning maqsadi* – davlat tomonidan ijtimoiy ta'minotning u yoki bu turidan kelib chiqib belgilanadi. Ushbu maqsadlar yaqin muddatga mo'ljallangan, oraliq va yakuniy bo'lishi mumkin. Masalan, vaqtincha ishga yaroqsiz bo'lib qolgan shaxsning yo'qotilgan ish haqi o'rniga ko'rsatiladigan ijtimoiy ta'minot yaqin muddatga mo'ljallangan bo'ladi. Ishchining sog'lig'i to'g'risida g'amxo'rlik qilishdan ko'zlangan pirovard maqsad uning sog'lig'ini to'liq tiklab, ishchanlik qobiliyatini oshirish hisoblanadi.

Ijtimoiy ta'minotning *o'ziga xos belgilari* uning *xususiyatlarida* o'z aksini topadi. Ushbu xususiyatlarga quyidagilar kiradi:

- ijtimoiy ta'minotning ommaviy xarakterga egaligi;
- aholini ijtimoiy-demografik jihatdan turli qatlam va guruhlarining ijtimoiy ta'minotga tabaqalashgan yondashuv;
- davlat tomonidan ijtimoiy ta'minotga ajratilgan mablag'lar miqdorini iste'mol savatiga kiruvchi mahsulot va xizmatlarning minimal sarfidan kelib chiqqan holda belgilash;
- insonning ijtimoiy ta'minoti borasida huquqlaridan to'liq foydalana olishni ta'minlash.

Iqtisodiy adabiyotda ijtimoiy ta'minotning quyidagi funksiyalari ajratib ko'rsatiladi: *iqtisodiy, siyosiy, demografik, ijtimoiy-rag'batlantiruvchi*

Iqtisodiy funksiya ishlovchining yoshga doir, mehnatga layoqatsizligi yoki boquvchisini yo'qotganligi oqibatida beriladigan to'lovlarda, favqulodda hodisalar yuz berganda ijtimoiy yordam ko'rsatish, kam ta'minlanganlarga pul yoki natural shakldagi yordam va boshqalarda namoyon bo'ladi. Davlatning ijtimoiy ta'minoti moliyalashtirish manbalaridan kelib chiqqqan holda pul to'lovlari ko'rinishida (pensiyalar, nafaqalar, qoplamalar, moddiy yordam va boshqalar), natural shakldagi yordam, xizmatlar va imtiyozlar ko'rinishida beriladi.

Siyosiy funksiya jamiyatda aholining turli qatlamlari o'rtasida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ifodalanadi.

Demografik funksiya mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ishchi kuchini takror ishlab chiqarishni rag'batlantirishni ifodalaydi.

Ijtimoiy funksiya mehnatga layoqatsiz bo‘lgan va boshqa aholi guruhlarini jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida o‘zlarini his qila olishlari uchun ularning ijtimoiy mavqeni tiklashga qaratilgan.

Qadimgi dunyoda va o‘rta asrlarda aholi ijtimoiy himoyasi asosini oilaviy yordam, mehnat jamoasidagi o‘zaro yordam, diniy muassasalar xayriya yordami, xususiy xayriya, savdogarlar va hunarmandlar sig‘urtasi tashkil qilgan. Ushbu davrda davlat ijtimoiy siyosatning huquqiy asosini tashkil etgan qonun, qaror va farmonlar 3.1.1-jadvalda keltirilgan.

XVI–XVIII asrlarda aholini ijtimoiy himoya qilish mexanizmi bir tarafdan o‘rta asrlarga xos bo‘lgan aholining muhtoj qatlamini qo‘llab-quvvatlash an’anasiga va boshqa tarafdan yangi davr uchun xos bo‘lgan davlat tomonidan huquqiy tartibga solish usullariga asoslangan.

O‘rganilayotgan davrlarda ijtimoiy siyosatning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lgan. Jumladan, muhtojlarni qo‘llab-quvvatlashga hududiy yondashuv xos bo‘lgan. Bunda aniq ijtimoiy me’yorlar, standartlar shakllantirilgan va ularning faoliyati muhtojlarni fiziologik qayta tiklanishi uchun zarur bo‘lgan yordamni taqdim etishdan iborat bo‘lgan. Ushbu ijtimoiy yordam uchun kerak bo‘lgan moliyaviy mablag‘lar mahalliy boylar hisobidan birdamlik tamoyili asosida olingan.

3.1.1-jadval

Qadimgi dunyoda va o‘rta asrlarda aholi ijtimoiy himoyasining shakllanish va rivojlanish bosqichlari[35]

Davr	Tarixiy hujjat yoki dalil	Ijtimoiy himoyaning xususiyatlari
Qadimgi davr		
e.a. XXIII asr	G‘alla zahirasini shakllantirish to‘g‘risida Misr malikasi Maata farmoni	Favqulodda holat bo‘lganida davlat tomonidan ijtimoiy yordam ko‘rsatish
e.a. XVIII asr	Savdogarlarning o‘zaro yordami to‘g‘risida Bobil shohi Xammurapi qonuni	Mol-mulk sug‘urtasi (kema va tovarlarni sug‘urtalash)
e.a. XV–X asrlar	Finikiyalik savdogarlar tomonidan o‘zaro sug‘urtalash tashkilotining joriy qilinishi	
e.a. X asr	Rim imperiyasida sexlarda o‘zaro yordamning shakllanishi	Hayot sug‘urtasi

[35] Роик В.Д. Социальное страхование. 2-е изд., пер. и доп. учебник и практикум для академического бакалавриата. Издательство: Юрайт. 2018. с.73-74.

Yangi kalendar yuritish davri		
IV asr (370-yil)	Kessariyada (Kichik Osiyoda) Buyuk Vasiliy tomonidan kasallar, yolg‘iz qariyalar, nogiron va uy-joyi yo‘q aholi uchun qishloq tashkil etilishi	Cherkov ijtimoiy yordami xususiyatlari
IV asr	Boylar tomonidan qashshoqlarga xayriya qilish to‘g‘risida Ioan Zlatoustning taklifi	Boylikni ixtiyoriy asosda jamiyatda qayta taqsimlash tamoyili
VI asr	Rim Papasi Pelagiy tomonidan birinchi qariyalar uyinig tashkil etilishi	Ushbu tadbir ko‘plab cherkov-larda yolg‘iz, qari, qashshoq odamlar uchun maxsus joylar-ning tashkil etilishiga olib keldi.
O‘rta asrlar		
X–XV asrlar	Ijtimoiy o‘zaro yordam to‘g‘risida qonun va qarorlar qabul qilinishi. 1256 yilda Reyn Ittifoqi kambag‘allar foydasiga soliq joriy qildi.	Hayot sug‘urtasi. Davlat ishchi va xodimlariga qarilikda yordam berish.
1084-yil	Kenterberida (Angliya) kambag‘allar uyi ochildi	Jamoatchilikka asoslangan ijtimoiy yordam
XII asr	Diniy jamiyatlar tomonidan bepul kasalxonalarning Italiya, Fransiya va Angliyada ochilishi. 1291 yilga kelib Yevropada 100ta shifoxona tashkil etildi, jumladan, 60tasi Italiyada, 25 tasi Fransiyada, 7 tasi Germaniyada tashkil etilgan.	Diniy tashkilot tomonidan ijtimoiy yordam ko‘rsatilishi
1215-yil	Angliyada “Erkinlikning buyuk xartiyasi”ning qabul qilinishi	Insonning erkinligi va qadr-qimmati himoyasi
XIV–XV asrlar	Italiya va Fransiyada qarilikka nisbatan annuitetlar va jamg‘armalarning qo‘llanilishi	Annuitet, jamg‘arma va vasiyatni shaxsiy sug‘urtalash mexanizmi
1388-yil	Angliyada “Qashshoqllar” to‘g‘risidagi qonunning qabul qilinishi	Davlat tomonidan kambag‘allarni haqiqiy va haqiqiy bo‘lmagan qashshoqlarga bo‘linishi, hamda sog‘lom odamlarga tilanchilik qilishning man etilishi
1454-yil	Londonda qari dengizchilar uchun boshpana tashkil qilinishi	Shaharda kasbiy o‘zaro yordam
1474	Venetsiyada qari dengizchilar uchun boshpana tashkil qilinishi	Shaharda kasbiy o‘zaro yordam

Ijtimoiy yordamni tashkil qilishda xayriya jamiyatlari, jumladan cherkovlar muhim o‘rin egallagan. Ular kerakli mablag‘larni jamlash va taqsimlash bilan birgalikda jamoat ishlarini tashkil qilish, yetimlarni o‘qitish, kasbiy tayyorlash ishlarini olib borishgan. Ushbu davrdagi ijtimoiy siyosat modeliga quyidagi belgilar xos bo‘lgan:

- moliya resurslarini markazlashmaganligi;
- ijtimoiy yordamga turlicha yondashuv;
- ijtimoiy yordamni ayrim hududlarda repressiv usullar orqali tashkil qilinishi;
- ijtimoiy siyosatni muntazam amalga oshirilmasliki, jumladan uni mavsumiylik, davriylik xususiyati.

Ijtimoiy siyosatning shakllanishi mamlakatlar iqtisodiyotini sanoatlashishi va mehnat bozorini rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Jumladan merkantilizm davrida Angliyada mehnat munosabatlarini tashkil etish uchta ustunga (qonuniy aktlarga) asoslangan. Bular “Hunarmandlar to‘g‘risida”gi nizom, 1601 yilda qabul qilingan “Kambag‘allar to‘risida”gi qonun va 1662 yilda qabul qilingan “Doimiy yashash joyiga bog‘langanlik to‘g‘risida”gi aktidan iborat. “Hunarmandlar to‘g‘risida”gi nizom qishloq xo‘jaligi ishchilariga nisbatan qo‘llanilgan va ushbu nizom quyidagi uchta g‘oyalarga asoslangan:

- mehnat qilishga majbur qilish;
- 7 yil davomida shogird bo‘lib ishlash;
- ish haqini har yili mansabdor shaxslar tomonidan qat’iy belglanishi.

“Kambag‘allar to‘g‘risidagi” qonunga binoan sog‘lom kambag‘allar mehnat qilishi va cherkov tomonidan beriladigan nafaqani ishlab berishlari kerak edi. O‘sha davrdagi sog‘lom kambag‘allik tushunchasi hozirgi ishsizlik tushunchasiga yaqin keladi. “Doimiy yashash joyiga bog‘langanlik to‘g‘risida”gi akt kambag‘allar va tilanchilarga mamlakat hududlari bo‘ylab ko‘chib yurishni man qilardi, bu esa ularni mamlakatning rivojlangan hududlariga ko‘chib borishini va ushbu hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni beqarorlashuvining oldini olardi.

Ushbu tizimda quyidagi jiddiy kamchiliklar mavjud edi: rahbar-xodimlar sonining ko‘pligi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga mahalliy darajada yondashish, korrupsiya va boshqalar. Ushbu kamchiliklarga qaramasdan mazkur tizim Angliyada qishloqlarning ijtimoiy tuzilmalarini salbiy ta’sirlardan ma’lum darajada himoya qilgan.

Ushbu mehnat qonunchiligi ta’sirida Angliyada mehnat bozori shakllana olmagan.

Mamlakat iqtisodiyotidagi sodir bo‘lgan tarkibiy o‘zgarishlar ushbu holatni o‘zgartira olmadi. Faqatgina 1795-yilga kelib ijtimoiy sohada amalga oshirilgan keskin o‘zgarishlar ushbu vaziyatni o‘zgartirdi. Doimiy yashash joyiga bog‘langanlik to‘g‘risidagi qonun bekor qilindi va ishchilar erkin ko‘chib yurish huquqiga ega bo‘lishdi. Mehnat bozori shakllanishi va ijtimoiy hayotning rivojlanishiga salbiy ta’sir qilgan to‘siqlar bekor qilindi.

1795-yil 6-mayda Spinxemlendda (Angliya) og‘ir ijtimoiy vaziyatda Berkshir sudyalari kambag‘allar ish haqi bilan birgalikda qo‘shimcha nafaqa olishlari kerakligi to‘g‘risida qaror qabul qilishdi. Unga binoan non narxidan kelib chiqqan holda maxsus daromadlar shkalasi o‘rnatildi va kambag‘alning ish haqi ushbu o‘rnatilgan me’yordan kam bo‘lsa unga qo‘shimcha nafaqa to‘lash orqali uning daromadi belgilangan darajaga yetkazilishi kerak edi. Spinxemlend qonuni amalda kambag‘allar uchun yashash minimumini o‘rnatdi va ijtimoiy siyosatda keskin o‘zgarishni belgilab berdi. Spinxemlend qonuni qo‘shimcha subsidiya tamoyiliga asoslangan: agar shaxsning daromadi ma’lum bir minimal darajadan past bo‘lsa, unga ushbu yetishmayotgan farq to‘langan, oila, bolalar va boshqalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qator subsidiyalar joriy qilingan.

Spinxemlend qonuni amalda Angliyadagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. XIX asrning boshlarida Angliyada kambag‘allar soni jadal sur’atlar bilan o‘sib bordi. Mamlakatda yashirin ishsizlik kuchaydi, ish haqi eng past darajaga tushdi. Ish haqi darajasi qanchalik pastga tushishidan qa’tiy nazar ishchilar minimal daromad bilan ta’minlanardi. Natijada aholi o‘z xarajatlarini subsidiyalar tizimiga o‘tkazishga harakat qila boshladi. Odamlarning mehnat qilishga bo‘lgan moyilligi, ehtiyoji pasaydi. Ijtimoiy siyosatdagi kamchiliklar sababli ishchilarni subsidiyalash ish beruvchilarni subsidiyalashga aylandi, amalga oshirilgan yangi o‘zgartirishlar qishloq aholisining qashshoqlashuvi va tarkibiy o‘zgarishlarga olib keldi. Ishsizlik va sanoat ishlab chiqarishining keskin o‘zgarishi aholi imkoniyatlarining cheklanishiga sabab bo‘ldi va qishloqning ijtimoiy asoslariga kuchli salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Mehnat unumdorligining ortishiga bo‘lgan rag‘batlar pasaydi.

Ijtimoiy ta’minotni amalga oshrishning iqtisodiy mexanizmi ta’sirida Spinxemlend qonuni 1832-yilda bekor qilindi va 1834-yilda

milliy mehnat bozorini shakllantirish va ijtimoiy siyosatni rivojlantirish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratildi.

Yangi qabul qilingan qonunga ko‘ra, mustaqil yashaydigan odamlar endi ijtimoiy nafaqa olish imtiyoziga ega bo‘lmaydi. Ijtimoiy nafaqalar tabaqalashtirildi va ijtimoiy siyosat umummilliy darajada tatbiq etildi.

3.1.2-jadvalda XVI–XVIII asrlarda ijtimoiy siyosatning rivojlanish bosqichlari keltirilgan:

3.1.2-jadval

Yangi davrda ijtimoiy siyosatni rivojlanish bosqichlari[36]

Davr	Tarixiy hujjat yoki dalil	Ijtimoiy himoyaning xususiyatlari
	Yangi davr	
1563-yil	Hunarmandchilik to‘g‘risida qonun (Angliya)	Hunarmandlar va davlat xizmatchilari mehnat faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi
1601-yil	Angliya qirolichasi Yelizaveta I ning “Kambag‘allik” solig‘i to‘g‘risida 43-sonli qarori – Qambag‘allar va nochor qariyalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash	Qonuniy asosda daromadni boylardan kambag‘allarga qayta taqsimlanishi belgilandi
1662-yil	Doimiy yashash joyiga bog‘langanlik to‘g‘risida akt (Angliya)	Ko‘chma tilanchilik bilan kurashish va kambag‘allarni qo‘llab-quvvatlashning minimal me’yorini belgilash
1666-yil	Hayotni shaxsiy sug‘urtalash elementlarining joriy qilinishi	Hayotni va mol-mulkni ixtiyoriy shaxsiy sug‘urtalash elementlari
1697-yil	Bristolda (Angliyada) birinchi mehnat uyi ochildi	
1765-yil	Angliyada hayot sug‘urtasi bilan shug‘ullanuvchi birinchi sug‘urta jamiyatining ochilishi	Shartnoma asosida tashkil etilgan hayot sug‘urtasi

Sanoat inqilobi sharoitida aholini ijtimoiy himoyalashning ahamiyati oshdi. Ushbu davrda mehnat bozorini samarali tartibga solishning bozor mexanizmining yo‘qligi natijasida aholining real daromadlari qisqarishi

[36] Роик В.Д. Социальное страхование. 2-е изд., пер. и доп. Учебник и практикум для академического бакалавриата. Издательство: Юрайт. 2018. с.75

Angliyada aholining ijtimoiy chiqishlarini kuchaytirdi. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida hukumat aholini ijtimoiy himoya qilish va daromadini qayta taqsimlashning yangi mexanizmini ishlab chiqishga kirishishdi.

Milliy iqtisodiyotning sanoatlashishi milliy boylikning ko‘payishi va mehnat unumdorligining ortishiga olib keldi. Ushbu jarayon ijobiy natijalar bilan birgalikda salbiy oqibatlarga ham sabab bo‘ldi. Iqtisodiyotning sanoatlashishi natijasida aholining daromadlar bo‘yicha tabaqalanish darajasi kuchaydi va jamiyatdagi ijtimoiy nizolarning keskinlashuvi kuchaydi. Ushbu davrda Yevropa mamlakatlarida aholining ¼ dan ½ gacha bo‘lgan qismi kambag‘allar toifasiga kirar edi. Natijada XVIII-XIX asrlarda ijtimoiy muammolarning ko‘payishi va chuqurlashuvi kuzatildi. Ushbu holat davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatni chuqur isloh etishni talab qila boshladi.

3.2. XIX asrda Yevropada ijtimoiy siyosat

XIX asrda Yevropada kishilar kambag‘allik va salomatlikning yomonlashishi bilan bog‘liq bo‘lgan risklar(xatarda)da o‘zlarining oilalari, do‘stlari va hamkasblari yordamida himoya, panoh izlaganlar. Angliya va Uelsda ijtimoiy siyosat yurgizishda XVI asrda qabul qilingan kambag‘allik to‘g‘risidagi qonun huquqiy me’yoriy hujjat hisoblangan.[37] G‘arbiy Yevropada zamonaviy ijtimoiy davlatlarning rivojlanishi XIX asr oxirlariga to‘g‘ri keladi. Ijtimoiy siyosatning dastlabki rivojlanishida ijtimoiy himoyaning uchta shakli: bir-biriga aloqador bo‘lgan sex va gil’diyalar doirasida o‘zaro bog‘liq sug‘urtalash; ish beruvchining ishlovchilarni baxtsiz hodisalarda ijtimoiy sug‘urtani ta’minlash; davlat tomonidan ijtimoiy yordam ko‘rsatish elementlari qo‘llanila boshlandi. O‘rta asrlarning oxirlaridayoq sex va gil’diyalar o‘z nizomlariga a’zolik badali hisobiga shakllanadigan sug‘urta fondlari va umumiy kassadan mablag‘larni xarajat qilishni kiritgan edilar. XIX asrda jamiyatlarning o‘zaro ixtiyoriy ijtimoiy yordam ko‘rsatishlari Angliya, Niderlandiya, Shveysariya, Belgiya, Fransiya, Daniya va Shvetsiya kabi mamlakatlarda keng tarqaldi. Ushbu davrga qadar kambag‘allarni ijtimoiy jihatdan ta’minlash faqatgina cherkovning vazifasiga kirar edi. Beriladigan ijtimoiy yordamlar asosan natural ko‘rinishda bo‘lib, aholining qashshoq, ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamlariga ko‘rsatilar edi. Buyuk Fransuz inqilobiga qadar G‘arbiy Yevropaning barcha mamlakatlarida davlat

[37] The student’s companion to Social Policy P. 111

tomonidan kambag‘allarga ijtimoiy yordam berish qoidalarini nazarda tutuvchi qonunlari qabul qilindi.

XIX asrda sanoat kapitalizmi rivojlanish davrining boshlanishida ijtimoiy sug‘urta institutlari shakllana boshladi. XIX asr boshlarida Angliya, Germaniya va Fransiyada o‘zaro yordam sug‘urtalash jamiyatlari faoliyat yuritgan. Jumladan, Angliyada “Friendly societies” nomli do‘stlik jamiyati, Fransiyada “Societies de secours mutuels” o‘zaro yordam jamiyatlari faoliyat ko‘rsatib, ularning maqsadi sug‘urtalangan xodimning kasalligida, talofat ko‘rganda yoki o‘lim holati yuz berganda minimal sug‘urta to‘lovlarini ta’minlashdan iborat bo‘lgan. Shu davrda o‘zaro sug‘urtalash jamiyatlari vazifalarini kasaba uyushmalari bajarib, ular ishchilarga ishsizlik, nogironlik va kasallik davrida moddiy yordam ko‘rsatgan. Vaqt o‘tishi bilan kasaba uyushmalar tomonidan ixtiyoriy sug‘urtalash amaliyoti ijtimoiy sug‘urtaning majburiy tizimi bilan almashgan bo‘lishiga qaramasdan, ayrim davlatlarda (Daniya va Shvetsiyada) hozirga qadar kasaba uyushmalari ishsizlik bo‘yicha ixtiyoriy ravishda sug‘urtani amalga oshiradilar. Alohida olingan ijtimoiy muammolarni davlat miqyosida hal etishga urinishlar dastlab aholining ayrim guruhlarigagina taalluqli bo‘lgan.[38] 1844-yilda Belgiyada dengiz xizmatchilarini kasallik, nogironlik va yoshi bo‘yicha; 1854-yilda Prussiya va Avstriyada shaxtada ishlovchilarni majburiy sug‘urtalash joriy etilgan. 1852-yilda Fransiyada o‘zaro yordam kassalariga davlat subvensiyalari joriy etilgan va mablag‘larning cheklanganligi sababli ushbu amaliyot rivojlanmadi. Tarixiy faktlar guvohlik berishicha, o‘sha davrda mamlakatning ijtimoiy ta’minot bo‘yicha xarajatlarini davlat byudjeti va majburiy ijtimoiy sug‘urtalash tashkilotlari tomonidan sug‘urtalashni moliyalashtirish uchun yetarli mablag‘ mavjud emas edi. XIX asr oxirlariga kelib, jamoatchilik ongida ijtimoiy – demokratik qarashlarning keng yoyilishi, rivojlanishi asta – sekinlik bilan majburiy ijtimoiy sug‘urta tizimini shakllanishiga olib keldi. Baxtsiz hodisalar, kasallik va mehnatga layoqatsizlik bo‘yicha majburiy ijtimoiy sug‘urtalash birinchilardan bo‘lib Germaniyada joriy etildi, jumladan 1883-yilda kasallik, 1884-yilda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va 1889-yilda qarilik va nogironlik bo‘yicha ijtimoiy sug‘urtalash amaliyotga kiritilgan. 1887-1888-yillarda Avstriyada kasallik va ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash to‘g‘risidagi davlat qonunlari qabul qilingan.

[38] The student’s companion to Social Policy P. 115.

XIX asrning oxirida Yevropa mamlakatlari Germaniya tajribasi o‘rnak asosida o‘zlarining ijtimoiy ta’minot qonunchiliklarini yaratdilar. Ushbu qonunlarda davlatning majburiy ijtimoiy sug‘urta tizimi va ixtiyoriy sug‘urtalashni amalga oshirishda byudjetdan dotatsiyalash ko‘zda tutilgan edi. Birinchi jahon urushiga qadar Yevropa mamlakatlarining ko‘pchiligida majburiy sug‘urta tizimi kasallik, nogironlik, ishlab chiqarishdagi talofat va qarilik bo‘yicha joriy qilingan. G‘arbiy Yevropada ijtimoiy sug‘urta tizimlarining aksariyati ishsizlik bo‘yicha sug‘urtalashni istisno etgan holda 1885-yildan 1915-yillargacha shakllangan.

3.2.1-jadval ma’lumotlarining qiyosiy tahlili G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida dastlabki ijtimoiy sug‘urtalash tizimini tashkil etishda qator muammolar vujudga kelganligini ko‘rsatadi. Jumladan, Yevropa davlatlarida alohida ijtimoiy sug‘urtalash tizimini kiritish bosqichma-bosqich amalga oshirilib, dastlab baxtsiz hodisalar, kasallik, qarilik nafaqasi bo‘yicha va ishsizlikdan sug‘urtalash amalga oshirilgan.

3.2.1-jadval

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy sug‘urtalash tizimining joriy qilinishi[39]

Mamlakatlar	Baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash	Tibbiy sug‘urta	Pensiya sug‘urtasi	Ishsizlik bo‘yicha sug‘urta
Belgiya	1971	1944	1924	1944
Germaniya	1884	1883	1889	1927
Daniya	1916	1933	1921/22	1907
Finlyandiya	1895	1963	1837	1917
Fransiya	1946	1930	1910	1967
Buyuk Britaniya	1946	1911	1925	1911
Irlandiya	1966	1911	1960	1911
Islandiya	1925	1946	1946	1956
Italiya	1898	1928	1919	1919
Lyuksemburg	1902	1901	1911	1921
Niderlandiya	1901	1929	1913	1949
Norvegiya	1894	1909	1936	1938
Avstriya	1887	1888	1927	1920
Shvetsiya	1916	1953	1913	1934
Shveytsariya	1911	1911	1946	1976

[39] The student’s companion to Social Policy P. 116.

Ijtimoiy ta’minot tizimining ushbu ko‘rinishdagi ketma-ketligi ikki omil bilan izohlanadi: 1) sug‘urta tizimini tashkil etishning murakkablik darajasi; 2) ushbu tizimning iqtisodiyotning erkinligi tamoyillariga muvofiqligi.

3.3. XX asr boshlarida ijtimoiy siyosatdagi islohotlar

XX asr boshlaridagi Yevropa ijtimoiy siyosati tizimi dastlabki jamoaviy ixtiyoriy o‘zaro yordamdan farqli o‘laroq qator o‘ziga xos sifat xususiyatlariga ega bo‘ldi. Birinchidan, ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solish qonunchilikka asoslandi. Ikkinchidan, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa, kasallik, nogironlik, qarilik, boquvchisini yo‘qotganlik va ishsizlik bo‘yicha ijtimoiy risklar paydo bo‘lganda daromadlarni qoplab berish shaklidagi ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatildi. Uchinchidan, ushbu xususiyatlar ijtimoiy ta’minotni alohida mutaxassisliklar yoki aholi guruhlari o‘rtasida cheklab qo‘ymadi, jumladan ishchilarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish ularning daromadlari miqdoriga bog‘liq ravishda ko‘rsatildi. To‘rtinchidan, ijtimoiy sug‘urta tizimi bir tomondan mehnat qiluvchilar, ikkinchi tomondan esa davlatning zimmasiga majburiylik xarakterini kasb etdi. Beshinchidan, ijtimoiy sug‘urtalash tizimini moliyalashtirishda yollanib ishlovchi, ish beruvchi va davlat ishtirok etadi. Nihoyat, ijtimoiy sug‘urtalash tizimining muhim xususiyati shundan iborat bo‘ldiki, ijtimoiy ta’minotga nisbatan fuqaroning ijtimoiy xizmatlardan foydalanish huquqi sifatida qaraladigan bo‘ldi. Ijtimoiy yordam munosabatlarida ijtimoiy sug‘urta tizimini institutsionallashtirish tom ma’nodagi keskin burilish pallasi bo‘ldi. Shunday qilib, davlat ijtimoiy sug‘urtasining tayanch g‘oyasi ijtimoiy risklar bo‘yicha javobgarlikni ish beruvchi, yollanib ishlovchi va davlat o‘rtasida taqsimlanadigan bo‘ldi. Ish beruvchi va davlat ishtirokidagi ijtimoiy birdamlik g‘oyasiga urg‘u berildi.

XX asrga kelib Buyuk Britaniya sanoat sohasida jahondagi yetakchi mamlakat bo‘lmay qoldi. Birlashgan qirollik birinchi va ikkinchi sanoat inqilobida yetakchi bo‘lganiga qaramasdan, uni Yevropaning boshqa davlatlari, jumladan Germaniya sanoatlashish sohasida quvib o‘tdi.[40]

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy sug‘urtaning kiritilishi sanoatlashish va urbanizatsiyaning turli darajalarida ro‘y berdi. Ba’zi davlatlar (jumladan, Avstriya) ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning nisbatan quyi darajasida, boshqa davlatlar (jumladan, Niderlandiya va Buyuk

[40] The student’s companion to Social Policy P. 118.

Britaniya) esa yetarlicha yuqori darajada edi. Yevropaning yuqori darajada sanoatlashgan beshta davlati (Buyuk Britaniya, Belgiya, Shveysariya, Niderlandiya va Fransiya) bilan nisbatan kamroq sanoatlashgan beshta davlati (Norvegiya, Shvetsiya, Avstriya, Italiya va Finlyandiya) bilan qiyosiy taqqoslanganda keyingilarida 1900 yillarda ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha qabul qilingan dasturlar 6 ga 8 nisbatdan ko‘proq bo‘lgan. Bu shundan dalolat beradiki, iqtisodiy taraqqiyot va sanoatlashishning yuqori darajasi o‘z-o‘zidan mamlakatda ijtimoiy siyosatni joriy etishning sababchisi bo‘la olmaydi. Aksincha, tarixiy faktlarning guvohlik berishicha, Germaniya, Avstriya, Shvetsiya kabi o‘sha davrda iqtisodiy jihatdan nisbatan kam rivojlangan davlatlar ijtimoiy sug‘urta dasturlarini joriy etish borasida peshqadam bo‘lganlar, Buyuk Britaniya va Niderlandiya kabi yuqori sanoatlashgan davlatlar ortda qolgan. Shuningdek, mamlakatning siyosiy jihatdan rivojlanganligi ijtimoiy ta’minot sohasidagi islohotlarni joriy etishni ta’minlab bera olmaydi. XX asrdagi yuz yillik tajriba demokratik tuzum o‘rnatilgan davlatlarga nisbatan konstitutsion monarxiya amal qilgan davlatlarda ijtimoiy siyosat dasturlari keng qamrovli bo‘lganligidan guvohlik beradi. Ushbu g‘oya, ijtimoiy sug‘urtani joriy etishda peshqadam bo‘lgan Germaniya, Avstriya va Shvetsiya tajribasida yaqqol namoyon bo‘ldi. Buni avtoritar tuzum (kayzer boshqaruvidagi Germaniya)da liberal g‘oyalarning ta’siri kam bo‘lganligi bilan izohlash mumkin. Germaniyadan farqli o‘laroq, Yevropaning Angliya, Niderlandiya kabi mamlakatlari ijtimoiy ta’minot dasturlari tizimini joriy etishga shoshilmadilar. Ushbu jarayonga bozorni erkinlashtirish g‘oyalari emas, balki siyosiy guruhlarning manfaatlari ham ta’sir ko‘rsatgan.

Buyuk Britaniyada 1902-yildagi ingliz urushidan so‘ng asosiy siyosiy partiya vakillari va siyosatshunoslar ijtimoiy siyosat sohasida muayayn me’yorlarni qabul qilish zaruriyatini angladilar. Konservatorlar partiyasi vakili Djozef Chemberlen tomonidan ishsizlarni jamoatchilik asosida himoya qilishni isloh etishga qaratilgan maxsus dastur ishlab chiqildi.[41] Ushbu dasturlar, Angliyadan tashqari Skandinaviyada qabul qilindi va ularni rivojlantirishda ishchilar harakati muhim rol o‘ynagan.

3.3.1-jadval ma’lumotlarida kasallik, qarilik, ishsizlik va baxtsiz hodisalar bo‘yicha sug‘urtalanganlar soni umumiy aholi soniga nisbatan olingan va qamrov darajasining o‘sib borayotganligini kuzatish mumkin.

[41] The student’s companion to Social Policy P. 132.

3.3.1-jadval

G‘arbiy Yevropa mamlakatlari aholisining ijtimoiy sug‘urta bilan qamrab olinganlik darajasining o‘zgarishi (foiz hisobida)[42]

Davlatlar	Yillar								
	1900	**1905**	**1910**	**1915**	**1920**	**1925**	**1930**	**1935**	**1940**
Avstriya	9,6	10,5	13,1	13,3	27,5	32,0	46,1	39,8	40,2
Belgiya	3,8	14,8	17,5	17,5	25,5	26,8	33,3	34,8	34,3
Daniya	10,5	13,8	25,8	30,8	44,3	66	67,8	70,8	71,5
Germaniya	40,8	40,3	44,5	42,8	45,5	48,8	61,3	57,8	67,3
Finlyandiya	1,8	1,8	2,1	2,4	4,0	4,8	8,3	8,3	34,5
Fransiya	6,8	8,5	12,8	11,5	12,8	22	30,3	31,5	37,5
Irlandiya						30,3	30,3	33,3	46,3
Italiya	2,8	4,1	4,8	4,8	27,3	29,3	31,4	36,2	44,5
Niderlandiya		6,3	7,0	7,3	25,3	27,3	41,3	38,5	41,5
Norvegiya	3,3	3,5	4,5	17,8	23,3	20,5	22,3	24,5	64,8
Shvetsiya	3,3	9,5	11,8	37,1	46,3	45,4	47,5	47,8	54,5
Shveysariya	4,4	4,3	4,8	10,8	18,8	22,8	31,3	34,5	36,8
Angliya	9,8	9,3	17,5	36,3	43,3	52,5	72,5	71,8	79,2
Yevropa bo‘yicha o‘rtacha	**8,0**	**10,5**	**13,8**	**19,3**	**28,6**	**31,3**	**40,2**	**40,7**	**51,1**

I va II jahon urushlari o‘rtasidagi davrda qabul qilingan ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda parlamentning so‘l partiyalari faollik ko‘rsatishgan. Yuqoridagi sabablarga ko‘ra ijtimoiy siyosat “yuqori”dan emas, balki “quyi” bosqichdan, ya’ni yollanib ishlovchilarning vakillari tashabbusi bilan rivojlanib borgan.

1942-yilda chop qilingan ijtimoiy sug‘urta to‘g‘risidagi Beveridj ma’ruzasida urushdan keyingi ijtimoiy siyosatga alohida e’tibor qaratilgan. Koalitsion hukumat tomonidan 1944-yilda qabul qilingan ta’lim to‘g‘risidagi qonundan kelib chiqqan holda ijtimoiy ta’minot, bandlik va tibbiy xizmat ko‘rsatish masalalariga oid hujjatlarni o‘z ichiga oluvchi qator hisobotlar chop etildi.[43]

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida qabul qilingan ijtimoiy himoya dasturlarida aholini ijtimoiy xizmatlar bilan ta’minlanishi o‘rtasidagi tafovutlarni kamaytirish nazarda tutildi. Nazariy jihatdan «ijtimoiy davlat» tushunchasi paydo bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda davlatning roli ortib bordi. G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridagi ikkinchi jahon urushidan keyingi 1950-1980 yillarda

[42] The student’s companion to Social Policy P. 130.
[43] The student’s companion to Social Policy P. 136.

YaIM ga nisbatan ijtimoiy xarajatlarning ulushi 10 dan 20 foizgacha yetdi. Norvegiya, Shvetsiya, Daniya va Italiyada ijtimoiy maqsadlar uchun xarajatlarni o‘sish sur’atii boshqa davlatlarga nisbatan yuqori bo‘ldi. Jumladan, Shvetsiyada ijtimoiy himoyaga sarflangan xarajatlarni YaIMdagi ulushi 20 foizga yetdi (3.3.2-jadval). Ijtimoiy xarajatlarning ortishiga sabab ijtimoiy sug‘urta aholining o‘quvchilar, talabalar, uy bekalari va boshqa ilgari sug‘urtalanmagan yangi qatlamlari, guruhlarini qamrab olishi sabab bo‘ldi.

3.3.2-jadval

1950–1980-yillarda Yevropa Ittifoqiga kiruvchi o‘nta mamlakatning ijtimoiy himoyaga sarflangan xarajatlari (YaIM ga nisbatan %da)[44]

Mamlakatlar	1950 y	1955 y	1960 y	1965 y	1970 y	1975 y.	1980 y.
Germaniya	14,8	14,2	15,1	16,6	17,3	23,7	24,2
Daniya	8,4	9,8	11,1	12,2	16,6	22,5	29,9
Finlyandiya	6,7	7,6	8,7	10,6	13,1	15,7	18,4
Fransiya	-	13,4	13,4	15,85	15,3	24,1	26,7
Buyuk Britaniya	10,3	9,5	11,2	11,7	13,8	16,4	17,3
Italiya	8,5	10,4	11,7	14,8	16,3	21,2	21,5
Niderlandiya	7,1	8,4	11,1	15,7	20,2	25,5	28,3
Norvegiya	5,7	7,5	9,4	10,9	15,5	18,5	20,2
Avstriya	12,4	12,8	13,8	17,8	18,8	20,2	22,5
Shvetsiya	8,3	9,9	11,3	13,6	18,8	25,1	31,9
O‘rtacha	9,3	10,2	11,4	13,4	15,8	21,4	24,3

Aholining farovonligini oshirishda Beveridj hisobotida ko‘rsatilgan beshta yirik chegaralanish: kambag‘allik, boshpanasizlik, kasallik, savodsizlik va ishsizlikni bartaraf etish muhim hisoblangan. Ushbu davrda davlat tayanch sanoat tarmoqlarini milliylashtirish va rag‘batlantiruvchi soliq tizimini shakillantirish bilan birgalikda birdamlikka asoslangan jamiyatni keltirish vazifasini bajardi. 1946 yilda Buyuk Britaniyada qabul qilingan Sug‘urtalash to‘g‘risidagi milliy qonunda ishsizlik, kasallik, homiladorlik va tug‘ruq bo‘yicha nafaqalar, yoshga doir pensiyalar va zarur hollarda vafot etganlik munosabati marhumning yaqinlariga moddiy yordamlar ko‘rsatish belgilab qo‘yildi. Ijtimoiy siyosat 20 yil davomida Beveridj tomonidan ishlab chiqilgan ko‘rsatma va tavsiyalarini qamrab olgan model bo‘yicha amalga oshirildi.[45]

[44] The student’s companion to Social Policy P. 128.
[45] The student’s companion to Social Policy P. 128

Ijtimoiy hayotga davlatning faol aralashuvi ijtimoiy himoya dasturlarining qamrovini kengaytirishga shart-sharoitlar yaratish bilan birgalikda, davlatning ijtimoiy sug‘urta faoliyatini amalga oshiruvchi ishtirokchiga aylantirdi. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishga ustuvorlik berilishi mintaqa iqtisodiyotidagi 1950–1970-yillardagi qulay iqtisodiy kon’yunktura bilan birgalikda ko‘pchilik hukumat tepasiga ijtimoiy yo‘naltirilgan siyosat tarafdori hisoblangan partiyalar vakillarining kelishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Empirik tadqiqotlar ko‘rsatishicha, hukumatlarning g‘oyaviy yo‘naltirilganligi XX asrning 70-yillaridagi iqtisodiy pasayish davrida ham ijtimoiy dasturlarning kengayishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmadi. Hukumatlardagi partiyaviy-siyosiy tarkib va ularning g‘oyaviy yo‘nalishlaridan qat’iy nazar 1980-yillarning boshlarigacha ijtimoiy xarajatlarning o‘sish sur’atlari G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida yuqori bo‘ldi (3.3.3-jadval).

3.3.3-jadval

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy xarajatlarning iqtisodiy-siyosiy determinantlari[46]

Mamlakat nomi	Ijtimoiy xarajatlar, %da		Ijtimoiy xarajatlarning o‘zgarishi, %da	Iqtisodiy o‘sish, %da	Parlamentdagi partiyaviy hukumat
	1973 y	1981 y	1973-1981 yy	1974-1981 yy	1974-1981 yy
Belgiya	21,7	29,7	+8,0	2,2	Konservativ
GFR	21,3	25,1	+3,8	2,3	Sotsial-demokratik
Daniya	20,0	24,7	+4,7	1,4	Sotsial-demokratik
Finlyandiya	15,2	20,2	+5,0	2,7	Aralash
Fransiya	17,4	24,5	+7,1	2,5	Konservativ
Buyuk Britaniya	13,8	19,1	+5,3	0,6	Aralash
Irlandiya	14,2	18,9	+4,7	3,7	Konservativ
Italiya	18,6	21,2	+2,6	2,4	Konservativ
Niderlandiya	24,7	27,9	+3,2	1,8	Konservativ
Norvegiya	18,8	21,2	+2,4	4,2	Sotsial-demokratik
Avstriya	19,0	22,9	+3,9	2,6	Sotsial-demokratik
Shvetsiya	18,1	27,8	+9,7	1,5	Aralash

[46] The student’s companion to Social Policy P. 130

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy xarajatlar tarkibini tahlil qilish ijtimoiy himoyani moliyalashtirishning quyidagi tarkibiy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi:

- G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining barchasida ijtimoiy xarajatlar o‘sishining aksariyat qismi pensiya ta’minoti, sog‘liqni saqlash va ishsizlik bo‘yicha sug‘urtalash yunalishlari hissasiga to‘g‘ri keladi;
- ijtimoiy ta’minotga nisbatan tibbiy sug‘urta xarajatlari kam ahamiyatli edi;
-ishsizlik va ijtimoiy yordam dasturlarini moliyalashtirish ustuvorlik jihatidan oxirigi o‘rinlarda edi.

1950–1980-yillarda Yevropaning integratsiyalashuvi jarayonida ijtimoiy siyosatga oid huquqiy-me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ular tarkibiga Yevropa hamjamiyatining tayanch aktlari hisoblangan Yevropa ijtimoiy xartiyasi (1961-y), fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini, jumladan ijtimoiy himoyaga oid kafolatlovchi Ijtimoiy ta’minot to‘g‘risidagi Yevropa Kodeksi (1968-y), Ijtimoiy ta’minot to‘g‘risidagi Yevropa Konvensiyasi (1977-y), Ishchilarning ijtimoiy huquqlari to‘g‘risidagi Xartiya (1989) va boshqa huquqiy-me’yoriy hujjatlar kirgan.

1973–1974-yillardagi iqtisodiy inqiroz ijtimoiy himoyaga ajratiladigan moliyaviy mablag‘larning o‘sish sur’atlarini sekinlashishiga sabab bo‘ldi.

3.4. Aholining ijtimoiy ta’minoti tizimini isloh etishning neoliberal modeli

Ijtimoiy siyosat to‘g‘risida Yevropada 1992-yilda Yashil kitob va 1994-yilda Oq kitob nashr qilingan. Yevropada ijtimoiy himoya tizimini tartibga solish turli bozor mexanizmining monetar konsepsiyalari, dasturlari bilan uyg‘unlikda amalga oshirildi. Shunday konsepsiyalardan birining asoschilari Milton Fridman va Uilyam Niskanen hisoblangan neoliberal nazariyasi bo‘lib, unda ijtimoiy ta’minot institutlari insonlarning ehtiyojidan kelib chiqib tashkil etilganligi ta’kidlanadi.[47]

Neoliberal siyosatning amalga oshirilishi ijtimoiy ta’minotga yunaltirilgan xarajatlarning ortishiga olib keldi. 1979–1991-yillarda Margaret Tetcher bosh vazirligi davrida qat’iy konservativ ijtimoiy siyosat olib borilgan. M.Tetcher hukumati tomonidan maktab va shifoxonalarni xususiylashtirish g‘oyasi ilgari surilgan bo‘lib, xususiy tibbiy sug‘urtani rivojlantirish, xususiy individual jamg‘arib boriladigan

[47]The student’s companion to Social Policy P. 131

pensiya tizimini joriy etish, kam ta'minlanganlarni subsidiyalash orqali ijtimoiy ta'minot xarajatlarini cheklash kabi tadbirlarni amalga oshirgan.[48] Buyuk Britaniyada olib borilgan ijtimoiy islohotlar og'ir kechdi va jamiyatdagi ijtimoiy vaziyatning yomonlashuviga olib keldi.

Jahon iqtisodiyotini globallashuvi milliy boshqaruv organlarining erkinliklarini cheklash orqali ijtimoiy himoya tizimining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, Fransiyada rivojlangan ijtimoiy himoya tizimi fransuz jamiyatini «yangi kambag'allar» ning shakllanishiga sababchi bo'ldi. Turmush darajasi va narxlarni o'rganuvchi Markaz ma'lumotlariga qaraganda 1979-1988 yillarda kambag'allarning soni 2 mln. kishiga ortib umumiy hisobda 8 mln. kishiga yetgan.

1999-yilda Yevropa Ittifoqidagi ijtimoiy himoya xarajatlari YaIMga nisbatan o'rtacha 27,5%ni tashkil etgan. Qiyosiy tahlillar, ijtimoiy sarflarning eng yuqori darajasi Shvetsiyada (33%) va eng quyi darajasi Irlandiyada (14,8%) bo'lganligi kuzatildi. XXI asr boshlarida mintaqa mamlakatlarida ijtimoiy sarflar to'xtovsiz o'sib borish tendensiyasiga ega bo'ldi. Bunga sabab mehnatga layoqatli aholining tarkibida ishlayotgan pensionerlar ulushining ortishi, keksalarga xizmat ko'rsatish va sog'liqni saqlash xarajatlari hajmining ortishi bo'ldi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarini YaIM tarkibida ijtimoiy maqsadga sarflangan xarajatlarning ulushiga ko'ra to'rtta guruhga ajratish mumkin:

1) Gretsiya, Ispaniya, Portugaliya va Irlandiya (15% dan 25 %gacha).

2) Italiya, Finlyandiya va Buyuk Britaniya (o'rtacha 25 %).

3) Belgiya, Germaniya, Fransiya va Avstriya (25 dan 30 %gacha).

4) Lyuksemburg, Daniya, Niderlandiya va Shvetsiya (30% va undan yuqori).

XX asrning oxirida Yevropa Ittifoqining ko'plab davlatlarida YaIMda ijtimoiy xarajatlar o'sish sur'atlarining kamayishi kuzatildi. Tahlillar ko'rsatishcha, Gretsiya, Portugaliya va Germaniyada ijtimoiy xarajatlar borasida teskari tendensiyalar kuzatildi.

Yevropa mamlakatlaridagi ijtimoiy siyosatga ta'sir etuvchi muhim omil bu globalizatsiya jarayonlari hisoblanadi. Ularning ijtimoiy himoyaga ta'siri qator shart-sharoitlar bilan belgilanadi. Birinchidan, zamonaviy yuqori texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish va ishlab chiqarishning tarmoqli tashkil etishga asoslangan yangi turdagi iqtisodiyotning shakllanishi, milliy institutsional tizimlar o'rtasida

[48] The student's companion to Social Policy. P. 132.

raqobatning kuchayishiga olib keldi. Ikkinchidan, moliyaviy va sanoat globallashuvi davlatning ichki moliya va soliq siyosatining muqobil emasligi sharoitida kapital oqimining chetga oqib ketishi xavfini kuchaytiradi. Bu esa hukumatdan qat'iy byudjet siyosatini olib borishni va ijtimoiy sohaga yunaltirilgan xarajatlatni kamaytirishni talab etdi. Aholining ijtimoiy himoyalanganlik darajasini ko'rsatuvchi omillar sifatida ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi, ijtimoiy ta'minotda nodavlat tashkilotlar va mikrosug'urtalashning turli shakllarining farqlash mumkin.

Odatda ijtimoiy himoya tizimi quyidagi moliyalashtirish manbalaridan foydalanadi: 1) ish beruvchi va yollanib ishlovchilar tomonidan to'lanadigan sug'urta badallari; 2) umumiy davlat daromadlarini bir qismini tashkil etuvchi soliqlar; 3) investitsion daromad; 4) naqd shakldagi xususiy qo'yilmalar. Moliyalashtirish amaliyotida ko'pchilik ijtimoiy himoya tizimi bir vaqtning o'zida qator manbalardan moliyalashtiriladi. Yevropa Ittifoqining ikkita mamlakatida, Daniya va Irlandiyada davlat byudjeti mablag'laridan moliyalashtirishga ustuvorlik beriladi.

3.5. XXI asr boshlarida ijtimoiy siyosatni modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishlari

XXI asr boshlaridagi ijtimoiy siyosatni modernizatsiyalash AQShda B.Klinton nomi bilan, Buyuk Britaniyada esa T.Bler siyosati bilan chambarchas bog'liq. Angliyada 2001-, 2005-yillarda o'tkazilgan saylovlarda g'olib chiqqan Yangi leyboristlar partiyasi «umumiy farovonlikka erishishda davlatni modernizatsiyalash» ga harakat qildi.[49]

Zamonaviy ijtimoiy siyosatni modernizatsiyalash quyidagi ustivor yo'nalishlarda amalga oshirildi:

1. Mehnat bozorida davlat siyosatining amalga oshirish mexanizmi va dastaklari samaradorligini oshirish;
2. Aholining ijtimoiy jihatdan kam ta'minlangan va muhtoj qatlamining turmush darajasi va ijtimoiy himoyasi sohasidagi davlatning rolini kuchaytirish;
3. Pensiya ta'minotini takomillashtirish;
4. Ta'lim tizimini isloh etish;
5. Sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlash;
6. Gender tengligini ta'minlash;

[49] The student's companion to Social Policy. P. 136.

7. Yosh avlodni barkamol rivojlanishini ta’minlash;

8. Aholining turmush darajasini oshirish va sifatini yaxshilashga qaratilgan siyosat;

9. Atrof – muhitni muhofaza qilish.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida ijtimoiy siyosatni amalga oshirish qayd etilgani tufayli quyidagi natijalarga erishildi va o‘rta istiqbolda ijtimoiy siyosatni amalga oshirishni modernizatsiyalashni ustuvor yonalishlari mavjud.

Mehnat bozorida davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmi va dastaklari.

Mehnat bozorida sifat va miqdor jihatidan muvozanatni ta’minlash maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Bozordagi talabning shakllanishi sohasida:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida yangi ish o‘rinlarini tashkil etishga alohida e’tibor qaratildi;
- transport va kommunikatsiya qurilishi infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari amalga oshirildi;
- migratsiya tizimi jarayonlarini tartibga solish va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan qonunchilik takomillashtirildi.

Mehnat taklifi siyosatini takomillashtirish sohasida:

- umumta’lim maktablarning yuqori sinflari, mutaxassislik kollejlari va OTMlarida sanoat ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda amaliy yo‘naltirilgan dasturlarni kuchaytirish;
- mehnat bozoridagi taklifni va uning talabga mos kelishini monitoring qilish dasturini takomillashtirish;
- xalqaro kelishuvlar me’yorlariga muvofiq, mehnat migratsiyasini ijtimoiy himoyalanganligi va qonuniyligi dasturlarini kegaytirish;
- strategiyada ko‘zda tutilgan aholining bandligini ta’minlash chora – tadbirlarini amalga oshirish.

Ishchi kuchi sifati va uning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish sohasida:

- kadrlarni tayyorlashda iqtisodiyot tarmoqlarini, qayta ishlash sanoati, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini modernizatsiyalash va tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshrish parametrlari va yo‘nalishlariga uyg‘un holda mutaxassislik kasb-hunar kollejlarini yanada ixtisoslashuvini ta’minlash;

- mehnat bozoridagi talab va unga mos keluvchi mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish, yangi o‘quv muassasalarini va mutaxassisliklarni tashkil etish;

- tegishli mutaxassisliklar bo‘yicha oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida kadrlar tayyorlashga tashkilot va korxonalarni buyurtmalarini oldindan shakllantirish va samradorligini oshirish bo‘yicha joriy monitoring olib borish.

Aholining ijtimoiy jihatdan kam ta’minlangan va muhtoj qatlamining turmush darajasi va ijtimoiy himoyasi sohasidagi davlatning rolini kuchaytirish:

- pensiya ta’minoti bo‘yicha amaldagi imtiyozlar, jumladan, gender bo‘yicha imtiyozlar tartibga solindi va optimallashtirildi;

- mehnat jarayondagi talofatlar va kasbiy kasalliklar bilan bog‘liq zararlarni qoplashda sug‘urtalash tamoyillari kuchaytirildi;

- yolg‘iz keksalar, nogironlar va mehnatga layoqatsiz fuqarolarning manzilli himoyasini kuchaytirish Dasturi qabul qilinib, amaliyotga joriy etildi;

- oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida kam ta’minlangan oilalarga maqsadli mikrokreditlar ajratildi;

- mehnat bozorida tanglik bo‘lgan hududlarga ishsizlikni kamaytirish uchun sanoat ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasida maqsadli yangi korxonalar joylashtirildi;

- hududlarni obodonlashtirish, transport infratuzilmasini rivojlantirish, yolg‘iz qariyalarni parvarishlash kabi pul to‘lanadigan jamoat ishlarida ishsiz fuqarolar ishtiroki oshirildi;

- tadbirkorlik faoliyatiga xususiy biznesni kengaytirish maqsadida imtiyozli kreditlarni ajratish orqali yoshlarga ishchi o‘rinlarini yaratish.

Pensiya ta’minotini takomillashtirish:

- pensiya ta’minotiga oid imtiyozlar tartibga solindi va soddalashtirildi;

- kelgusidagi pensiya miqdoridan kelib chiqib pensiya fondi mablag‘larini shakllantirishda fuqarolarning shaxsiy ishtiroki to‘liqroq ta’minlandi;

- STIR asosida ishchi-xizmatchilarning daromadlari va mehnat stajini hisobga olishning yagona axborot bazasi yaratildi;

- pensiya jamg‘armasi daromadlarini qisman shakllantirish optimallashtirildi.

Ta’lim tizimini kelgusida takomillashtirish:

Maktabgacha ta'limning an'anaviy shakllari, jumladan xususiy bog'chalarni tashkil etish hisobidan kengaytirildi va mustahkamlandi.

Boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim sohasida 9 yillik majburiy maktab ta'limiga o'quvchilar to'liq qamrab olinib, ularning o'zlashtirishlari va o'qitish sifati oshirildi.

O'rta maxsus mutaxassislik ta'limi sohasida akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining moddiy-texnik bazasi takomillashtirildi hamda 9 sinf bitiruvchilari to'lig'icha ularga qamrab olindi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ta'lim olayotgan kam ta'minlangan oilalarning bolalariga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatildi. Jumladan, jamoat transportida bepul qatnash, chin yetimlarga yotoqxonlarda bir martalik bepul ovqat berish kabilar.

Oliy ta'lim sohasida OTMlarning moddiy texnik bazasini rivojlantirishga qaratilgan maxsus davlat dasturi qabul qilinib, uning doirasida o'quv binolari, laboratoriyalarda qurilish, rekonstruksiya, ta'mirlash ishlari olib borildi. OTMlarda o'qitishning zamonaviy texnik vositalari, inventarlar va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi ortdi. Qabul kvotalarida muhandislik va texnik mutaxassisliklar bo'yicha qabul kengaytirildi. Shuningdek, OTMlarga qabul qilishda hukumat miqyosida qabul qilingan Qoidalarga muvofiq kam ta'minlangan oilalardan chiqqan iqtidorli yoshlarga Vazirlar Mahkamasi tomonidan imtiyozlar yaratilgan.

Sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlash sohasida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- tibbiy xizmatlar ko'rsatish sifati, davolash va diagnostika standartlarini yangilash konsepsiyasini davolash –profilaktika muassasalarining amaliyotiga joriy etildi va sog'liqni saqlash tizimida islohotlar olib borildi;
- kam ta'minlangan shaxslar, bolalar, keksalar va nogironlarga bepul tibbiy xizmat ko'rsatish va asosiy turdagi dori vositalarini olishga imkoniyat yaratildi;
- oilalarda tibbiy madaniyatni oshirish, ayollar sog'ligi, tug'ilish va sog'lom avlodni tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar olib borildi, 2016-yilda qabul qilingan "Sog'lom ona – bola yili" davlat dasturi doirasida qator e'tiborga molik tadbirlar amalga oshirildi;
- zaif va nuqsonli yangi tug'ilgan chaqaloqlarni jonlantirish, ko'krak suti bilan boqish yuzasidan targ'ibot olib borish bo'yicha xalqaro tashkilotlar OTB, YUNISEF, YUNFPAlar bilan hamkorlikda ishlar olib borildi;

- reproduktiv salomatlik doirasida ayollar, o‘smir qizlar sog‘ligini mustahkamlash tizimini kelgusida ham samarali davom ettirish bo‘yicha vazifalar belgilab olindi va boshqalar.

Gender tengligini ta’minlash sohasida quyidagi yo‘nalishlar ustuvor hisoblanadi:

- gender tengligiga erishishning institutsional mexanizmini takomillashtirish;
- gender tengligiga erishishning Milliy rejasi va uni o‘rta istiqbolda amalga oshirish tadbirlari matritsasini ishlab chiqish;
- umummilliy va hududiy ijtimoiy –iqtisodiy rivojlanish dasturlarini genderli yondoshuvni hisobga olgan holda ishlab chiqish va joriy etish;
- milliy gender siyosati bo‘yicha kengashlar va komissiyalarni o‘z ichiga oluvchi demokratik institutlarni mustahkamlash va shu kabilar

Yosh avlod barkamolligini ta’minlash sohasida bolalar va ayollar manfaatlarini himoya qiluvchi oila institutini davlat va homiylik mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish hisobidan mustahkamlash siyosati olib borilmoqda.

Aholining turmush darajasini oshirish va sifatini yaxshilashga qaratilgan siyosatning o‘rta va uzoq muddatli istiqbolida oilalarni, jumladan yosh oilalarni va qishloq joylardagi aholini namunali turar-joy binolari bilan ta’minlashga qaratilgan dastur oshirilmoqda.

Atrof-muhitni himoya qilish sohasida ekologik xavfsizlik va O‘zbekiston hukumatining mamlakatni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda atrof-muhitni muhofaza qilish, yerlarning sho‘rlashishi, suv resurslarining yetishmasligi, monokulturani yo‘qotilishi, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq muammolarni hal etishga qaratilgan siyosatni davom ettirishni ko‘zda tutgan dasturi ishlab chiqildi va amalga oshirilmokda.

Glossariy

O‘zbekcha	Ruscha	Inglizcha	Izoh
Ijtimoiy risk	Социальный риск	Social risk	ishlovchining ish haqidan mahrum bo‘lishi, daromadlarining yashash minimumidan pasayishi, tibbiy yordamga ehtiyoj sezish va boshqa ijtimoiy xizmatlarga ob’ektiv muhtoj bo‘lishi holatlarining ro‘y berish ehtimolligi

Ijtimoiy ta’minotning iqtisodiy funksiyasi	Экономическая функция социального обеспечения	Economic function of social welfare	ishlovchining yoshga doir, mehnatga layoqatizligi yoki boquvchisini yo‘qotganligi oqibatida beriladigan to‘lovlarda, favqulodda hodisalar yuz berganda ijtimoiy yordam ko‘rsatish, kam ta’minlanganlarga pul yoki natural shakldagi yordam ko‘rsatishda namoyon bo‘ladi.
Ijtimoiy ta’minotning siyosiy funksiyasi	Политическая функция социального обеспечения	Political function of social welfare	jamiyatda aholining turli qatlamlari o‘rtasida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashni ifodalaydi.
Ijtimoiy ta’minotning demografik funksiyasi	Демографическая функция социального обеспечения	Demographic function of social welfare	mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ishchi kuchini takror ishlab chiqarishni rag‘batlantirishni ifodalaydi.
Ijtimoiy ta’minotning ijtimoiy funksiyasi	Социальная функция социального обеспечения	Social function of social welfare	mehnatga layoqatsiz va boshqa aholini ijtimoiy yordamga muhtoj guruhlarini jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida o‘zlarini his qila olishlari uchun ijtimoiy mavqeyini tiklashga qaratilgan.
Aholining ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamlari	Нуждающий слой населения	Necessitous layer of population	nogiron bolalar, urush qatnashchilari, faxriylar, yolg‘iz keksalar va boshqalar.
Muruvvat uyi	Детский дом	Orphanage	Yetim va qarovsiz bolalarni tarbiyalovchi o‘qituvchi, qariya, nogiron, yolg‘iz qolgan keksalar yashashi va ularni parvarishlash uchun mo‘ljallangan, dam olish yoki yashashi mumkin bo‘lgan xayriya muassasalari.
Qariyalar uyi	Дома для престарелых	Home for the elderly	Oilada yashash imkoniyatiga ega bo‘lmagan va muntazam ravishda parvarishga muhtoj keksayib qolgan fuqarolar

			uchun ijtimoiy rivojlantirish muassasasi. Qariyalar uyida yashash sabablarini uch turga guruhlash mumkin: ijtimoiy, psixologik va tibbiy-ijtimoiy.
Reabilitatsiya	Реабилитация	Rehabilitation	Organizmning buzilgan funksiyasini va kasal, nogironlarning mehnat qilish qobiliyatini tiklashga yo‘naltirilgan tibbiy, ijtimoiy-iqtisodiy, pedagogik, kasbiy va yuridik tadbirlar majmui.
Gildiya	Гильдия	Guild	Umumiy maqsad va manfaatlar zaminida tashkil etilgan birlashma, uyushma. Odatda san’at sohasida tashkil etiladi.
Skandinaviya	Скандинавия	Scandinavia	Yevropa shimolida Skandinaviya yarim orolida joylashgan Shvetsiya, Norvegiya, Finlandiya, Islandiya va Daniya mamlakatlaridan tashkil topgan.
Koalitsiya	Коалиция	Coalition	Ixtiyoriy shartlarda umumiy maqsadga erishish, muammolarni birgalikda hal qilish maqsadida tashkil etiluvchi birlashma, uyushma.
Tibbiy sug‘urta	Медицинское Страхование	Medical insurance	Sog‘liqni muhofaza qilish aholi manfaatlarini ijtimiy himoya qilish shakli. Uning maqsadi tibbiy sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda jamg‘arilgan vositalar hisobidan tibbiy yordam olishdan fuqarolarni kafolatlash va oldini olish tadbirlarni moliyalashtirish.
Investitsion daromadlar	Инвестицион-ные доходы	Investment revenue	Investitsion faoliyatdan olinuvchi daromadlar.
Yolg‘iz keksalar	Одинокие престарелые	The lone olds	Turli sabablarga ko‘ra qarilik davrida oilasi, do‘st-yaqinlari bo‘lmagan yoki ulardan ajralib qolgan keksalar.

STIR	Идентификационный номер налогоплательщика (ИНН)	Identification number of tax payer (INTP)	Soliq to‘lovchining identifikatsion raqami.
Mehnatni muhofaza qilish	Защита труда	Labor protection	Mehnat jarayonida insonlar xavfsizligi, sog‘ligini va mehnat qobiliyatini saqlashga qaratilgan me’yoriy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar majmui
Mehnatni moddiy rag‘batlantirish	Материальное стимулирова-ние труда	Material stimulation of labor	Samarali mehnatni moddiy va pul ko‘rinishida rag‘batlantirish, mehnat motivatsiyasining ustuvor usuli hisoblanadi.
Ishlab chiqarish jarayondi jarohatlanish	Несчастное случай в производстве.	Work accident	Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa natijasida inson salomatligida yuz bergan o‘zgarish. Maxsus vrachlardan iborat eekspertlar kommisiyasida ko‘rib chiqiladi, nogironlik guruhi belgilanadi, agar jabrlanuvchi sug‘urta shartnomasiga ega bo‘lsa, vrachlik-sug‘urta eksperti komissiyasi ko‘rib chiqadi.
Mehnat bozori	Трудовой рынок	Labor market	Ishchi kuchini taqsimlash va undan foydalanishni tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi iqtisodiy-ijtimoiy, tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va institutlar tizimi. Ishchi kuchining harakatlanishi jarayoni, uning ijtimoiy ishlab chiqarish, bo‘shatilish, foydalanish, taqsimlanish va qayta taqsimlanishga jalb etilganligi.

Nazorat savollari:

1. Ijtimoiy ta’minotning o‘ziga xos xususiyatlarini sharhlang.
2. Ijtimoiy ta’minotning funksiyalarini izohlab bering.
3. O‘zbekistonda ijtimoiy ta’minotni amalga oshirishning huquqiy asoslari va mohiyatini yoritib bering.
4. XIX asrda Yevropada ijtimoiy siyosatni rivojlanish bosqichlarini yoritib bering.
5. XX asr boshlarida Yevropada ijtimoiy siyosatni takomillashtirish yo‘nalishlarini aytib bering.
6. Aholini ijtimoiy himoya qilish modellarining mohiyatini va o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib bering.
7. Aholini ijtimoiy himoya qilishda neoliberal model mohiyatini yoritib bering.
8. XXI asr boshlarida rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy siyosatning takomillashtirish yo‘nalishlarini yoritib bering.
9. Aholining ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi davlatning rolini izohlang.

Testlar:

1. Ijtimoiy ta’minotning qaysi funksiyasi ishlovchining yoshga doir, mehnatga layoqatizligi yoki boquvchisini yo‘qotganligi oqibatida beriladigan to‘lovlarda, favqulodda hodisalar yuz berganda ijtimoiy yordam ko‘rsatish, kam ta’minlanganlarga pul yoki natural shakldagi yordam va boshqalarda namoyon bo‘ladi?

a) siyosiy funksiya;
b) iqtisodiy funksiya;
c) demografik funksiya;
d) ijtimoiy funksiya.

2. Ijtimoiy ta’minotning qaysi funksiyasi mehnatga layoqatsiz bo‘lgan va boshqa aholi guruhlarini jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida o‘zlarini his qila olishlari uchun ularning ijtimoiy mavqeini tiklashga qaratilgan?

a) iqtisodiy funksiya;
b) siyosiy funksiya;
c) ijtimoiy funksiya;
d) demografik funksiya.

3. Ijtimoiy ta'minotning qaysi funksiyasi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ishchi kuchining takror ishlab chiqarishni rag'batlantirishni ifodalaydi?

a) iqtisodiy funksiya;
b) siyosiy funksiya;
c) demografik funksiya;
d) ijtimoiy funksiya.

4. Ijtimoiy ta'minotning qaysi funksiyasi jamiyatda aholining turli qatlamlari o'rtasida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashni o'zida ifoda etadi?

a) iqtisodiy funksiya;
b) siyosiy funksiya;
c) demografik funksiya;
d) ijtimoiy funksiya.

5. Yevropada ijtimoiy siyosatning dastlabki rivojlanish bosqichida ijtimoiy himoyaning shakllariga quyidagilardan qaysi biri kirmaydi?

a) sex va gildiyalar doirasida o'zaro bog'liq sug'urtalash;
b) ish beruvchining ishlovchilarni baxtiz hodisalar yuz berganda ta'minlash;
c) cherkov tomonidan faqat o'ta qashshoq aholiga moddiy yordam ko'rsatilishi;
d) davlat tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatish.

6. Ikkinchi jahon urushidan keyin G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy xarajatlarning ortishi sabablarini aniqlang?

a) urushdan so'ng ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi sonining oshishi;
b) ijtimoiy sug'urta aholining boshqa yangi, ilgari sug'urtalanmagan guruhlarini qamrab olishi;
c) ijtimoiy siyosatning universal modeliga o'tilganlik;
d) hukumat tepasiga ijtimoiy yo'naltirilgan partiya vakillarining kelishi.

7. Quyidagilardan qaysi biri zamonaviy ijtimoiy siyosatni modernizatsiyalashda mehnat bozorida davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmi va dastaklari tarkibiga kiradi?

a) Mehnat jarayonidagi talofotlar va kasbiy kasalliklar bilan bog'liq zararlarni qoplashda sug'urtalash tamoyillarini kuchaytirish;

b)Mehnat bozoridagi talab va unga mos keluvchi mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish, yangi o‘quv muassasalari va yo‘nalishlarini tashkil etish;
c)Pensiya jamg‘armasi daromadlarini qisman shakllantirishni optimallashtirish;
d)Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida kam ta’minlangan oilalarga maqsadli mikrokreditlar ajratish.

8. Quyidagilardan qaysi biri ishchi kuchi sifati va uning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish maqsadida amalga oshiriladi?
a)Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida yangi ish o‘rinlarini tashkil etish;
b)Mehnat bozoridagi talab va unga mos keluvchi mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish, yangi o‘quv muassasalari va yunalishlarini tashkil etish;
c)Mehnat bozoridagi taklifni va uning talabga mos kelishini monitoring qilish dasturini takomillashtirish;
d)Transport va kommunikatsiya qurilishi infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish.

9. Quyidagilardan qaysi biri mehnat taklifi siyosatini takomillashtirish maqsadida amalga oshiriladi?
a)Transport va kommunikatsiya qurilishi infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish;
b)Mehnat bozoridagi taklifni va uning talabga mos kelishini monitoring qilish dasturini takomillashtirish;
c)Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida yangi ish o‘rinlarini tashkil etish;
d)Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida kam ta’minlangan oilalarga maqsadli mikrokreditlar ajratish.

10. Spinxemlend qonuni qachon va qayerda qabul qilingan?
a) 1795-yilda Angliyada;
b) 1832-yilda Angliyada;
c) 1834-yilda Germaniyada;
d) 1834-yilda Angliyada.

IV bob. IJTIMOIY SIYOSATNI TARTIBGA SOLISH DASTAKLARI

4.1. Ijtimoiy ta’minot tizimini boshqarish va nazorat qilishni isloh etish.

4.2. Ijtimoiy ta’minot tizimi faoliyatida hisobot berish mexanizmi.

4.3. Farovonlik davlati va ijtimoiy xizmatlar iste’molchilari o‘rtasidagi nisbat

4.4. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda markaziy va mahalliy boshqaruv organlarining tutgan o‘rni.

4.5. Ijtimoiy siyosatning milliy modeli va jahon amaliyoti

4.6. Xalqaro tashkilotlar va global islohotlar.

4.1. Ijtimoiy ta’minot tizimini boshqarish va nazorat qilishni isloh etish

Davlatning ko‘p sonli funksiyalarining tarkibiy qismlaridan biri ijtimoiy siyosat funksiyasidir. Ijtimoiy siyosat deganda, aholining barqaror va yuqori turmush darajasini ta’minlash uchun davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning yig‘indisi tushuniladi. Amaliyot ko‘rsatishicha, davlatning ijtimoiy siyosati mamlakat rivojlanishining turli bosqichlarida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan va shu siyosatning natijalari ham turlicha bo‘ladi. Ijtimoiy siyosatning umumiy xususiyatlari bilan birgalikda uning ustuvor yo‘nalishlarini ajratishimiz mumkin:

1. Moddiy va ma’naviy boyliklarni taqsimlanishida jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyili ta’minlanishi zarur.

2. Oqilona demografik siyosat natijasida mehnat resurslaridan ratsional foydalanish mumkin bo‘lsin.

3. Jamiyatning ratsional (samarali) ijtimoiy tarkibini tuzishda davlatning ijtimoiy yo‘nalishining vazifasi turli manbalar orqali aholining daromadlarini shakllantirish hisoblanadi.

Aholi daromadlari quyidagi manbalar hisobiga shakllanadi:

- ish haqi;
- byudjetdan tashqari maqsadli iste’mol fondlari;
- shaxsiy mulk daromadlari;
- korxonalar daromadlari.

Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi o‘zaro bog‘liq va biri ikkinchisini taqozo etadi. Bir tomondan iqtisodiyotda ijtimoiy mumamolarni hal etishga asos solinsa, ikkinchi tomondan ijtimoiy

omillar barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi pirovard natijada jamiyat rivojlanishining bosh maqsadi aholi turmush darajasi, farovonligining o‘sishi va sifatining yaxshilanishiga olib keladi.

Ijtimoiy ta’minot tizimini boshqarish va nazorat qilish ijtimoiy farovonlik davlatlarida muhim ahamiiyatga ega. Bozor munosabatlari rivojlangan sari mamlakatlar hukumati tejamkor, samarali ijtimoiy ta’minot tizimini yaratishga harakat qilib, asosiy e’tiborni ijtimoiy ta’minot xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmini transformatsiyalashga va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sifatini yaxshilashga harakat qiladi.

XX asrda Buyuk Britaniyada ijtimoiy ta’minot tizimini ishlab chiqishda, moddiy ne’matlar va ijtimoiy xizmatlarni taqsimlashda davlat tomonidan oqilona boshqarish tamoyillarining kasbiy boshqaruv shakllari (shifokorlar, o‘qituvchilar, ijtimoiy xizmatchilar) bilan uzviy bog‘liqlikda amalga oshirilgan. XX asrning oxirida ijtimoiy ta’minotni tartibga solishning Buyuk Britaniya modeli quyidagi omillar ta’sirida qator muammolarga uchradi: ijtimoiy ta’minot xizmatlari xarajatlarining ortib borishi; ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmat samaradorligining pastligi; malakali kadrlarning yetishmasligi; ijtimoiy ta’minot tizimidagi hisobotlarning shaffofligi va aniqligining yetishmasligi.

XXI asr bo‘sag‘asida Buyuk Britaniyada ijtimoiy ta’minotni boshqarish sohasida davlat ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimida isloh etish ustuvorlik qilganligini kuzatish mumkin. Ijtimoiy ta’minotni boshqarishdagi islohotlar ijtimoiy xizmatlarni tejamli va samarali ko‘rsatish tizimini shakllantirishga qaratilgan. Islohotlarda ustuvorlik bozor mexanizmlarini joriy etish (konkurslar asosida xizmatlar ko‘rsatish, iste’molchilar, ijtimoiy ta’minot xizmatlarini ko‘rsatuvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish)ga yo‘naltirilgan. Ushbu tadbirlar ijtimoiy xizmatlar samaradorligini oshirish, mijozlar ehtiyoji o‘zgarishiga moslashishi va ushbu sohada innovatsiyalarni joriy etishni kuchayishiga olib kelishi ko‘zda tutilgan. Ijtimoiy ta’minot sohasini isloh etish borasida qo‘llanilgan chora-tadbirlar natijasida amal qilayotgan ijtimoiy ta’minot tizimiga o‘zgartirishlar kiritish va yangi tizimni amaliyotga joriy etish bilan bog‘liq xarajatlar jiddiy tortishuvlarga sabab bo‘ldi.

Ijtimoiy ta’minot tizimi boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan islohot doirasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda qator qiyinchiliklarga duch keldi. Ijtimoiy ta’minot xizmatlari faol va mustaqil fuqarolarga ko‘maklashishi, ushbu xizmatlardan foydalanuvchilar uchun

tanlash va nazorat huquqini ta’minlashi, resurslarni adolatli taqsimlashi, byudjet cheklovlari sharoitida xarajatlarni qisqartirishi lozim.

Jahon amaliyoti ko‘rsatishicha ijtimoy ta’minotni boshqarishning ustuvor yo‘nalishlari siyosiy, milliy yoki mahalliy darajada belgilab olinadi. Ko‘pchilik hollarda bir nechta ustuvor yo‘nalishlar bir-birlari bilan to‘qnash kelishadi. Bunday hollarda ijtimoiy ta’minotni boshqarish cheklangan resurslar va o‘sib, o‘zgarib borayotgan talab sharoitida bir-biriga qarama-qarshi ustuvor yo‘nalishlardan birini tanlashni taqozo etadilar. Xayriya tashkilotlari odatda “kam xarajatlar sarflab ko‘proq xizmat ko‘rsatish lozim” degan qoida bilan ish ko‘rishadi. Bu esa resurslarni tejash va ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish imkonini beradi.

Buyuk Britaniyada faoliyat yuritayotgan xayriya tashkilotlari ijtimoiy ta’minotni boshqarish sohasida quyidagi tanlash (mijoz tanlash), talab va resurslarni boshqarish, mijozlar tomonidan qo‘yiladigan talablarning o‘zgarishi bilan bog‘liq muammolarga duch kelishdi.

XXI asrda rivojlangan ijtimoiy ta’minot tizimlarini boshqarish sohasidagi “muvafaqqiyat”ga odatda: maxsus maktablar, kasalxonalar, universitetlar bilan bog‘liq sohada erishadilar. Ushbu holat ijtimoiy ta’minot tashkilotlari o‘rtasida raqobat muhitini yaratdi va har bir tashkilotning o‘z faoliyatini yaxshilash, resurslarini boshqarish va mavqeini raqobatchilar hisobidan oshirishni rag‘batlantirishga ko‘maklashdi.

Ushbu model raqobat afzalliklarini aniqlashga undaydi. Ijtimoiy ta’minot tashkilotlari o‘z mijozlarining afzallik jihatlaridan (jumladan maktabga imtihon topshirayotganda yaxshi natija ko‘rsata oladigan o‘quvchilar yoki ularning ota-onalarini tanlab olish) foydalanishga intilishdi. Ular qimmatga tushadigan, xavf-xatarli va murakkab (og‘ir vaznli, narkotiklar, sog‘lig‘i bilan bog‘liq muammolarga ega) mijozlardan qochishga harakat qilishdi.

XXI asr boshlarida ijtimoiy ta’minot tizimini boshqarishda quyidagi yo‘nalishlar ustuvor bo‘lib qolishi kutilmoqda. Birinchidan, ijtimoiy farovonlikni ta’minlashda insonlarning mustaqil bo‘lishga harakat qilishlari, davlat tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlarga tayanib qolmaslikka intilishlarining kuchayishi. Ushbu holat 2008 yilda boshlangan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida davlat tomonidan bozorning iqtisodiy mexanizmi dastaklari yordamida ijtimoiy ta’minotga bog‘liqlik darajasini pasaytirishga yo‘naltirilgan siyosatida o‘z ifodasini topdi. Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida asosiy

e’tibor muayyan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari guruhlariga sarflanayotgan davlat xarajatlarini pasaytirishga qaratilgan bo‘lib, ularning yangi ish joylarini yaratish orqali mustaqil ravishda iqtisodiy faoliyatga jalb etish hisoblanadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy ta’minot tizimini institutsional jihatdan nazorat qilish miqyosini kamaytirish davlat nazorat tizimidan tashqarida yangi institutlarning shakllanishiga olib keladi. Ushbu holat ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlarning dolzarbligini belgilab beradi. Shu bilan birgalikda ushbu sohadagi ijtimoiy xizmatlar institutsional nazoratdan chetda qolishi mumkin, degan xavf mavjud. Kishilar davlat ta’lim tizimidan tashqarida, davlat mablag‘lari hisobidan yangi maktablar yoki sog‘liqni saqlash sohasida umumiy vrachlik amaliyotini tashkil etishi mumkin. Bunday imkoniyatlarning mavjudligi ta’lim yoki sog‘liqni saqlash tizimlarini isloh etish g‘oyasini puchga chiqarishi, xayriya tashkilotlarining keyinchalik yanada bo‘linib ketishiga olib keladi.

4.2. Ijtimoiy ta’minot tizimi faoliyatida hisobot berish mexanizmi

Davlatning ijtimoiy ta’minot tizimi faoliyati to‘g‘risidagi hisoboti mablag‘larni qanday usullar bilan to‘plash va sarflash, ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarning sifati va sohada olib borilayotgan siyosat yo‘nalishlarini qamrab olishi zarur. Ijtimoiy sohada davlat faoliyati hisoboti asosan moliyaviy hisobotlardan iborat bo‘ladi.

Buyuk Britaniyada boshqa mutassaddi tashkilotlar ijtimoiy ta’minot tizimining mahalliy va mintaqaviy boshqaruv organlarini moliyaviy auditdan o‘tkazish bilan shug‘ullanadi. Ushbu tashkilotlar dastlab davlat byudjeti mablag‘lari qanday usulda to‘plangan va sarflanganligi to‘g‘risidagi hisobotlarni tekshirish bilan shug‘ullanadilar. 1980-yildan boshlab ushbu tashkilotlarning moliyaviy hisobot sohasidagi huquqlari va vazifalari kengaytirildi. Endilikda ular davlat tashkilotlari ko‘rsatayotgan ijtimoiy xizmatlarning “qiymati va sifati” o‘rtasidagi nisbatni tekshirish huquqiga ega bo‘lishdi.

Tahlillar ko‘rsatishicha, ijtimoiy ta’minot faoliyati hisobotini amalga oshirishda quyidagi holatlarga alohida e’tibor qaratish zarur.

Birinchidan, ijtimoiy ta’minot faoliyati hisobotini tekshirish ushbu sohada jiddiy kamchiliklarga yo‘l qo‘yilayotgan hollarda dolzarb muammoga aylanadi. Misol uchun, kasalxonada mahalliy boshqaruv organlari nazoratida bemor vafot etsa, mijozga noto‘g‘ri tashxis qo‘yilsa, ijtimoiy ta’minot tizimi oldiga qo‘yilgan vazifalar hal etilmasa, ijtimoiy

ta’minot xarajatlari belgilangan byudjet me’yoridan oshib ketsa moliyaviy hisobotlarga qo‘yiladigan talablar ortadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy ta’minot tizimi hisobotini ta’minlashda mas’uliyatlarning taqsimlanishini aniqlash ko‘pqirrali, murakkab jarayon hisoblanadi. Ushbu holat ko‘p bosqichli boshqaruv tizimlarida, jumladan, davlat ijtimoiy xizmatlarining bir qismi mahalliy boshqaruv organlari zimmasiga yuklatilgan sharoitlarda yanada murakkablashadi.

Uchinchidan, davlatning ijtimoiy ta’minot xizmati idoralari kimlar oldida mas’ul hisoblanadi. Aholi davlat ijtimoiy ta’minot xizmatlari bilan soliq to‘lovchi, ijtimoiy xizmatlar iste’molchisi, ijtimoiy xizmatlarning potensial iste’molchisi yoki iste’molchilarning qarindoshi, xodimlar va biznes-operatorlar, jamiyat a’zolari sifatida duch kelishi mumkin. Ularning manfaatlari xizmatlar ko‘rsatish va xizmatlar qiymati nuqtai nazaridan tubdan farq qilishi mumkin. Iste’molchilarning ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan munosabati millati, jinsi, yoshi, sog‘lig‘i yoki nogironligi darajasiga ko‘ra tabaqalashgan bo‘ladi.

Ijtimoiy ta’minot tizimi hisobotini tuzish jarayonida quyidagi bosqichlar muhim ahamiyatga ega: mas’ul shaxslar (rasmiy yoki normasmiy) o‘z majburiyatlarini aniq bilishlari lozim; hamma ma’lumotlar aniq va tekshirilishi mumkin bo‘lishi zarur; hisobot tuzilayotganda unga kiritilayotgan ma’lumotlar hisobotga tegishli tuzatishlar (demokratik mexanizmlar, jarimalar, intizom choralari) kiritish imkonini berishi lozim .

Ijtimoiy ta’minot faoliyati hisobotini tuzishning quyidagi mexanizmi dastaklarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- demokratik – ijtimoiy ta’minot tizimining faoliyatini boshqarish va nazorat qilishda saylov organlarining o‘rni. Jumladan, Buyuk Britaniyada mahalliy boshqaruv organlarining ijtimoiy ta’minot tizimini nazorat qilishdagi vazifalari kuchaytirildi;
- huquqiy - sudlar ijtimoiy ta’minot xizmatlari qonunchilikka zid kelgan hollarda ijtimoiy xizmat turlarini ko‘rsatuvchi organlarni qonun doirasida javobgarlikka tortish mumkin.
- tartibga solish, audit va inspeksiya – ijtimoiy ta’minot tizimi hisobotini tuzish va tekshirishning ushbu mexanizmi dastaklari ijtimoiy xizmatlarning ko‘pchilik qismi davlat sektoridan xususiy sektorga o‘tkazilganda muhim ahamiyat kasb etadi. Tartibga solish, audit o‘tkazish va inspeksiya mexanizmi dastaklari rolini ortib borishi “me’yoriy davlat” yoki “auditning portlashi” sifatida qayd etiladi. Tartibga solish ijtimoiy xizmatlarga qo‘yiladigan qoidalar yoki

standartlarga nisbatan talablarni ifodalaydi. Inspeksiya tartibga solish bilan birgalikda olib boriladi va inspektorlar standartlarning bajarilayotganligini tekshirish uchun tayinlanadi. Davlat ijtimoiy ta'minot organlarining faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va baholash amaliyoti audit, deb yuritiladi. An'anaviy tarzda audit asosan moliyaviy faoliyatga tegishli bo'lib, auditning vazifasi davlat tashkilotlari ko'rsatayotgan ijtimoiy xizmatlarning "qiymati va sifati" o'rtasidagi nisbatni tekshirish hisobiga kengaytirildi;

- kasbiy – ijtimoiy ta'minot sohasida band bo'lgan (shifokorlar, o'qituvchilar, tibbiyot hamshiralari, ijtimoiy xizmatchilar) kasb egalari uchun kasbiy standartlarga javob berish talablari bo'yicha hisobot berilishi lozim;

- bozor – ijtimoiy ta'minot tizimi faoliyatining hisobot shakli bo'lishi mumkin emas, ammo autsorsing va davlat ijtimoiy xizmatlarini isloh etish bozor munosabatlariga tayanganligi bois bozor ham hisobotni tekshirish mexanizmi dastaklari shaklida qaralishi mumkin. Bozor sharoitida ijtimoiy xizmatlar iste'molchisini tanlashda, sog'liqni saqlash, ta'lim xizmatlari va boshqa ijtimoiy ta'minot sohasiga oid axborot va ma'lumotlarga tayaniladi. Ijtimoiy sohani tartibga solish, audit qilish va tekshirish bilan bog'liq axborotlar iste'molchilar uchun zarur bozor axborotlaridan farq qilishi mumkin.

Ijtimoiy ta'minot tizimi faoliyati hisobotini tayyorlash ijobiy jihatlari bilan bir vaqtda muayyan kamchiliklarga ham ega. Jumladan, hisobotni tayyorlash mexanizmi ko'p xarajatlarni talab etadi. Davlat mablag'lari hisobot, audit, inspeksiya, sudlar va ombudsmen xizmati kabilarga sarflanadi. Shuning uchun ijtimoiy ta'minot faoliyati hisobotini tuzish va uni baholashda kutilayotgan xarajatlarni hisobga olish zarur bo'ladi.

4.3. Farovonlik davlati va ijtimoiy xizmatlar iste'molchilari o'rtasidagi nisbat

Ijtimoiy farovonlik davlati (ing. welfare state) – bu davlatning o'z fuqarolarini iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini ta'minlash, rag'batlantirish to'g'risidagi konsepsiyadir. Ushbu konsepsiya imkoniyatlar tengligi, boyliklarni adolatli taqsimlash va o'zini minimal turmush darajasi bilan ta'minlay olmaydiganlar uchun umumiy mas'uliyat tamoyillariga asoslanadi. Ijtimoiy farovonlik tushunchasi iqtisodiy va ijtimoiy tashkilotlarning turli shakllarini qamrab olishi mumkin. Jumladan, sotsiolog Tomas Xamfri, Marshall ijtimoiy farovonlik davlatini demokratiya, farovonlik va kapitalizmning

uyg‘unligi sifatida talqin etadi. Tadqiqotchilar Germaniya, Buyuk Britaniya va boshqa rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy farovonlik davlati sifatida bosib o‘tgan tarixiy rivojlanish bosqichlariga alohida e’tibor qaratishadi.

Ijtimoiy farovonlik davlati va ijtimoiy davlat tushunchalari aksariyat hollarda o‘xshash tushunchalar sifatida talqin etilsa-da, ijtimoiy farovonlik tushunchasi ijtimoiy davlat tushunchasiga nisbatan kengroq tushuncha hisoblanadi.

AQShda F.D.Ruzvelt tomonidan “yangi kurs” dasturi doirasida 1930-yillarda amaliyotga tadbiq etilgan ijtimoiy himoya tadbirlari jiddiy tortishuvlarga sabab bo‘ldi.

1942-yilda U.Beveridj tomonidan Buyuk Britaniya parlamentida o‘qilgan ma’ruzada “farovonlik davlati” tamoyillari tavsiflandi va tasniflandi. Muallif fikricha, “farovonlik davlati” tushunchasi “ijtimoiy davlat” tushunchasi bilan bir ma’nodagi tushuncha sifatida qo‘llaniladi. Beveridj modeli ijtimoiy mas’uliyatni davlat (yashash minimumiga yo‘naltirilgan, barcha aholi uchun minimal ijtimoiy kafolatlar), ish beruvchi (yollanib ishlovchilarni ularning ishtirokida sug‘urtalash) va yollanib ishlovchilar (qo‘shimcha shaxsiy sug‘urta) o‘rtasida taqsimlashga asoslangan. Buyuk Britaniyada 1944-yilda hukumat lord U. Beveridj ma’ruzasi asosida ijtimoiy sug‘urta tizimini isloh eta boshladi. 1952-yilga kelib davlat sog‘liqni saqlash xizmati to‘g‘risidagi qonun, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash, pensiya sug‘urtasi kabi dasturlar amaliyotga joriy etildi.

AQShda 1964-yil 8-yanvarda Prezident L.Djonson Amerikada “Buyuk jamiyat” (Great Society) dasturi doirasida “kambag‘allikka qarshi kurash” boshlanganligini e’lon qildi. 1964-yilning 20-avgustida Iqtisodiy imkoniyatlari to‘g‘risidagi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunda kambag‘allikka qarshi kurashning quyidagi chora-tadbirlari belgilab qo‘yildi:

- mahalliy hokimiyat nazorati ostida amalga oshiriladigan “jamoatchilik faoliyati”;
- kasbiy tayyorgarlik va ta’lim dasturlari;
- qishloq joylari va mayda biznes uchun maxsus yordam dasturlari;
- “ko‘ngillilar Amerika xizmatida” tashkiloti faoliyati.

Ushbu qonunga muvofiq Iqtisodiy imkoniyatlarning federal boshqarmasi tashkil etildi. Tibbiy xizmatlar sohasida 1965 yilda ijtimoiy jihatdan aholining nochor qatlamlari uchun maxsus «Medikeyd» va pensionerlar uchun «Mediker» dasturlari qabul qilindi. 1964-yilda kam

ta’minlangan oilalarni oziq-ovqat mahsulotlari uchun xarajatlarini oziq-ovqat kuponlari ko‘rinishida subsidiyalash dasturi boshlandi. 1960-yillarning ikkinchi yarmida kam ta’minlangan oilalarga xususiy uylardagi kvartiralarni ijaraga berish, 1965–1968-yillarda shaharlarni rivojlantirish va uy-joy qurilishi to‘g‘risidagi qonun doirasida arzon uy-joylar qurishni moliyalashtirishning federal dasturi amalga oshirildi.

Tadqiqotlar aholini ijtimoiy himoyalashning Shimoliy Yevropa modeliga xos quyidagi xususiyatlarni aniqlash imkonini berdi:

- keng qamrovli xarakterga egaligi: davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosat boshqa mamlakatlarga qaraganda keng qamrovli va davlatning bozor yoki fuqarolik jamiyatiga nisbatan roli yuqori hisoblanadi;
- to‘liq bandlik: aholining to‘liq bandligini ta’minlash uchun ishsizlikning (jumladan, uzoq muddatli) oldini olishga qaratilgan siyosat olib borish;
- tenglik: turli ijtimoiy - gender, yosh, oilaviy, etnik, diniy, mintaqaviy va boshqa guruhlar o‘rtasida tenglikni ta’minlash maqsadida siyosat olib borish;
- universallik: turli-tuman ijtimoiy va hayotda ro‘y beradigan holatlar uchun ijtimoiy kafolatlar huquqining (natura va pul ko‘rinishida) berilishi;
- ijtimoiy kafolatlarning yuqori sifati: ijtimoiy xizmatlar sifati yuqori va ushbu xizmatlar malakali xodimlar tomonidan taqdim etiladi;
- ijtimoiy kafolatlar qiymatining yuqoriligi: past daromadli aholi guruhlari uchun mo‘ljallangan pulli transfertlar aholining “normal” turmush darajasini ta’minlash uchun yetarli hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga nisbatan Shimoliy Yevropa mamlakatlari iqtisodiyoti moliyaviy-iqtisodiy inqirozlarni nisbatan kam talofatlar bilan o‘tkazdi. Aksariyat tadqiqotchilar Shved modelini[50] ushbu mamlakatda o‘tgan asrning 70–80-yillarida amalga oshirilgan ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlari o‘zgarib ketganligiga qaramasdan zamonaviy sotsializm modeli deb atashadi. Progressiv soliqlar shkalasi Shvetsiya birdamlik taqsimot tizimining asosini tashkil etadi. Shu bilan bir vaqtda kapital daromadlariga belgilanadigan soliq stavkalari egiluvchan hisoblanadi. Boylik va merosni soliqqa tortish holati minimal darajada hisoblanadi.

[50] Дания, Исландия, Норвегия, Швеция и Финляндия.

“Farovonlik davlati” konsepsiyasida ijtimoiy xizmatlar iste’molchilari o‘rtasidagi nisbat asta-sekinlik bilan “faol ijtimoiy fuqaro” zimmasidagi mas’uliyatning ortishiga olib kelmoqda.

“Ijtimoiy davlat” konsepsiyasini yaratish Ikkinchi jahon urushidan keyin dunyo mamlakatlari uchun farovonlik va ijtimoiy adolatni ta’minlash mas’uliyatini amalga oshirish imkonini beradi. Fuqarolik tushunchasi alohida fuqarolar uchun afzallik beruvchi “ijtimoiy fuqarolik” tushunchasiga qadar kengaytirildi. Bu davrda ushbu tushuncha kim fuqaro sifatida tan olinadi va ko‘rsatilayotgan xizmatlardan kim foydalanadi muammosiga nisbatan cheklangan edi (shaxsiy ijtimoiy xizmatlar 1970-yillarga qadar mavjud bo‘lmagan). Farovonlik davlatini yaratish asosida fuqarolarni farovonlik huquqiga ega bo‘lish tamoyili yotadi.

1970-yillarning oxirida “farovonlik iste’molchilari”ning umumiy o‘xshashligida o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Ijtimoiy xizmatlardan foydalanishda “ijtimoiy fuqarolik” iste’molchi foydasiga o‘zgarib, ijtimoiy xizmatlardan foydalanuvchilar aniqlashtirila boshlandi. Keksa yoshdagilarning pensiya olish huquqini belgilash, sog‘lig‘i yomonlashganligi tufayli bepul tibbiy xizmatlardan foydalanuvchilarni aniqlash kabi xizmatlar shular jumlasidandir.

1970-yillarning oxirida neoliberal maktab vakillari farovonlik davlati tushunchasiga yangi tuzatishlar kiritishdi. 1980-yillarda ijtimoiy ta’minot xizmatlari bozorida xususiy va ixtiyoriy ishtirokchilar faoliyati rag‘batlantirila boshlandi.

Ijtimoiy ta’minot xizmati iste’molchilari va ushbu xizmatlarni ko‘rsatuvchilar uchun muhim narsa tanlash imkoniyatini yaratish masalasi hisoblanadi. Shuningdek, 1980 va 1990-yillarda ijtimoiy ta’minot tizimida “nofaol” fuqarodan “faol” fuqaroga o‘tish, “faol fuqaro”larga ijtimoiy xizmatlar bahosi va sifatiga nisbatan talabchan bo‘lishni hamda o‘zi, oilasi va yashayotgan jamiyati farovonligi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishni taqozo eta boshladi.

“Ijtimoiy faol fuqaro”lar quyidagi masalalarda faol bo‘lishlari zarur bo‘ladi.

Birinchidan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtojlariga qarash oila a’zolarining nogironlar yoki kasallarga g‘amho‘rlik qilish uchun mas’uliyatlarni o‘z zimmasiga olishga tayyor ekanligiga bog‘liq bo‘ladi.

Ikkinchidan, ijtimoiy yordam ko‘rsatuvchi shaxsning o‘zi boshqalarga yordam ko‘rsatishi uchun sog‘lom bo‘lishi zarur. Buyuk

Britaniyada ushbu shaxslar chekmasligi, jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishi va sog‘lom turmush tarziga ega bo‘lishlari zarur.

Uchinchidan, jamiyatning jipsligini ta’minlash tadbirlarida qatnashish. Kambag‘al jamiyatlarda yashayotgan aholi aksariyat hollarda atrof-muhit holatining yomonlashuvi va tarkibiy yetishmovchiliklar tufayli ushbu tadbirlarda qatnasha olmaydi.

To‘rtinchidan, ota-ona mas’uliyati. Ushbu muammo ota-onalarning o‘z farzandlarini nazorat qilishlari yoki ularga namuna bo‘lishlari bilan bog‘liq mas’uliyatsizliklari bilan bog‘liqdir. Ushbu muammo ota-onalarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ota-onalik mas’uliyatini oshirish orqali hal etilishi zarur.

Ijtimoiy farovonlik davlati va ijtimoiy ta’minot xizmatlaridan foydalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatlar XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida jiddiy o‘zgarishlarga uchradi. Ushbu o‘zgarishlar ijtimoiy xizmat turlarini taqdim etuvchilar va undan foydalanuvchilar, ijtimoiy siyosatni shakllantirish va tartibga solish, ijtimoiy siyosat muammolari qay darajada tadqiq etilayotganligida namoyon bo‘lmoqda.

Ijtimoiy ta’minot xizmatlaridan foydalanish mexanizmida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Ijtimoiy faol fuqarolarga jiddiy etibor qaratish davlatning majburiyatlari “o‘zimiz uchun nima qila olamiz” va “boshqalar uchun nima qila olamiz” ma’nosida muvozanatlashmoqda. Ushbu majburiyatlar davlat xarajatlarining qisqarishi sharoitida “davlat farovonligi”ga erishish imkoniyatlarini yanada cheklaydi.

4.4. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda markaziy va mahalliy boshqaruv organlarining tutgan o‘rni

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda markaziy boshqaruv va mahalliy o‘z-o‘zini boshqaruv organlarining roli katta. Ikkala boshqaruv organlari ijtimoiy siyosatni shakllantirish va amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy boshqaruv organlari tarkibi muntazam o‘zgarib turadi.

Mahalliy boshqaruv organlari ijtimoiy siyosatni shakllantirishda hal etuvchi mavqega ega. Jumladan Buyuk Britaniyada ijtimoiy siyosatni shakllantirish an’anaviy tarzda Beveridj modeli doirasida – jamiyat xavfsizligini ta’minlash va ijtimoiy integratsiyaga erishishda o‘z ifodasini topadi. Bunda sog‘liqni saqlash, ta’lim, uy-joy, shaxsiy ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, daromadlar va bandlik darajasini qo‘llab-quvvatlash, dam olish, transport va atrof-muhit muhofazasi kabilarga ustuvorlik beriladi.

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda mahalliy boshqaruv va mahalliy o‘z-o‘zini boshqaruv organlari qanday yondashuvga ega ekanligi muhim hisoblanadi. Mahalliy boshqaruv va mahalliy o‘z-o‘zini boshqaruv organlari tushunchalari mahalliy kengashlar tomonidan saylangan o‘z-o‘zini boshqarish organlari va mahalliy davlat xizmati organlari o‘rtasidagi farqni aniqlash uchun qo‘llaniladi.

Buyuk Britaniya Yevropa Ittifoqining boshqa a’zolariga nisbatan markazlashgan davlat boshqaruv organlariga ega. Davlat boshqaruv organlari mahalliy boshqaruv organlari (Shotlandiya, Uels va Shimoliy Irlandiya) bilan birgalikda ish olib borishadi.

Buyuk Britaniyada mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish boshqa yevropa mamlakatlariga nisbatan rivojlanmagan. Mamlakatda mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish birliklari ko‘psonli bo‘lsa-da, kengash a’zolarining soni aholi jon boshiga hisoblaganda kamchilikni tashkil etadi. Ushbu holat birinchidan, Buyuk Britaniyada mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari faoliyati miqyosi va xarakteriga ko‘ra tashkil etilishini, ikkinchidan, ularning majburiyatlari, tarkibi va boshqaruv mexanizmi muntazam ravishda o‘zgarib turishini anglatadi.

1945–1979-yillarda mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari majburiyatlari quyidagilardan iborat bo‘lgan va ularning xarajatlari sezilarli darajada ortgan:

- ijtimoiy boshpana;
- ta’lim;
- bolalar va keksa yoshdagilar uchun ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy yordam ko‘rsatish;
- umumiy sog‘liqni saqlash xizmati;
- Politsiyachilar va yong‘in xizmati, tez yordam mashinalari xodimlarining xavfsizligi;
- iste’molchilar huquqlarini himoya qilish.

1979–1997-yillarda konservatorlar hukumati davrida mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarining ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdagi roli qayta ko‘rib chiqildi va uning vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ldi:

- 1980-yillarning boshlarida mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari xarajatlari ustidan nazorat o‘rnatildi;
- 1980-yillarning o‘rtalarida Katta London kengashi va shahar kengashlari tugatilib mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlaridan saylanganlar davlat organlariga tayinlana boshlandi;

• 1980–1990-yillarda mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarining ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdagi ishtiroki xususiylashtirish va rag‘batlantirish orqali bilvosita amalga oshirildi;

• 1990-yillarning boshlarida fuqarolar xartiyalari, inspeksiya va audit ko‘rinishida yangi boshqaruv usullari qo‘llanila boshlandi.

Ushbu davrda mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarining ijtimoiy ta’minot sohasidagi quyidagi xizmat turlari qayta ko‘rib chiqildi:

• ta’lim – boshqaruvning markazlashishi, milliy o‘quv dasturlarini amalga oshirish, maktablarni mahalliy boshqaruv organlari tomonidan boshqarish, oliy ta’limning mustaqilligini ta’minlash;

• uy-joy – ijarachilarning “sotib olish huquqi” sxemasi asosida rag‘batlantirildi;

• ijtimoiy himoya – ijtimoiy xizmat ko‘rsatish bo‘limlarini uy-joy va uyda tibbiy yordam ko‘rsatishni amalga oshirish dastagi sifatida rivojlantirish;

• majburiy konkursga asoslangan savdo orqali ijtimoiy xizmat turlari bo‘yicha raqobat muhitini shakllantirish.

Umuman, M.Tetcher hukumati davrida ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatishda markaziy hukumat mavqeini oshirish tadbirlari ustuvorlik qildi.

1997-yildan boshlab Buyuk Britaniyada milliy va mahalliy boshqaruv organlari o‘rtasida hamkorlik jarayoni chuqurlashdi. Ushbu davrda mahalliy ijtimoiy xizmat ko‘rsatish organlarini xususiy sektor bilan raqobatlashishga majbur qiluvchi majburiyat bekor qilindi va markaziy davlat va mahalliy boshqaruv organlari ijtimoiy ta’minot tizimini boshqarish bilan bog‘liq jiddiy muammolarga duch keldi. Ushbu muammolarni mahalliy darajada hal etish uchun quyidagilarga e’tibor qaratildi:

• ijtimoiy xizmatlarni taqdim etishda jamoalarning yetakchi mavqeiga urg‘u berish;

• mahalliy jamoalar va ijtimoiy xizmatlardan foydalanuvchilarning ijtimoiy ta’minot tizimida va tartibga solish jarayonida faol qatnashishini ta’minlash;

• resurslardan samarali foydalanish va mehnat unumdorligini boshqarishga urg‘u berish;

• oqibatlar va natijadorlikka urg‘u berish.

Ushbu davrda mehnat organlarining Shotlandiya, Uels va Shimoliy Irlandiya mintaqaviy boshqaruv organlari bilan birgalikda mintaqaviy tuzilmalari tashkil etildi.

Yuqorida qayd etilganidek, ijtimoiy ta’minotni amalga oshirishning davlat va mahalliy mexanizmlari ijtimoiy siyosatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Farovonlik davlatini yaratishning barcha bosqichlarida mahalliy boshqaruv organlari ijtimoiy siyosatni muvofiqlashtirish va amalga oshirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ijtimoiy siyosat sohasida samarali boshqaruvni yo‘lga qo‘yishda mahalliy, mintaqaviy va milliy iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Ijtimoiy ta’minot sohasida fuqarolar faolligini ta’minlash yo‘llari, fuqarolarning ijtimoiy xizmatlardan foydalanish va taqdim etishdagi ishtirokini ta’minlashda mahalliy boshqaruv organlarining o‘rni masalasi ilmiy tadqiqotlar markazida bo‘ladi.

Ijtimoiy islohotlarni o‘tkazishning taktik jihatlari quyidagilarni nazarda tutadi:

- bozor mexanizmini joriy etishdan oldin aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish bo‘yicha qat’iy chora-tadbirlar ko‘rish;
- ijtimoiy sohani davlat tomonidan qat’iy nazorat qilish va qo‘llab-quvvatlash;
- bozor iqtisodiyoti shakllanib borgan sari mavjud vaziyat va yangi imkoniyatlarni hisobga olgan holda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi ustuvorliklari va iqtisodiy mexanizmining o‘zgarishi.

Mamlakatmizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish sharoitida, ko‘rilayotgan chora-tadbirlar tufayli bir-biriga o‘zaro bog‘liqligi va ta’sirini ta’minlashda quyidagi natijalarga erishildi:

- aholi turmush darajasi keskin pasayib ketishining oldini olishga, respublikada tinchlik va ijtimioy barqarorlikni ta’minlashga erishildi;
- aholini ijtimoiy himoyalashning qat’iy manzilli tizimi yaratildi;
- aholi bozorning iqtisodiy sharoitlariga moslasha boshladi;
- iqtisodiy faollik oshdi, tadbirkorlik faoliyati rivojlanmoqda;
- aholining ish bilan bandlik tizimida bozor munosabatlari shakllanmoqda;
- inson manfaatlarini yanada kengroq ro‘yobga chiqarishni ta’minlash uchun yangi shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratildi;
- mutlaq yangicha yondashuvlar asosida zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ishlab chiqilib, amalga oshirildi va ta’lim to‘g‘risidagi qonun takomillashtirildi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida turli mulkchilik aholini ijtimoiy himoyalash uchun ajratiladigan mablag‘lar turli shakldagi davlat, korxona, muassasalar daromadlarining bir qismidan rasmiy ravishda belgilangan me’yorlarda shakllanadi. Undan tashqari ijtimoiy himoya fondlariga mamlakatimizdagi korxona va tashkilotlar, xorijiy davlatlardan keladigan homiylik va insonparvarlik yordamlari ham qo‘shiladi. Maqsadli byudjetdan tashqari ijtimoiy fondlar davlat tomonidan belgilangan me’yorlarga muvofiq milliy daromadning bir qismidan shakllanadi. Aholini ijtimoiy himoya qilish, kishilarning moddiy holatini yaxshilash vazifalarini hal etishda davlat manbalari bilan bir qatorda jamg‘armalarning mablag‘lari, mehnat jamoalarining, jamoat va xayriya tashkilotlarining o‘rni muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy himoya jarayonida shakllanadigan iqtisodiy munosabatlar mamlakatning moliyaviy iqtisodiy holatiga muvofiq takomillashib boradi. Ijtimoiy himoyaning mablag‘ miqdori va sifati mamlakatda joriy etilayotgan maqsadli davlat dasturlariga va ijtimoiy siyosatning samaradorligiga bog‘liqdir. O‘zbekistonda islohotlarni amalga oshirishda bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga o‘tish yo‘lining tanlab olinishi tarixiy saboqlardan to‘g‘ri xulosa qilish, jamiyatning ob’ektiv qonunlarini e’tirof etish asosida bormoqda. Taraqqiyot yo‘limiz – ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor munosabatlarini shakllantirishga aholining kam ta’minlangan qismini kuchli himoya qilish bilan bosqichma-bosqich o‘tishdir. Kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida, ijtimoiy muammolarni nazar-pisand qilmaslik jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikka katta xavf tug‘diradi. Ijtimoiy himoyaning yangi tizimining muhim xususiyati aholining turli qatlamlariga qat’iy tabaqalashtirilgan tarzda yondashish xususiyati bilan ajralib turadi. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yaxshilash va uning samaradorligini oshirish quyidagi muhim vazifalarni hal etishga bog‘liq:

- milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlash;
- aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirishga davlat, mehnat jamoalari, jamoat va xayriya tashkilotlari va jamg‘armalarning mablag‘larini keng jalb etish.

Aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatishda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining quyidagi huquqlari kengaytirilishi lozim:

- aholining mehnat qobiliyatlari faollashuvini ta’minlaydigan kuchli mexanizmni shakllantirish;

- aholining turli qatlamlari daromadlari va turmush darajasidani keskin tabaqalanishiga yo‘l qo‘ymaslik. Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydigan aholining ijtimoiy qatlamlarini shakllantirish;

- kambag‘allikka qarshi kurash, aholini ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini kuchaytirish.

Shunday qilib, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish mutanosib ravishda aholini ijtimoiy himoyalashning yaxlit tizimini barpo etishni talab qiladi. Bu tizim fuqarolarning erkinliklari va huquqlarini ta’minlashning ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlarini o‘z ichiga olishi lozim.

Aholini ijtimoiy himoya qilish:

- keksalik, mehnat qobiliyati yoki boquvchisini yo‘qotishdan sug‘urtalash tizimi (pensiya ta’minoti, jumladan xususiy pensiya ta’minoti);

- kam ta’minlangan oilalarga ijtimoiy to‘lovlar (bolalarga nafaqalar), vaqtincha ishlamayotganlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, (ishsizlik bo‘yicha nafaqa);

- aholining ayrim qatlamlarini moddiy holatini hisobga olib ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, imtiyozlar va afzalliklar berish (patronaj xizmatlar shaklidagi ijtimoiy yordam, oziq-ovqat, yonilg‘i berish va boshqalar);

- onalikni himoya qilish (tug‘ishdan oldingi va tug‘ishdan keyingi ta’tillarni berish);

- sog‘liqni sug‘urta qildirish (tibbiy sug‘urta, vaqtincha mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik nafaqasi);

- talabalarni moddiy qo‘llab-quvvatlash (stipendiyalar);

- nogironlikning oldini olish va mehnat qobiliyatini tiklash (nogironlarni reabilitatsiya qilish, protez-ortopediya markazlari) orqali ta’minlanadi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi quyidagi hollarda beriladi:

a) vaqtincha mehnat qobiliyatini yo‘qotish bilan bog‘liq kasallikda (shikastlanishda);

b) sanatoriy-kurortlarda davolanganda;

v) kasallangan oila a’zosini parvarishlash zarur bo‘lganda;

g) karantinda;

d) kasb kasalligi tufayli vaqtincha boshqa ishga o‘tkazilganda;

e) mehnat qobiliyatini tiklash yoki protez qo‘ydirish uchun reabilitatsiya muassasalariga yotqizilganda.

O‘zbekiston respublikasida davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: 1. Davlat ijtimoiy iste’mol fondlarini tashkil etish va ulardan jamiyatning har bir a’zosining foydalanishini kafolatlaydigan qonunlarni qabul qilish; 2. Davlatning markazlashgan ijtimoiy sug‘urta fondini tashkil etish; 3. Ko‘rsatilgan xizmatlar va samarali mehnatlari uchun davlat tomonidan imtiyozlar berish; 4. Ish haqi va pensiya minimumining davlat tomonidan kafolatlanishi; 5. Ko‘p bolali oilalarga to‘lanadigan nafaqalar; 6. Kam ta’minlangan aholi tabaqalariga moddiy yordam ko‘rsatish; 7. Bolalikdan nogiron va boshqa mehnat qobiliyatini yo‘qotganlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash; 8. Talabalar uchun to‘lanadigan davlat stipendiyalari; 9. Ishsizlik nafaqasi; 10. Hayotiy zaruriy oziq-ovqat mahsulotlari turlarini belgilangan narxlarda sotilishini ta’minlash; 11. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tovar va xizmatlar baholaridagi farqlarni byudjet hisobidan qoplash; 12. Ijtimoiy sohaning yetakchi tarmoqlari (sog‘liqni saqlash, ta’lim, jismoniy tarbiya, sport va madaniyat) moddiy-texnik bazasini mustahkamlash.

4.5. Ijtimoiy siyosatning milliy modeli va jahon amaliyoti

Jahon amaliyoti, jumladan, Yevropa Ittifoqida ijtimoiy-iqtisodiy masalalar xalqaro va milliy darajada tartibga solinadi. Hozirgi vaqtda YI faoliyatining muhim yo‘nalishlarini qamrab oluvchi umumiy darajada tartibga solish ustuvorlik kasb etmoqda. Shu bilan birga milliy darajada tartibga solish yetakchi mavqega ega. Yevropada ijtimoiy siyosat Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini shakllantirish bosqichida dolzarb vazifalardan biri edi. Yevropa Ittifoqida ijtimoiy ta’minot birinchi navbatda ishchilarni ijtimoiy himoyalashga taalluqli bo‘ldi. Yevropa Ittifoqi ijtimoiy siyosat qamrovini bosqichma-bosqich kengaytirib bordi va ijtimoiy siyosatning nisbatan faol dastaklaridan foydalana boshladi. Yevropa Ittifoqi va milliy darajalarda ijtimoiy himoya tizimini tartibga solish munosabatlarida ijtimoiy himoya tizimini tashkil etish, moliyalashtirish va ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatishda mas’uliyat saqlanib qolgan. Aholining qarishi jarayonining chuqurlashuvi va aholi sonining qisqarib borishi sharoitida Yevropa Ittifoqi ijtimoiy modeli qator muammolarga duch kelmoqda.

Yevropa iqtisodiy hamjamiyati mintaqaviy xalqaro integratsion iqtisodiy tashkilot bo‘lishiga qaramasdan boshidanoq ijtimoiy siyosatga alohida e’tibor qaratdi. Rim shartnomasining ijtimoiy siyosat bo‘yicha 117–128-moddalarida ittifoqqa a’zo mamlakatlar o‘rtasida ta’lim, bandlik, mehnat sharoiti, ijtimoiy ta’minot, jamoaviy shartnomalarni

tuzish jarayonlarida hamkorlik olib borish to‘g‘risida, a’zo-mamlakatlar ishchi migrantlari uchun ijtimoiy ta’minot tadbirlarini amalga oshirishda bir xil mehnatga haq to‘lash tamoyili ma’qullandi. Mehnatkashlarni ishga joylashtirish, geografik, kasbiy harakatchanligini rag‘batlantirish va bandlik sohasida yordam ko‘rsatish maqsadida Yevropa ijtimoiy fondi tuzildi.

Xalqaro mintaqaviy integratsion birlashma hisoblangan Yevropa iqtisodiy hamjamiyati ijtimoiy siyosatining maqsadi ishchi kuchining Hamjamiyat doirasida erkin harakatlanishini qo‘llab-quvvatlash va raqobat muhitini shakllantirishga qaratilgan edi. A’zo mamlakatlar ijtimoiy ta’minot tizimi, asosan, sug‘urta tamoyiliga asoslanganligi bois ayrim mamlakatlarda bandlikka sarflanayotgan ijtimoiy xarajatlarning ortishi ijtimoiy dempingni keltirib chiqarishi mumkin edi. Chunki kompaniyalar ishchi kuchi arzon hududlarga ishlab chiqarishni joylashtira boshlashdi. Yagona bozorning amal qilishi esa kutilayotgan foydani qayta taqsimlashga zarurat qoldirmasdan avtomatik tarzda ijtimoiy rivojlanishga olib keladi. 1970 yillarning o‘rtalariga kelib neft inqirozlari ta’sirida Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida iqtisodiy o‘sish sekinlashdi va ijtimoiy uyg‘unlikka avtomatik tarzda erishish shubha ostida qoldi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida faol ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish boshlandi. Yevropa Ittifoqida 1974-yilda qabul qilingan ijtimoiy islohotlar dasturi to‘g‘risidagi qarorda milliy ijtimoiy siyosatning maqsadlarini ishlab chiqish, ijtimoiy mumamolarni hal etishni standartlashtirmaslik va a’zo mamlakatlardan ijtimoiy siyosat uchun mas’uliyatni olib tashlash kabi vazifalar belgilandi. 1980-yillarda kasaba uyushmalari va ish beruvchilar o‘rtasida ijtimoiy muzokaralar uchun “ijtimoiy hudud”ni qoldirish to‘g‘risida qarorlar qabul qilindi. “Ijtimoiy hudud” ishchilarning kafolatlangan ijtimoiy huquqlari maqsadi va minimal chegaralarini belgilash imkonini berdi.

Ishchilarni minimal himoya qilish bo‘yicha muzokaralar 1989-yilda Ishchilarning asosiy ijtimoiy huquqlari Xartiyasining qabul qilinishiga olib keldi. Xartiyaning faoliyat dasturida ijtimoiy siyosatda milliylikning saqlanib qolishi muhimligi tan olindi. Maastrixt shartnomasida esa subsidarlik tamoyili qabul qilindi. Subsidarlik tamoyili jamiyatni boshqarish “quyidan yuqoriga” qarab amalga oshirilishini ko‘zda tutadi. Ushbu tamoyil Yevropa Ittifoqi ijtimoiy ta’minot muammolari milliy darajada samarali amalga oshirilsagina unga ruxsat berishini anglatadi.

Yevropa Ittifoqining kengayishi bosqichlarida ijtimoiy siyosat tamoyillari kelishib olindi. Yevropa Ittifoqining ilk a’zolari ijtimoiy himoya tizimi (Belgiya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Lyuksemburg va Niderlandiya) bandlik asosida sug‘urta tamoyiliga asoslangan Bismark yoki kontinental model hisoblangan. 1970-yillardagi Yevropa Ittifoqining yangi a’zolarini (Daniya, Irlandiya, Buyuk Britaniya) soliqqa tortish asosida moliyalashtiriladigan va umumiy qamrovga ega ijtimoiy himoya tizimiga ega edilar. Yevropa Ittifoqiga 1980-yillarda a’zo bo‘lgan janubiy mamlakatlar (Gretsiya, Portugaliya, Ispaniya)da ijtimoiy ta’minot tizimi yaxshi rivojlanmagan bo‘lsa, 1995-yilda a’zo bo‘lgan Shimoliy Yevropa mamlakatlari (Finlyandiya, Shvetsiya, Daniya, Avstriya) bilan birgalikda nemis modeliga yaqin modelga (Kipr, Malta) va o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari (Bolgariya, Chexiya, Estoniya, Vengriya, Latviya, Litva, Polsha, Ruminiya, Slovakiya va Sloveniya) ijtimoiy ta’minotning umuman boshqa tizimlariga ega edilar.

Yuqoridagi sabablarga ko‘ra, Yevropa Ittifoqi uchun ijtimoiy himoya tizimini uyg‘unlashtirish maqsadi dolzarb hisoblandi. 1990 yillarga kelib ijtimoiy xarajatlarnng qisqarishi tendensiyasi bilan bog‘liq ravishda Yevropa Ittifoqida ijtmoiy ta’minotni aralash tizimlariga tomon o‘zgarish yuz berdi. Yevropa Ittifoqining Sharqqa tomon kengayishi ijtimoiy ta’minot tizimini uyg‘unlashtirishning yangi yondashuvlarini izlashni taqozo etmoqda.

Yevropa Ittifoqi salkam yetmish yillik tajriba asosida ijtimoiy siyosatning ko‘p bosqichli boshqaruv tizimini ishlab chiqdi va uning tamoyillari Lissabon shartnomalarida o‘z ifodasini topdi. Ijtimoiy siyosat Yevropa Ittifoqining qarorlar qabul qilish jarayonida rivojlanib, takomillashib bordi. Qonunlarning qabul qilinishini yengillashtirish maqsadida 1986-yilda Yagona Yevropa to‘g‘risidagi Qonunda sog‘liqni saqlash va mehnat xavfsizligi, mehnat sharoiti, ishchilarga maslahatlar berish, ayollar va erkaklar tengligi, ishsizlarni mehnat bozoriga qaytarish sohasida ko‘pchilik ovoz yo‘li bilan qarorlar qabul qilish tartibi joriy etildi.

Amsterdam shartnomasida bandlikda faol tadbirlar, Nitsa shartnomasida kamsitishga qarshi choralar, iqtisodiy va ijtimoiy hamjihatlikni qo‘llab-quvvatlash, Lissabon shartnomasida esa iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash, energetika xavfsizligi va favqulodda gumanitar yordam sohalarida ko‘pchilik ovoz berish yo‘li bilan qarorlar qabul qilish tartibi uzaytirildi. Ammo barcha shartnomalarda ijtimoiy

ta’minot va ijtimoiy himoya siyosati sohalarini uyg‘unlashtirish bo‘yicha hatti-harakatlarni bir ovozdan qo‘llab-quvvatlash tartibi saqlanib qoldi.

2000-yillarning boshida Yevropa Ittifoqi mamlakatlari rasmiy tarzda aholi ijtimoiy himoya tizimi uchun mas’uliyatni o‘z zimmalariga olishdi va ushbu sohadagi maqsad va vazifalarni hal etishda yaqindan hamkorlik qilishga tayyor ekanliklarini bildirishdi. 1970- va 1980- yillardagi umumiy ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlari jiddiy ijtimoiy-demografik va iqtisodiy muammolar ta’sirida o‘z dolzarbligini yo‘qotdi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari yagona ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish to‘g‘risida umumiy qarorga kela olishmasa-da, XX1 asrda a’zo mamlakatlar duch kelayotgan ijtimoiy muammolarni hal etish zarurligini tan olishmoqda. Iqtisodiyotdagi texnologik va tarkibiy o‘zgarishlar bilan bir vaqtda yuz berayotgan global demografik tendensiyalar Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ijtimoiy ta’minot tizimini isloh etish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

O‘zbekistonda davlat va uning tuzilmalalari quyidagi ijtimoiy masalalarning hal etilishini ta’minlaydi. **Birinchidan,** jamiyat mehnat qilish huquqini kafolatlaydi, bunga ish joyiga yoki zarur resurslarga ega bo‘lish va mehnatga yarasha haq to‘lash kafolati ham kiritiladi.

Mehnat sohasida mehnatning muayyan turiga xos bo‘lgan talablar yoki davlatning yuqoriroq ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan shaxslar (ayollar, voyaga yetmaganlar, nogironlar va boshqalar) to‘g‘risidagi alohida g‘amxo‘rlik bilan bog‘liq farqlashlar kamsitish deb hisoblanmaydi. Mehnat sohasida o‘zini kamsitilgan deb hisoblagan shaxs kamsitishni bartaraf etish hamda o‘ziga yetkazilgan moddiy va ma’naviy zararni to‘lash to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat qilishi mumkin.

Ish bilan ta’minlashning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy shartlari mehnat qilish huquqini amalga oshirishning kafolatlari mehnat to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilab qo‘yiladi.

Ikkinchidan, jamiyat davlat organlari tizimi va boshqa ijtimoiy tuzilmalar orqali ish kuni, ish haftasi, ish yili tartibini, yuqori mehnat samaradorligi bilan uzoq muddatli mehnat qobiliyatini saqlash uchun qulay shart-sharoitlarni qonunchilik yo‘li bilan ijtimoiy himoya qilishni kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida Mehnat Kodeksiga muvofiq xodim uchun ish vaqtining normal muddati haftasiga qirq soatdan ortiq bo‘lishi mumkin emas. Olti kunlik ish haftasida har kungi ishning muddati yetti soatdan, besh kunlik ish haftasida esa sakkiz soatdan ortib ketmasligi

lozim. Ayrim toifadagi xodimlar uchun ularning yoshi, sog‘lig‘i holati, mehnatning shartlari, mehnat vazifalarining o‘ziga xos xususiyatlari va o‘zga holatlarni inobatga olib, mehnat to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar, jumladan, mamlakatda mavjud bo‘lgan mehnat shartnomasi shartlariga binoan mehnatga to‘lanadigan haqni kamaytirmasdan, ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanadi.

Ish vaqtining qisqartirilgan muddati quyidagilar uchun belgilanadi:

- o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan xodimlar;
- I va II guruh nogironi bo‘lgan xodimlar;
- noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo‘lgan xodimlar;
- alohida ishlash sharoitiga ega bo‘lgan ishlardagi xodimlar;
- uch yoshga to‘lmagan bolalari mavjud byudjet hisobidan moliyaviy jihatdan ta’minlanadigan muassasalar va tashkilotlarda ishlayotgan ayollar.

Ish vaqtining haftasiga o‘ttiz olti soatdan oshmaydigan qisqartirilgan muddati mehnat jarayonida sog‘lig‘iga kimyoviy, biologik va ishlab chiqarishning boshqa zararli omillari ta’sir etadigan xodimlar uchun belgilanadi.

Uchinchidan, jamiyat ijtimoiy-madaniy sohani aholini ijtimoiy himoyalash talablari ustuvorligini hisobga olib rivojlantirishni kafolatlaydi. Jumladan, bu vazifa dam olish muassasalarining zarur tizimi, infratuzilmasini rivojlantirish yo‘li bilan har kun, har haftada va har yili dam olish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish orqali amalga oshiriladi.

Barcha xodimlarga, jumladan o‘rindoshlik asosida ishlayotgan xodimlarga, dam olish va mehnat qobiliyatini tiklash uchun ish joyi (lavozimi) va o‘rtacha ish haqi saqlangan holda yillik mehnat ta’tillari beriladi.

“Ijtimoiy munosabatlar – guruhlar va jamoalar o‘rtasidagi uyg‘unlashuv munosabati (sinfiy, milliy, jamoaviy). Jamiyatda turli mavqega ega kishilar guruhlari o‘rtasidagi munosabat, unda barchaning birdek qatnashmasligi, ya’ni iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hayotda, turmush tarzi, daromadlarining darajasi va manbalari, shaxsiy iste’mol tuzilishini turli tarkibga egaligi, o‘zaro hamkorlik yoki nizo tavsifini olishi mumkin (mazkur guruhlarning manfaatlari mos kelishi yoki to‘qnashishi asosida). Ijtimoiy munosabatlar tavsifi va ular tizimidagi insonning o‘rni, ijtimoiy ong shakllanadigan va qayta shakllanadigan tamoyillar (tasavvurlar, bilimlar)ga bog‘liq. Shunday tamoyil sifatida zamonaviy jamiyatlarda «Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi»

qabul qilinadi, bunda insonning huquqi jamiyat uchun ajralmas va muqaddas deb tan olinadi”.

Ma’lumki, xodimlarga o‘n besh ish kunidan kam bo‘lmagan muddat bilan yillik mehnat ta’tili beriladi. Yillik mehnat ta’tili birinchi ish yili uchun olti oy ishlagandan keyin beriladi. Ish yili mehnat shartnomasiga binoan ish boshlangan kundan e’tiboran hisoblanadi.

Mehnat ta’tili quyidagi xodimlarga ularning xohishi bo‘yicha olti oy o‘tmasdan oldin beriladi:

- ayollarga homiladorlik va tug‘ish ta’tili oldindan yoki undan keyin;
- I va II guruh nogironlariga;
- o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarga;
- muddatli harbiy xizmatdan zaxiraga bo‘shatilgan va ishga joylashgan harbiy xizmatchilarga.

Aholini ijtimoiy himoya qilishda ijtimoiy yordamning quyidagi turlari bilan ta’minlanadi:

- nafaqalar;
- imtiyozlar, kafolatlar, afzalliklar;
- ijtimoiy xizmatlar;
- bir yo‘la (nomuntazam) beriladigan moddiy yordam.

Quyidagilar ijtimoiy himoya ob’ektlari hisoblanadi:

- nafaqa yoshiga yetganlar;
- nogironlar;
- boquvchisini yo‘qotgan bolalar;
- kam ta’minlangan oilalar bolalari;
- ishsizlar;
- homilador ayollar va yosh bolalarga qarash bilan band bo‘lgan ishlamayotgan ayollar;
- kasallik tufayli vaqtincha ishlamayotganlar;
- o‘quvchi yoshlar;
- mehnatga layoqatsizlarga qarash bilan band bo‘lgan ishlamayotgan mehnatga layoqatli fuqarolar.

Pensionerlar – bular pensiya yoshiga yetganligi yoki nogironlik oqibatida mehnat qobiliyatini yo‘qotgan shaxslar, jumladan, boquvchisini yo‘qotgan bolalar (etimlar)dir. Shaxslarni ushbu qatlamini ijtimoiy himoyalash pensiya tizimi orqali amalga oshiriladi.

Ishsizlar – bular turli sabablar tufayli ishini yo‘qotgan va ishga joylashishi ishtiyoqi bo‘lgan 16 yoshdan boshlab to pensiya yoshigacha mehnat qobiliyatiga ega shaxslardir. Bunday shaxslarni ijtimoiy himoyalash ishsizlik bo‘yicha nafaqalar tizimi orqali amalga oshiriladi.

Kam ta’minlangan oilalarning bolalari — bular oilani har bir a’zosining umumiy daromadi rasmiy belgilangan tirikchilik qilish uchun zarur miqdordan kam bo‘lgan oilalardagi mehnat qilish yoshiga yetmagan bolalardir. Ularni ijtimoiy himoyalash nafaqa tizimi orqali amalga oshiriladi.

Homilador ayollar – bular farzand tarbiyasi bilan band bo‘lgan tug‘ruq ta’tilidagi ayollardir. Davlat aholining mazkur toifasini ijtimoiy himoyaga olgan va ularning farzandlari 2 yoshga yetgunga qadar nafaqalar bilan ta’minlanadi.

Inson – jinsi, yoshi, millati, e’tiqodi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, har bir kishi uzoq va munosib umr kechirishi – ta’lim olish, yaxshi kasb-hunar egallash, o‘z mehnati bilan o‘zining va yaqinlarining turmush farovonligini ta’minlash, oilali va bola chaqali bo‘lishni orzu qiladi.

Ushbu tamoyildan kelib chiqqan holda, taraqqiyot va farovonlikka intilayotgan davlatning vazifasi har bir fuqarosiga to‘laqonli faoliyat yuritish uchun munosib shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Sanab o‘tilgan qoida va tamoyillar O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga ega demokratik jamiyat qurishning o‘ziga xos modelida o‘zining ifodasini topgan. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning tamoyili etib inson farovonligi yo‘lida kuchli ijtimoiy yo‘naltirilgan siyosat yuritish, bunda aholini tarkibiy o‘zgarishlar tufayli ro‘y berishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlardan ijtimoiy himoyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Har tomonlama puxta o‘ylangan va tarixiy an’analarimiz, xalqimizning o‘ziga xos dunyoqarashi, demografik rivojlanish jarayonlarini e’tiborga olgan holda tanlangan ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga ega demokratik jamiyat qurish modeli O‘zbekistonga kamroq ijtimoiy-iqtisodiy yo‘qotishlar evaziga bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri qiyinchiliklarini yengish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash asosida aholi turmush darajasini oshirish va turmush sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Ijtimoiy siyosatning aholini ijtimoiy ta’minlash va davlat ijtimoiy kafolatlari kabi ustuvor yo‘nalishlarini farqlash mumkin. Ijtimoiy ta’minot pensiya ta’minoti, nafaqalar bilan ta’minlash, aholining ayrim tabaqalari uchun belgilangan imtiyozlar va kompensatsiyalar tizimi va ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi yo‘nalish esa jamiyatning bir me’yorda rivojlanishi, sog‘liqni saqlash, ta’lim,

madaniyat va sog‘lomlashtirish, jumladan, bilim olish, kasb tanlash, turar joyga ega bo‘lish kabi huquqlarini ta’minlash bilan bog‘liq.

Ijtimoiy ta’minot davlat ijtimoiy sug‘urtasi, respublika byudjeti mablag‘lari, mahalliy byudjetlar mablag‘lari, xayriya tashkilotlari, jamoat tashkilotlari kabi tashkiliy-huquqiy shakllarda xususiy shaxslar faoliyati bilan bog‘liq holda rivojlandi.

Mehnatkashlarni ijtimoiy himoya qilish tizimini bir vaqt-ning o‘zida amal qiladigan va bir-birini to‘ldiruvchi to‘rtta quyidagi tizimga ajratish mumkin: davlat ijtimoiy ta’minoti, davlat ijtimoiy sug‘urtasi, jamoa ijtimoiy sug‘urtasi va shaxsiy sug‘urta.

Davlat ijtimoiy ta’minoti aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlariga pulli nafaqalar vositasida ko‘rsatiladigan yordamdir. Soliqlar va boshqa byudjet tushumlari hisobiga moliyalashtiriladigan ushbu yordam ularga belgilangan minimal turmush darajasini kafolatlaydi.

Davlat ijtimoiy sug‘urtasi zarur turmush darajasini kafolatlaydi. U majburiy bo‘lib, ish beruvchilar va mehnatkashlarning sug‘urta badallari, davlat tomonidan ajratiladigan dotatsiyalar hisobiga moliyalashtiriladi.

Jamoa sug‘urtasi yetarli turmush darajasini kafolatlaydi. U majburiy yoki ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi mumkin, bunda ish beruvchilar va mehnatkashlarning sug‘urta badallari to‘lov manbalari bo‘lib xizmat qiladi.

Shaxsiy sug‘urta farovonlikning yuqori darajasini kafolatlaydi, u ixtiyoriy ravishda, fuqarolarning sug‘urta badallari hisobiga amalga oshiriladi.

Birinchi ikki quyi tizimning ish tamoyili – birdamlik, uchinchisiniki subsidiyalash, to‘rtinchi, ya’ni shaxsiy sug‘urtaniki esa mutanosiblik tamoyilidir. Birdamlik tamoyili yordamni muhtojlik darajasiga qarab, fuqaro to‘lagan soliqlar va sug‘urta badallari miqdorini hisobga olmasdan taqsimlanishini ko‘zda tutadi. Subsidiyalash tamoyilida esa muhtojlik darajasiga qarab, ammo badallar miqdori va mos ravishda to‘lovlar miqdorini hisobga olgan holda yordam ko‘rsatiladi. Mutanosiblik tamoyili to‘langan sug‘urta badallariga proporsional miqdorda yordam ko‘rsatishni ko‘zda tutadi.

Yuqorida qayd etilganlardan tashqari ijtimoiy himoya qilishni quyidagi tamoyillari ham qo‘llaniladi:

- umumiylik;
- ochiqlik;
- ko‘ptomonlamalik;

- ta’minot turlarining xilma-xilligi;

- muvofiqlik (ya’ni ijtimoiy yordam miqdorini iqtisodiy taraqqiyot darajasiga mosligi).

Davlat ijtimoiy ta’minoti va sug‘urtasining quyidagi turlari mavjud:

- davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar va boshqa ijtimoiy nafaqalar;

- davlat pensiya ta’minoti;

- qariyalar uylarida keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga qarash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish;

- nogironlarni protez-ortopedik buyumlar va harakatlanish vositalari bilan ta’minlash;

- bolalar uylari, internatlar va boshqa muassasalarda bolalarga qarash va tarbiyalash;

- nogironlarni ishlab chiqarish va kasbiy reabilitatsiya qilish;

- aholini sanatoriya-kurortlar va dori-darmonlar bilan ta’minlash;

- uylarda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlar ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat barpo etishga qaratilgan. Buni ijtimoiy sohadagi islohotlarni amalga oshirish orqali ta’minlash mumkin. Amaliyot tahlillari ko‘rsatishicha, har qanday jamiyatning rivojlanganlik darajasi ijtimoiy masalalarning qay darajada hal etilayotganiga bog‘liq. Ijtimoiy masalalar mamlakat taraqqiyotining muhim omili sifatida iqtisodiy rivojlanishga faol ta’sir etadi. Shuning uchun ham har qanday jamiyatning ijtimoiy islohotlarni davomli amalga oshirib borishi hayotiy ehtiyojdir. Bozor islohotlari muayyan ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi va ushbu holat bir ijtimoiy-iqtisodiy tizimdan ikkinchisiga o‘tishda namoyon bo‘ladi.

Mamlakatni modernizatsiyalash va iqtisodiyotning erkinlashtirilishi pul muomalasi barqarorligini ta’minlash, iste’mol narxlarining keskin o‘sishiga barham berish, aholini ijtimoiy himoyalash va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan choralarni aniq belgilash, jumladan, kishilar uchun shakllangan turmush tarzining buzilishi, ijtimoiy fe’l-atvor, boqimandalik kayfiyatining o‘zgarishi kabi ijtimoiy muammolar ko‘lami yuzaga keladi.

Ijtimoiy sohani isloh qilish quyidagilarga qaratiladi:

- ijtimoiy ziddiyatlar keskinligini kamaytirish;

- odamlarning yangi turmush sharoitlariga moslashishini osonlashtirish;

- davlat byudjetdan tashqari maqsadli ijtimoiy iste'mol fondlarini tashkil etish va ulardan jamiyatning har bir a'zosi foydalanishini kafolatlaydigan qonunlar qabul qilish;

- davlatning markazlashgan ijtimoiy sug'urta fondini tashkil etish;

- ko'rsatilgan xizmatlar va samarali mehnatlar uchun davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar;

- ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan mahsulotlar va xizmatlar narxlaridagi farqlarni byudjet hisobidan qoplash;

- ijtimoiy sohaning yetakchi tarmoqlari (ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya, sport va madaniyat) moddiy bazasini qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash;

- mehnat jamoasi tomonidan xodimlarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirishga doir shart-sharoitlar yaratish.

4.6. Xalqaro tashkilotlar va global islohotlar

Ijtimoiy siyosatni shakllantirishda xalqaro tashkilotlar muhim ahamiyatga ega. Xalqaro tashkilotlarning ijtimoiy siyosatni shakllantirishdagi o'rnini o'rganish ijtimoiy siyosat doirasidagi muhim muammolardan biri hisoblanadi. Xalqaro tashkilotlar XXI asrning boshlaridan buyon jahonning aksariyat mintaqalarida ijtimoiy siyosatni shakllantirishda faol rol o'ynashmoqda. Ushbu faollik Ikkinchi jahon urushidan keyin Bretton-Vuds kelishuvlari doirasida xalqaro tashkilotlarni ta'sis etish va GATT qoidalarining imzolanishi bilan yanada jadallashib ketdi. 1940-yildan XX asrning oxiriga qadar xalqaro tashkilotlar soni taxminan 70 martaga ortdi. Xalqaro darajada hamkorlikning kuchayishi siyosiy globallashuvning asosiy elementi hisoblanadi.

Xalqaro tashkilotlar ijtimoiy siyosat sohasining ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, shakllantirish va rivojlantirish bilan shug'ullanishadi. Xalqaro tashkilotlar xorijiy investitsiyalar, tovar va xizmatlar ishlab chiqarish va savdo shartlarini ishlab chiqadilar, makroiqtisodiy siyosat ko'rsatkichlarini belgilab beradilar va asosiy rivojlanish yo'nalishlarini aniqlaydilar. Xalqaro tashkilotlar resurslar qay tarzda mamlakatlar ichida va mamlakatlar o'rtasida jamg'arilishi, taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi, dunyoda ijtimoiy tengsizlik va kambag'allik sabablarini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynashadi.

4.6.1-jadval

Xalqaro tashkilotlarning guruhlanishi[51]

Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar	Xalqaro hukumatlararo nodavlat tashkilotlar
Umumjahon banki banki guruhi Xalqaro valyuta fondi Birlashgan millatlar tashkiloti BMTning ijtimoiy muassosalari, jumladan, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), Umumjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, YUNISEF, Jahon savdo tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, G7, G77, G24 va h.k.	Xalqaro iqtisodiy Forum Xalqaro ijtimoiy forum Suv resurslari bo‘yicha xalqaro forum Erkin kasb egalari xalqaro konfederatsiyasi Xalqaro farmatsevtika sanoati assotsiatsiyasi
Mintaqaviy Yevropa Ittifoqi Shimoliy Amerika erkin savdo uyushmasi (NAFTA) ASEAN (Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi) SAARK (Janubiy Osiyo mintaqaviy hamkorligi) MERKOSUR (Janubiy Amerika umumiy bozori) KARIKOM (Karib hamjamiyati va umumiy bozor) SADK (Janubiy Afrika hamjamiyati)	Yevropa xizmatlar forumi Yevropa savdo konfederatsiyasi Yevropa ijtimoiy forumi Osiyo ijtimoiy forumi Afrika ijtimoiy forumi

Xalqaro tashkilotlar hukumatlararo tashkilotlar (XHT) va hukumatlararo nodavlat tashkilotlariga (XHNT) bo‘linadi. XHT mohiyatiga ko‘ra xalqaro forumlar hisoblanib ularda davlatlar siyosiy va huquqiy munosabatlarga kirishadi. XHNT orqali esa ixtiyoriy, xayriya, kasaba uyushmalari, tarmoq tashkilotlari va biznes guruhlar xalqaro darajada munosabatlarga kirishadi. Xalqaro tashkilotlar jahon miqyosida va mintaqalar miqyosida faoliyat yuritadilar (4.6.1-jadval).

Xalqaro tashkilotlar resurslari nuqtai nazaridan ham farqlanadi (4.6.2-jadval).

[51] Халқаро Меҳнат ташкилоти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган. www.ilo.org

4.6.2-jadval

Ijtimoiy boshqaruvning milliy, mintaqaviy va global darajadagi faoliyati

	Milliy	Yevropa Ittifoqi	Global
Barqaror iqtisodiy daromadlar	Markaziy banklar Soliqqa tortish	Yevropa markaziy banki (Yevro hudud) Bojxona daromadlari + ishtirokchilarning davlat xayriyalari	XVF / BMT, milliy iqtisodiyotlar rivojlanishiga yordam beruvchi maxsus global fondlar Maxsus gumanitar yordam.
Taqsimot	Soliqlar va trasnfert daromadlar siyosati	Tarkibiy fondlar Umumiy qishloq xo‘jalik siyosati	Qarzdorlik bo‘yicha maxsus global fondlar.
Tartibga solish	Davlat qonunlari va direktivalari	Yevropa Ittifoqi qonunlari, qoida-lari va direktiva-lari. Ijtimoiy xartiya Huquqiy himoya sudi Uch tomonlama boshqaruv	Umumjahon savdo tashkiloti konvensiyalari BMTning aholi bo‘yicha komissiyasi

Xalqaro tashkilotlarning ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdagi ishtiroki quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

- savdo, investitsiyalar, makroiqtisodiy siyosat;
- atrof-muhit;
- bandlik va ijtimoiy himoya;
- xavfsizlik siyosati;
- fan va ta’lim;
- sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot;
- ijtimoiy va pensiya ta’minoti;
- uy-joy;
- oziq-ovqat va suv ta’minoti;
- migratsiya va qochoqlarga boshpana berish;
- tug‘ilish va tug‘ilishni nazorat qilish;

- gumanitar yordam va taraqqiyot.

XHTning ijtimoiy sohani tartibga solish, moliyalashtirish va xizmatlar ko‘rsatishdagi ishtiroki quyidagi jadvalda keltirilgan (4.6.3-jadval).

4.6.3-jadval

XHTning ijtimoiy ta’minotni ta’minlash, moliyalashtirish va tartibga solishdagi ishtiroki

	Ta’minot	Moliyalashtirish	Tartibga solish
Global	XHX va XNHTlar orqali ko‘rsatilayotgan gumanitar yordam, demografik dasturlar, ijtimoiy rivojlanish loyhalari, global (sog‘liqni saqlash, ijtimoiy) fondlar	Daromadlar xayriyalar, badallar yordamida ko‘paytiriladi, gumanitar yordam, qarzdorlikni kamaytirish va tabaqalashgan narxlarni shakllantirish uchun yo‘naltiriladi	XMT, IHTT orqali xalqaro mehnat va ijtimoiy standartlar; BMT inson huquqlari konvensiyalari; xalqaro savdo va iqtisodiy huquq sohasida ijtimoiy, tibbiy va ta’lim
Mintaqa (YI)	Inson resurslari / ijtimoiy fondlar, mintaqaviy taraqqiyot fondlari	Bojxona va davlat xayriyalaridan olinadigan daromadlar (soliqlar) qishloq xo‘jalik va tarkibiy fondlar orqali tarqatiladi	Kelishuvlar va direktivalar orqali mehnat va ijtimoiy standartlar

Xalqaro tashkilotlarning ijtimoiy siyosatni shakllantirishdagi ishtiroki bevosita yoki bilvosita usullar yordamida amalga oshiriladi:

- O‘zaro o‘rganish, tahlil va muhokama etish uchun forumlar tashkil etish.
- Xalqaro ijtimoiy standartlarni belgilash. BMTda inson huquqlari, XMTda mehnatga oid, Umumjahon Sog‘liqni saqlash tashkilotida sog‘liqni saqlashga oid konvensiyalar ishlab chiqish. Ushbu standartlar asosida milliy ijtimoiy siyosat yo‘nalishlari ishlab chiqiladi.
- Ijtimoiy sohani tartibga solish sohasida chuqur integratsiyalashish. Jumladan, G‘arbiy Yevropa va Lotin Amerikasida ishchi kuchi harakatchanligiga ko‘maklashish maqsadida mehnat va ijtimoiy sohani tartibga solishda umumiy bozorni tashkil etish.

Xalqaro tashkilotlar milliy ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga turlicha ta’sir ko‘rsatishadi. Milliy hukumatlar xalqaro tashkilotlarning ijtimoiy siyosat sohasidagi ba’zi tavsiyalarini e’tiborga olish, erkin tanlashlari mumkin bo‘lsa, ba’zi yo‘nalishlarini majburiy tanlashadi.

Umuman, xalqaro tashkilotlar ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha faol qatnashadi:

- Xalqaro savdo, barqaror iqtisodiy rivojlanish sohasida siyosat yuritish;
- Ijtimoiy yordam va rivojlanish uchun ijtimoiy fondlardan foydalanish;
- Ijtimoiy standartlar va me’yorlarni ishlab chiqish hamda joriy etish. Xalqaro tashkilotlar ijtimoiy siyosatni nazorat qilish va bevosita ijtimoiy siyosat dasturlarini amalga oshirishda qatnashish;
- Ijtimoiy siyosat doirasida dunyo bo‘yicha resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash;
- Ijtimoiy siyosatni milliy va xalqaro darajada boshqarishga ta’sir o‘tkazish.

Barqarorlik va ijtimoiy adolatga asoslangan iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida xalqaro tashkilotlarning ijtimoiy ta’minotni ta’minlashdagi o‘rni yuqoriligicha qoladi.

Glossariy

O‘zbekcha	Ruscha	Inglizcha	Izoh
Ijtimoiy siyosat	Социальная политика	Social policy	aholining barqaror turmush darajasini ta’minlash va sifatini yaxshilash uchun davlat tomonidan olib boriladigan chora-tadbirlarning yig‘indisi
Ijtimoiy adolat	Социальная спарведли-вость	Social justice	jamiyatni moddiy va ma’naviy rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda aholi, kishilar, sinflar va ijtimoiy qatlamlarni turmush darajasidagi tenglik mezoni.
Ijtimoiy ta’minot	Социальное обеспечение	Social welfare	Vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik, ishsizlik, ayollar va bolalarga, keksalarga nafaqalar to‘lashning davlat tizimi
Ijtimoiy farovonlik davlati	Государства всеобщего благосостоя-ния	Welfare state	davlatning o‘z fuqarolarining iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini himoya qilishi, rag‘batlantirishida muhim rol o‘ynashi to‘g‘risidagi konsepsiya

Ijtimoiy faol fuqaro	Социальной активной граждан	Social active citizen	ijtimoiy xizmatlar bahosi va sifatiga nisbatan talabchan, o‘zi, oilasi va yashayotgan jamiyati farovonligi uchun mas’uliyatni zimmasiga oluvchi fuqoro
“Mediker” dasturi	Программа «Медикэр»	Medicare Program	AQSh da 65 yoshdan oshgan keksalarga tibbiy xizmat ko‘rsatishni moliyalashtirish, kasalliklar bo‘yicha davlat tomonidan sug‘urtalash, bepul tibbiy yordam ko‘rsatish maqsadlarida tuzilgan davlat ijtimoiy dasturi
“Medikeyd ” dasturi	Программа «Медикейд»	Medicaid Program	AQSh da aholining kam daromadli qatlamlariga (ishsizlar, qashshoqlar va nogironlar) ko‘rsatiladigan yordam
Ijtimoiy xizmatlar	Социальные услуги	Social services	Inson kapitalini investitsiyalash, ya’ni shaxsning takror ishlab chiqarish, ma’naviy salohiyatini tiklash va kengaytirishga qaratilgan investitsiyalarni amalga oshirish.
Ijtimoiy huquqlar	Социальные права	Social rights	insonning ijtimoiy ta’minot, ta’lim olish, sog‘liqni saqlash, tibbiy yordam olish va boshqa ijtimoiy himoya qilishga oid konstitutsion huquqlari

Nazorat savollari:

1. Ijtimoiy ta’minot tizimini boshqarish va nazorat qilishni isloh etish xususiyatlari.
2. Ijtimoiy ta’minot tizimi faoliyatida hisobot berish.
3. Farovonlik davlati va ijtimoiy xizmatlar.
4. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda markaziy va mahalliy boshqaruv organlarining tutgan o‘rni.
5. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning milliy modellari.
6. Xalqaro tashkilotlar va global ijtimoiy islohotlar.

Testlar:

1. Ijtimoiy ta’minot faoliyati hisobotini amalga oshirishning qanday mexanizmi ijtimoiy ta’minot faoliyatini boshqarish va nazorat qilishda saylov organlarining o‘rnini aks ettiradi?

a) demokratik;
b) huquqiy;
c) audit;
d) bozor.

2. Ijtimoiy ta’minot faoliyati hisobotini amalga oshirishning qanday mexanizmi ijtimoiy ta’minot sohasida band bo‘lgan (shifokorlar, o‘qituvchilar, tibbiyot hamshiralari, ijtimoiy xizmatchilar) kasb egalari uchun kasbiy standartlarga javob berish talablari bo‘yicha hisobot berilishini talab qiladi.

a) huquqiy;
b) audit;
c) kasbiy;
d) demokratik.

3. “Yangi kurs” dasturi mullifi kim?

a) M. Tetcher;
b) U. Beveridj;
c) F. D;Ruzvelt;
d) O. Bismark.

4. Qaysi model ko‘pincha zamonaviy sotsializm modeli, deb ataladi?

a) Amerika modeli;
b) Nemis modeli;
c) Yapon modeli;
d) Shved modeli.

5. “Ijtimoiy faol fuqaro” tushunchasi...

a) o‘zi, oilasi va yashayotgan jamiyati farovonligi uchun mas’uliyatni zimmasiga olishda ;
b) ijtimoiy xizmatlar bahosi va sifatiga nisbatan talabchan bo‘lishda;
c) ijtimoiy xizmatlarning faol iste’molchilari bo‘lishda;
d) faol ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda namoyon bo‘ladi.

6. Ijtimoiy siyosatni shakllantirishning Beveridj modeli ...

a) jamiyat xavfsizligini ta’minlash va ijtimoiy integratsiyaga erishishda;
b) ijtimoiy siyosatning barqaror narxlar darajasini ta’minlash orqali amalga oshirilishida;
c) ijtimoiy ta’minotning qoldiq tamoyili bo‘yicha amalga oshirilishida;
d) yaqinlarning bir-biriga yordam berishida o‘z ifodasini topadi.

7. Subsidarlik tamoyilining mazmuni nimadan iborat?

a) jamiyatni boshqarish quyidan yuqoriga qarab amalga oshiriladi;
b) jamiyatni boshqarish yuqoridan quyiga qarab amalga oshiriladi;
c) jamiyatni boshqarishning vertikal tizimi amal qiladi;
d) jamiyatni boshqarishning gorizontal tizimi amal qiladi.

8. Davlat o‘z fuqarolarining iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini himoya qilishi, rag‘batlantirishida muhim rol o‘ynashi to‘g‘risidagi konsepsiya ...

a) ijtimoiy farovonlik davlati;
b) iqtisodiy farovonlik davlati;
c) siyosiy farovonlik davlati;
d) ma’naviy farovonlik davlati.

9. Qaysi javobda xalqaro tashkilotlar to‘g‘ri guruhlangan?

a) hukumatlararo va nodavlat;
b) xususiy va davlat;
c) rasmiy va norasmiy;
d) federal va unitar.

10. Ijtimoiy boshqaruv darajalarini belgilang.

a) milliy, mintaqaviy va global;
b) mahalliy, markaziy va davlat;
c) ichki, tashqi va aralash;

mahalliy, davlat mintaqaviy.

V bob. MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA IJTIMOIY SIYOSATNI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI

5.1. Ijtimoiy siyosatning shakllanishi va uni amalga oshirishda demografiyaning o‘rni.

5.2. Iqtisodiy va ijtimoiy siyosat o‘rtasidagi nisbat.

5.3. Dinning ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdagi o‘rni.

5.4. Oila siyosati ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida

5.5. Aholining turli ijtimoiy qatlamlari va ijtimoiy siyosat.

5.6. Kambag‘allikka qarshi kurash ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning ustuvor vazifasi.

5.7. Daromadlarni taqsimlash va aholi farovonligini oshirish masalalari.

5.1. Ijtimoiy siyosatning shakllanishi va uni amalga oshirishda demografiyaning o‘rni

Ijtimoiy siyosat – davlat, jamoat tashkilotlari va xayriya fonlarining aholi ehtiyojlarini qondirish va ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan faoliyatidir.

Ijtimoiy siyosatning tor ma’nodagi ta’rifi davlatning ma’lum sababga ko‘ra ijtimoiy jihatdan nochor bo‘lgan va o‘zining moddiy ahvolini o‘z faoliyatlari orqali yaxshilay olmaydigan aholi guruhlari yoki qatlamlarini (pensioner, yetim bolalar, talabalar, mehnat nogironlari, kam ish haqi oluvchi ishlovchilar kategoriyalari) qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidan iborat.

Ijtimoiy siyosatning keng ma’nodagi ta’rifi jamiyatning barcha a’zolarining ijtimoiy rivojlanishi uchun normal yashash va qulay imkoniyatlar yaratishga qaratilgan davlat chora-tadbirlari yig‘indisidir.

Umuman, ijtimoiy siyosat davlatning ijtimoiy rivojlanish, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish sohasida muvofiqlashtirilgan siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlari tizimidan iborat.

Ijtimoiy siyosatning maqsadi kishilarni ijtimoiy ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish, ayrim fuqarolar va ijtimoiy guruhlarni qo‘llab-quvvatlash, himoya qilish, to‘g‘ri yo‘naltirish va mehnat qobiliyatini qayta tiklash uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Bunga samarali

me’yoriy-qadriyatlar tizimini yaratish; fuqarolarga ijtimoiy me’yorlarni amalda ta’sir ettirish, ularning xulq-atvorini ijtimoiy tartibga solish vositasi orqali yuqori darajaga ko‘tarish, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish – aniqligi, ob’ektivligi, me’yoriy ko‘rsatmalarga zid bo‘lmasligi va ular o‘rtasidagi o‘xshashlik tushuniladi.

Ilmiy asoslangan, aholining barcha qatlamlari va guruhlari manfaatlari, ehtiyojlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladigan ijtimoiy siyosat jamiyatning ijtimoiy barqarorligini, jamoaviy birdamlikni, ijtimoiy keskinlikning oldini oladi, ijtimoiy axloqni insonparvarlashuvini, yaxshi ijtimoiy-ruhiy muhitning yuzaga kelishini ta’minlaydi. Ijtimoiy siyosat umumdavlat (jamiyatni barcha aholi qatlami va guruhlarining manfaatlarini, bilim olish va mehnat qilish huquqlarini hisobga oladi), mintaqaviy (iqtisodiy yoki ma’muriy bo‘linish, respublika, viloyat manfaatlarini), mahalliy (shahar, tuman, korxona, tashkilot, muassasa manfaatlarini) va shaxsiy (tabiiy ofatlardan jabrlangan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yordam) tavsifiga ega. Quyidagilar ijtimoiy siyosatning muhim vazifalari hisoblanadi: jamiyat umumiy farovonligini, insonparvarlashuv darajasini oshirish va inson huquqlarini himoya qilish, fuqarolar mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash, aholining kam ta’minlangan qatlamlariga ijtimoiy yordam ko‘rsatish va qo‘llab-quvvatlash: bolalar, onalar, keksa kishilar, yetimlar, nogironlar, qochoqlar, ishsizlar va boshqa manfaatlarini boshqarish ijtimoiy siyosatning muhim tamoyillaridan hisoblanadi.

Ijtimoiy siyosat yaqin davrga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin. Yaqin yillar uchun mo‘ljallangan ijtimoiy siyosat aholi turmush tarzining yomonlashuviga yo‘l qo‘ymaslik, bandlik siyosatini samarali amalga oshirish va ishsizlikning jadal o‘sishini cheklash; aholi turli qatlamlari va guruhlarining moddiy holati va turmush sharoitlarini tadrijiy ravishda yaxshilash uchun zarur imkoniyatlarni yaratishni nazarda tutadi.

Uzoq muddatli ijtimoiy siyosatga samarali rag‘batlantirish vositalarini ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta’minlash yo‘li bilan fuqarolar tashabbuskorligi va tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-

sharoitlar yaratishni kiritish mumkin. Ijtimoiy siyosat volyuntaristik aralashuvlarsiz o‘tkazilgandagina shaxs rivojining va jamiyat barqarorligining kuchli vositasi bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy siyosatning vazifalari quyidagilardan iborat: shaxsning mehnat qilish, bilim olish huquqlarini amalga oshirishni iqtisodiy va huquqiy jihatdan kafolatlash; aholining barcha qatlamlarini, birinchi navbatda eng kam himoya qilingan qatlamlarining ijtimoiy himoya mexanizmini yaratish; ommaviy ishsizlikka yo‘l qo‘ymaslik, ish joyini yo‘qotgan taqdirda ishsizlarga qayta o‘qish va qayta tayyorlash imkoniyatini berib ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta’minlash; ijtimoiy sug‘urta tizimini yaratish; aholini ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlari turmush darajasining keskin pasayishiga yo‘l qo‘ymaslik; fuqarolar daromadlarining barqaror o‘sishi va kompensatsion to‘lovlarning ishonchli amal qiluvchi mexanizmini yaratmasdan aholini majburiy xarajatlari va to‘lovlarini ortishiga olib keluvchi qarorlarni qabul qilmaslik.

Ijtimoiy siyosat tarkibiy jihatdan quyidagilarni qamrab oladi:

- ijtimoiy himoya tizimi (mehnat qobiliyatini yo‘qotib o‘zi ishlab topa olmaydigan yoki qaramog‘ida bolalari, boqimandalarga ega bo‘lgan shaxslarga nafaqa berish);
- ijtimoiy sug‘urta (pensiyaga chiqish va ishsizlik bilan bog‘liq ish haqini yo‘qotishlarni vaqtinchalik qoplash;
- ijtimoiy xizmatlar (inson kapitalini investitsiyalash, ya’ni shaxsning takror ishlab chiqarish, ma’naviy salohiyatini tiklash va kengaytirishga qaratilgan investitsiyalarni amalga oshirish);
- mehnat bozori va bandlikni ta’minlash (mehnat bozoridagi ishchi kuchiga talab va taklif o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblikni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini joriy etish, ishchi kuchini tayyorlash va qayta tayyorlash va boshqalar).

Ijtimoiy ishning tamoyillari uch vazifani – konstitutsiyalovchi, tartibga soluvchi va uyg‘unlashtiruvchi vazifalarni bajaradi. Quyidagilar ijtimoiy ishning tamoyillari hisoblanadi:

- insonparvarlik tamoyillari (insonni oliy qadriyat deb tan olish);

- adolat tamoyillari (inson qobiliyatlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash);

- vakolatchilik tamoyili (ijtimoiy ish nazariyasi va amaliyotini chuqur bilish);

- altruizm tamoyili (o‘zganing manfaatini o‘zining manfaatidan yuqori deb tan olish);

- shaxsiy yondashish tamoyili (har bir ijtimoiy muammoda muayyan shaxs manfaatlarini ko‘ra olish layoqati);

- mujassamlik tamoyili (turli darajadagi ijtimoiylikda yuzaga keluvchi bir-biri bilan ijtimoiy bog‘liqlik);

- vositachilik tamoyili (ijtimoiy ishlarni davlat ijtimoiy siyosatining ifodasi sifatida tushunish);

- uzluksizlik tamoyili (huquqiy ishlarning muntazam davomiylikdagi, tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan deb tushunish);

- jalb etishlik tamoyili (mijozning e’tiborini tortish uquvi);

- ishonch tamoyili (mijoz bilan o‘zaro ishonchli munosabatlarni o‘rnatish uquvi).

Ijtimoiy ishning integral tavsifiga ko‘ra unda iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy, ma’muriy, psixologik, ijtimoiy-ruhiy, tibbiy-ijtimoiy, pedagogik va boshqa usullardan foydalaniladi.

Davlat ijtimoiy siyosatining muhim tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy adolat;

- ijtimoiy javobgarlik;

- ijtimoiy hamkorlik;

- ijtimoiy kafolatlar;

- har bir shaxsni zarur ijtimoiy ne’mat va xizmatlarni olishdagi teng imkoniyatlari;

- davlat tomonidan hayotiy-zaruriy moddiy ne’matlar va xizmatlarni (minimal ish haqi, pensiyalar, minimal iste’mol byudjeti) minimal ijtimoiy standartlar darajasida olishni kafolatlash.

Ijtimoiy siyosat o‘tish davrida aktiv va passiv shaklda amalga oshirilishi mumkin. Aktiv ijtimoiy siyosat – mamlakatda ishlab chiqarishni rag‘batlantirish mexanizmi orqali amalga oshirilib aholining

aksariyat qismining daromadlarini oshirish imkoniyatini ta’minlaydi va mustaqil yashash uchun tegishli shart-sharoitlar yaratadi.

Passiv ijtimoiy siyosatda davlat fuqarolarning ayrim kategoriyalariga nisbatan chora-tadbirlarni (yordam, qo‘llab-quvvatlash, rivojlantirish) amalga oshiradi. Uning uchun selektivlik, samarasizlik va vaqtinchalik tamoyili xosdir. Passiv ijtimoiy siyosatni amalga oshirish dastaklari quyidagilar hisoblanadi:

- iqtisodiy dastaklar – baholar, tariflar, ish haqi, stipendiyalar, nafaqalar va barcha ijtimoiy to‘lovlarni to‘lash;
- ma’muriy dastaklar – ruxsat berish va man etishga qaratilgan chora-tadbirlar (kvota va litsenziyalar berish, man etish va boshqalar);
- huquqiy yoki qonuniy dastaklar – amal qilayotgan qonuniy va normativ aktlar tarkibini tartibga solish orqali;
- g‘oyaviy dastaklar – ma’naviy etik tushuncha va jamiyat normalarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar (“yaxshi” va “yomon”, “axloqiy” va “noaxloqiy” va boshqalar);
- davlatning kompleks maqsadli ijtimoiy dasturlari (keksalarni e’zozlash, sog‘lom bola va boshqalar).

Ijtimoiy siyosat kursini o‘rganishda demografik jarayonlarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Demografik vaziyat oila tarkibini aniqlash, ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish, ijtimoiy nafaqalarni belgilash va aholini turar uy-joy bilan ta’minlash, aholini yosh va jins tarkibini tahlil qilish, kelajakda mehnat resurslari, pensionerlar sonini belgilashda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, demografik o‘zgarishlar sog‘liqni saqlash xizmatlariga nisbatan talab va taklifning shakllanishi, ijtimoiy ta’minotni amalga oshirish, tug‘ilish va o‘lim koeffitsiyenti darajasining o‘zgarishi va aholi umr davomiyligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy siyosat va demografik vaziyatlar o‘rtasida munosabatlar ikki yoqlama o‘zaro aloqador hisoblanadi. Masalan, ijtimoiy siyosat dasturlari doirasida amalga oshiriladigan ijtimoiy ta’minot tadbirlari orqali aholining minimal turmush darajasini kafolatlash, ularga sog‘liqni saqlash xizmatlarini ko‘rsatish orqali amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tizimi bevosita aholining umr davomiyligi, aholi soni, aholi tarkibidagi o‘zgarishlarning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Aholi sonining yosh va jins tarkibini o‘zgarishi ustun darajada bevosita

davlatning ijtimoiy siyosat chora-tadbirlarini ishlab chiqish va ularni ta'sir doiralarini qay darajada bo'lishini belgilab beradi.[52]

Demografik siyosat – aholi siyosatining uzviy qismi bo'lib, uning maqsadi aholining miqdoriy o'sishini boshqarishdan iborat.

Demografik siyosat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ilmiy asosini tashkil etishi lozim. Shundagina jamiyat har tomonlama rivojlanib boradi.

Demografik omillarni o'rganish mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlari aholining o'sish sur'atiga mos kelishi yoki kelmasligini, uning mehnatga layoqatli qismini iqtisodiyot tarmoqlarida samarali bandligini bilish uchun muhimdir. Demografik tadqiqot statistik, tarixiy taqqoslash, kartografik, sotsiologik, matematik va mantiqiy fikrlash kabi usullarni o'z ichiga oladi. Demografiyaning tahliliy metodi statistikadan farq qiladi: unda mavhum fikrlash usulidan keng foydalanish asosida aholi tarkibida kelgusida ro'y beradigan miqdor va sifat o'zgarishlari o'rganiladi. Jumladan, demografik statistika demografik tadqiqotlarning bir qismidir.

Demografik siyosatning vazifalari: demografik jarayonlar va ularning omillarini o'rganish; demografik bashoratlarni ishlab chiqish; demografik tadqiqotlar o'tkazish; demografik siyosat chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan iborat.

Demografik jarayonlar – bu tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish, oilaning demografik xususiyatlari, aholining yosh, jinsiy va oilaviy tarkibi, demografik mayl hisoblanadi.

Demografik jarayonlarni bashorat qilish – ma'lum hudud aholisining soni, yosh, jinsiy tarkibi va demografik vaziyati istiqbolini ilmiy asoslangan holda oldindan aniqlashdir.

Demografik portlash – jahonning kam rivojlangan va kambag'al mamlakatlarida nazorat qilib bo'lmaydigan darajada aholi sonining o'sishi holati hisoblanadi.

Demografik jarayonlarning turli jihatlarini yorituvchi umumlashgan ko'rsatkichlarini mukammal tahlil etish zaruriyati «Mintaqada o'ziga xos demografik vaziyat uzoq saqlanadimi yoki o'zgaradimi?», degan savolga javob beradi va shu asnoda bandlik muammosini hal etishga ko'mak beradi.

[52] Social policy. P 146-147.

Tahlillar ko‘rsatishicha, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va aholi sonining o‘sishi o‘rtasida ziddiyat yoki nomuvofiqlik yuzaga kelganda demografik muammolar keskinlashadi.

Demografik muammolarni hal etishda masalaning ikki jihatiga alohida e’tibor qaratish zarur. Birinchi jihati - tug‘ilishning va bolalar o‘limining yuqoriligi, aholining jinsiy va yosh tarkibida yoshlarning ko‘pligi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi jihati - mehnatga layoqatli aholi sonining ko‘payishidan ularni ish o‘rinlari bilan ta’minlashning orqada qolishi bilan bog‘liq.

Demografik siyosatning vazifasi - tug‘ilishni optimallashtirish, bolalar o‘limini kamaytirish yo‘li bilan aholi ko‘payishining optimal darajasini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish hisoblanadi.

So‘ngi yuz yillik davomida ijtimoiy siyosat chora-tadbirlari dasturining samarali amalga oshirilishi natijasida aholining umr davomiyligi va tug‘ilish koeffitsiyenti ko‘rsatkichlari o‘sdi. Natijada aholining yosh tarkibida 60 va undan katta yoshdagi aholi soni ortib bordi (1901 yilda Buyuk Britaniyada 60 va undan katta yoshdagi aholi soni qariyb 5%ni tashkil etgan holda, 1941 yilga kelib 10%ga yaqinlashdi). Ushbu holat o‘z navbatida demografiyada aholining qarishi jarayonini vujudga keltirdi.

Aholini qarishi jahon mamlakatlarida pensiya tizimlari moliyaviy barqarorligini ta’minlash, aholi sug‘urta badallarini tartibga solish va pensionerlarga to‘lanadigan pensiya to‘lovlarini indeksatsiyalash, ularning uzluksizligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatdagi umr davomiyligi va pensiyaga chiqish yoshini inobatga olgan holda BMT tomonidan mamlakatdagi qarish koeffitsiyentini hisoblashning quyidagi usullari qabul qilingan:

$$\boldsymbol{W_{60} = \frac{S_{60+}}{S} * 100\%},$$

$$\boldsymbol{W_{65} = \frac{S_{65+}}{S} * 100\%},$$

Bu yerda:

S_{60+}, S_{65+} - aholi tarkibida 60 yoki 65 yoshdan katta bo‘lgan aholi soni

S – mamlakatdagi umumiy aholi soni

Odatda W_{60} koeffitsiyenti bozor munosabatlari rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida qo‘llaniladi. Ushbu holat mazkur mamlakatlarda iqtisodiy-ijtimoiy sohadagi muammolarning borligi, aholi umr davomiyligi ko‘rsatkichining nisbatan pastligi, aholining pensiyaga chiqish yoshini erta belgilanganligi va boshqa omillar bilan izohlanadi. W_{65} esa iqtisodiy jihatdan rivojlangan, aholi umr davomiyligi yuqori va aholini pensiyaga chiqish yoshi nisbatan kechroq belgilangan mamlakatlarda qo‘llaniladi (5.1.1-jadval).

5.1.1-jadval

J.Boje – Grane – E.Rossetlarning aholini demografik keksayish jarayonini baholash shkalasi[53]

Bosqichlar	S_{60+}, %	Aholining keksayish darajasi
1	<8	**Demografik yosh**
2	8-10	**Aholining qarishi kutilayotgan mamlakatlar**
3	10-12	**Aholining qarishi boshlanayotgan mamlakatlar**
4	>12	**Demografik keksa mamlakatlar**
	12-14	*Demografik keksayishning boshlang‘ich darajasi*
	14-16	*Demografik keksayishning o‘rta darajasi*
	16-18	*Demografik keksayishning yuqori darajasi*
	>18	*Demografik keksayishning eng yuqori darajasi*

Agar mamlakatda aholini qarishi koeffitsiyenti W_{60} orqali hisoblangan bo‘lsa unda ushbu mamlakatlar J.Boje – Grane – E.Rosset shkalasi bo‘yicha baholanadi. Bu turdagi guruhlash amalga oshirilganda mamlakatlar demografik yosh, qarilik kutilayotgan, keksayish boshlanayotgan va demografik keksa mamlakatlar guruhlariga ajratiladi. O‘z o‘rnida demografik keksa mamlakatlar demografik keksayishning boshlang‘ich darajasidagi mamlakatlar, keksayishning o‘rta darajasidagi, yuqori va eng yuqori darajadagi mamlakatlarga ajratiladi.

Mamlakatlar aholisini keksayish koeffitsiyenti W_{65} orqali hisoblangan taqdirda OON shkalasi bo‘yicha mamlakatlar yosh mamlakatlar, keksayish arafasidagi va aholisi keksa mamlakatlar guruhlariga ajratiladi (5.1.2-jadval).

[53] Манба: Медков В. М. Демография. – М.: Инфра-М, 2008. - 688 с. Маълумотлари асосида тузилган

5.1.2-jadval

BMTning aholini demografik keksayish darajasini baholash shkalasi[54]

Bosqichlar	S_{65+}, %	Aholining keksayish darajasi
1	<4	**Demografik yosh aholi**
2	4-7	**Demografik keksayish arafasidagi mamlakatlar**
3	>7	**Demografik keksa mamlakatlar**

BMT tomonidan aholini demografik yosh tarkibi jihatdan keksayishini baholash amaliyotida yuqorida keltirilgan ikki usulni umumiy tarzda o‘zida aks ettiruvchi uslubiyotga ko‘ra, mamlakatlardagi jami aholi tarkibida 60 yosh va undan kattalarning ulushiga ko‘ra demografik yosh, keksayib borayotgan, keksa va demografik keksa mamlakatlar guruhlariga ajratiladi (5.1.3-jadval).

5.1.3-jadval

Mamlakatlarning aholini keksayish darajasiga ko‘ra guruhlanishi[55]

	Jami aholi tarkibida 60 va undan katta yoshdagilarning ulushi, %da	**Guruhning nomi**
1	*8 foizdan kam*	*Demografik yosh*
2	*8-10*	*Keksayib borayotgan*
3	*10-12*	*Keksa*
4	*12 foizdan yuqori*	*Demografik keksa*

Aholini mehnatga layoqatli va pensiya yoshidagi aholi qatlamining o‘zaro nisbati orqali demografik vaziyatlarning mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatga ta’siri baholanadi. Keksayish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda bugungi kunda demografik yukning vujudga kelishi mehnatga layoqatli aholi bilan pensionerlar o‘rtasidagi nisbatlarning buzilishida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Aholini demografik keksayish jarayonining mamlakat pensiya tizimiga ta’siri potensial va pensiya yuklari orqali baholanadi.

Potensial yuk odatda 15-16 yoshgacha bo‘lgan aholi sonining (mamlakatda amal qilayotgan qonunchilikka asosan mehnat qilish

[54] Манба: Медков В. М. Демография. – М.: Инфра-М, 2008. - 688 с. маълумотлари асосида тузилган

[55] Манба: Бирлашган миллатлар ташкилоти маълумотларига асосан муаллиф томонидан тузилган.

qobiliyatiga ega bo‘lmagan, yosh bo‘lgan aholi qatlami) mehnat qobiliyatiga ega bo‘lgan aholi soniga nisbatan aniqlanadi.

Demografik keksayishning pensiya yuki esa pensionerlar sonini mehnat qobiliyatiga ega bo‘lgan aholi soniga nisbati orqali hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan ikki ko‘rsatkichlarni o‘zaro yig‘indisini hisoblagan holda mamlakatdagi demografik yuk ko‘rsatkichi aniqlanadi. Ushbu ko‘rsatkich mehnatga layoqatli bo‘lgan aholining qay darajada bosim ostida qolganini ifodalaydi.

Keltirib o‘tilgan turli indikatorlar va ko‘rsatkichlar tizimi har bir mamlakat yoki mamlakatlar guruhlaridagi demografik vaziyatlarni munosib baholash imkonini beradi. Olingan natijalar orqali esa amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishda tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish mumkin bo‘ladi.

XXI asrning bo‘sag‘asida aholining yosh tarkibida keksalarning ulushi ortib borishi holati rivojlangan mamlakatlarga xos xususiyat edi. Hozirgi ushbu muammo barcha mamlakatlarda yaqqol ko‘zga tashlanmoqda va dunyo mamlakatlarida global aholini qarishi muammosini vujudga keltirib chiqarmoqda. Ushbu muammo rivojlangan mamlakatlarda uzoq yillar mobaynida davom etib kelayotgan bo‘lsa ham rivojlanayotgan, o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida esa endilikda boshlandi.[56]

Demografik vaziyatlarda aholining keksayish jarayonini ikki xil turi mavjud bo‘lib, ular aholining yosh tarkibi bo‘yicha olib qaraganda keksalar ulushining ortishiga olib kelgan sababga ko‘ra “quyi” va “yuqori” qatlamdan keksayishi deb nomlanadi.[57]

“Quyi qatlamdan keksayish” deganda, mamlakatda tug‘ilish koeffitsiyentining avvalgi yillarga nisbatan kamayib ketishi nazarda tutiladi. Ma’lum bir mamlakatdagi demografik vaziyatlar o‘zgarishi kuzatilgan taqdirda, mazkur mamlakatda 20-30 yildan so‘ng aholi tarkibida pensiya yoshidagi aholi va mehnat resurslari o‘rtasidagi nisbat o‘zgarib boradi va natijada pensiya yoshidagi aholi soni ortib borishi namoyon bo‘ladi.

“Yuqori qatlamdan keksayish” – bunda aholining umr davomiyligi ko‘rsatkichi ortib boradi. O‘z navbatida mamlakatda pensiya yoshidan keyingi davrda kutilayotgan umr davomiyligi ham ortib boradi. Ma’lum

[56] Social policy. P. 147-148
[57] Медков В.М. Демография. – М.: Инфра – М, 2008. С. 133-136

bir davr o‘tgandan so‘ng esa aholi tarkibida pensionerlarning ulushi ortib borishi kuzatiladi.

Demografik vaziyatlarning o‘zgarishi jarayonida bir fazadan boshqasiga o‘tishda aholining qarishiga sabab bo‘layotgan ikki omilni ajratib ko‘rsatish mumkin bo‘ladi. Bular umr davomiyligining ortishi hisobiga o‘lim darajasining kamayishi va tug‘ilish koeffitsiyentining qisqarishidir.

Aholi umr davomiyligi ko‘rsatkichining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu ko‘rsatkich mamlakatning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etganlik darajasi bilan bog‘liqdir. Ya’ni mamlakat qanchalik iqtisodiy jihatdan rivojlangan bo‘lsa, aholining umr ko‘rish davomiyligi shunchalik yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ladi.



5.1.1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi aholisining yosh tarkibi (foizda)[58]

Aholining qarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil mamlakatlardagi tug‘ilish koeffitsiyentidir. Ushbu umr davomiyligi ko‘rsatkichi aksariyat holatlarda rivojlanish tendensiyasiga ega. Ya’ni, bunda mamlakat qanchalik rivojlangan bo‘lsa, unda tug‘ilish koeffitsiyenti kichik, rivojlanish darajasi past bo‘lgan mamlakatlarda esa aksincha, yuqori koeffitsiyent qayd etiladi.

Demografik siyosatning vazifasi - tug‘ilishni optimallashtirish, bolalar o‘limini kamaytirish yo‘li bilan aholi ko‘payishining optimal darajasini shakllantirish uchun shart-sharoit yaratishdan iborat.

[58] Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида

Aholi yosh tarkibini tahlil qilish jarayonida aholi yoshi bo‘yicha quyidagi guruhlarga ajratiladi:

- yoshlar soni (mamlakatda amal qilayotgan qonunchilikka asosan mehnat qilish huquqini qo‘lga kiritish yoshiga yetmaganlar, O‘zbekistonda 0-16 yosh)
- 60 (65) yoshgacha bo‘lgan aholi soni (o‘rta yoshdagi , ya’ni mehnatga layoqatli aholi soni)
- 60 (65) va undan katta yoshdagi aholi soni (pensionerlar, qariyalar).

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz aholisi tarkibida mehnatga layoqatli va pensiya yoshidagi aholi soni yildan-yilga ortib bordi va 2018 yil yakuniga kelib, mamlakat aholisining 59,5 foizini mehnatga layoqatli aholi tashkil etdi.

5.2. Iqtisodiy va ijtimoiy siyosat o‘rtasidagi nisbat.

Iqtisodiy va ijtimoiy siyosatlar o‘rtasidagi o‘zaro nisbatlarni tahlil qilishdan avval “Iqtisodiy siyosat” atamasining mazmunini yoritish maqsadga muvofiq. Mamlakatning ijtimoiy siyosat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan bandlik, soliq va shu turdagi boshqa chora-tadbirlari ijtimoiy va iqtisodiy siyosatni o‘zida aks ettiradi. Ushbu dasturlar tizimi davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi amaliyotini ifodalaydi. Iqtisodiy siyosat quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:[59]

- sanoat siyosati (ishlab chiqarish sohasini ularga nisbatan soliq imtiyozlarini qo‘llash orqali rivojlantirish);
- tashqi savdo siyosati (savdo tariflari va shartnomalari asosida chet el mamlakatlari bilan tashqi savdoga kirish);
- mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish (tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish darajasini oshirish);
- aholining turli qatlamlari o‘rtasidagi daromadlarni qayta taqsimlash (soliq siyosati orqali);
- bandlik siyosati (aholini ish bilan bandligini ta’minlash va undagi tarkibiy o‘zgarishlarni boshqarish).

Ijtimoiy siyosat chora-tadbirlarini amalga oshirilishi mamlakatdagi iqtisodiy siyosat dasturlariga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Jumladan, davlatning aholini turar uy-joy bilan ta’minlash dasturi aholi farovonligini oshirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar tizimi hisoblanadi. Ushbu dasturlarning amalga oshirilishi natijasida uy-joy qurilishi ko‘rsatkichi

[59] Social policy. P. 154.

ortib, ko‘chmas mulk bozorining rivojlanishi bilan bir qatorda moliya bozorida ipoteka kreditlari darajasining o‘zgarishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy dasturlarning iqtisodiy siyosatga ta’sir ko‘rsatishini anglatadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida jahonda mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘z navbatida milliy iqtisodiy siyosatni amalga oshirish zaruratini uyg‘otadi. Jahon amaliyoti ko‘rsatishicha iqtisodiy jihatdan beqaror bo‘lgan jamiyatda, davlatning ijtimoiy siyosat dasturlarini moliyalashtirish chora-tadbirlari samarasiz hisoblanadi. Tahlillar ko‘rsatishicha, ijtimoiy siyosat dasturlari bevosita iqtisodiyotda inson omilini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lganligi va inson zamonaviy iqtisodiy munosabatlar tizimida raqobat ustunligiga erishishning vositasi bo‘lganligi sababli, yuqoridagi fikrga qarama-qarshi fikrlar mavjud.

Konsensus siyosati (1940–1970-yy.).[60] Ikkinchi jahon urushidan keyin Britaniya iqtisodiyoti inqirozga yuz tutdi. Vujudga kelgan inqiroz oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari iqtisodiy siyosat dasturlari doirasida amalga oshirildi. Bunda Keyns ta’limoti asosida talabni boshqarish tamoyilidan foydalanildi. Mazkur vaziyatda xo‘jalik ishlariga davlatning aralashuvi orqali talabni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari orqali vujudga kelgan ishsizlik va iqtisodiy inqiroz oqibatlarini bartaraf etishga yo‘naltirilgan dasturlar amalga oshirildi. Ishsizlar, og‘ir kasallar va nogironlar, pensionerlar, uy-joy bilan ta’minlanmaganlar, ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlariga nisbatan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlari ishlab chiqildi. Ularga nisbatan turli ijtimoiy nafaqalarning joriy etilishi (ishsizlik, nogironlik nafaqasi, pensiya to‘lovlari va boshqalar), ayrim turdagi tovar va xizmatlar (mamlakatda aholining minimal turmush darajasini belgilovchi tovar va xizmatlar tarkibi)dan foydalanishda imtiyozlarning joriy etilishi orqali talab darajasining ortishiga erishildi. Natijada ijtimoiy ta’minot tizimi muassasalari, jumladan ta’lim va sog‘liqni saqlash, uy-joy qurilishi sohalarida bandlik darajasining o‘sishiga erishildi. Ushbu holat “Umumjamiyat farovonligi davlati”ga xos bo‘lgan xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirdi.

Konsensus siyosatining o‘ziga xos jihati shundaki, aholining nochor qatlamini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, aholining minimal turmush darajasini ma’lum turdagi tovar va xizmatlarga nisbatan imtiyozlarni belgilanishi natijasida ularga nisbatan bo‘lgan talabni

[60] Social policy. P.155-156

shakllantirish orqali ishsizlik darajasini pasaytirish va iqtisodiy tanazzuldan chiqishga erishildi. Ushbu vaziyatda davlat inflyatsiya darajasini boshqarishi zarur. Bunda davlat iqtisodiyotdagi pul massasi bilan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar hajmi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashi zarur bo‘ladi.

1940–1970 yillarda Britaniya hukumati tomonidan qo‘llanilgan ijtimoiy siyosat yalpi talab darajasini oshirish orqali iqtisodiy rivojlanishga erishish imkoniyatini yaratdi. Ushbu davrda Konservativ va Leyboristik partiyalari iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda quyidagi maqsadlarni ko‘zlashdi:

- iqtisodiy o‘sish;
- inflyatsiyaning past darajasi;
- maqbul to‘lov balansi (jumladan, eksport va import);
- to‘liq bandlik.

Ushbu maqsadlarga erishishda quyidagi iqtisodiy mexanizmdan foydalanilgan:

- davlat xarajatlari va soliq yukini boshqarishda fiskal siyosatni qo‘llash;
- monetar (pul-kredit) siyosat;
- daromadlar siyosati va mehnat bozorini boshqarish.

Konservativ iqtisodiy siyosat (1970–1997-yy.).[61] 1970-yilga kelib iqtisodiy turg‘unlikka erishildi va Keyns ta’limotiga asoslangan konsensus siyosati tanqid qilina boshlandi. 1979-yilda Tetcherning iqtisodiy siyosati davlat xarajatlarini qisqartirish va inflyatsiya darajasini jilovlashga yo‘naltirildi. Natijada davlatning iqtisodiyotga aralashuvini keskin kamaytirish zarurati tug‘ildi va iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning yangi mexanizmi vujudga kela boshladi.

1980-yilda iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda monetarizm g‘oyalari qo‘llanildi va asosiy e’tibor mamlakatda pul massasini boshqarishga emas, balki davlatning iqtisodiyotga aralashuvini qisqartirish, davlat xarajatlarini kamaytirish va inflyatsiya darajasini boshqarishga qaratildi.

Amalda konservativ siyosatning qo‘llanilishidan maqsad davlatning ijtimoiy sohaga yo‘naltirilayotgan xarajatlarini qisqartirishga yo‘naltirilganligidan qat’iy nazar umumjamiyat farovonligini ta’minlash bo‘ldi. Ushbu vaziyatda ijtimoiy va iqtisodiy siyosatning aralash holda

[61] Social policy. P. 156-157

qo‘llanilishi ko‘zga tashlandi, ya’ni iqtisodiy dastaklar orqali aholi turmush darajasini oshirishga e’tibor qaratildi.

Yangi mehnat siyosati (1997–2010-yy.).[62] 1997-yilga kelib leyboristlar partiyasi tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni olib borishda soliq tizimi faoliyati yetakchi o‘ringa qo‘yildi. Bunda soliq tizimi orqali daromadlarni qayta taqsimlash siyosati amalga oshirildi. Ijtimoiy ta’minot tizimi faoliyati bevosita soliq mexanizmi bilan uzviylashtirildi. Ijtimoiy ta’minot dasturlari (ishsizlik, pensiya va shu turdagi boshqa nafaqalarini olish) mehnat staji davri bilan o‘zaro bog‘landi. Shu bilan bir qatorda mehnatkashning iqtisodiy faoliyati davrida ijtimoiy sug‘urta to‘lovlarini to‘lashlari talab etildi. Ushbu holat o‘z navbatida ijtimoiy va iqtisodiy siyosatlarni o‘zaro qo‘llashdagi yangicha yondashuvning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi davrida jamiyatda ishsizlar sonining ortib ketishi natijasida ijtimoiy sug‘urta fondlari va davlatning ijtimoiy soha harajatlarining (ishsizlar soni ortib ketishi sababli ishsizlik nafaqalari hajmining ortishi bilan bog‘liq ravishda) o‘sishi kuzatildi. Natijada davlat byudjeti defitsiti vujudga kela boshladi va 2010-yilga kelib davlatning ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan xarajatlarini qisqartirish zarurati tug‘ildi.

Globalizatsiya. Iqtisodiy va ijtimoiy siyosat.[63] Iqtisodchi olimlar 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining vujudga kelishiga sabab globalizatsiyalashuv jarayonlari deb hisoblaydilar. Shu bilan birgalikda davlatning o‘z milliy iqtisodiyotini boshqarishdagi aralashuvi darajasining qisqarishi va davlatning ijtimoiy ta’minotga yo‘naltirilayotgan harajatlari hajmining yuqori darajada bo‘lganligi ushbu moliyaviy inqirozning sabablaridan biri hisoblanadi.

Globalizatsiya sharoitida, iqtisodiy va ijtimoiy siyosatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- jahon iqtisodiyotining internatsionallashuvi sharoitida davlatning iqtisodiyotga aralashuvining keskin qisqarishi natijasida ijtimoiy siyosatni amalga oshirish imkoniyatlarining cheklanishi;
- globalizatsiya sharoitida iqtisodiy siyosatning ijtimoiy chora-tadbirlar tizimini amalga oshirilishini ta’minlashi va mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy barqarorligiga erishishi zaruriyati;

[62] Social policy. P. 157
[63] Social policy. P. 157-159

- globalizatsiya jarayonlari sharoitida jahon iqtisodiyotining amal qilish mexanizmining o‘zgarishi tufayli davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatdagi chora-tadbirlarini institutsional doirada amalga oshirilishi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan tahlillar ko‘rsatishicha, globalizatsiya sharoitida ijtimoiy, iqtisodiy chora-tadbirlar dasturlari o‘zaro aloqadorlikda va mutanosiblikda bo‘lishi lozim.

5.3. Dinning ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdagi o‘rni

XXI asr boshlarida jahonda bir necha dinlar amal qiladi. Ularning tarkibida keng tarqalgan dinlar induizm, buddizm, iudaizm, xristianlik va islom dini hisoblanadi. Jamiyat hayotida diniy qadriyatlarning amal qilishi natijasida kishilar hayotida ezgu amallarni bajarilish ko‘lami kengayadi va ushbu holat mamlakatda ijtimoiy farovonlikka erishishning muhim sharti hisoblanadi.[64]

Din – insonning qadimiy ma’naviy-amaliy hayot sohasi hisoblanadi. Bugungi kunda ijtimoiy siyosatda qo‘llanilayotgan “din” so‘zi ko‘p ma’noli tushuncha bo‘lib, uning asosini qadimda insonlarning ilohiy kuch bilan “tanishishgani” ma’nosi tashkil etadi.

Dinlararo munosabatlar – din asosida yuzaga kelgan turli e’tiqodiy ta’limotlarga e’tiqod ayrim kishilar, kichik yoki katta guruhlar o‘rtasidagi turli aloqalar tizimi hisoblanadi. Dinlararo munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning alohida turi bo‘lib, unda o‘zaro harakat qiluvchi dinlarning turli jihatlari – ular ta’limoti, e’tiqodi, tashkilotlari va boshqalar namoyon bo‘lib, quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi:

- hududiylik (sintoizm – asosan Yaponiya hududida tarqalgan, induizm – Hindistonda, Islom, buddaviylik, xristianlik barcha qit’alarda);
- vaqt bo‘yicha (iudaizm 3000 yildan ko‘proq, xristianlik 2000 yilga yaqin, hozirgi islom VII asrdan buyon mavjud);
- din genetikasi (jumladan, iudaizm o‘zidan avvalgi Odam Atogacha borib taqaluvchi diniy tasavvurlardan, xristianlik iudaizmga taalluqli ko‘pgina tasavvurlarni o‘ziga singdirgan);
- vazifasi bo‘yicha (dinlar fikrlarning birlashuviga ko‘maklashadi va o‘zidan boshqasini inkor etadi, ko‘pincha sub’ektiv asosda).

Dinning ijtimoiy vazifasi[65] – dinning jamiyatdagi ijtimoiy institut sifatidagi ahamiyati va o‘rni, faoliyat doirasida namoyon bo‘ladi. Din jamiyat, uning ayrim guruhlari va shaxslar hayotida quyidagi vazifalarni bajaradi:

---

[64] Social policy. P. 160-161.
[65] Social policy. P. 162-163

- olamning diniy manzarasini yaratish (Alloh tomonidan dunyoning yaratilishi va uning payg‘ambaralariga ishontirish), tabiatni, jamiyatni, insonni tushuntirish;

- tashkillashtirish (yagona e’tiqodga ega diniy guruhlar xatti harakatini tartibga solish);

- uyg‘unlashtirish (diniy birodarlikni mustahkamlash va qo‘llab-quvvatlash);

- saralash (turli diniy e’tiqodga amal qiluvchilarning bir-birlaridan farqlari va ayrimlarining tan olinishi, ularni qiyoslash);

- tartibga solish (diniy ahkomlar, qoidalar, me’yorlar va qadriyatlar asosida ongni boshqarish, bular garchi diniy tusda bo‘lsa-da, lekin inson hayotini boshqa sohalariga ham taalluqli bo‘ladi: oila, nikoh, turmush va boshqalar);

- boshqarish va nazorat qilish (fatvo, xabarnoma, rag‘batlantirish, jazolash kabi diniy vositalar yordamida dindoshlar hayotiga, bu va u dunyodagi hayot masalalariga rahbarlik qilish va yo‘naltirish);

- ko‘niktirish (dindor shaxs yoki guruhlarni o‘zgaruvchan muhitga moslashtirish);

- aksiologik vazifa (diniy-axloqiy va estetik qadriyatlarni, me’yorlarni shakllantirish, natijada diniy guruhlarning yaxlitligiga erishiladi);

- taqvodorlashtirish (shaxs yoki guruhning diniy shaxs, guruh bo‘lib yetishish jarayoni, ularni diniy qadriyatlar, me’yorlar, ko‘rsatmalar, axloqiy namuna (norma)lar va muayyan dinga xos bo‘lgan xislat va xususiyatlarga o‘rgatish, ularni o‘zlashtirish);

- tarbiyalash (dindor kishilarning yangi avlodlariga ajdodlar diniy tajribasini berish, yetkazish);

- sabrga o‘rgatish (turmush qiyinchiliklari va mashaqqatlari oxiratdagiga nisbatan arzimas ekanligi va oxirat dunyosiga maqbul va istalganligiga ishontirish);

- tasavvuriy taskin berish (insonning ijtimoiy ojizligi, chorasizligi);

- bashoratlash (insoniyat va ayrim kishilarning kelajak, bu dunyo va u dunyo haqidagi diniy tasavvurlari);

Dinning ijtimoiy siyosat dasturlari tizimini amal qilishidagi o‘rni quyidagilarda o‘z aksini topadi:

- diniy qarashlarning asosini kishilara yaxshilik qilish, jamiyat a’zolari o‘rtasida xayriya ishlarini amalga oshirilishi kabi ezgu amallar tashkil etishi;

- kishilarni qayta tirilishga ishontirish (bunda ezgu amallarni bajarilishi insonni qayta tirilgan davrida u egalik qilishi mumkin bo‘lgan hayot tarzining yaxshilanishi;

- ijtimoiy dasturlar tizimida dinning qo‘llanilishi “ezgu amallarga asoslangan jamiyat”ni shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Masjidlar diniy vazifalar bilan birgalikda ijtimoiy, huquqiy, mafkuraviy, milliy va boshqa vazifalarni ham bajaradi.

5.4. Oila siyosati ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida

Ijtimoiy siyosat dasturlari tizimida oila siyosatini amalga oshirish umumjamiyat farovonligi davlatini qurishning omillaridan biri hisoblanadi. Bu esa mehnatga to‘langan haq darajasi va amalga oshirilgan bepul parvarishni (yosh bolalar, qariyalarga nisbatan) belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Oila siyosati oilani boshqarish, uning daromadlarini yo‘naltirish (yaqin kishilarga nisbatan turli transfert to‘lovlarini amalga oshirish) va oila a’zolariga nisbatan ko‘rsatilgan xizmatlar darajasi bilan belgilanadi.[66]

Umumjamiyat farovonligi davlati shakllanishining ilk bosqichlarida amalga oshirilgan ijtimoiy siyosat dasturlari tizimida oila ijtimoiy birlikni tashkil etuvchi institut hisoblanadi. Ushbu vaziyatda oila a’zolari tarkibiga kiruvchi erkaklar ishchi kuchi, ya’ni mehnatda band bo‘lib, oila daromadlarini shakllantirishi zarur bo‘lsa, ayollar esa o‘z navbatida yosh avlod va qariyalarni parvarishini ta’minlashi umumjamiyat farovonligini ta’minlashga keng yo‘l ochib bergan. Bunda oila kishilik jamiyatini qo‘llab-quvvatlash va yosh avlodni tarbiyalash vazifalarini bajargan.

Jamiyat hayotida oila daromadlarini shakllantirishda o‘z hissasini qo‘shayotgan kishilar va oila a’zolari soni o‘rtasidagi nisbatlarning turlicha bo‘lganligi sababli aholi daromadlari o‘rtasida tengsizlik vujudga keladi. Bu holat mamlakatda iqtisodiy tengsizlikning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Natijada oila siyosatida o‘zgarishlar vujudga kela boshladi va ayollar oila daromadlarini shakllanishiga o‘z hissalarini qo‘sha boshlaydilar.

Oila siyosatidagi o‘zgarishlar jamiyatda kishilarning o‘z ehtiyojlarini qondirish va qobiliyatlarini rivojlantirish orqali daromadlari darajasini kengaytirishga bo‘lgan intilishning kuchayishi natijasida vujudga kelgan. Natijada jamiyat a’zolarining oilaviy munosabatlarga nisbatan qarashlari o‘zgarib bordi.

---

[66] Social policy. P. 166-167

Ijtimoiy siyosat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan oilaviy siyosat chora-tadbirlari quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:[67]

- oilaviy munosabatlarining huquqiy-institutsional asosini yaratish (nikoh tuzish, ajrim, bola manfaatlarini himoyalash, ota-ona huquqlari va boshqalar);
- oila daromadlari darajasini oshirishga yo‘naltirilgan siyosat (soliq imtiyozlarini joriy etilishi, ijtimoiy muhtoj oilalarga belgilanadigan, bola parvarishi uchun beriladigan nafaqalar, aliment to‘lovlari va boshqalar);
- oilalarga nisbatan ko‘rsatiladigan xizmatlar (uy-joy, kommunal xizmatlar, ijtimoiy xizmatlar, ijtimoiy yordam va boshqalar).

Jamiyatning rivojlanishi va oilaning ijtimoiy siyosatdagi ahamiyati ortib borishi natijasida 1997–2010-yillar oralig‘ida oila siyosatida bir qator o‘zgarishlar amalga oshirildi. 2010-yilda ingliz olimi Deli tomonidan oila siyosatining quyidagi yo‘nalishlari ajratilib ko‘rsatildi:

- bola parvarishi va boshlang‘ich ta’lim (yosh bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini shakllantirish, dastlab oilada va keyingi davrlarda ta’lim maskanlari orqali);
- ko‘p bolali oilalarni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash (ularga nisbatan soliq imtiyozlarini joriy etilishi va ijtimoiy nafaqalarni belgilanishi)
- yosh bolali oilalarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish (yosh bolalarni turli yuqumli kasalliklarga qarshi emlash va yosh bolali oilalarga bola parvarishi nafaqasini tayinlanishi);
- bandlikka ko‘maklashish (ishga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz ota yoki onaning bandligini ta’minlash va unga nisbatan ijtimoiy yordam ko‘rsatish);
- ota-onalarning farzandlari uchun javobgarlikni o‘z zimmalariga olishi.

5.5. Aholining turli ijtimoiy qatlamlari va ijtimoiy siyosat

Ijtimoiy siyosatda aholi turmush farovonligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda aholini ijtimoiy jihatdan turli qatlamlarga ajratish va ularni tahlil etish zarurati tug‘iladi. Jamiyat turli ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta’sirida aholi ijtimoiy qatlamlarining turmush darajasining turlichaligi bilan ifodalanadi. Bunda aholi ehtiyojlarining qondirilinganlik darajasi inobatga olinadi.[68]

[67] Social policy. P. 169
[68] Social policy. P. 173-174.

Aholining turli qatlamlari o‘rtasidagi ijtimoiy tabaqalanish ushbu guruhlarning turmush farovonligi darajasining o‘zaro farqlanishi natijasida vujudga keladi. Bunda ma’lum bir guruhning boshqasiga nisbatan yaxshi yoki aksincha (yomonroq, past) turmush darajasiga egalik qilishi hisobga olinadi. Shuningdek, aholining ijtimoiy qatlamlari yoshi, jinsi, daromadi, irqi, ijtimoiy holati bo‘yicha turlarga ajratilishi mumkin.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida K.Marks va M.Veber ijtimoiy siyosatni olib borishda aholi ijtimoiy qatlamlarining o‘rnini tadqiq etgan iqtisodchi olimlardan hisoblanadi. Ularning ijtimoiy sinfni izohlashga qaratilgan ta’riflarini umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, ijtimoiy guruhlar turli darajadagi ehtiyoj va o‘zaro qarama-qarshi manfaatlarning vujudga kelishi natijasida vujudga keladi.[69]

K.Marks ta’limotiga ko‘ra, jamiyatda ijtimoiy sinflarning tabaqalanishining oldini olishga yo‘naltirilgan siyosatni amalga oshirilishi natijasida mamlakatda ijtimoiy o‘zgarishlarning vujudga kelishiga ta’sir etuvchi omillar aniqlanadi va tahlil etiladi.

M.Veber aholi ijtimoiy qatlamlari tabaqalanishini ish bilan band bo‘lgan aholi egallagan kasblarining maqomining turli darajada bo‘lganligi bilan izohlaydi. Kasb maqomi qanchalik yuqori bo‘lsa, undan olinadigan daromad darajasi shunga mutanosib ravishda yuqori bo‘lishini ta’kidlab o‘tadi.

Aholining turli ijtimoiy qatlamlarga ajratilishi o‘z navbatida ijtimoiy siyosatning manzilliligini kuchaytirilishiga zamin yaratadi. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, dunyoning aksariyat mamlakatlarida qo‘llanilayotgan soliq siyosati orqali aholi daromadlari qayta taqsimlanadi, ijtimoiy muhtoj aholiga ijtimoiy ta’minot, ijtimoiy yordam kabi xizmatlar ko‘rsatiladi, aholi bandligini ta’minlashga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar asosida ularning daromadlari shakllantirilib, aholining daromadlari bo‘yicha turli ijtimoiy guruhlarga bo‘linishining oldi olinadi. Bu esa o‘z navbatida jamiyatda o‘rta qatlam ulushining ortishi va aholi turmush farovonligini ta’minlanishiga zamin yaratadi.

5.6. Kambag‘allikka qarshi kurash ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning ustuvor vazifasi

Ijtimoiy siyosatni manzilligini kuchaytirishda aholining ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlarini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash chora-

[69] Social policy. P. 173-177

tadbirlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda aholining ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlari absolyut va nisbiy kambag‘al aholi guruhlariga ajratiladi.[70]

Absolyut kambag‘allik (qashshoq aholi) – mamlakat aholisi tarkibidagi aholining belgilangan minimal turmush darajasidan past darajada iste’mol tovarlari va xizmatlar bilan ta’minlangan aholi guruhidan iborat.

Nisbiy kambag‘allik (kam ta’minlangan aholi) – mamlakatdagi o‘rtacha turmush darajasi ko‘rsatkichidan past darajada iste’mol tovarlari va xizmatlari bilan ta’minlangan aholi guruhi hisoblanadi.

1980-yilda konservativ ijtimoiy davlatda amalga oshirilgan siyosat ijtimoiy ta’minot dasturlari orqali mamlakatdagi kambag‘allik darajasini qisqartirishga yo‘naltirilgan hisoblanadi. Jamiyatda kambag‘allikning vujudga kelishi daromadlar tengsizligi orqali ifodalanadi.[71]

Kambag‘allikka qarshi kurash chora-tadbirlari bevosita resurslarni qayta taqsimlash jarayoni orqali amalga oshirilgan. Bunda kambag‘al aholiga nisbatan turli ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatishda imtiyozlarni berilishi nazarda tutiladi. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy jihatdan aholining nochor qatlamiga nisbatan bepul tibbiy xizmatlarni joriy etilishi kambag‘allik darajasini qisqartirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy siyosat hisoblanadi. Konservativ davlatning ijtimoiy siyosatini amal oshirishda ushbu chora-tadbirlar tizimi aholining turmush darajasini oshirishga zamin yaratgan.

XXI asr boshlaridan beri jahon mamlakatlarida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilliligini oshirish, byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlarga ustuvorlik berilmoqda. Ushbu holat aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini aniqlash, ularni turli ijtimoiy guruhlarga ajratish, mamlakatda ijtimoiy muhtojlik bo‘yicha chegaralarni o‘rnatish bilan bir qatorda aholini aniq va samarali ijtimoiy himoya qilish mexanizmini yaratish uchun zamin yaratadi.

Birlashgan Millatlar tashkiloti (BMT) va Xalqaro mehnat tashkiloti (HMT) ekspertlari tomonidan ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlarini aniqlashda mamlakatdagi turmush darajasidan kelib chiqqan holda tadqiqotlar amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda asosiy e’tibor mamlakatda qabul qilingan va jamiyat tomonidan e’tirof etilgan yashash minimumi bilan iste’mol savatchasi o‘rtasidagi nisbat aniqlanib,

[70] Social policy. P. 180-181
[71] Social policy. P. 181

belgilangan yashash minimumidan quyi darajada yashayotgan aholi qatlamlari ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlari hisoblanadi (5.6.1-rasm).



5.6.1-rasm. Xalqaro tashkilotlarning aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini aniqlash uslubiyati[72]

Aholi ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlari turmush darajalariga ko‘ra turli guruhlarga ajratiladi. Odatda iqtisodiy adabiyotda ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlari jamiyatning quyi turmush farovonligi yashash minimumiga ega bo‘lgan qismi deb hisoblanib, ular quyi-yuqori (5.6.1-rasm bo‘yicha X_1), quyi-o‘rta (5.6.1-rasm bo‘yicha X_2) va quyi-quyi (5.6.1-rasm bo‘yicha X_3) turmush farovonligi bilan baholanadi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida yashash minimumi zaruriy hayotiy ehtiyojlar qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunda insonning normal darajada salomatligini saqlab turishi uchun lozim bo‘lgan oziq-ovqatning energetik qiymati (kilokaloriya (kkal)) va zaruriy kiyim-kechaklarning minimal narxlari inobatga olinib, ularni umumlashtirish orqali mamlakatdagi yashash minimumi chegarasi belgilanadi va u quyidagi formula orqali hisoblanadi:[73]

[72] Eurostat: Income and Living Conditions database.: http://epp.eurostat.ec.europa.eu/portal/page/portal/income_social_inclusion_living_conditions/data/database [20 Apr. 2014]. маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган

[73] Witter, S.; Arhinful, D.; Kusi, A.; Zakariah-Akoto, S. 2007. “The experience of Ghana in implementing a user fee exemption policy to provide free delivery care”, in *Reproductive Health Matters*, Vol. 15, No. 30, pp. 61–71.; Eurostat: Income and Living Conditions database.: http://epp.eurostat.ec.europa.eu/portal/page/portal/income_social_inclusion_living_conditions/data/database

$$CBN = F + NF + S$$

Bu yerda:

CBN – yashash minimumi (aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad)

F – tegishli kilokaloriyadagi energetik quvvat beruvchi oziq-ovqat mahsulotlari uchun xarajat;

NF – insonning normal yashashi uchun zarur bo‘lgan nooziq-ovqat mahsulotlari uchun xarajat;

S – hayotiy zarur xizmatlar qiymati.

Yuqorida keltirib o‘tilgan ijtimoiy jihatdan muhtojlikni aniqlash metodologiyasi odatda uy xo‘jaliklarini tadqiq etish va oila a’zolarining jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadini inobatga olishga asoslanadi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan tadqiqotlarda bu turdagi ijtimoiy muhtojlikni aniqlash metodologiyasida “*NF*”, ya’ni insonning normal yashashi uchun zarur bo‘lgan nooziq-ovqat mahsulotlarining puldagi qiymati odatda o‘sha mamlakatdagi bir insonning normal darajada salomatligini saqlab turishi uchun lozim bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlarining o‘rtacha 30 foizi deb belgilanadi.[74]

Masalan, salomatlik nuqtai nazaridan insonning normal darajada salomatligini ta’minlash uchun kunlik iste’mol qilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining minimum energetik qiymati 2150 kkal.[75] Endi ushbu kilokaloriyani olish uchun bir inson iste’mol qilishi lozim bo‘lgan mahsulotlar ro‘yxati tuzilib, uning puldagi qiymati aniqlanadi (5.6.1-jadval).

5.6.1-jadval

Inson salomatligini saqlab turishi uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari ro‘yxatini shakllantirish amaliyoti[76]

Mahsulot turi	Ma’lum miqdordagi porsiyaning energetik quvvat (kkal)	Ma’lum miqdordagi porsiyaning narxi (pul birligida)	Tegishli, ya’ni 2150 kkal. shakllantirish uchun talab etiladigan porsiya	2150 kkal.ni shakllantirgan mahsulotning narxi (pul birligida)
A	200	50	400	100
B	100	33	200	66

[74] Witter, S.; Arhinful, D.; Kusi, A.; Zakariah-Akoto, S. 2007. “The experience of Ghana in implementing a user fee exemption policy to provide free delivery care”, in *Reproductive Health Matters*, Vol. 15, No. 30, pp. 61–71.

[75] WHO (World Health Organization): National Health Accounts.: http://www.who.int/health-accounts/en/ [20 Apr. 2014].

[76] WHO (World Health Organization): National Health Accounts.: http://www.who.int/health-accounts/en/ [20 Apr. 2014].

C	260	80	520	160
D	150	40	450	120
…..	180	70	580	225
Jami	890	273	2150	671

5.6.1-jadval asosida hayotiy-zarur oziq-ovqat mahsulotlari ro‘yxati shakllantiriladi va uning puldagi qiymati aniqlanadi. Endi nooziq-ovqat mahsulotlari uchun 2150 kkal. energetik quvvat beruvchi jami oziq-ovqat mahsulotlarining umumiy puldagi qiymatining 30 foizi nooziq-ovqat mahsulotlari uchun ajratiladi.[77] Agarda:

$$NF = 30\% * F$$

bo‘lsa, *NF* ning puldagi qiymati 201,3 pul birligiga teng bo‘ladi. Yuqorida olingan natijalarni umumiylashtirish lozim bo‘ladi:

$$CBN = F + NF = 671 + 201{,}3 = 872{,}3$$

Demak, shartli belgilash asosida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad asosida belgilanadigan yashash minimumi 872,3 pul birligiga teng. Amaliyotda bu turdagi baholash aksariyat holatlarda minimal iste’mol savati sifatida e’tirof etiladi.

Amalga oshirgan tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini aniqlash va ularni ijtimoiy himoya qilish tizimini manzilliligini oshirishda ushbu ijtimoiy jihatdan muhtojlikni baholash amaliyoti samarali usullardan hisoblanadi.

Xalqaro ijtimoiy himoya assotsiatsiyasi ekspertlari tomonidan aholining ijtimoiy jihatdan muhtojligini aniqlash uchun aholi daromadlari va moddiy boyliklarga egaligini inobatga olgan holda sintetik indekslardan foydalaniladi. Bunda alohida ko‘rsatkichlarning standartlashtirilgan qiymatlarining o‘rta arifmetik darajasi aniqlanadi va quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:[78]

$$I_s = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n} y_i$$

Bu yerda:

y_i – *i* ko‘rsatkichning standartlashtirilgan qiymati;

[77] Witter, S.; Arhinful, D.; Kusi, A.; Zakariah-Akoto, S. 2007. “The experience of Ghana in implementing a user fee exemption policy to provide free delivery care”, in *Reproductive Health Matters*, Vol. 15, No. 30, pp. 61–71.

[78] ISSA (International Social Security Association): Social Security Country Profi les (incorporates information from SSA/ISSA Social security programs throughout the world: see below).: http://www.issa.int/country-profiles [20 Apr. 2014].

n – ko‘rsatkichlar soni.

i ko‘rsatkichning standartlashtirilgan qiymatini hisoblashda quyidagi formuladan foydalaniladi:[79]

$$y_i = \frac{x_i - min\, x_i}{max\, x_i - min\, x_i}$$

Bu yerda:

x_i – i ko‘rsatkichning haqiqiy qiymati

min x – i ko‘rsatkichning minimal qiymati (aholining puldagi daromadlari va moddiy boyliklari inobatga olinadi)

max x – i ko‘rsatkichning maksimal qiymati (aholining puldagi daromadlari va moddiy boyliklari inobatga olinadi).



5.6.2-rasm. Ijtimoiy muhtojlik chizig‘ining o‘rtacha miqdorining ortishi funksiyasi[80]

Xalqaro ekspertlar tomonidan bildirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida ishlab chiqilgan ijtimoiy muhtojlikni aniqlashning

[79] ISSA (International Social Security Association): Social Security Country Profi les (incorporates information from SSA/ISSA Social security programs throughout the world: see below). Доступно по адресу: http://www.issa.int/country-profiles [20 Apr. 2014].

[80] ISSA (International Social Security Association): Social Security Country Profi les (incorporates information from SSA/ISSA Social security programs throughout the world: see below). Доступно по адресу: http://www.issa.int/country-profiles [20 Apr. 2014].

ushbu usuli ijtimoiy yordamning aniqligi va samaradorligini oshirishga zamin yaratadi va mamlakat aholisi iste'molining o'rtacha miqdori ortib boradi. Jumladan, aholini ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarining istemoli ham ortadi.

Aholini ijtimoiy himoya qilishning jahon amaliyoti tahlili ko'rsatishicha, har bir mamlakatda jamiyatning ijtimoiy jihatdan tabaqalanishi, uning turli ijtimoiy guruh va sinflarga ajratilishi kuzatilmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatning ijtimoiy tarkibi mamlakatdagi ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlar tizimlari o'rtasidagi mutanosiblikdan kelib chiqqan holda aksariyat davlatlarda turli ko'rinishda bo'ladi.

BMT tomonidan berilgan ma'lumotlarga qaraganda, har yili dunyoda 25 000 ming kishi ochlikdan vafot etib, ularning aksariyati yosh bolalar hisoblanadi. Yer yuzida qariyb 1 mlrd. aholi kuniga 1 AQSh doll. hisobiga yashaydi, 2,5 mlrd kishining kunlik daromadi 2 AQSh doll.ga teng. Tashkilot ekspertlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, 2016–2017-yillarda eng qashshoq mamlakat sifatida Markaziy Afrika Respublikasi (MAR) e'tirof etilgan. Mamlakatda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM ko'rsatkichi 542 doll.ni tashkil etib, jahonda SPID bilan kasallanganlar soni bo'yicha yetakchi mamlakat hisoblanadi.

BMTning qashshoq mamlakatlarni aniqlash uslubiyotida aholining jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM ko'rsatkichidan foydalanilib, unga ko'ra, mamlakat YaIMning aholi jon boshiga 750 AQSh doll. va undan kam miqdorda to'g'ri kelgan mamlakatlar qashshoq mamlakatlar hisoblanadi. BMT Taraqqiyot dasturi asosida ushbu mamlakatlarga moddiy va texnik yordam ko'rsatilib, xalqaro savdoda ishtirok etishlari uchun tegishli imtiyozlar joriy etilgan.

Jahon banki ekspertlari tomonidan turli mamlakatlarda kambag'allik darajasini aniqlash, ularni o'zaro qiyosiy taqqoslash va kambag'allik darajasini pasaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini baholashga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshiriladi. Jahon bankining kambag'allikni baholash metodologiyasiga ko'ra, 2017 yildan boshlab insonning kunlik daromadi 1,9 AQSh dollardan kam bo'lsa, u kambag'al hisoblanadi. Tashkilot ekspertlari tomonidan berilayotgan ma'lumotlarga qaraganda, 2018 yil bo'yicha dunyo aholisining taxminan 10 foizga yaqini kambag'allik darajasida hayot kechirmoqda

Aholining ijtimoiy jihatdan tabaqalanishini tahlil etishdan avval, jamiyatning ijtimoiy qiyofasi tushunchasiga aniqlik kiritib o‘tish maqsadga muvofiq. Jamiyatning ijtimoiy qiyofasi o‘z navbatida aholining ijtimoiy tabaqalanishi iyerarxiyasining umumiy ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Xalqaro ekspertlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, jamiyatning ijtimoiy qiyofasi ijtimoiy umumiylik turlari, uning o‘ziga xos xususiyatlari va belgilarida namoyon bo‘ladi (5.6.2-jadval).

5.6.2-jadval

Jamiyatning ijtimoiy qiyofasini baholashda ijtimoiy umumiylik shakllari va belgilari[81]

Ijtimoiy umumiylik shakllari, xususiyatlari va belgilari		
Ijtimoiy umumiylik turlari	**Ijtimoiy umumiylikning o‘ziga xos xususiyatlari (yoki farqlash mumkin bo‘lgan jihatlari)**	**Ijtimoiy umumiylik belgilari**
Guruhiy	Jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishi va ishlab chiqarish munosabatlaridagi o‘rni	Bandlik xususiyatlari (aholi daromadlarini shakllantirishi mumkin bo‘lgan holatlar)
Sohaviy	Ishchi kuchi taklifi sohasi (ishlab chiqarish munosabatlarida qo‘shilgan qiymatning yaratilishi va ishchi kuchi sifati bilan bog‘liq holatlar)	Ishlab chiqarish faoliyati yo‘nalishi (ishlab chiqarish munosabatlarida ilm-fan sig‘imkorligi darajasi, yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish holati)
Milliy	Insonlardagi milliy mentalitet bilan bog‘liq xususiyatlar	Insonning ijtimoiy kelib chiqishi, tili va mintaqaviy xususiyatlari (ishlab chiqarish munosabatlari uchun)
Demografik	Aholining yoshi va jinsi bilan bog‘liq xususiyatlari	Bolalar, yoshlar, o‘rta yoshdagilar, erkaklar, ayollar va boshqa guruhlar

[81] Berg J. 2015a. “Labour market institutions: The building blocks of just societies”, in J. Berg (ed.): Labour markets, institutions and inequality: Building just societies in the 21st century (Geneva, ILO; Cheltenham, Edward, Elgar), pp. 1–38.; Berg J. 2015b. “Income support for the unemployed and the poor”, in J. Berg (ed.): Labour markets, institutions and inequality. Building just societies in the 21st century(Geneva, ILO; Cheltenham, Edward Elgar), pp. 263–286.; Mearkle R., Mactaggart I., Walsham M., Kuper H.; Blanchet K. 2017. “Disability and social protection programmes in low- and middle-income countries: A systematic review”, in Oxford Development Studies, Vol. 45, No. 3, pp. 223–239. DOI: http://dx.doi.org/10.1080/13600818.2016.1142960. маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган

Mintaqaviy	Yashash joyi bilan bog‘liq xususiyatlar	Ma’muriy-mintaqaviy bo‘linish bo‘yicha belgilar
Oilaviy	Qarindoshlik munosabatlariga oid xususiyatlar	Birgalikda yashash, umumiy ro‘zg‘or yuritish, o‘zaro munosabatlar

Jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishi bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy nazariyalarning tahlili ko‘rsatishicha, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimida insonlarning mulkchilik shakllari va uni jamg‘arish xususiyatlari, aholi daromadi va iste’moli darajasi, hokimiyat va undan foydalana olish, jamiyatning boshqa a’zolari o‘rtasida obro‘-e’tiborli bo‘lishga intilishlari jamiyatning ijtimoiy jihatdan tabaqalanishini vujudga keltiradi.



5.6.3-rasm. Jamiyatda ijtimoiy tabaqalanishni vujudga keltiruvchi omillar[82]

Xalqaro ekspertlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga tayangan holda, aholining ijtimoiy jihatdan tabaqalanishini vujudga kelish sabablarini ikki guruhga ajratish mumkin:[83]

- insonlarning individual-shaxsiy xususiyatlari – bu turdagi tabaqalanish odatda bozor iqtisodiyoti sharoitida insonlarning ma’lum darajada daromadga ega bo‘lishlari yoki ehtiyojlarini qondirishlari

[82] Berg J. 2015a. “Labour market institutions: The building blocks of just societies”, in J. Berg (ed.): Labour markets, institutions and inequality: Building just societies in the 21st century (Geneva, ILO; Cheltenham, Edward, Elgar), pp. 1–38.маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган

[83] Berg J. 2015b. “Income support for the unemployed and the poor”, in J. Berg (ed.): Labour markets, institutions and inequality. Building just societies in the 21st century(Geneva, ILO; Cheltenham, Edward Elgar), pp. 265–266.; Бахтиёров Б. Б. Социально-демографические риски устойчивого развития. Economy. Management. State and Law #12. (30.12.2018) - Warszawa, 2018. С. 107-109.

o‘zlarining sa’y-harakatlariga bog‘liqligini nazarda tutadi. Jumladan, yuqori darajadagi malaka va kasbiy ko‘nikmaga ega bo‘lish, insonlarning daromadlarini mutanosib ravishda ortishiga olib keladi;

- milliy boylikni qayta taqsimlash xususiyatlari – bu odatda ijtimoiy ta’minot xizmatlarini ko‘rsatish orqali bozor iqtisodiyoti sharoitida kam ta’minlangan, ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlarida boqimandalik kayfiyatinining shakllanish ehtimoli yuqori bo‘lishiga olib kelishi bilan bog‘liq bo‘lib, aholini ijtimoiy himoya qilishning passiv dasturlarining samarasizligini nazarda tutadi.

Aholining ijtimoiy jihatdan tabaqalanishi har bir mamlakat uchun xos xususiyat hisoblanib, uning ijobiy va salbiy oqibatlari mavjud. Ijtimoiy jihatdan tabaqalanishning ijobiy xususiyati mamlakatda o‘rta qatlamni rag‘batlantirishga qaratilgan aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini amalga oshirilishi, jumladan aktiv ijtimoiy himoya dasturlariga ustuvorlik berilishi natijasida jamiyatning ayrim ijtimoiy guruhlari o‘rtasida raqobatning ortishiga erishiladi va mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish samaradorligi ko‘rsatkichi ortib boradi. Aholi daromadlari oshgan sari jamiyatning ijtimoiy qiyofasi takomillashib boradi. Shu bilan bir qatorda, hukumat tomonidan aholining ijtimoiy jihatdan tabaqalanishining oldini olish va uning darajasini kamaytirishga qaratilgan maqsadli ijtimoiy dasturlarning muntazam ravishda amalga oshirilmasligi quyidagi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin:[84]

- ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi soni va noroziliklarining ortishi;
- ijtimoiy muammolarning ko‘payishi va ijtimoiy tanglik holatini kuchayishi;
- davlatning aholini ijtimoiy himoya qilish, jumladan sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimini qo‘llab-quvvatlashni moliyalashtirish xarajatlarining ortishi;
- aholining turli ijtimoiy guruhlari, iqtisodiyotning turli tarmoqlari, qishloq va shahar aholisi o‘rtasidagi ijtimoiy qarama-qarshilikning ortishi;
- mehnat bozorida tanglik holatining vujudga kelishi, tashqi migratsiyaning kuchayishi va ishsizlik darajasining ortishi;

[84] Berg J. 2015b. “Income support for the unemployed and the poor”, in J. Berg (ed.): Labour markets, institutions and inequality. Building just societies in the 21st century(Geneva, ILO; Cheltenham, Edward Elgar), pp. 265–266.; Бахтиёров Б. Б. Социально-демографические риски устойчивого развития. Economy. Management. State and Law #12. (30.12.2018) - Warszawa, 2018. С. 107-109.

• iste’mol bozoridagi mutanosiblik va ijtimoiy infratuzilmaning buzilishi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holatda har bir mamlakatda aholining ijtimoiy jihatdan tabaqalanishining oldini olish, o‘rta qatlamni rag‘batlantirish va jamiyatning ijtimoiy qiyofasini takomillashtirish maqsadida aholini ijtimoiy himoya qilishning iqtisodiy mexanizmi (soliq siyosati, ijtimoiy ta’minot va boshqalar) va dastaklari vositasida jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanishi jarayonlari boshqarib boriladi. Ushbu holat o‘z navbatida har bir mamlakatda ijtimoiy tabaqalanish indikatorlari tizimini ishlab chiqilishini taqozo etadi.

Jahon amaliyoti tahlili ko‘rsatishicha, ijtimoiy tabaqalanishning mamlakatdagi ijtimoiy barqarorlik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatishidan kelib chiqqan holatda, aksariyat bozor munosabatlari rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda milliy ijtimoiy tabaqalanish ko‘rsatkichlari tizimi ishlab chiqilgan (5.6.3-jadval).

5.6.3-jadval

Ijtimoiy tabaqalanish ko‘rsatkichlari tizimi[85]

№	Ijtimoiy tabaqalanishning ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta’siri	Ijtimoiy tabaqalanishni baholash indikatorlari
1	Kam ta’minlangan aholi sonining ortishi	Daromadlarning (iste’molning) tabaqalanish ko‘rsatkichi: • daromadlar tabaqalashuvining detsil koeffitsiyenti; • daromadlar tabaqalashuvining kvintil koeffitsiyenti; • fondlar koeffitsiyenti; • jini indeksi; • iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha daromadlar (ish haqi) ning tabaqalashuvi; • mintaqalar bo‘yicha daromadlar (ish haqi) ni tabaqalashuvi;

[85] Behrendt, C. 2013. “Investing in people: Implementing the extension of social security through national social protection floors”, in D. Kucera and I. Islam (eds): Beyond macroeconomic stability: Structural transformation and inclusive development(Geneva, ILO; Basingstoke, Palgrave), pp. 228–261.; Колмаков И.Б. Методология расчета и анализа интегральных оценок показателей поляризаций денежных доходов населения. Вопросы статистики, № 2, 2015 г. с. 23-36; Шамаева Е.Ф. Комплексная модель расчета качества жизни в регионе (на основе формализованного принципа устойчивого развития и системы естественнонаучных показателей). Уровень жизни населения регионов России. № 3 (197), 2015 г. 152. с. 109-120; Козлова О., Гладкова Т., Макарова М., Тухтарова Е. Качества жизни населения: вопросы оценки. Экономист, № 8, 2015 г. с. 80-87; Глущенко К.П. К вопросу о применении индекса джини и других показателей неравенства. Вопросы статистики, № 2, 2016 г. с. 71-80; Бахтиёров Б. Б. Социально-демографические риски устойчивого развития. Economy. Management. State and Law #12. (30.12.2018) - Warszawa, 2018. С. 107-109.

		• o‘rtacha va minimal ish haqi o‘rtasidagi nisbat.
2	Daromadlarning (xarajatlar) tengsizligi natijasida ijtimoiy keskinlik va qarama-qarshilikning ortishi	Mulkiy tabaqalanish indikatorlari
3	Davlat byudjetining aholini ijtimoiy himoya qilish, jumladan, ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlarini moliyalashtirish xarajatlarining ortishi	Kam ta’minlanganlik darajasini baholovchi indikatorlar
4	Jamiyatning turli ijtimoiy guruhlari, iqtisodiyot tarmoqlari, mintaqalar, shahar va qishloq joylari o‘rtasida nomutanosiblikning kuchayishi	Jamiyatning turli ijtimoiy guruhlari va iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha bandlikning tabaqalanishi ko‘rsatkichi
5	Mehnat bozoridagi tanglikning ortishi (mehnat bozoridagi talab va taklif o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi)	Jamiyatning stratifikatsiyalashgan, jumladan o‘rta qatlamning shakllanish ko‘rsatkichlari
6	Iste’mol bozori va ijtimoiy infratuzilma rivojlanishdagi tafovutlar	Mintaqalarda, shahar va qishloq hududlarida aholining ijtimoiy infratuzilma ob’ektlari bilan ta’minlanganlik ko‘rsatkichi

5.6.3-jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga tayangan holda, aholini ijtimoiy jihatdan tabaqalanishini kompleks tadqiq etish va aniq natijaga erishish uchun dastlab mamlakatdagi ijtimoiy tabaqalanish bilan bog‘liq bo‘lgan milliy va xususiy komponentlarni ajratib olish maqsadga muvofiq. Iqtisodiy adabiyotda bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining ijtimoiy tabaqalanishini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlarda daromadlar ko‘rsatkichi yetakchi o‘rinni egallaydi. Ushbu ko‘rsatkich xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan ilmiy izlanishlarda muntazam qo‘llanilib keladi.

Aholi daromadlarining tabaqalanish ko‘rsatkichi matematik metodlar asosida hisoblanadigan quyidagi ko‘rsatkichlardan tashkil topadi:

- daromadlar tabaqalashuvining detsil koeffitsiyenti – 10 foiz yuqori darajada ta’minlanganlarning va 10 foiz kam ta’minlanganlarning maksimal daromadlari o‘rtasidagi nisbat;
- daromadlar tabaqalashuvining kvintil koeffitsiyenti – 20 foiz yuqori darajada ta’minlanganlarning va 20 foiz kam ta’minlanganlarning minimal daromadlari o‘rtasidagi nisbat;
- fondlar koeffitsiyenti – eng yuqori daromad oluvchi va eng kam daromadga ega bo‘lgan aholi o‘rtasidagi nisbat;

• jini indeksi (daromadlarning konsentratsiyalashuvi koeffitsiyenti) – aholining turli ijtimoiy guruhlari o‘rtasida daromadlarning taqsimlanishini tavsiflovchi ko‘rsatkich;

• daromadlarni (ish haqi) tabaqalanishi – iqtisodiyot tarmoqlari yoki mamlakat mintaqalari bo‘yicha ish haqi (aholi daromadlari) tengsizligini tavsiflovchi ko‘rsatkich;

• o‘rtacha va minimal ish haqi o‘rtasidagi nisbat – aholining ijtimoiy guruhlarining daromad manbalari tengsizligini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

Mamlakatimizda aholining ijtimoiy tabaqalanishini baholash amaliyoti O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2010-yil 24-dekabrdagi “Uy xo‘jaliklarini tadqiq etish metodologiyasining nizomi to‘g‘risida”gi № 18-sonli Qarori asosida amalga oshiriladi. Ushbu nizomga muvofiq O‘zbekistonda aholining ijtimoiy tabaqalanishini tavsiflash uchun aholining o‘rtacha jon boshiga to‘g‘ri keluvchi pul daromadlari bo‘yicha guruhlanishi, aholi jami pul daromadlari hajmining detsil va kvintil koeffitsiyentlari bo‘yicha guruhlanishi, Jini indeksi va Fondlar koeffitsiyenti kabi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi[86].

5.7. Daromadlarni taqsimlash va aholi farovonligini oshirish masalalari

Resurslarni qayta taqsimlash quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:[87]

- vertikal qayta taqsimot (soliq mexanizmi orqali amalga oshiriladi);
- gorizontal qayta taqsimot (tibbiy xizmatlardan foydalanish bo‘yicha imtiyozlar berish);
- guruhlararo qayta taqsimot (aholi yoshi, jinsi, kasalligi kabi guruhlariga nisbatan ijtimoiy ta’minotning qo‘llanilishi);
- ijtimoiy sug‘urta tizimi orqali qayta taqsimot (majburiy ijtimoiy sug‘urta mexanizmi orqali amalga oshiriladi);
- kutish samaradorligi (bozor iqtisodiyoti amal qilishi natijasida vujudga kelgan salbiy oqibatlarni davlatning ijtimoiy dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan sog‘liqni saqlash, ta’lim, bandlik sohalaridagi chora-tadbirlaridan kutilayotgan samara);

---

[86] Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг “Уй хўжаликларини тадқиқ этиш методологиясининг низоми тўғрисида”ги № 18 сонли Қарори, 24.12.2010 й.

[87] Social policy. P. 188-189

- salbiy oqibatlarni yumshatilish siklining davomiyligi (insonning umri davomida ijtimoiy ta’minot dasturlaridan foydalanishi natijasida farovonlikka erishishi);

- ajrimni kompensatsiyalash (oilalarda vujudga keladigan ajrimning salbiy oqibatlarini qisqartirish maqsadida farzandlarning ehtiyojlarini qondirish maqsadida ota (yoki ona) tomonidan to‘lanadigan kompensatsiya to‘lovlari, ya’ni aliment to‘lovi);

- tashqi samara (ijtimoiy siyosat chora-tadbirlari samarasining jamiyat tomonidan baholanishi).

Yuqorida keltirib o‘tilgan ma’lumotlar ijtimoiy siyosat dasturlarini qay darajada amalga oshirilishi zarurligini belgilab beradi (ya’ni, demografik vaziyat, iqtisodiy siyosat, din, oila, aholi ijtimoiy qatlamlari, kambag‘allik va boshqalar). Ijtimoiy siyosatning samarasi esa uning qay darajada to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligidan dalolat beradi.

Ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish jarayonida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar tizimining huquqiy asoslarini yaratish zarurati tug‘iladi. Ijtimoiy siyosatga oid qonuniy hujjatlar bevosita ijtimoiy siyosatning manzilli yo‘naltirilishini ta’minlashi lozim. Natijada manzilli ijtimoiy siyosat dasturlarining amal qilishi va aholi farovonligini ta’minlashga erishiladi.

Mamlakatda amalga oshirilgan ijtimoiy siyosatni baholashda jamiyat a’zolarining amalga oshirilgan chora-tadbirlar tizimidan qoniqish darajasi inobatga olinadi. Ushbu holat o‘z navbatida ijtimoiy siyosatning yanada takomillashishiga olib keladi.

Mamlakatimizda aholi turmush darajasi va farovonligini o‘rganish, aholining ijtimoiy jihatdan tabaqalanishini baholash maqsadida har yili davlat statistika organlari tomonidan respublika miqyosida uy xo‘jaliklarini tanlama kuzatish usulida kuzatuvlar amalga oshirib boriladi. Bu turdagi kuzatuvlarni amalga oshirish uslubiyoti jahon standartlariga moslashtirilgan bo‘lib, Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Yevropa iqtisodiy komissiyasining tavsiyalariga tayangan holda respublika hududlari bo‘yicha 10 000 uy xo‘jaliklari tanlab olinib ijtimoiy tadqiqotlar o‘tkaziladi. Ushbu tadqiqotlar natijalari o‘z navbatida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarining samaradorligini baholash imkonini beradi.

Jumladan, mamlakatimizda amalga oshirilgan aholini ijtimoiy himoya qilishning aktiv dasturlari samarasi o‘laroq 2000–2018-yillarda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan umumiy daromadlar muntazam oshib borib, 2000-yildagi 96,4 ming so‘mlik ko‘rsatkich 2018-yilga kelib 8

686,6 ming so‘mga yetdi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi 5 yil mobaynida mamlakatimizda aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi umumiy daromadlar nominal hisobda o‘rtacha 23,1 foizlik yillik o‘sish sur’atiga ega bo‘lib kelmoqda (5.7.1-rasm).



5.7.1-rasm. O‘zbekistonda aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi umumiy daromadlar dinamikasi (ming so‘mda)[88]

Aholini ijtimoiy himoya qilishning rivojlangan mamlakatlar amaliyotiga tayangan holda aholi daromadlarini shakllantirish, o‘rtacha ish haqi va pensiya miqdorlarining o‘sib borishi, aholi daromadlari bazasini mustahkamlanishi va jamiyatda o‘rta qatlamning rivojlanishi uchun zamin yaratilishi, aholini iste’molini rag‘batlantirishning muhim omili hisoblanadi, degan xulosa qilish mumkin. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida hukumatimiz tomonidan aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar, o‘rtacha ish haqi, pensiya va ijtimoiy nafaqalarning real hajmi izchil ravishda o‘sib bormoqda. Jumladan, 2018 yilda 2000 yil darajasiga nisbatan aholi jon boshiga real daromadlar 13,0 marta, o‘rtacha ish haqi va pensiyalarning real miqdori mos ravishda 25,9 va 19,8 marta ortganligini kuzatishimiz mumkin (5.7.2-rasm).

[88] Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг расмий (www.stat.uz) маълумотлари асосида тузилди.



5.7.2-rasm. O‘zbekistonda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar, ish haqi va pensiyalar miqdorining real o‘sishi (2000 yilga nisbatan, marta hisobida)[89]

Hukumatimiz tomonidan jamiyatning ijtimoiy qiyofasini takomillashtirish va aholi o‘rta qatlamining shakllanishini rag‘batlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan aktiv ijtimoiy himoya dasturlari mamlakatimizda aholi bandligini oshirish bilan bir qatorda aholi daromadlari bazasining mustahkamlanishi uchun zamin yaratmoqda. 2013–2018-yillarda aholining real umumiy daromadlari 1,8 marta, aholi jon boshiga real umumiy daromadlari hajmlari esa 1,6 martadan ziyodroq ortdi. Jumladan, tadqiq etilayotgan davrda aholi umumiy daromadlari 101,7 trln. so‘mdan 286,3 trln. so‘mga, jon boshiga umumiy daromadlar 3361,5 ming so‘mdan 5450,2 ming so‘mga, real umumiy daromadlar hajmi 95 028 mlrd. so‘mdan 170 123 mlrd. so‘mga, jon boshiga real umumiy daromadlari ko‘rsatkichi esa 3 142,1 ming so‘mdan 8 686,6 ming so‘mga yetdi. So‘nggi besh yil mobaynida aholi umumiy daromadlarining yillik o‘sish sur’ati o‘rta hisobda qariyb 23,1 foizni, aholi real umumiy daromadlari 10,3 foizni tashkil etgan holda, aholi jon boshiga real umumiy daromadlarning yillik o‘rtacha o‘sishi 8,1 foizni tashkil etdi (5.7.1-jadval).

[89] Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг расмий (www.stat.uz) маълумотлари асосида тузилган.

5.7.1-jadval.

O‘zbekistonda aholi daromadlarining o‘sish dinamikasi[90]

№	Ko‘rsatkichlar nomi	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.
1	**Aholi umumiy daromadlari, trln. so‘mda**	101,7	117,9	132,0	151,6	186,2	286,3
	o‘tgan yilga nisbatan, foizda	*123,7*	*116,0*	*112,0*	*114,8*	*122,8*	*153,8*
2	**Aholi jon boshiga umumiy daromadlar, ming so‘mda**	3361,5	3832,8	4218,7	4761,5	5450,2	8686,6
	o‘tgan yilga nisbatan, foizda	*121,8*	*114,0*	*110,1*	*112,9*	*120,8*	*159,4*
3	**Aholinig real umumiy daromadlari, trln. so‘mda**	95,0	110,8	125,1	143,6	170,1	205,4
	o‘tgan yilga nisbatan, foizda	*115,7*	*109,0*	*106,1*	*108,8*	*112,2*	*110,3*
4	**Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar, ming so‘mda**	3142,1	3601,3	3998,1	4510,3	5252,8	5908,0
	o‘tgan yilga nisbatan, foizda	*113,9*	*107,1*	*104,3*	*106,9*	*110,3*	*108,4*

Mamlakatda 2013-2018 yillarda aholi daromadlari tarkibi takomillashib, ishlab chiqarishdan olinadigan daromadlar ulushi 72,9 foizga yetdi, mol-mulkdan olinadigan daromadlar tahlil etilayotgan davrda 1,8 marta ortgan holda aholi daromadlari tarkibidagi ulushi 3,5 foizni tashkil etdi va aholi birlamchi daromadlarining umumiy daromadlardagi ulushi mos ravishda 73,0 foizdan 76,4 foizga yetdi. Transfert daromadlarining ulushi esa mazkur davrda 3,4 foiz punkt birligiga kamayib 2018 yilda 23,6 foizga teng bo‘ldi (5.7.2-jadval).

Statistik tahlillar mamlakatimizda aholi daromadlarining barqaror sur’atlarda oshib borayotganini ko‘rsatmoqda. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tadqiqotlarida aholi daromadlari o‘rtasidagi tabaqalanishni

[90] Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг расмий (www.stat.uz) маълумотлари асосида муаллиф томонидан таққосланган.

baholashda keng qo‘llaniladigan Jini indeksi 1990–2017-yillarda O‘zbekistonda 1,6 marta kamaygan holda 0,26 ga teng bo‘ldi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, ushbu ko‘rsatkich dunyoning aksariyat iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlariga qaraganda ancha pastdir.

5.7.2-jadval

O‘zbekistonda aholi umumiy daromadlarining tarkibi (foiz hisobida)[91]

№	Ko‘rsatkichlar nomi	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.
	Umumiy daromadlar, jami	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**
	shu jumladan:						
I	**Birlamchi daromadlar**	**73,0**	**75,6**	**79,7**	**80,5**	**75,2**	**76,4**
	shundan:						
1.1.	Ishlab chiqarishdan olingan daromad	70,3	13,2	76,9	76,7	71,0	72,9
1.2.	Mol-mulkdan olingan daromad	2,8	2,4	2,8	3,8	4,2	3,5
II	**Ijtimoiy transfertlardan daromadlar**	**27,0**	**24,4**	**20,3**	**19,5**	**24,8**	**23,6**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida aholining turli ijtimoiy guruhlari o‘rtasida daromadlarning adolatli taqsimlanishida ijobiy o‘zgarishlar vujudga kelayotganligi aholi pul daromadlari o‘rtasidagi tabaqalanishini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarda o‘z aksini topmoqda. Jumladan, mamlakatimizda 10 foiz ta’minlangan va 10 foiz yetarlicha ta’minlanmagan aholining o‘rtacha daromadlari o‘rtasidagi farqni ifodalovchi fondlar koeffitsiyenti ko‘rsatkichi barqaror pasayish tendensiyasiga ega bo‘lib, ushbu raqam 2000 yildagi 21,1 barobardan 2017 yilda 6,2 barobarga, kvintil guruhlar bo‘yicha fondlar koeffitsiyenti (20 foizli aholi guruhlari o‘rtasidagi farq) esa 9,9 barobardan 4,1 barobargacha pasaydi va ushbu holat ijtimoiy xavfsizlikning me’yoriy chegarasida hisoblanadi (5.7.3-rasm).

[91] Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг расмий (www.stat.uz) маълумотлари асосида муаллиф томонидан таққосланган.





5.7.3-rasm. O‘zbekistonda aholi pul daromadlari tabaqalashuvi ko‘rsatkichlarining o‘zgarish tendensiyalari[92]

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan aholini ijtimoiy himoya qilishning maqsadli davlat dasturlari natijasida aholi daromadlari bazasi mustahkamlanib, yildan-yilga aholi iste’mol xarajatlari tarkibi optimallashib, unda nooziq-ovqat va xizmatlarga qilinayotgan xarajatlarning ulushi ortib bormoqda. Jumladan, 2000–2017-yillarda aholining iste’mol xarajatlari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari xarajatlari ulushi 15,2 foizga kamayib, nooziq ovqat mahsulotlari sotib olish uchun xarajatlar hissasi 7,1 foizga, xizmatlar uchun xarajatlar esa 8,1 foizga ortdi (5.7.4-rasm).

[92] Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг расмий (www.stat.uz) маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган



5.7.4-rasm. O‘zbekistonda aholining iste’mol xarajatlari tarkibining o‘zgarishi (jamiga nisbatan foizda)[93]

Yuqoridagi keltirilgan ma’lumotlar tahlili ko‘rsatishicha mamlakatimizda jamiyatning ijtimoiy qiyofasi yildan-yilga takomillashib, o‘rta sinf aholisi yetakchi qatlamga aylanmoqda. Shu o‘rinda hukumatimiz tomonidan aholini maqsadli ijtimoiy himoya qilish dasturlarini amalga oshirish va jamiyatda o‘rta qatlamni rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarining ham samarasini ko‘rish mumkin bo‘ladi. Jumladan, amalga oshirilgan kuchli ijtimoiy siyosat chora-tadbirlari aniq, maqsadli ravishda yo‘lga qo‘yilib, aholi yalpi daromadlarining o‘sishi uchun zamin yaratdi. Ushbu holat 1990-2017 yillarda mamlakatimizda o‘rta daromadga ega bo‘lgan aholining jami aholi tarkibidagi ulushini qariyb 2,9 marta ortib, 51,3 foizga yetishini ta’minladi (5.7.5-rasm).



5.7.5-rasm. O‘zbekistonda jamiyat tarkibida o‘rta qatlamning ulushi[94]

[93] Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг расмий (www.stat.uz) маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган

[94] Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг расмий (www.stat.uz) маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган

Amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlili ko‘rsatishicha keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshiriladigan aholini ijtimoiy himoya qilish va aholi izchil oshirishga qaratilgan aktiv ijtimoiy himoya dasturlarini yanada manzilliligi va samaradorligini oshirish uchun mintaqalarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda hududiy ijtimoiy himoya dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Shu bilan bir qatorda, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad va xarajatlarning tarkibiy o‘zgarishi, asosiy oziq-ovqat mahsulotlari iste’moli va uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar bilan ta’minlanganligi bilan bir qatorda, hududdagi yashash sharoiti va standartlari, aholining obod va zamonaviy uy-joylar bilan ta’minlanganligi, aholi istiqomat qiladigan muhitni rivojlantirish va obodonlashtirish kabi omillarni inobatga olish va aholi uchun qulay yashash muhitini yaratishga e’tiborni kuchaytirish zarur.

Glossariy

O‘zbekcha	Ruscha	Inglizcha	Izoh
Umr davomiyligi	Продолжительность жизни	Life expectancy	Mamlakat aholisining o‘rta-cha umr ko‘rish darajasi
Demografik jihatdan yosh mamlakat	Демографическая молодая страна	Demographic young country	Aholisi tarkibida 60 va undan katta yoshdagilarning ulushi 7 foizdan kam mamlakatlar
Keksayib borayotgan mamlakat	Стареющая страна	Aging country	Aholisi tarkibida 60 va undan katta yoshdagilarning ulushi 8-10 foiz bo‘lgan mamlakatlar
Keksa mamlakat	Старая страна	Old country	Aholisi tarkibida 60 va undan katta yoshdagilarning ulushi 10-12 foiz bo‘lgan mamlakatlar
Demografik keksa mamlakat	Демографическая старая страна	Demographic old country	Aholisi tarkibida 60 va undan katta yoshdagilarning ulushi 12 foizdan ko‘p bo‘lgan mamlakatlar
Mehnatga layoqatli aholi	Трудоспособное население	Able-bodied population	Ayollar uchun 16-55, erkaklar uchun 16-60 yoshdagi, 1,2 – guruh nogironi bo‘lmagan aholi tarkibi.
Quyi qatlamdan keksayish	Старение с нижнего слоя	Aging from lower layer	Mamlakatda tug‘ilish koeffitsiyentining avvalgi yillarga nisbatan kamayib ketishi nazarda tutiladi. Ma’lum bir mamlakatdagi

			demografik vaziyatlar o‘zgarishi kuzatilgan taqdirda, ushbu mamlakatda 20-30 yildan so‘ng aholi tarkibida pensiya yoshidagi aholi va mehnat resurslari o‘rtasidagi nisbat o‘zgarib boradi va natijada pensiya yoshidagi aholi soni ortib borishi kuzatiladi.
Yuqori qatlamdan keksayish	Старение с вернего слоя	Aging from upper layer	aholining umr davomiyligi ko‘rsatkichi va mutanosib ravishda mamlakatda pensiya yoshidan keyingi davrda kutilayotgan umr davomiyligi ortib boradi. Ma’lum bir davr o‘tgandan so‘ng esa aholi tarkibida pensionerlarning ulushi ortib borishi kuzatiladi.
Demografik siyosat	Демографическая политика	Demographic policy	tug‘ilishning o‘sishi va bolalar o‘limini kamaytirish yo‘li bilan aholi ko‘payishining optimal darajasini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan siyosat
Tug‘ilish koeffitsiyenti	Коэффициент рождения	Birth coefficient	Yil davomida tug‘ilganlarning aholini yillik o‘rtacha soniga nisbati
O‘lim koeffitsiyenti	Коэффицент смерти	Death coefficient	Yil davomida o‘lganlarning aholini yillik o‘rtacha soniga nisbati
Konsensus siyosati	Политика консенсуса	Consensus policy	**(1940–1970-yy.).** Ikkinchi jahon urushidan keyin Britaniya iqtisodiyoti inqirozga yuz tutdi. Inqiroz oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari iqtisodiy siyosat dasturlari doirasida amalga oshirildi. Bunda Keyns ta’limoti asosida yalpi talabni boshqarish tamoyilidan foydalanildi.

			Ushbu vaziyatda xo‘jalik ishlariga davlatning aralashuvi orqali talabni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari orqali vujudga kelgan ishsizlik va iqtisodiy inqiroz oqibatlarini bartaraf etishga yo‘naltirilgan dasturlar amalga oshirildi. Ishsizlar, og‘ir kasallar va nogironlar, pensionerlar, uy-joy bilan ta’minlanmaganlar, ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlari uchun ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlari ishlab chiqildi.
Konservativ ijtimoiy siyosat	Консервативная социальная политика	Conservative social policy	**(1970–1997-yy.).** 1970-yilga kelib Buyuk Britaniyada iqtisodiy turg‘unlikka erishildi va Keyns ta’limotiga asoslangan konsensus siyosati tanqid qilina boshlandi. 1979-yilda Tetcherning iqtisodiy siyosati davlat xarajatlarini qisqartirish va inflyatsiya darajasini jilovlashga yo‘naltirildi. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi kamaytirilib, iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning yangi mexanizmi vujudga kela boshladi. 1980 yilda iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda monetarizm g‘oyalari qo‘llanildi, asosiy e’tibor davlatning iqtisodiyotga aralashuvini qisqartirish, davlat xarajatlarini kamaytirish va inflyatsiya darajasini boshqarishga qaratildi. Ushbu davrda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning aralash holda qo‘llanilishi ko‘zga tashlandi,

			ya’ni iqtisodiy dastaklar orqali aholi turmush darajasini oshirishga e’tibor qaratildi.
Yangi mehnat siyosati	Новая трудовая политика	New Labor Policy	**(1997-2010-yy.).** 1997-yilga kelib leyboristlar partiyasi tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda soliq tizimi yetakchi o‘rinni egaladi. Soliq tizimi orqali daromadlarni qayta taqsimlash siyosati amalga oshirildi, hamda ijtimoiy ta’minot tizimi faoliyati bevosita soliq mexanizmi bilan uzviylashtirildi. Ijtimoiy ta’minot dasturlari (ishsizlik, pensiya va boshqa ijtimoi nafaqalarini olish) mehnat staji davri bilan o‘zaro bog‘landi, majburiy ijtimoiy sug‘urta to‘lovlari joriy etildi. 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi davrida jamiyatda ishsizlar sonining ko‘payishi natijasida ijtimoiy sug‘urta fondlari va davlatning ijtimoiy soha xarajatlari ortib ketishi ko‘zga tashlandi. Mamlakatda davlat byudjeti defitsiti vujudga keldi va 2010 yildan boshlab davlatning ijtimoiy sohaga xarajatlarini qisqartirish zarurati tug‘ildi.
Globallashuv	Глобализация	Globalization	Butunjahon iqtisodiy, siyosiy va madaniy integratsiyalashuvi va unifikatsiyalashuvi.
Din	Религия	Religion	insonning qadimiy ma’naviy-amaliy hayot sohasi hisoblanadi. Bugungi kundagi ijtimoiy siyosatda qo‘llanilayotgan “din” so‘zi

			ko‘p qirrali bo‘lib, uning asosini qadimiy insonlarning ilohiy insonlarning ilohiy kuch bilan “tanishishgani” ma’nosi tashkil etadi.
Dinlararo munosabatlar	Межрелигиозные отношения	Interreligious relations	din asosida yuzaga kelgan turli e’tiqodiy ta’limotlarga e’tiqod qilgan ayrim kishilar, kichik yoki katta guruhlar o‘rtasidagi aloqalar tizimi hisoblanadi.
Dinning ijtimoiy vazifasi	Социальная задача религии	Social function of religion	dinning jamiyatdagi ijtimoiy institut sifatidagi o‘rni va faoliyat doirasida namoyon bo‘ladi. Din jamiyat, uning ayrim guruhlari va shaxslar hayotida turli vazifalarni bajaradi.
Absolyut kambag‘allik (qashshoq aholi)	Абсолютная бедность	Absolute poverty	mamlakat aholisi tarkibida belgilangan minimal turmush darajasidan past darajada iste’mol tovarlari va xizmatlar bilan ta’minlangan aholi guruhi.
Nisbiy kambag‘allik (kam ta’minlangan aholi)	Сравнительная бедность	Relative poverty	mamlakatdagi o‘rtacha turmush darajasi ko‘rsatkichidan past darajada iste’mol tovarlari va xizmatlari bilan ta’minlangan aholi guruhi.
Oila	Семья	Family	Jamiyatning boshlang‘ich hujayrasi, er-xotinlik munosabatiga asoslanadi va bir-birlari bilan qon-qarindoshlik munosabati bilan bog‘liq kishilarning ixtiyoriy birlashgan guruhidan iborat bo‘ladi.

Nazorat savollari:

1. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda demografiyaning o‘rni.
2. Iqtisodiy siyosat va ijtimoiy siyosat o‘rtasidagi nisbat mohiyati.
3. Dinning ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdagi xususiyatlari.
4. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda oila siyosatining o‘rni
5. Aholining turli ijtimoiy qatlamlari va ijtimoiy siyosat yo‘nalishlari.
6. Kambag‘allikka qarshi ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari va vazifalari.
7. Daromadlarni taqsimlash va aholi farovonligini oshirish masalalari.
8. Ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish va baholash metodologiyasi.
9. Aholi daromadlarini qayta taqsimlash amaliyoti va uning shakllari.
10. Ijtimoiy sug‘urta tizimi orqali daromadlarni qayta taqsimlash qanday amalga oshiriladi?

Testlar:

1. Davlat iqtisodiy siyosatining quyidagi yo‘nalishlaridan qaysi biri ijtimoiy siyosat tarkibiga ham kiradi?

a) sanoat siyosati;
b) eksport-import siyosati;
c) mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish;
d) bandlik siyosati.

2. Konsessus siyosati qanday tamoyilga asoslanib amalga oshirilgan?

a) davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirish;
b) soliq tizimi orqali daromadlarni qayta taqsimlash;
c) davlatning talabni boshqarishi;
d) davlatning ijtimoiy xarajatlarni qisqartirish.

3. BMT metodikasi bo‘yicha demografik keksa mamlakatlarda qarilik koyeffitsiyenti (W_{65}) ... bo‘lishi kerak;

a) 6 % dan yuqori;
b) 10 % dan yuqori;
c) 7 % dan yuqori;
d) 12 % dan yuqori.

4. Mamlakatda mehnatga qobiliyatli aholi soni 18 ming kishini, mehnat qilish yoshigacha bo‘lgan aholi soni 2 ming kishini, pensiya yoshidagi aholi soni 7 ming kishini tashkil etsa, demografik yuk ko‘rsatkichini hisoblang?

a) 11;1 %;
b) 38;9 %;
c) 50 %;
d) 61;1 %.

5. Quyidagilardan qaysi biri konservativ iqtisodiy siyosatga xos emas?

a) davlat ijtimoiy xarajatlarini qisqartirish;
b) inflyatsiya darajasini boshqarish;
c) ijtimoiy farovonlikka iqtisodiy dastaklar orqali erishish;
d) davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi.

6. Leyboristlar tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda yetakchi o‘ringa . . . qo‘yildi;

a) ijtimoiy to‘lovlar;
b) soliq tizimi;
c) pul-kredit tizimi;
d) mehnat bozori.

7. Dinning ijtimoiy vazifasi – ... namoyon bo‘ladi;

a) dinning insonlarni umumiy e’tiqod orqali birlashtirishida;
b) diniy tashkilotlar va masjidlarning ijtimoiy to‘lovlarni amalga oshirish uchun xayriya mablag‘larini jamg‘arishida;
c) dinning jamiyatdagi ijtimoiy institut sifatidagi ahamiyati, o‘rni, faoliyat doirasida;
d) dinning shukronalik va ertangi farovon hayotga umid g‘oyalari asosida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarida davlatga nisbatan norozilikning oldini olishida.

8. Ijtimoiy siyosat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan “Oilaviy siyosat” chora-tadbirlari quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi (noto‘g‘risini tanlang)

a) oilaviy munosabatlarining huquqiy-institutsional asosini yaratish;
b) oila daromadlari darajasini oshirish;
c) oilaviy munosabatlar barqarorligini ta’minlash;

d)oilalarga nisbatan ko‘rsatiladigan xizmatlar.

9. Neoliberalistlar fikricha:

a) ijtimoiy davlat bu sotsializmdir;

b)umumjamiyat farovonligi davlati iqtisodiyot samaradorligining pasayishiga olib keladi va jamiyatda siyosiy erkinlikning yo‘qolishi riskini vujudga keltiradi;

c) ijtimoiy davlat mehnatkashlarga davlat kapitalidan imtiyozlar berishni anglatadi;

d)ijtimoiy kafolatlarni ta’minlashning zarur sharti kapitalizmdan sotsializmga o‘tishdir.

10. Mamlakatdagi daromadlarning umumiy darajasi bilan taqqoslaganda insonning yomonroq holatini ifodalovchi tushuncha – bu ...

a) mutlaq qashshoqlik;

b)joriy qashshoqlik;

c) surunkali qashshoqlik;

d)nisbiy qashshoqlik.

11. Soliq mexanizmi orqali daromadlarni qayta taqsimlash

a) vertikal qayta taqsimot
b) gorizontal qayta taqsimot
c) guruhlararo qayta taqsimot
d) ijtimoiy sug‘urta

12. Daromadlarni qayta taqsimlashda tibbiy xizmatlardan foydalanish bo‘yicha imtiyozlar berish

a) gorizontal qayta taqsimot;
b) vertikal qayta taqsimot;
c) guruhlararo qayta taqsimot;
d) ijtimoiy sug‘urta.

VI bob. AHOLI FAROVONLIGI VA IJTIMOIY TA’MINOT

6.1. Aholi farovonligining o‘sishi, omillari va ko‘rsatkichlari.

6.2. Umumjamiyat farovonligi davlati.

6.3. Davlat va tijorat tashkilotlari ijtimoiy xizmatlarining rivojlanishi.

6.4. Ijtimoiy ta’minot va mehnatni muhofaza qilish va ixtiyoriy ijtimoiy ta’minot.

6.5. Uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish.

6.6. Ijtimoiy ta’minotni moliyalashtirishda davlat va bozor mexanizmi o‘rtasidagi nisbat.

6.1. Aholi farovonligining o‘sishi, omillari va ko‘rsatkichlari.

Davlatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida aholi farovonligini izchil oshirish muhim va ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Aholi farovonligini oshirish, jumladan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish orqali, aholining real pul daromadlari va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta’minlangan oilalar soni va aholining daromadlari bo‘yicha tabaqalanish darajasini kamaytirish; aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish orqali aholining ehtiyojmand qatlamlari ijtimoiy himoyasini, keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sifatini yaxshilash; arzon uy-joylar barpo etish bo‘yicha davlatning maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining turmush darajasini yaxshilanishini ta’minlovchi yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, modernizatsiyalash; ta’lim va fan sohasini rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasida[95] rejalashtirilganligi aholi farovonligini oshirish masalasining dolzarbligini tasdiqlaydi.

Ilmiy adabiyotda farovonlik tushunchasining turlicha talqinlari mavjud bo‘lib, aksariyat qarashlarda umumiy holda individ yoki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini aks ettirishi ta’kidlangan. Ushbu atama tahlilini lug‘aviy ma’nodan boshlash tug‘ri bo‘ladi. Farovonlik (prosperity, well being) – aholining ijtimoiy holatini rivojlanishi va yaxshilanish holatini anglatadi. Aksariat holatlarda farovonlik boylik bilan bog‘lanadi. Amalda farovonlik boylikka aloqador bo‘lmagan

[95] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 07.02.2017 йилдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сонли фармони.

baxtlilik, sog‘lik kabi elmentlarni o‘z ichiga oladi.[96] Boshqa bir manbada “farovonlik”ga ijtimoiy jihatdan emas, iqtisodiy jihatdan rivojlanish va muvaffaqiyat holati sifatida ta’rif beriladi.[97]

Britaniyaning eng yirik onlayn lug‘atiga ko‘ra farovonlik (welfare) boshqa so‘z bilan ta’riflanib, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish, muvaffaqiyatga erishishi holatini, bir so‘z bilan aytganda, aholining fiziologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlanish va muvaffaqiyatining umumiy holatini anglatadi.[98] Ushbu ta’riflar farovonlik atamasining umumiy jihatlarini yoritadi.

Turli iqtisodchi olimlarning farovonlikka bergan ta’riflari uning ayrim jihatlarini ochib beradi, jumladan A.Smit farovonlikni shaxs va jamiyat manfaatlarining o‘zaro uyg‘un bog‘liqligi sifatida ta’riflaydi, ya’ni individlar o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun olib boradigan faoliyati natijasida boshqa individ yoki individlar guruhi ehtiyojlari qondiriladi, shu bois farovonlikka erishish ushbu manfaatlar uyg‘unligi orqali aniqlanadi.[99]

Iqtisodchi olim A.Pigu farovonlikni faqatgina daromadlar bilan bog‘lagan. Uning fikricha farovonlik pul shakliga ega bo‘lishi kerak, ya’ni milliy daromadni taqsimlashda daromadning ma’lum qismini boylardan kambag‘allarga o‘tkazish umumiy farovonlikni oshiradi, biroq ushbu jarayon marjinal naflilikning kamayib borish qonuniga bo‘ysingani uchun ma’lum darajagacha farovonlikni oshirish imkonini berishini ta’kidlagan.[100]

V.Pareto farovonlikni individning naflilik funksiyasi bilan bog‘lagan, uning fikricha farovonlik har bir individ ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi omillardan tashkil topgan funksiyaning ma’lum davrdagi holatini ifodalaydi. Individning farovonlik darajasini oshirish naflilik funksiyasi omillarini yaxshilash orqali amalga oshiriladi. Resurslarning cheklanganligi va ehtiyojlarning cheksizligi mavjud bozor sharoitida individual farovonlikni oshirishning chegarasi mavjud. Pareto fikricha bir individ farovonligini oshirish boshqa individ farovonligini kamaytirmasligi lozim. Ushbu daraja fan tilida individual Pareto opitimumi deb ataladi. Jamiyat barcha a’zolari farovonligini boshqa aholi qatlami farovonligini kamaytirmaydigan darajaga yetishi umumiy Pareto

---

[96] *Random House, Inc. 09 & Webster's Revised Unabridged Dictionary. February 2009*. Retrieved 1 July 2009.
[97] https://www.merriam-webster.com/dictionary/prosperity
[98] https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/welfare
[99] A.Smith. An enquiry into the nature and causes of the wealth of the nations. /W.Strahan and T. Cadell, London 1776.
[100] A.C. Pigou. The Economics of Welfare, 1920.

optimumi deyiladi, ushbu optimumga erishishda aholi o‘rtasida resurslar taqsimoti optimal bo‘lishi lozim.[101]



6.1.1-rasm. BMT yondashuvi bo‘yicha farovonlik omillari.[102]

Farovonlikning umumiy jihatlari BMT tomonidan berilgan ta’rifda ifodalangan: “Farovonlik – quyidagi elementlardan tashkil topgan tizimdir: salomatlik, jumladan demografik sharoitlar, oziq-ovqat, kiyim-kechak, iste’mol va jamg‘arish fondlari; mehnat, bandlik va mehnatni tashkil qilish sharoitlari; ta’lim, jumladan savodxonlik darajasi; uy-joy; ijtimoiy ta’minot; inson erkinliklari”.[103]

Aholi farovonligini oshirish ikki masalani hal etish imkonini beradi: resurslardan samarali foydalangan holda aholi ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish va jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy adolatni ta’minlash. Bu ko‘p jihatdan farovonlikni ta’minlash omillariga bog‘liqdir. Aholi farovonligiga ta’sir qiluvchi omillarni shakllanish sohasi, ta’sir xarakteri, ta’sir yo‘nalishi, o‘lchash imkoniyati, bog‘liqlik shakllariga ko‘ra tasiniflash mumkin (6.1.1-jadval).

6.1.1-jadval

Aholi farovonligining oshish omillari tasnifi.

Tasnif ko‘rsatkichi	Omil nomi	Tavsifi
Shakllanish sohasiga bo‘yicha	Iqtisodiy	Ishlab chiqarishning rivojlanganlik darajasi, iqtisodiy o‘sish darajasi, resurslar taqsimoti xarakteri, aholi daromadlari darajasi,

[101] V.Pareto. Manual of Political Economy, 1906
[102] https://www.un.org/en/index.html манба асосида тайёрланди.
[103] https://www.un.org/en/index.html

		inflyatsiya darajasi.
	Ijtimoiy	Jamiyatning ijtimoiy tarkibi, aholining milliy xususiyatlari, iste’mol tarkibi.
	Demografik	Aholi soni, jins va yosh tarkibi, oilalar soni va tarkibi
	Ilmiy-texnikaviy va innovatsion	Fan-texnika yutuqlari, rivojlanish darajasi, ilmiy-tadqiqot ishlari soni, hajmi, amaliyotga joriy qilinish darajasi, innovatsiyalar va informatsion texnologiyalardan foydalanish ko‘lami va darajasi.
	Siyosiy	Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati xarakteri, davlatning ijtimoiy soha xarajatlari tarkibi va hajmi.
	Ekologik	Atrof-muhitni ifloslanishi darajasi, tabiatdan foydalanish mexanizmining amal qilish xarakteri, atrof-muhit muhofazasi holati va uni ta’minlash darajasi.
	Tabiiy-geografik holati va iqlimi	Hududiy joylashuvning tabiiy-geografik xususiyatlari, tabiiy resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi, geosiyosiy joylashuv xususiyatlari, iqlimiy xususiyatlar.
Ta’sir xarakteri bo‘yicha	To‘g‘ri	Daromadlar darajasi, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatishning darajasi va hajmi, daromadlar taqsimlanishi xususiyatlari, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati.
	Egri	Iste’mol afzalliklari.
Ta’sir yo‘nalishi bo‘yicha	Ishlab chiqarish	Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning rivojlanganganlik darajasi.
	Iste’mol	Iste’molchilar soni va xususiyatlari, daromadlar darajasi.
O‘lchash imkoniyati bo‘yicha	Miqdor	Daromadlar darajasi, demografik ko‘rsatkichlar, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish hajmi, narxlar darajasi.
	Sifat	Jamiyatning ijtimoiy tarkibi, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati, ishlab chiqarish omillari holati.
Bog‘liqlik shakli bo‘yicha	To‘g‘ri	Daromadlar darajasi, mehnat unumdorligi, bandlik darajasi, daromadlar taqsimotining adolatlilik darajasi, sog‘liqni saqlash qamrovi darajasi, ta’lim sifati va qamrovi, informatsion texnologiyalarning rivojlanganlik darajasi
	Teskari	Aholining ijtimoiy-iqtisodiy tengsizligi, inflyatsiya, ishsizlik darajasi.

Ushbu omillar tahlili asosida aholi farovonligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tizimini aniqlash mumkin. Ushbu omillar bog‘liqligi nuqtai nazaridan tizimli bir ko‘rsatkichga birlashtirilishi lozim. Jahon mamlakatlarida aholi farovonligini o‘lchash metodologiyasini umumlashtirish va yagona andozaga keltirish borasida Birlashgan Millatlar tashkiloti (BMT) va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotlari (IHTT) tomonidan ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan.

BMT metodologiyasi bo‘yicha aholi farovonligini o‘lchashda inson taraqqiyoti indeksidan foydalaniladi (Human Development Index-HDI). Ushbu ko‘rsatkich BMTning Inson taraqqiyoti masalalari bo‘limi tomonidan BMTning riojlanish dasturi doirasida ishlab chiqilgan bo‘lib, 1990 yilda pokistonlik iqtisodchi Mahbub ul Haq tomonidan takomillashtirilgan, uning taklifi bilan farovonlikni o‘lchashda markaziy ob’ekt sifatida daromadlar darajasi va xususiyatlaridan inson taraqqiyoti indeksiga o‘tish amalga oshirilgan.[104]



6.1.2-rasm. Inson taraqqiyoti indeksini hisoblash metodologiyasi.[105]

Inson taraqqiyoti indeksi o‘rtacha umumlashgan integral ko‘rsatkich bo‘lib, o‘z tarkibiga uzoq, sog‘lom umr ko‘rish, aholi savodxonligi va munosib yashash andozalariga egalik kabi masalalarni qamrab oladi.

[104] "The Human Development concept". UNDP. 2010. Retrieved 29 July
[105] http://hdr.undp.org/en/content/human-development-index-hdi

Xalqaro tashkilotlar hisobotlarida ushbu ko‘rsatkichdan hayot sifati yoki turmush darajasini o‘lchashda qo‘llaniladi, jumladan indeks mamlakat rivojlanishini aholi salomatligi, ta’lim darajasi, fuqarolarning real daromadi nuqtai-nazaridan tavsiflashda qo‘llaniladi.

Inson taraqqiyoti indeksi ko‘rsatkichlari quyidagicha hisoblanadi (yangi metodologiya bo‘yicha - 2010):[106]

1. Umr davomiyligi (Life Expectancy Index-LEI).

$\boldsymbol{LEI = \frac{LE-20}{85-20}}$ formula orqali hisoblanadi, bu yerda LE (Life expectancy at birth) – kutilayotgan umr davomiyligi, ya’ni umr davomiyligining o‘rtacha qiymati. Ushbu indeks qiymati 1 chiqishi uchun kutilayotgan umr davomiyligi 85 ga, 0 chiqishi uchun esa 20 ga teng bo‘lishi kerak.

2. Ta’lim indeksi (Education Index- EI).

$\boldsymbol{EI = \frac{MYSI+EYSI}{2}}$ formula yordamida hisoblanadi, bu yerda $MYSI = \frac{MYS}{15}$ ga teng bo‘lib, MYS – aholi savdoxonligi darajasidan kelib chiqib, 25 yoshgacha yoki undan katta yosh guruhlari ta’lim olishining o‘rtacha davomiyligiga teng, ya’ni aholi ta’lim olishni o‘rtacha necha yildan so‘ng to‘xtatishini anglatadi. Masalan, ma’lum bir davr uchun ta’lim olishni 5 kishi 12 yil bo‘lganda, 4 kishi 15 yil bo‘lganda, 2 kishi 9 yil bo‘lganda to‘xtatishgan bo‘lsa, o‘rtacha ta’limning o‘rtacha davriyligi $\frac{5\cdot12+4\cdot15+2\cdot9}{5+4+2} \approx 12{,}54$ ga, $MYSI = \frac{12{,}54}{15} \approx 0{,}84$ ga teng bo‘ladi. Ushbu formuladagi 15 soni 2025 yilgacha ta’limning o‘rtacha davomiyligining prognoz ko‘rsatkichini anglatadi. $EYSI = \frac{EYS}{18}$ ga teng bo‘lib, EYS – ta’limning kutilayotgan davomiyligini bildiradi, ya’ni bolaning maktab, universitetda ta’lim olishi davomiylining o‘rtachasini bildiradi, masalan ma’lum bir davr uchun maktab va oliy ta’limini 5 kishi 14 yilda, 6 kishi 15 yilda, 1 kishi 20 yilda yakunlagan bo‘lsa, ta’limning kutilayotgan davomiyligi $\frac{5\cdot14+6\cdot15+1\cdot20}{5+6+1} = 15$ ga, $EYSI = \frac{15}{18} \approx 0{,}83$ ga teng bo‘ladi. Ushbu ko‘rsatkich ko‘p jihatdan maktab va oliy ta’lim muassasalarida me’yoriy ta’lim davomiyligi bilan bog‘liq, jumladan ayrim mamlakatlarda bakalavr darajasi ta’lim davomiyligi 4 yil bo‘lsa, boshqalarida 3-3,5 yilga teng. Shu bois ushbu ko‘rsatkichning 2025 yilgacha bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichi 18 yil qilib belgilangan, aksariyat mamlakatlarda ushbu ko‘rsatkich magistr darajasiga qadar ta’lim

[106] "Human Development Report 2010". UNDP. 4 November 2010.

davomiyligini anglatadi. Yuqorida keltirilgan misollar asosida ta'lim indeksi ko'rsatkichini hisoblasak $\frac{0,84+0,83}{2} = 0,835$ ga teng bo'ladi.

3. Daromad indeksi (II).

$\boldsymbol{II = \frac{\ln(GNI_{pc}) - \ln(100)}{\ln(75000) - \ln(100)}}$ formula yordamida hisoblanadi. Bu yerda GNI_{pc} – aholi jon boshiga yalpi milliy daromad(YaMD)ga teng, agar u 75 000 AQSh doll. teng bo'lsa, daromad indeksi 1 ga, 100 AQSh dollariga teng bo'lsa, 0 ga teng bo'ladi.

Ushbu uch ko'rsatkichlarning o'rtacha geometrigi orqali inson taraqqiyoti indeksi hisoblanadi. Bu yerda HDI (Human development index) – Inson taraqqiyoti indeksi:

$$\boldsymbol{HDI = \sqrt[3]{LEI \cdot EI \cdot II}}\ .$$

BMTning 2018 yilda taqdim etgan "Inson taraqqiyoti indeksi va ko'rsatkichlari" hisobotida inson taraqqiyoti indeksi ko'rsatkichlari va uni tashkil qiluvchi xususiy ko'rsatkichlar bo'yicha mamlakatlar reytingi keltirilgan.

6.1.2.-jadval

Tanlangan mamlakatlar kesimida inson taraqqiyoti indeksi (2017 y.).[107]

Reyting	Mamlakat	Inson taraqqiyoti indeksi	Kutilayotgan umr davomiyligi (yil)	Ta'limning kutilayotgan davomiy (yil)	Ta'lim olishining o'rtacha davomiyligi (yil)	Aholi jon boshiga yalpi milliy daromad (AQSh doll.)
1	Norvegiya	0,953	82,3	17,9	12,6	68 012
2	Shveysariya	0,944	83,5	16,2	13,4	57 625
3	Avstraliya	0,939	83,1	22,9	12,9	43 560
4	Irlandiya	0,938	81,6	19,6	12,5	53 754
5	Germaniya	0,936	81,2	17,0	14,1	46 136
9	Singapur	0,932	83,2	16,2	11,5	82 503
13	AQSh	0,924	79,5	16,5	13,4	54 941
14	Buyuk Britaniya	0,922	81,7	17,4	12,9	39 116
19	Yaponiya	0,909	83,9	15,2	12,8	38 986
22	Koreya	0,903	82,4	16,5	12,1	35 945

[107] http://hdr.undp.org/en/2018-update

	Respublikasi					
24	Fransiya	0,901	82,7	16,4	11,5	39 254
28	Italiya	0,880	83,2	16,3	10,2	35 299
37	Qatar	0,856	78,3	13,4	9,8	116 818
49	Rossiya	0,816	71,2	15,5	12,0	24 233
58	Qozog‘iston	0,800	70,0	15,1	11,8	22 626
60	Eron	0,798	76,2	14,9	9,8	19 130
64	Turkiya	0,791	76,0	15,2	8,0	24 804
86	Xitoy	0,752	76,4	13,8	7,8	15 270
105	O‘zbekiston	0,710	71,4	12,0	11,5	6 470
115	Misr	0,696	71,7	13,1	7,2	10 355
122	Qirg‘iziston	0,672	71,1	13,4	10,9	3 255
127	Tojikiston	0,650	71,2	11,2	10,4	3 317
130	Hindiston	0,640	68,8	12,3	6,4	6 353
150	Pokiston	0,562	66,6	8,6	5,2	5 311
168	Afg‘oniston	0,498	64,0	10,4	3,8	1 824
189	Niger Respublikasi	0,354	60,4	5,4	2,0	906

Inson taraqqiyoti indeksi(ITI) koeffitsiyet qiymatda hisoblanib, BMT har yili ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha Inson taraqqiyoti hisobotini tayyorlaydi. Hisobotda mamlakatlar inson taraqqiyoti indeksi bo‘yicha quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- ITI o‘ta yuqori bo‘lgan mamlakatlar;
- ITI yuqori bo‘lgan mamlakatlar;
- ITI o‘rtacha bo‘lgan mamlakatlar;
- ITI past bo‘lgan mamlaktlar.

2018 yil hisobotlariga ko‘ra, ushbu guruh chegaralari quyidagicha taqsimlangan.

6.1.3-jadval

ITI bo‘yicha mamlakatlarning guruhlanish chegaralari. (2017 y.)[108]

№	Mamlakatlar guruhi nomi	ITI bo‘yicha chegara		
1	ITI o‘ta yuqori bo‘lgan mamlakatlar	0,800	-	1,00
2	ITI yuqori bo‘lgan mamlakatlar	0,700	-	0,799
3	ITI o‘tacha bo‘lgan mamlakatlar	0,556	-	0,699
4	ITI past bo‘lgan mamlaktlar	0	-	0,555

[108] http://hdr.undp.org/sites/default/files/2018_human_development_statistical_update.pdf

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) 1962 yildan boshlab turli mamlakatlar uchun o‘z fuqarolari farovonligini yaxshilash, aholi turmush farovonligini aniqlash va baholash borasida samarali ijtimoiy siyosat ishlab chiqishda ko‘maklashib kelmoqda. Ko‘p yillik tajribaga asoslangan holda IHTT tomonidan aholi farovonligini hayot sifati va turmush sharoitlari jihatdan aks ettiruvi 11 ta omil ko‘rsatkichlardan tashkil topgan baholash tizim ishlab chiqildi. [109]

JORIY FAROVONLIK KO‘RSATKICHLARI			
Hayot sifati		**Turmush sharoiti**	
	Salomatlik		Daromad
	Ish va dam olish vaqtlari		
	Ta’lim		Ish o‘rinlari
	Jamiyat		
	Fuqarolik huquqlari		Uy-joy sharoiti
	Atrof-muhit va ekologiya		
	Xavfsizlik		
	Sub’ektiv farovonlik		
KELAJAKDA FAROVONLIKNI TA’MINLOVCHI RESURSLAR ***Uzoq muddatli barqaror farovonlikka quyidagilarni ta’minlash orqali erishiladi:***			
	Tabiiy kapital		Inson kapitali
	Iqtisodiy kapital		Ijtimoiy kapital

6.1.3-rasm. IHTT tomonidan ishlab chiqilgan farovonlik va taraqqiyotni o‘lchashning “Farovonlik indeksi” ko‘rsatkichlari tizimi[110]

Yuqorida sanab o‘tilgan 11 ko‘rsatkichlar qator kichik indikatorlardan iborat bo‘lib, IHTT metodologiyasi bo‘yicha har bir indikator ko‘rsatkichlari normallashtiriladi va umumlashtiruvchi ko‘rsatkich ularning o‘rtacha arifmetik darajasini topish orqali aniqlanadi. 6.1.3-jadvalda ushbu indikatorlar to‘g‘risida ma’lumot keltirilgan.

[109] http://www.oecdbetterlifeindex.org/ru/about/ru_whats-your-better-life-index/
[110] https://www.oecd.org/sdd/OECD-Better-Life-Initiative.pdf

6.1.4-javdal

Aholi farovonligini tavsiflovchi IHTT tomonidan ishlab chiqilgan "Farovonlik indeksi" ko'rsatkichining tarkibiy tuzilishi[111]

Farovonlik ko'rsatkichi	Indikator	Tavsifi va o'lchov birligi
Daromad	Uy xo'jaliklari daromadlari	2010 yil baholarida, xarid qobiliyati pariteti bo'yicha jon boshiga AQSh doll.
	Jamg'armalar	Joriy baholarda, jon boshiga AQSh doll.
Ish o'rinlari	Bandlik darajasi	Iqtisodiy faol aholiga nisbatan foizda
	Ish haqi	Asosiy ish joylaridan olinadigan o'rtacha yillik daromad, xarid qobiliyati pariteti bo'yicha AQSh doll.
	Mehnat sug'urtasi	Ishsizlar sonining yillik o'zgarish sur'ati, foizda (ishlovchilarning ishsizlar qatoriga qo'shilish ehtimolligi)
	Uzoq muddatli davrda ishsizlik ko'rsatkichi	Bir yil yoki uzoq muddatli davrda ishsiz bo'lganlarning ishchi kuchi tarkibidagi ulushi, foizda
Ish va dam olish vaqtlari	Ish vaqti davomiyligi	Hafta davomida 50 soat va unda ortiq ishlovchilarning yalpi ishchi kuchidagi ulushi, foizda
	Bo'sh vaqt	To'liq shtatda band bo'lganlarning kun davomidagi bo'sh vaqti (dam olish, oila va o'zi uchun) davomiyligi, soat
Uy-joy sharoiti	Jon boshiga to'g'ri keluvchi xonalar soni	Jon boshiga to'g'ri keluvchi xonalarning o'rtacha soni (oshxona, xojatxona, yuvinish xonasi, garaj va yer to'lalardan tashqari), dona
	Uy-joy xarajatlari	Uy-joy va kommunal xarajatlarining yalpi tasarrufdagi daromaddagi ulushi, foizda
	Sanitariya holati	Kanalizatsiyasiz xojatxona tizimiga ega bo'lgan kishilarning ulushi, foizda
Atrof-muhit va ekologiya	Ichimlik suvi sifati	Ichimlik suvi sifatidan qoniqish hosil qilgan kishilarning ulushi, foiz
	Havo musaffoligi	Bir metr kub havo tarkibidagi zaharlovchi moddalar, gramm
Salomatlik	Kutilayotgan umr davomiyligi	Aholi umr davomiyligining o'rtacha qiymati, ya'ni tug'ilgan chaqaloqning kutilayotgan umr davomiyligi
	Sub'ektiv salomatlik	O'zlarining sog'ligi yaxshi ekanligini yoki sog'lomligini tan oluvchilar ulushi, foiz
Ta'lim	Savodxonlik darajasi	25-64 yosh guruhlari o'rtasida kamida o'rta-umumiy ta'limga ega kishilarning ulushi, foiz.

[111] http://www.oecdbetterlifeindex.org./ru/about/ru_whats-your-better-life-index/

	Kognitiv qobiliyat darajasi	IHTTning xalqaro o‘quvchilar dasturi bo‘yicha ularning o‘qish, matematika va ilm-fan bo‘yicha olgan o‘rtacha bahosi, 15 yoshlilarning kognitiv qobiliyatlari o‘lchovi (PISA)
	Kompetentlik darajasi	IHTTning xalqaro mutaxassislar dasturi bo‘yicha ularning savodxonlik va hisob-kitob bo‘yicha olgan o‘rtacha kompetentlik darajasi, 16-65 yosh guruhidagi aholining kompitentlik darajasi (PIAAC)
Jamiyat	Jamiyat ko‘magi	Og‘ir sharoitlarda qarindoshlar va do‘stlari yordam berishiga ishonuvchi kishilar ulushi, foizda
Fuqarolik huquqlari	Saylovlarda ovoz beruvchilar soni	Saylovlarda berilgan ovozlarning ovoz berish huquqiga ega bo‘lganlarga foiz nisbati
Xavfsizlik	Qotilliklar soni	Har 10 000 kishiga to‘g‘ri keluvchi qotilliklar soni
	Jinoyatlardan jabr ko‘rganlar soni	Bir yil davomida jinoyatchilikdan jabr ko‘rib ariza bergan aholi ulushi, foizda
Sub’ektiv farovonlik	Kantril narvoni bo‘yicha farovonlik	“Kantril narvoni” shkalasi bo‘yicha 0-10 ballgacha aholining o‘z farovonligini baholashi, ball

Normallashtirish quyidagi formula bo‘yicha amalga oshiriladi:[112]

$$\overline{X_i} = \frac{X_i - X_{min}}{X_{max} - X_{min}}$$

Bu yerda X_i-normallashtirilishi lozim bo‘lgan ko‘rsatkich, X_{max}- ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha guruhdagi maksimal qiymat, X_{min}- ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha guruhdagi minimal qiymat va $\overline{X}_i$- normallashtirilgan qiymat (koeffitsiyent).

“Farovonlik indeksi”ni tashkil etuvchi tarkibiy indikatorlar IHTTga a’zo mamlakatlar rasmiy statistik hisobotlari, BMTning statistika bo‘limi hisobotlari, davlat statistika agentliklari ma’lumotlari asosida shakllantiriladi. Ushbu indeksga kiruvchi ayrim ko‘rsatkichlar butun jahon Gellapa so‘rovlari (Gallup World Poll) natijalari asosida hisoblanadi, ushbu so‘rovlar Gellap Instituti tomonidan o‘tkazilib, dunyoning 140 dan ortiq mamlakatlarini qamrab oladi.[113] Shu bois “Farovonlik indeksi”ning “Inson taraqqiyoti indeksi”dan farqli jihati, ushbu ko‘rsatkichga kiruvchi ayrim indekslar bevosita respondentlarning

[112] http://www.oecdbetterlifeindex.org/ru/about/ru_whats-your-better-life-index/#question16
[113] https://www.gallup.com/home.aspx

javoblari asosida olinadi, ikkinchisida esa ko‘rsatkichlar ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida hisoblanadi. Tahlillar ko‘rsatishicha, “Farovonlik indeksi” “Inson taraqqiyoti indeksi”ga nisbatan sub’ektiv ko‘rsatkichdir.

6.1.4.-jadval

Farovonlik indeksi, 2017 yil.[114]
(normallashtirilgan ko‘rsatkichlarda)

№	Ko‘rsatkichlar	Tanlangan mamlakatlar						
		Norvegiya	**AQSh**	**Germaniya**	**Buyuk Britaniya**	**Fransiya**	**Yaponiya**	**Rossiya**
1.	Daromad	4,3	10,0	5,0	5,0	4,7	5,4	0,9
2.	Ish o‘rinlari	8,7	8,6	8,2	8,0	6,8	8,0	6,6
3.	Ish va dam olish vaqtalari	8,5	5,8	8,3	6,2	8,9	4,8	8,1
4.	Uy-joy sharoiti	8,6	8,7	7,1	6,4	6,9	6,1	4,8
5.	Atrof-muhit va ekologiya	9,4	7,0	7,2	6,8	6,0	6,4	2,5
6.	Salomatlik	8,8	9,0	7,3	7,8	7,9	5,3	3,6
7.	Ta’lim	7,1	6,6	7,5	6,2	5,8	7,5	6,5
8.	Jamiyat	8,1	6,3	7,2	7,7	5,6	6,1	6,2
9.	Fuqarolik huquqlari	5,6	6,8	5,1	6,4	5,5	1,5	2,0
10.	Xavfsizlik	9,9	7,8	8,8	9,0	8,2	8,3	4,5
11.	Sub’ektiv farovonlik	10,0	7,8	7,9	6,9	5,9	4,0	4,2
	Umumiy o‘rtacha	**8,09**	**7,67**	**7,24**	**6,95**	**6,56**	**5,76**	**4,54**
	Farovonlik indeksi reytingidagi o‘rni	**1**	**8**	**13**	**16**	**18**	**23**	**33**

Yuqorida keltirilgan aholi farovonligini ifodalovchi ko‘rsatkichlardan tashqari yana qator ko‘rsatkichlar mavjud bo‘lib, ular o‘z tarkibiga BMT tomonidan aholi farovonligini tavsiflovchi

[114] http://www.oecdbetterlifeindex.org/ru/#11111111111

indikatorlar[115] sifatida tavsiya etilgan tug‘ilish va o‘lim koeffitsiyenti, umr davomiyligi, sanitariya-gigiyena sharoitlari, oziq-ovqat iste’moli darajasi, uy-joy sharoitlari, ta’lim, madaniyat, mehnat sharoitlari va bandlik, daromadlar va xarajatlar, iste’mol narxlari darajasi, transport ta’minoti, dam olish sharoitlari, ijtimoiy ta’minoti tizimi, inson huquqlari va erkinliklari kabi ko‘rsatkichlarni qamrab oladi.

6.2. Umumjamiyat farovonligi davlati

Ijtimoiy siyosatda davlat tushunchasi mohiyati keng qamrovli bo‘lib, uni aniqlashda qator elementlardan foydalaniladi. Davlat konsepsiyasiga muvofiq ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning quyidagi turlari mavjud: birinchi guruh olimlar davlat ijtimoiy himoya va ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlashi zarur deb hisoblasalar; ikkinchi guruh iqtisodchi olimlar esa davlat tushunchasi maxfiylik va boshqaruv ma’nosini anglatadi; uchinchi guruh olimlar esa davlatga katta kuch sifatida qaraydilar. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar ko‘rsatishicha, davlat tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, davlat siyosati maqsadidan kelib chiqqan holda davlat va jamiyat a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar sifatida ta’riflanadi.

Ijtimoiy siyosatda “umumjamiyat farovonligi davlati” (welfare state) tushunchasi keng qo‘llaniladi. Tahlillar ko‘rsatishicha, aholi turmush farovonligini belgilovchi oziq-ovqat, bosh-pana, ta’lim, sog‘liqni saqlash kabi turli ijtimoiy xizmatlar davlat sektori idoralari tomonidan amalga oshiriladi.

Oksford lug‘atiga ta’rifiga ko‘ra umumjamiyat farovonligi davlati (welfare state) shunday tizimki, unda davlat o‘z fuqarolarining, jumladan ijtimoiy va moliyaviy jihatdan muhtojlarning salomatligi va turmush farovonligini, pensiyalar va nafaqalar berish orqali oshirish majburiyatini oladi.[116] “Umumjamiyat farovonligi davlati” konsepsiyasi XX asrning 40-yillarida paydo bo‘lgan va keng ma’noda davlatning ijtimoiy va iqtisodiy siyosatdagi o‘rnini ifodalovchi tushuncha sifatida qabul qilingan.[117] O‘tgan yarim asrdan ko‘proq davrda rivojlangan mamlakatlar demokratik “umumjamiyat farovonligi davlati”ga aylanishdi, ya’ni iqtisodiy rivojlanish maqsadida to‘liq bandlikni ta’minlash, yoshlar uchun teng imkoniyatlarni yaratish, mintaqa va ijtimoiy guruh aloqadorligidan qat’iy nazar aholining barcha qatlamlari

[115] Хисамутдинов И. А.Основы экономики и теории рынка, 2010, глава 20.3— Уровень жизни и методы его оценки
[116] https://en.oxforddictionaries.com/definition/us/welfare_state
[117] Titmuss, R. M.: Essays on the Welfare State, Allen and Unwin, London, 1958.

uchun ijtimoiy ta'minot, minimal standartlar va oziq-ovqat, uy-joy, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlari bilan ta'minlash masalalari bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasigna olgan davlatga aylanishdi.[118] A.Brigs tomonidan "umumjamiyat farovonligi davlati"da hukumat bozor kuchlarini quyidagi uch yo'nalishlarda o'zgartiradi deb ta'riflanadi:[119]

-mehnatning bozor qiymati va mulkidan qat'iy nazar alohida shaxslar va oilalar uchun minimal daromadni ta'minlash;

-ma'lum "ijtimoiy sharoiti"da bo'lgan kishilar uchun (kasal, qari va ishsiz kishilarga) ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash (ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlikning yo'qligi individual va oilaviy tanazzullarga olib keladi);

-ijtimoiy holati va kelib chiqishidan qat'iy nazar zarur ijtimoiy xizmatlarning(ta'lim, sog'liqni saqlash, xavfsizlik va h.k.) sifatli me'yorini taqdim etilishini kafolatlash;

R.M. Titmuss "umumjamiyat farovonligi davlati" funksional vazifasiga ko'ra: "... barcha resurslarni anglangan holda ijtimoiy qabul qilingan "ehtiyojlarni" qondirish uchun taqsimlashdan iborat bo'lib, birinchidan, jamiyatni yaxlit faoliyat ko'rsatish harakati; ikkinchidan esa, aholining ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlarini himoyalash jamiyatning barcha a'zolari tomonidan kelishilgan" degan ta'rifni keltiradi.[120]

Iqtisodchi olim Esping-Andersenning fikriga ko'ra "umumjamiyat farovonligi davlati" o'z fuqarolari farovonligini ta'minlovchi minimum shart-sharoitlarni ta'minlashga mas'uldir.[121]

Aholi farovonligini ta'minlashda davlat markaziy o'rinni egallaydi. Davlat – muayyan geografik hududda qonuniy boshqaruvning monopol huquqiga ega bo'lgan markazlashgan majburiy siyosiy tashkilotdir.[122] Iqtisodiyotga aralashuvi nuqtai nazaridan liberal va farovonlik davlatlarini farqlash mumkin.[123] Iqtisodiy adabiyotda farovonlik davlatining pirovard maqsadi fuqarolari farovonligini oshirishdan iboratdir. Aholi farovonligi darajasi ustun darajada amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat samaradorligiga bog'liq bo'ladi.

---

[118] Myrdal, G.: Beyond the Welfare State: Economic Planning and Its International Implications, Yale University Press, New Haven, 1960, 45.
[119] Briggs, A.: The Welfare State in Historical Perspective, European Journal of Sociology, 2(1961)/2, 228.
[120] Titmuss, R. M.: Essays on the Welfare State, Allen and Unwin, London, 1958, 39.
[121] Esping-Andersen, G.: The three Worlds of Welfare Capitalism, Princeton University Press, Princeton, NJ., 1990, 18–19.
[122] Erika Cudworth, Timothy Hall, John McGovern/ The Modern State: Theories and Ideologies 1st Edition
[123] Roger E. Backhouse, Bradley W. Bateman, Tamotsu Nishizawa, and Dieter Plehwe/ Liberalism and the Welfare State:Economists and Arguments for the Welfare State

Davlatning aholi farovonligini oshirish uchun olib boradigan ijtimoiy siyosatini ikki turga ajratish mumkin:[124]

- taqsimlash va qayta taqsimlash siyosati;
- tartibga solish va nazorat siyosati.

Taqsimlash va qayta taqsimlash siyosati pul ko‘rinishdagi ijtimoiy yordam va aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan maqsadli ijtimoiy dasturlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu dasturlarga ta’lim, soliq, ijtimoiy sug‘urta xizmatlarini kiritish mumkin.

Davlat tomonidan ijtimoiy siyosatni tartibga solish va nazorat siyosati tegishli qonun va me’yorlarga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Ijtimoiy ta’minot xizmatlari xususiy va tijorat tashkilotlari, notijorat tashkilotlar, jamoatchilik tashkilotlari, davlat va nodavlat sektor tashkilotlarining moliyaviy manbalari hisobidan moliyalashtiriladi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ijtimoiy ta’minotni amalga oshirishning turli yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, ular sog‘liqni saqlash, ta’lim sohalari, bola tarbiyasi, pensiya ta’minoti va uy-joy kommunal xizmatlarida o‘z aksini topadi. Ushbu chora-tadbirlar tizimi keng qamrovli bo‘lganligi sababli uni moliyalashtirishda davlat byudjeti va nodavlat tashkilotlarning moliyaviy manbalaridan keng foydalaniladi. Ushbu holat “farovonlikka yo‘naltirilgan aralash iqtisodiyot”ga xos xususiyatlar hisoblanadi.[125]

XX asrning oxirida ijtimoiy siyosatni moliyalashtirishda davlat va nodavlat sektorlarining ishtirok etish darajasini aniqlashga qaratilgan turli muzokaralar bo‘lib o‘tdi. 1940-yildan to 1970-yilning o‘rtalariga qadar bo‘lgan muddatda ijtimoiy siyosat chora-tadbirlari davlat dasturi tomonidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, 1980-yillarga kelib notijorat tashkilotlari faoliyatida ijtimoiy siyosat chora-tadbirlariga katta e’tibor qaratildi. 1990-yildan boshlab aholi farovonligi ta’minlashga qaratilgan xizmatlarni moliyalashtirishda davlat va nodavlat sektorlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. 2010-yildan boshlab esa ijtimoiy siyosat dasturlarini moliyalashtirishda nodavlat tashkilotlari ulushi va mavqeini oshirishga katta e’tibor qaratildi.[126]

Iqtisodiy adabiyotda davlat tushunchasi mohiyatini ochib berishga qaratilgan qator ilmiy qarashlar mavjud bo‘lib, ular davlat hokimiyati mohiyatini tushunishga ko‘mak beradi. Jumladan, liberal

[124] Social policy. P. 120
[125] Social policy. P. 210
[126] Social policy. P. 210

demokratlarning plyuralistik nazariyasiga ko‘ra, davlat boshqaruvini amalga oshirishda hokimiyat turli guruhlar va tashkilotlar o‘rtasida taqsimlanadi. Marksistik ta’limotga ko‘ra esa, hokimiyat ma’lum bir darajada cheklangan bo‘lishi talab etiladi.

“Umumjamiyat farovonligi davlati”ning amal qilishida hukumatning tutgan o‘rnini baholashda uning funsiyalari muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayonda davlatning boshqaruv darajalarini farqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Markaziy hukumatda parlament, vazirlar mahkamasi va qator hukumat idoralari faoliyatiga jiddiy e’tibor qaratiladi. Davlatning ta’lim, sog‘liqni saqlash, pensiya va nafaqalarni to‘lash, ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilayotgan barcha ijtimoiy soha xarajatlari G‘aznachilik tashkiloti tomonidan boshqariladi.[127]

Mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy ta’minot xizmatlari mahalliy hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladi.[128]

1979-yilda Konservatorlar partiyasi vakillari Margeret Tetcher va Djon Meydjorlarning hukumatlari ijtimoiy siyosatda davlatning aholi farovonligini ta’minlashdagi rolini qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.[129] Xususiy sektorda biznes sohasini rivojlantirish davlat sektorining amal qilishidan samaraliroq bo‘ladi va “menedjerializm”ning vujudga kelishiga turtki bo‘ldi. 1988-yildan boshlab davlat boshqaruvida qator o‘zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, davlat mulkini xususiylashtirish orqali bozor mexanizmidan keng foydalanish, majburiy konkurslar (birja sotuvi) asosida savdoni yo‘lga qo‘yish, davlatning ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish jarayoniga bozor mexanizmini tadbiq etish (ta’lim va sog‘liqni saqlash), davlatning ijtimoiy ta’minot xizmatlarini amalga oshirishida tijorat va notijorat tashkilotlari, xususiy sektorning qatnashuvini ta’minlash kabi tadbirlar amalga oshirildi.

1997-yilda leyboristlar hukumatining davlat tepasiga kelishi natijasida davlatga ijtimoiy farovonlikka erishishni rag‘batlantiruvchi kuch sifatida qaraldi va boshqa nodavlat sektori vakillari esa ijtimoiy ta’minot xizmatlarini yetkazib beruvchi maqomini oldi.[130]

2008–2010-yillarda jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining sodir bo‘lishi natijasida, ko‘pgina mamlakatlar moliya tizimida byudjet

[127] Social policy. P. 210
[128] Social policy. P. 211
[129] Social policy. P. 211
[130] Social policy. P. 212-213

taqchilligi vujudga kela boshladi va 2010-yildan boshlab esa davlatning ijtimoiy sohaga sarflanadigan xarajatlarini qisqartirishga alohida e'tibor qaratildi.[131]

6.3. Davlat va tijorat tashkilotlari ijtimoiy xizmatlarining rivojlanishi

Ijtimoiy ta'minot xizmatlari bozorida tijorat tashkilotlari ijtimoiy tovar va xizmatlarni sotish yoki sotib olish jarayonida ma'lum darajada qatnashadilar. Ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatuvchi sotuvchilari ijtimoiy xizmatlar bozorida foyda olish maqsadida qatnashadilar va ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar aholi turmush farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu xizmatlarni iste'molchilari mamlakat fuqarolari hisoblanadi. Ijtimoiy xizmatlarni xarid qilishda to'lovlar individ, yoki turli tashkilot, davlat muassasalari tomonidan to'lanadi. Ijtimoiy xizmatlar bozorida sotilayotgan tovar va xizmatlar turlari har bir uy xo'jaligi uchun ulardan foydalanish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy ta'minot xizmatlarini barcha fuqarolar uchun bir me'yorda ko'rsatilishi sababini aniqlashda quyidagi tamoyillarga asoslaniladi.[132]

Birinchidan, ijtimoiy ta'minot xizmatlari fuqarolarning birlamchi iste'mol tovar va xizmatlariga bo'lgan talabini qondirishi zarurligi va uning davlat tomonidan kafolatlanganligidir. Ushbu jarayonda davlat o'z fuqarolarining birlamchi iste'mol tovarlari va xizmatlarini istemoli uchun yetarli shart-sharoitlar yaratishi zarur bo'ladi. Jumladan sog'liqni saqlash xizmatlarini ko'rsatish orqali aholi salomatligini ta'minlashga erishildi. Ushbu xizmatlarni ko'rsatish davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Xizmatlarning narxi davlat tomonidan nazorat qilinadi va barcha uchun me'yoriy ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilishini kafolatlanganligini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, ijtimoiy ta'minot xizmatlarini ko'rsatishda bozor mexanizmi va dastaklarini samarasizligi. Ijtimoiy xizmatlarni iste'molchiga yetkazib berishda bozor mexanizmidan keng foydalaniladi. Jumladan, turli tijorat tashkilotlari ijtimoiy ta'minot xizmatlari bozorida yetkazib beruvchi vazifasini bajaradilar. Ijtimoiy ta'minot tizimi tovar va xizmatlarini ishlab chiqarishni moliyalashtirishda davlat yetakchi o'rinni egallaydi.

---

[131] Social policy. P. 213-214
[132] Social policy. P. 215-216

Ijtimoiy ta’minot xizmatlariga davlat byudjeti mablag‘larining moliyalashtirilishini rejalashtirish jarayonida ijtimoiy xizmatlar bozoridagi tovar va xizmatlarga bo‘lgan talab va uning iste’molchilari uchun qoniqarli bo‘lgan narx darajasini aniqlash lozim bo‘ladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko‘rsatishicha, sog‘liqni saqlash xizmatlaridan fuqarolar tomonidan foydalanish jarayonida ushbu xizmatlarga to‘lanadigan to‘lovning ma’lum bir qismi uning iste’molchisi hisoblangan fuqaro tomonidan to‘lansa, qolgan qismi ish beruvchi tashkilot tomonidan to‘lanadi. Aholining ijtimoiy nochor qatlamlari uchun esa davlat byudjeti tomonidan ajratilgan moliyaviy aktivlar hisobidan to‘lovlar amalga oshiriladi.[133]

XXI asr boshlarida jahonda ijtimoiy ta’minot xizmatlarini ko‘rsatishda davlat bilan birgalikda tijorat tashkilotlari faol ishtirok etmoqdalar. Jumladan, bir yoki bir necha kishining ishtirokida tuzilgan turli aksionerlik jamiyatlari, jamoatchilik tashkilotlari faoliyati ommaviylashgan. Ushbu tashkilotlarni shakllantirish jarayonida yirik xorijiy investorlarni jalb qilish amaliyoti keng qo‘llanilmoqda. Jumladan, yirik transmilliy korporatsiyalar tomonidan farmatsevtika dori-darmon vositalarini ishlab chiqarilishi ijtimoiy xizmatlar bozorida tijorat tashkilotlarining faol qatnashayotganligidan dalolat beradi.

Jahon amaliyoti ko‘rsatishicha, ijtimoiy ta’minot xizmatlari bozorida davlat va xususiy sektorning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyati ustun darajada tarqalgan. Bunda davlat xususiy sektorida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarga ijtimoiy ta’minot xizmatlarini ko‘rsatish uchun o‘z byudjetidan ma’lum bir miqdorda mablag‘lar ajratadi. Firmalarga foyda normasini yo‘qotmasligi kafolatlanadi, ijtimoiy tovar va xizmatlar narxlarining haddan tashqari keskin oshib ketmasligining oldi olinadi. Jumladan, hukumatning sanksiyalangan ijtimoiy sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish jarayonini oladigan bo‘lsak, bunda nodavlat fondlarning faoliyati ko‘zga tashlanadi. Fuqarolarning turli ijtimoiy sug‘urta fondlarida (tibbiy sug‘urta, pensiya fondi va boshqalar) sug‘urtalanishlarini moliyalashtirish to‘lovlari ishchilar va ish beruvchi tashkilotlar tomonidan to‘lanadi. Ushbu holat navbatida ijtimoiy ta’minot xizmatlarini ko‘rsatishda davlat va xususiy sektorning o‘zaro hamkorligini bildiradi.[134]

AQSh amaliyoti tahlili ko‘rsatishicha, ushbu mamlakatda tijorat tashkilotlarining ijtimoiy ta’minot xizmatlari bozoridagi yetakchi o‘rinni

[133] Social policy. P. 217-218
[134] Social policy. P. 218-219

egallaydi. Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy shifoxonalar faoliyati keng yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa ijtimoiy xizmatlardan foydalanish uchun ijtimoiy to‘lovlarning nisbatan yuqori darajada bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Ushbu xizmatlardan foydalanish jarayonida jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlari va guruhlari o‘rtasida nomutanosibliklar vujudga keldi. Ushbu misollar davlatning ijtimoiy xizmatlar bozoridagi faoliyati samarali ekanligidan dalolat beradi.

6.4. Ijtimoiy ta’minot va mehnatni muhofaza qilish. Ixtiyoriy ijtimoiy ta’minot

Ijtimoiy munosabatlarning rivojlanib borishi jarayonida ijtimoiy ta’minot xizmatlarining ahamiyati ortib boradi. Ijtimoiy ta’minot xizmatlaridan barcha aholi qatlamlari tomonidan foydalanish imkoniyatiga erishish mehnatkashlarga to‘lanadigan ish haqining yuqori darajada bo‘lishini talab etadi. Ish haqining yuqori bo‘lishi fuqarolarning sog‘liqni saqlash, ta’lim xizmatlaridan foydalanishi va o‘zlarining shaxsiy iste’molini qondirishga zamin yaratadi. Ushbu holat ish beruvchilar tomonidan o‘z xodimlarining ijtimoiy xavfsizligini ta’minlashga imkon yaratdi.

Ijtimoiy ta’minot xizmatlarini amalga oshirishda fuqarolik huquqlarini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik huquqlari shaxslarning ijtimoiy ta’minot xizmatlaridan foydalanishining davlat tomonidan kafolatlanganligini ta’minlashi zarur bo‘ladi. Ijtimoiy fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi nazariy qarashlarning asosida har bir fuqaroning jamiyat hayotida faol qatnashish huquqiga ega bo‘lish g‘oyasi yotadi. Bunda davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan ijtimoiy ta’minot xizmatlaridan foydalanish har bir fuqaro uchun cheklanmaganligida namoyon bo‘ladi. Ushbu holat ijtimoiy adolatning shakllanishi va qaror topishiga asos bo‘ladi.[135]

Aholini ijtimoiy teng huquqliligini ta’minlashda fuqarolarning siyosiy va yuridik huquqlaridan teng foydalanishiga zamin yaratish zarur. Bu esa o‘z navbatida fuqarolarning teng huquqliligi tamoyilini o‘zida aks ettiradi.

Shaxs ma’lum bir huquqqa ega bo‘lishi uchun ma’lum bir davlatning fuqarosi bo‘lishi talab etiladi. Fuqarolik insonga jamiyatda farovonlikni ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy ta’minot xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Fuqarolikni qo‘lga kiritishning shartli va shartsiz

[135] Social policy. P. 255-256

shakllari mavjud. Shartli fuqarolik huquqiga ega bo‘lish holati odatda migratsiya jarayonlari sodir bo‘lganda namoyon bo‘ladi. Masalan bir davlatdan boshqa bir davlatga borib, u yerda ma’lum bir muddat istiqomat qilgandan so‘ng shaxsga o‘sha davlatning fuqaroligi beriladi. Shartsiz fuqarolik huquqiga ega bo‘lish holati esa bevosita ma’lum bir mamlakatda tug‘ilishi va o‘sha davlatda umrini davom ettirishi orqali amalga oshiriladi.[136]

Umuman, fuqarolik huquqi – bu bir shaxsga tegishli bo‘lgan huquqni o‘z ichiga oluvchi universal huquq turi hisoblanadi. Fuqarolik huquqi insonlarning ijtimoiy, iqtisodiy, yuridik va boshqa shu kabi xizmat turlaridan foydalanishga imkon beruvchi huquq turidir.

Mehnat munosabatlarining rivojlanib borishi ish beruvchi va xodim o‘rtasida ijtimoiy ta’minot xizmatlaridan foydalanish yozma shartnoma yoki og‘zaki kelishuv asosida amalga oshirilishiga olib keldi. Jahon amaliyoti ko‘rsatishicha, ijtimoiy ta’minot xizmatlari bozorida mehnatni muhofazalash turli ijtimoiy sug‘urtalarni amalga oshirish orqali namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi jarayonida iqtisodchi olimlar T. Bler va G. Braunlar tomonidan majburiy sug‘urta sxemalari taklif etilgan. Bunda asosiy e’tibor pensiya ta’minotiga qaratildi va davlatning minimal pensiya badallari joriy etildi. Ushbu holat keksalik davrida aholining farovon turmush kechirishi uchun zamin yaratdi. 1980 yilga kelib Buyuk Britaniya mehnat bozorida band bo‘lgan aholining qariyb yarmi pensiya sug‘urtasi bilan sug‘urtalandi.[137]

Aholini pensiya sug‘urtasi bilan ta’minlanishi leyboristlarning ijtimoiy dasturlarining strategik maqsadi hisoblandi. 2000-yilda fond bozoridagi beqarorlikning vujudga kelishi va 2008-yilda jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining sodir bo‘lishi bilan bir qatorda, aholini tabiiy o‘sishi pasayishi va insonlarning umr davomiyligi ko‘rsatkichi ortib borishi natijasida jahon mamlakatlari pensiya ta’minoti tizimida moliyaviy muammolar vujudga kela boshladi. Natijada ijtimoiy sug‘urta bozorida boshqaruv shakli va soliq yuklarining o‘rgartirish zarurati tug‘ildi.

Mehnat munosabatlarning rivojlanib borishi ish joylarida tibbiy xizmat ko‘rsatish va ijtimoiy yordamning tashkil etilishiga turtki bo‘ldi. Ushbu chora-tadbirlar dasturi doirasida yosh ota-onalarga moddiy yordam berish, ularga ish haqi saqlangan va saqlanmagan holda mehnat

[136] Social policy. P. 257-259
[137] Social policy. P. 221-223

ta’tili berish, ayollarga tug‘ruq oldi va tug‘ruqdan keyingi davr uchun dekret ta’tili berish kabi ishlar amalga oshirilgan.

Ijtimoiy ta’minot dasturlari doirasida mehnatni muhofazalash chora-tadbirlarini amalga oshirilishi natijasida quyidagilarga erishildi:

- davlatning ijtimoiy xizmatlaridan foydalanishda iqtisodiy samaradorlikka erishildi;
- ishchi xodimning mehnat unumdorligining ortishi;
- bandlik darajasining ortishi;
- jamiyat aholisi farovonligining ortishi.[138]

“Ixtiyoriy ijtimoiy ta’minot” – bu davlat sektori va bozor sub’ektlarining ijtimoiy farovonlikni ta’minlashdagi qamrov doirasining kengligidan dalolat beradi.[139] Ijtimoiy ta’minot xizmatlari ta’sir doirasining kengayishida notijorat tashkilotlari faoliyatiga alohida e’tibor qaratiladi. Ijtimoiy siyosat tizimli chora-tadbirlari dasturini amalga oshirishda notijorat tashkilotlarining vazifalari belgilab beriladi. Bu orqali ijtimoiy kapital va ijtimoiy tashkilotlarning faoliyatlari samaradorligiga erishiladi.

Ijtimoiy ta’minot xizmatlarini ko‘rsatishda davlat sektori va bozor sub’ektlari o‘rtasidagi majburiyatlarning taqsimlanishi natijasida ayrim vazifalarni bajarishda ularga yordam beruvchi ingrediyent faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa o‘z navbatida notijorat sektorning rivojlanishiga zamin yaratdi. Notijorat sektorning ijtimoiy siyosat chora-tadbirlari doirasida faoliyat yuritishiga oid iqtisodiy qarashlar o‘nglar partiyasining “bozor dogmasi” va so‘llar partiyasining “etatizm” ijtimoiy modellarida o‘z ifodasini topadi. Bunda notijorat sektor ijtimoiy siyosat chora-tadbirlari dasturini amalga oshirishdan ko‘zlangan maqsadga erishishda yordam beruvchi – to‘ldiruvchi vazifasini bajaradi.

6.5. Uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish

Uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish – bu yaqin qarindoshlar, do‘st-birodarlarning ko‘magida, uyda pullik ijtimoiy, tibbiy xizmatlar ko‘rsatish, ijtimoiy muhtoj kishilarni uyda parvarishlash va ularga g‘amxo‘rlik qilishni anglatadi.[140]

Uyda parvarishlash bo‘yicha ijtimoiy xizmatlar quidagi turlarni o‘z ichiga oladi:

---

[138] Social policy. P. 224
[139] Social policy. P. 228
[140] Social policy. P. 234-235

• maishiy xizmat ko‘rsatish, shu jumladan oziq-ovqat va gigiyena mahsulotlarini, dori vositalarini va tibbiy buyumlarni xarid qilish hamda uyga yetkazib berish;

• ovqat tayyorlashda, xonalarni yig‘ishtirish va tozalashda, shaxsiy gigiyena tadbirlarini amalga oshirishda ko‘maklashishi;

• zarur tibbiy yordam ko‘rsatishda ko‘maklashish, tibbiy ko‘rsatmalarga ko‘ra protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya texnik vositalari bilan ta’minlash.

Uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatishda oila a’zolari yoki boshqa shaxslarning xizmatlaridan foydalanish mumkin bo‘ladi. Uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatishning quyidagi turlari mavjud:

- shaxsiy yoki fiziologik parvarish – o‘zgalar tomonidan qarovga muhtoj kishiga harakatlanishi, ovqatlanishi, dori-darmonlarni iste’mol qilishi, hojatini chiqarishi, cho‘milishi, yotib-turishi kabi vaziyatlarda ko‘maklashish tushuniladi.

- amaliy yordam ko‘rsatish – ovqat tayyorlash, bozordan iste’mol tovarlari xaridini amalga oshirish, uy-joylarni yig‘ishtirish kabi vaziyatlarda xizmat ko‘rsatish tushuniladi.

- ijtimoiy jihatdan qarovga muhtoj kishilarga uyda qarab turish – turli xavfli vaziyatlarning oldini olish maqsadida parvarishni amalga oshirish tushuniladi.[141]

Uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish amaliyoti tahliliga ko‘ra, ayrim turdagi nogiron kishilar, parvarishga muhtoj keksalar o‘zlarini parvarish qilayotgan kishilar bilan shartnoma asosida o‘z pul mablag‘laridan foydalanish huquqini berayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu faoliyatdan ko‘zlangan maqsad axborot olish va turli ijtimoiy xizmatlardan foydalanishga imkoniyat yaratish hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lgan kishilar yashaydigan uyda parvarishlash xizmatlaridan keng foydalaniladi. Uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish xizmatini yo‘lga qo‘yish orqali aholi bandligi darajasi ijobiy tarafga o‘zgaradi. Uyda o‘zgalar parvarishiga muhtoj kishilarga xizmat ko‘rsatayotgan shaxslar bevosita o‘sha uyda ma’lum bir vaqt mobaynida (ma’lum bir soat, kun, xafta yoki bir necha oy, yil davomida) istiqomat qilishlari mumkin bo‘ladi. Ijtimoiy xizmat ko‘rsatilayotgan shaxsning parvarishga bo‘lgan muhtojligi yo‘qotilganligi davridan boshlab ularning xizmatidan foydalanish to‘xtatiladi.[142]

---

[141] Social policy. P. 235
[142] Social policy. P. 235-239

Ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishning an’anaviy shakli uzoq yillar mobaynida ayollarning uyda o‘z oila a’zolariga, farzandlariga qarab turishda namoyon bo‘ladi. Hozirda ushbu xizmatda band bo‘lganlarning aksariyat qismini ayollar tashkil etadi.

6.6. Ijtimoiy ta’minotni moliyalashtirishda davlat va bozor mexanizmi o‘rtasidagi nisbat

Umumxalq farovonligi davlati amal qilishi sharoitida ijtimoiy ta’minot xizmatlaridan foydalanish barcha uchun bir me’yorda bo‘lishi zarur. Aholining barcha ijtimoiy qatlamlarining ushbu xizmatlardan foydalanishini tartibga solish uchun jamiyatda minimal yashash turmush darajasi belgilanadi. Ushbu daraja ijtimoiy nochor aholi qatlamlarining ijtimoiy ta’minot xizmatlaridan foydalanishda davlat tomonidan ko‘maklashish mezonini belgilashda qo‘llaniladi.

Ko‘pchilik iqtisodchi olimlarning fikricha jamiyat hayotida ijtimoiy ishni rivojlantirish orqali fuqarolarning ijtimoiy muammolarini mustaqil tarzda hal etishlarini ta’minlash zarur. Bu esa o‘z navbatida davlatning ijtimoiy ta’minot chora-tadbirlari dasturini moliyalashtirishga ajratilayotgan xarajatlari hajmini qisqarishiga olib keladi.[143]

Ijtimoiy ta’minot xizmatlari, jumladan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, uy-joyga ega bo‘lish kabi xizmatlardan foydalanish jamiyat a’zolarining daromadlari bilan bog‘liq. Aholining boy qatlamlarini ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari yuqori bo‘ladi. Yuqoridagilarni e’tiborga olgan holda ayrim ijtimoiy jihatdan nochor oilalar ushbu xizmatlardan hozirda foydalanib, keyinchalik uning qiymatini to‘lashi mumkin bo‘ladi. Bu ijtimoiy xizmatlardan foydalanishda birlamchi iste’mol tovar va xizmatlarining inson yashashi uchun zarur bo‘ladigan miqdorida imtiyozlarni berishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga tayangan holda, mamlakatda bozor iqtisodiyoti qonunlari amal qilishi sharoitida ijtimoiy ta’minot xizmatlaridan aholining barcha qatlamlari to‘liq foydalana olmaydi. Ushbu holatning salbiy oqibatlarining oldini olish maqsadida aholi uchun turli imtiyozli kreditlar joriy etilgan. Jumladan, kambag‘al oiladan chiqqan iqtidorli talaba imtiyozli kreditlar hisobiga ta’lim xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Ushbu holatda uning ta’lim xizmatlaridan foydalanganlik uchun to‘lovni amalga oshirishida moliyaviy yetishmovchilikning vujudga kelishi kuzatiladi. Ushbu vaziyatda talaba

[143] Social policy. P. 241-243

bank muassasalaridan kredit olishi va ushbu kreditni ma’lum bir vaqt o‘tgandan so‘ng qaytarishi mumkin bo‘ladi. Bu esa davlatning ijtimoiy ta’minot xizmatlarini moliyalashtirishga yo‘naltirilayotgan xarajatlarining qisqarishi va jamiyatda ijtimoiy ishning rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

1958-yilda iqtisodchi olim Titmuss tomonidan kasbiy farovonlik tushunchasi iqtisodiy fan aylanmasiga kiritilgan. Bunda ijtimoiy ta’minot to‘lovlari jismoniy shaxslar daromadlaridan ushlab qolinadigan soliqlar bilan bir qatorda turli ijtimoiy sug‘urtalar hisobidan moliyalashtirilgan. Firma va tashkilotlar o‘zlarining ishchi xodimlarining tibbiy xizmatlardan foydalanishi va ularning pensiya badallarini moliyalashtirishda faol qatnasha boshlaganlar.[144]

1990-yilda ijtimoiy ta’minot xarajatlarini moliyalashtirishda davlatning ulushi yuqoridagi usullarni e’tiborga olgan holda YaIMga nisbatan 40%ni tashkil etgan. Umumiy holda olganda davlat xarajatlarining 70% qismi ijtimoiy-madaniy faoliyatni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bundan 20% ta’lim va 15%i esa sog‘liqni saqlash sohalari hissasiga to‘g‘ri kelgan.[145]

Titmuss tadqiqotlariga ko‘ra, soliq siyosatini yuritish asosida aholi farovonligini ta’minlash “Fiskal farovonlik” deb nomlanadi. Bunda daromaddan turli ijtimoiy sug‘urtalar, jumladan, majburiy pensiya sug‘urtasi badallarini ushlab qolish amaliyoti keng qo‘llanilgan.[146]

Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha xarajatlarini boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy ta’minot chora-tadbirlari dasturini amalga oshirish yo‘nalishlari Vazirlar Mahkamasi va Parlament qarorlari bilan tasdiqlansa, uni moliyalashtirishga yo‘naltirilayotgan pul mablag‘lari G‘aznachilik tashkiloti nazorati ostida bo‘ladi. Shuningdek, ijtimoiy infratuzilma muassalariga ijtimoiy ta’minot xizmatlarini ko‘rsatishda, ularning faoliyatlarini takomillashtirish va xizmatlar sifatini yaxshilash maqsadida turli dotatsiya, subvensiya va subsidiyalar ajratiladi.

G‘aznachilik tashkiloti davlatning ijtimoiy ta’minotni moliyalashtirishga yo‘naltirilayotgan xarajatlarini hukumat bilan kelishilgan holda chegaralaydi. Bunda ushbu xizmatlarga bo‘lgan talab va taklif inobatga olingan holda, ularning narxlarini asossiz o‘sishiga

[144] Social policy. P. 243
[145] Social policy. P. 243
[146] Social policy. P. 243-245

yo‘l qo‘yilmaydi va ajratilayotgan mablag‘lar ijtimoiy xizmatlarni sotib olishga yetarli darajada bo‘lishi ta’minlanadi.[147]

O‘zbekistonda davlat hisobidan eng zarur mahsulotlar bilan ta’minlash o‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz pensionerlarni ijtimoiy himoya qilish turlaridan biri hisoblanadi. “O‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz pensionerlarni ijtimoiy himoyalash yuzasidan qo‘shimcha tadbirlar to‘g‘risida”gi normativ-huquqiy xujjatga muvofiq[148], ushbu ijtimoiy himoyalash quyidagi me’zonlarga javob beruvchi fuqarolarga taqdim etiladi:

- yolg‘izlar (yaqin qarindoshlari yo‘qlar);
- pensionerlar (ya’ni pensiya oluvchilar – ijtimoiy nafaqa oluvchi keksalar ushbu toifaga kirmaydi);
- o‘zgalar parvarishiga muhtojlar (o‘zgalar parvarishiga muhtojlik TMEK yoki VMK xulosasi asosida tibbiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha aniqlanadi).

Ya’ni o‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz pensionerlar asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan bepul ta’minlanish huquqidan foydalanadilar[149]. Asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini oluvchi shaxslar ro‘yxatiga kiritish uchun quyidagi xujjatlarni taqdim etish zarur:

- yolg‘iz pensionerlarning fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi raisining nomiga arizasi;
- TMEK yoki VMKning o‘zgalar parvarishiga muhtojlik to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi;
- yashash joyidan ma’lumotnoma;
- fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari hamda aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari tomonidan tuzilgan yolg‘iz fuqarolarning uy-joy maishiy sharoitlarini o‘rganish dalolatnomasi.

Xodim belgilangan oziq-ovqat mahsulotlarini uzluksiz va o‘z vaqtida yetkazib berishi shart bo‘lgan yashash joyi bo‘yicha savdo tashkilotlaridan eng zarur mahsulotlarni uyga olib borib beradi. Oziq-ovqat mahsulotlarining ro‘yxati 6.6.1-jadvalda keltirilgan.

---

[147] Social policy. P. 243-245

[148] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзгалар парваришига муҳтож ёлғиз пенсионерларни ижтимоий ҳимоялаш юзасидан қўшимча тадбирлар тўғрисида” 1991 йил 27 майдаги 212-сон Фармони.

[149] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 15 февралдаги 636-сон Қарорига илова – Ўзгалар парваришига муҳтож ёлғиз пенсионерларни асосий озиқ-овқат маҳсулотлари билан бепул таъминлаш тўғрисидаги Низом ва Вазирлар Маҳкамасининг 1991 йил 28 майдаги 145 – сон қарорига 1-илова – “Ўзгалар парваришига муҳтож ёлғиз пенсионерларга имтиёзлар бериш тартиби тўғрисида”ги Низом.

6.6.1-jadval

O‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz keksalar va nogironlarni bepul ta’minlash uchun asosiy oziq-ovqat mahsulotlari va gigiyena tovarlarining

RO‘YXATI[150]

T/r	**Tovarlarning nomi** (mahalliy yoki import qilingan)	**O‘lchov birligi**	**Bir oyda 1 kishiga beriladigan norma**
1.	Un (oliy nav)	kg	3
2.	Guruch	kg	1
3.	Grechka yormasi	kg	0,5
4.	Makaron mahsulotlari	kg	0,5
5.	Mol go‘shti (suyaksiz)	kg	1
6.	Xonaki parranda go‘shti	kg	1
7.	Sariyog‘	kg	0,2
8.	Tuxum (dona)	dona	15
9.	Qand-shakar	kg	1
10.	Kungaboqar yog‘i	l	1
11.	Ko‘k yoki qora choy	kg	0,2
12.	Atirsovun	kg	0,1
13.	Kirsovun (65%)	kg	0,2
14.	Kir yuvish poroshogi	kg	0,15
15.	Katta yoshdagilar uchun taglik gazmol	dona	8

Uy-joy-kommunal xizmatlar uchun kompensatsiya pul to‘lovlarini olish huquqi fuqarolarning quyidagi guruhlariga beriladi:

1. eng kam oylik ish haqining 45 foizi miqdorida:

- o‘zgalar qaramog‘iga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz pensionerlar, shu jumladan, nogironlar;

- 1941–1945-yillardagi ikkinchi jahon urushi nogironlari, qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslar, 1941–1945-yillardagi ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning oilalari va vafot etgan nogironlarning hotinlari;

- birinchi va ikkinchi darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan mukofotlangan shaxslar;

[150] Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 10 августдаги 237-сон қарорига 1-ИЛОВА

- Sovet Ittifoqi Qahramonlari, Sotsialistik Mehnat Qahramonlari va Shuhrat ordenining uchala darajasi bilan mukofotlangan shaxslar, shaxsiy pensionerlar;

- fashistlar konslagerlarining sobiq voyaga yetmagan tutqunlari;

- Leningrad shahri qamali davrida shahar korxonalari, muassasalari va tashkilotlarida ishlagan fuqarolar;

- ko‘zi ojiz I guruh nogironlari;

- Chernobil halokati oqibatida ziyon ko‘rgan fuqarolar;

- yadro poligonlarida va boshqa yadroviy radiatsiya ob’ektlarida harbiy xizmatni o‘tagan pensiya yoshidagi shaxslar;

2. eng kam ish haqining 18 foizi miqdorida:

- 1941–1945-yillardagi ikkinchi jahon urushi davridagi mehnat fronti qatnashchilari[151].

Shahar yo‘lovchilar transportidan (taksidan tashqari) bepul foydalanish huquqi faqat:

- 1941–1945-yillardagi urush qatnashchilari jumlasidan bo‘lmish harbiy xizmatchilar;

- 1941–1945-yillardagi urush nogironlari va urushning I guruh nogironiga hamkorlik qiluvchi shaxs;

- 1941–1945-yillardagi urush davrida front ortida fidokorona mehnati va benuqson harbiy xizmati uchun orden va medallar bilan taqdirlangan shaxslar;

- Afg‘oniston Respublikasida va boshqa mamlakatlarning hududidagi jangovor harakatlarda qatnashgan sobiq baynalminalchi jangchilar jumlasidan bo‘lmish fuqarolar;

- haqiqiy muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilar va kontrakt bo‘yicha oddiy askarlar hamda serjantlar tarkibidagi harbiy xizmatchilar;

- Chernobil AES halokati oqibatida nurlanish kasalligiga chalingan va uni boshdan kechirgan shaxslar;

- ko‘zi ko‘r nogironlar va ko‘zi ko‘r nogironga hamkorlik qiluvchi shaxslarga beriladi.[152]

---

[151] Uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to‘lash bo‘yicha kompensasiya pul to‘lovlarining mexanizmi to‘g‘risidagi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2010-yil 30-noyabrdagi "Uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to‘lash bo‘yicha kompensasiya pul to‘lovlarining mexanizmi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 102-son buyrug‘iga ilova.

[151]Shahar yo‘lovchilar transportidan bepul foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. ¹ 278-I. 1996-yil 30-avgust.

O‘zbekiston Respublikasining normativ qonunchilik bazasida davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga Respublika ixtisoslashgan markazlari va viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlari tomonidan tibbiy yordam ko‘rsatiladigan shaxslarning ro‘yxati belgilangan.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘liqni saqlash tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2003 yil 26 fevraldagi PF-3214-son farmoniga 2 ilova – Respublika ixtisoslashtirilgan markazlari tomonidan davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga tibbiy yordam ko‘rsatiladigan imtiyozli toifadagi shaxslarning quyidagi ro‘yxati belgilangan:

- bolalikdan nogironlar;
- chin yetimlar;
- I va II guruh nogironlari;
- 1941–1945-yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek ularga tenglashtirilgan shaxslar;
- yoshga doir pensiyaga chiqqan ishlamaydigan shaxslar;
- 1941–1945-yillardagi urush davrida mehnat fronti qatnashchilari;
- Chernobil AESi falokatini tugatishda ishtirok etgan shaxslar jumlasiga kiruvchi nogironlar;
- baynalminalchi jangchilar;
- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan moddiy yordam oluvchi kam ta’minlangan oilalarga mansub shaxslar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 2-dekabrda qabul qilingan “Davolash-profilaktika muassasalarini mablag‘ bilan ta’minlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 532-son Qaroriga 2-ilova davolash profilaktika muassasalarida ovqatlanish to‘lovidan ozod qilinadigan aholi toifalari ro‘yxatini belgilaydi (pulli kasalxonalar va bo‘limlardan tashqari):

- bolalikdan nogironlar;
- chin yetimlar;
- I va II guruh nogironlari;
- 1941–1945-yillardagi urush qatnashchilari va nogironlari hamda ularga tenglashtirilgan shaxslar;
- bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlarida hisobda turuvchi yolg‘iz nafaqaxo‘rlar;
- 1941–1945-yillardagi urush mehnat fronti qatnashchilari;
- Chernobil AESidagi halokat oqibatlarini tugatishda qatnashgan – nogiron shaxslar;
- baynalminalchi jangchilar;

- 17 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar;

- mudofaa ishlari bo‘limlarining yo‘llanmalari bo‘yicha 18–27 yoshli chaqiriq yoshidagilar.

Ijtimoiy davlatning faoliyatida soliqlar ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning moddiy manbai sifatida namoyon bo‘ladi. Soliq siyosatini amalga oshirish orqali vertikal (daromadi yuqori bo‘lgan shaxslar to‘laydigan soliq hajmi ham yuqori bo‘ladi yoki aksincha) yoki gorizontal (soliq imtiyozlarini joriy etish orqali ayrim turdagi shaxslarning qo‘shimcha xarajatlarini qoplashiga imkon yaratiladi) tarzda daromadlarni qayta taqsimlashga erishiladi.

1958-yilda Titmuss tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar mamlakatda samarali soliq siyosatini amalga oshirish orqali moliyaviy va ijtimoiy farovonlikka erishish mumkinligini tasdiqladi. Samarali soliq siyosatini amalga oshirish o‘z navbatida ijtimoiy ta’minot xizmatlarini amalga oshirishda va ijtimoiy nafaqalarni to‘lashda moliyaviy manbani shakllantiradi.[153]

Soliq – jismoniy shaxslarning daromadlaridan davlat byudjeti uchun to‘lanadigan majburiy to‘lov hisoblanadi.[154] Ushbu to‘lovlar hisobidan jamlangan pul mablag‘lari quyidagi chora-tadbirlarni moliyalashtirish vositasi sifatida qo‘llaniladi:

- iqtisodiy siyosat / boshqarish;

- davlat xarajatlarini moliyalashtirish;

- aholining ijtimoiy nochor qatlamlarini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;

- daromadlarni qayta taqsimlash;

- muayyan ijtimoiy-iqtisodiy xatti-harakatni rag‘batlantirish.[155]

Foyda solig‘i – mustaqil tarzda o‘zini-o‘zi ish bilan band qilish orqali shakllantirilgan foyda hisobidan to‘lanadigan soliq turi hisoblanadi. Amaliyotda uning to‘lovchilari odatda ish beruvchi firma rahbarlari va mustaqil tarzda band bo‘lgan aholi qatlami hisoblanadi.[156]

Jamg‘ariladigan soliq – bu odatda soliq siyosati orqali band aholidan sug‘urta fondiga pul ajratmalarini yig‘ib olishda qo‘llaniladi. Amaliyotda bunday soliq turi pensiya jamg‘armasi badallarini to‘lashda foydalaniladi.[157]

---

[153] Social policy. P. 249
[154] Social policy. P. 248
[155] Social policy. P. 248
[156] Social policy. P. 249
[157] Social policy. P. 249

Mahalliy soliq – mahalliy xizmatlar hisobidan shakllantiriladigan soliq turi hisoblanadi va mulkdan olinadigan soliqni o‘z ichiga oladi.[158]

Glossariy

O‘zbekcha	Ruscha	Inglizcha	Izoh
Ixtiyoriy ijtimoiy ta’minot	Социальное обеспечение по желанию	Social welfare by will	davlat sektori va bozor sub’ektlarining ijtimoiy farovonlikni ta’minlashdagi qamrov doirasining kengligidan dalolat beradi
Notijorat tashkilotlar	Некоммерческие организации	Non-commercial organizations	Fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan iqtisodiy, ijtimoiy, homiylik, madaniy, ta’lim, ilmiy va boshqa vazifalarni hal etish uchun tashkil etilib, milliy hisob tizimida milliy iqtisodiyotning alohida sektori sifatida qayd etiladi. Notijorat tashkilotlari davlat boshqaruvi sektori, nomoliyaviy va moliyaviy muassasalar hamda uy xo‘jaliklari bilan o‘zaro hamkorlikda faoliyat yuritadi.
Uyda ijtimoiy yordam	Социальная помощь на дом	Home social help	yaqin qarindoshlar, do‘st-birodarlarning uyda pullik ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, ya’ni tibbiy xizmatlar ko‘rsatish, jumladan e’tiborga muhtoj kishilarni uyda parvarishlash va ularga g‘amxo‘rlik qilishni anglatadi
Mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish	Муниципальное самоуправление	Municipal self-governing	ijtimoiy ta’minot xizmatlari mahalliy hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladi
Shaxsiy yoki fiziologik parvarish	Индивидуальный или физиологический уход	Physiological and individual care	o‘zgalar tomonidan qarovga muhtoj kishiga harakatlanishi, ovqatlanishi, dori-darmonlarni iste’mol

[158] Social policy. P. 249-250

			qilishi, hojatini chiqarishi, cho‘milishi, yotib-turishi holatlarida ko‘maklashish tushuniladi.
Amaliy yordam ko‘rsatish	Оказание практической помощи	Practical help serving	ovqat tayyorlash, bozordan iste’mol tovarlari xaridini amalga oshirish, uy-joylarni yig‘ishtirish holatlarida xizmat ko‘rsatish tushuniladi
Ijtimoiy jihatdan qarovga muhtoj kishilarga uyda qarab turish	Присмотр на дом над людьми которые нуждающихся в социальной помощи	Home caring of socially care demanding people	turli xavfli vaziyatlarning oldini olish maqsadida parvarishni amalga oshirish tushuniladi
“Fiskal farovonlik”	Фискальная благосостояния	Fiscal welfare	soliq siyosatini yuritish asosida aholi farovonligini ta’minlash, daromaddan turli ijtimoiy sug‘urtalar, jumladan, majburiy pensiya sug‘urtasi badallarini to‘lash amaliyoti keng qo‘llaniladi
Soliq	Налог	Tax	jismoniy shaxslarning daromadlaridan davlat byudjeti uchun to‘lanadigan majburiy to‘lov hisoblanadi
Foyda solig‘i	Налог на прибыл	Profit tax	mustaqil o‘zini-o‘zi ish bilan band qilish orqali shakllantirilgan foyda hisobidan to‘lanadigan soliq turi hisoblanadi. Amaliyotda uning to‘lovchilari ish beruvchilar va mustaqil tarzda band bo‘lgan aholi qatlami hisoblanadi.
Jamg‘ariladigan soliq	Накопительный налог	Save up tax	soliq siyosati orqali band aholidan sug‘urta fondiga pul ajratmalarini yig‘ib olinuvchi majburiy to‘lov. Amaliyotda bunday soliq turi pensiya jamg‘armasi badallarini to‘lashda namoyon bo‘ladi.
Mahalliy soliq	Локальный налог	Municipal	mahalliy xizmatlar hisobidan

		tax	shakllantiriladigan soliq turi hisoblanadi va mulkdan olinadigan soliqni o‘z ichiga oladi
Fuqarolik huquqi	Гражданская права	Citizenship rights	shaxsga tegishli bo‘lgan huquqni o‘z ichiga oluvchi universal huquq turi hisoblanadi.
Ijtimoiy munosabatlar	Социальный отношения	Social relations	Jamiyatni tashkil etuvchi ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi munosabatlar barqarorligini oshirish maqsadida uning mazmunini “boyitishga” yo‘naltirilgan jamiyatni tashkil etish shakllarini o‘zgartirish.
“Etatizm” ijtimoiy modeli	Социальная модель «Этатизм»	“Etatism” social model	Notijorat sektor ijtimoiy siyosat chora-tadbirlari dasturini amalga oshirishda yordam beruvchi (to‘ldiruvchi) vazifasini bajaradi.

Nazorat savollari:

1. Aholi farovonligi nima va uning o‘sishi, omillari va ko‘rsatkichlarini tushuntiring.
2. Umumjamiyat farovonligi davlatining xususiyatlarini tushuntiring.
2. Davlat va tijorat tashkilotlari ijtimoiy xizmatlarining rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlarini sharhlab bering.
3. Ijtimoiy ta’minot bilan mehnatni muhofaza qilishning bog‘liqligini tushuntiring.
4. Ixtiyoriy ijtimoiy ta’minot va notijorat sektorning rivojlanishi bosqichlarini ayting.
5. Uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish mohiyatini tushuntiring.
6. Ijtimoiy ta’minotni moliyalashtirishda davlat va bozor mexanizmi o‘rtasidagi nisbat qanday bo‘lishi kerak.
7. Soliq solish va ijtimoiy ta’minot o‘rtasidagi bog‘liqlikni sharhlab bering.
8. Aholining ijtimoiy ta’minoti tamoyillari va fuqarolik huquqlarini tushuntiring.

Testlar:

1. Pul shaklidagi ijtimoiy ta’minot qanday ko‘rinishda bo‘lishi mumkin?

a) ish haqiga qo‘shimcha;
b) subsidiya;
c) nafaqa
d) subvensiya.

2. Quyidagilardan qaysi biri ijtimoiy xizmatlar tarkibiga kiradi?

a) o‘rta daromadli aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatish;
b) uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish;
c) qisqartirishlar tufayli yoki o‘z xohishiga ko‘ra ishdan bo‘shagan fuqorolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;
d) turli kategoriyalardagi aholiga uzoq muddat yashash uchun joy berish.

3. Uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish – bu ...

a) ijtimoiy yordamga muhtoj kishilarga ularning yaqin qarindoshlari, do‘st-birodarlari tomonidan uyda g‘amxo‘rlik qilinishi;
b) aholiga o‘z uyida pullik xizmatlar ko‘rsatish;
c) ijtimoiy yordamga muhtoj kishilarga uyda pullik ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, g‘amxo‘rlik qilish va ularni parvarishlash;
d) pensiya yoshidagi aholiga o‘z uyida pullik xizmatlar ko‘rsatish.

4. Fiskal farovonlik – bu ...

a) soliq yukini kamaytirish orqali aholi farovonligini ta’minlash;
b) byudjet xarajatlarini oshirish orqali aholi farovonligini ta’minlash;
c) byudjet xarajatlarini kamaytirish orqali aholi farovonligini ta’minlash;
d) soliq siyosatini yuritish asosida aholi farovonligini ta’minlash.

5. O‘zbekistonda asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan bepul ta’minlanish huquqi kimlarga berilmagan?

a) yaqin qarindoshlari yo‘q yolg‘izlarga;
b) pensionerlarga;
c) ijtimoiy nafaqa oluvchi keksalarga;
d) o‘zgalar parvarishiga muhtojlarga;

6. BMT yondashuvi bo‘yicha aholi farovonligi omillarini aniqlang

1) Iqtisodiy; 2) Ma’naviy; 3) Ijtimoiy; 4) Ekologik; 5) Psixologik; 6) Siyosiy

a) 1, 3, 5
b) 2, 4, 6
c) 1, 2, 3, 4, 6
d) 1, 2, 3, 4, 5, 6

7. Quyidagilardan qaysi biri ijtimoiy ta'minotning natura shakliga misol bo'la olmaydi?
a) uy-joy kommunal xizmatlar uchun kompensatsiya to'lovlari;
b) jamoat transportidan bepul foydalanish huquqi;
c) hayotiy zarur mahsulotlar bilan bepul ta'minlash;
d) bepul davolanish huquqi;

8. A. Smit fikricha farovonlik ...
a) shaxs va jamiyat manfaatlarining o'zaro uyg'un bog'liqligi;
b) aholi ijtimoiy holatining rivojlanishi va muvaffaqiyatli holati;
c) baxtlilik, sog'lik;
d) ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish, muvaffaqiyatli holat, aholining fiziologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlanishi va muvaffaqiyatining umumiy holati;

9. G'aznachilik tizimining ijtimoiy ta'minot tizimi bilan bog'liqligi nimada aks etadi?
a) G'aznachilik tizimi ijtimoiy ta'minot chora-tadbirlarini amalga oshirish yo'nalishlarini tasdiqlaydi;
b) G'aznachilik tizimi ijtimoiy ta'minot dasturlarini amalga oshirishni moliyalashtirishga yo'naltirilayotgan pul mablag'larini nazorat qiladi;
c) G'aznachilik tizimi ijtimoiy ta'minot sohasidagi chora-tadbirlarni bevosita amalga oshiradi;
d) G'aznachilik tizimi ijtimoiy ta'minot sohasidagi dasturlarni moliyalashtiradi.

10. Quyidagi mulohazalardan qaysi biri soliq tizimining ijtimoiy ta'minotga bog'liq jihatini aks ettiradi?
a) Soliq tizimi asosida davlat o'z funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan pul fondlarini shakllantiradi;
b) Soliq siyosatini yuritish orqali davlat iqtisodiyotni tartibga soladi;
c) Soliq to'lovlari orqali ijtimoiy siyosatni amalga oshirishni moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan pul fondlari shakllantiriladi;
d) Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga soliq imtiyozlari beriladi.

VII bob. IJTIMOIY XIZMATLAR

7.1. Ijtimoiy xizmatlar tushunchasi.
7.2. Bandlik.
7.3. Sog‘liqni saqlash.
7.4. Uzluksiz ta’lim.
7.5. O‘zbekistonda ijtimoiy xizmatlar va ularni moliyalashtirish xususiyatlari.

7.1. Ijtimoiy xizmatlar tushunchasi

Aholini ijtimoiy himoyalash tizimi mamlakatning iqtisodiy va demokratik taraqqiyot darajasi, ularning aholi manfaatlariga muvofiqligi, ijtimoiy siyosat darajasi, ijtimoiy ta’minot tizimi kabi omillarga bog‘liq holda rivojlanib boradi. Ijtimoiy himoya tizimi ikki asosiy vazifani bajaradi:

– ijtimoiy to‘lovlar;
– ijtimoiy xizmatlar.

Ijtimoiy to‘lovlar ustun darajada aholining eng kam ta’minlangan qismiga taqdim etiladi. Aholining kam ta’minlangan qismi deyilganda, zarur bo‘lgan iste’mol andozalariga eng kam ega bo‘lgan jamiyat a’zolari tushuniladi. Kam ta’minlangan aholining mavjudligi – keskin ijtimoiy muammo bo‘lib, boy mamlakatlar uchun ham xosdir. Ushbu holat doimo davlat tomonidan mazkur muammoga doimo e’tibor qaratilishini va jamiyat tomonidan tezkorlik bilan tegishli chora-tadbirlar ko‘rilishini talab qiladi.

Ijtimoiy himoya tushunchasi ijtimoiy yordam va nafaqalar bilan ta’minlash, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimini izchil rivojlantirishni qamrab oladi. Ijtimoiy xizmatlar – insonlarning ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va boshqa sohalardagi ortib borayotgan ehtiyojlarini qondirishga qaratiladi. O‘z navbatida, insonlarning turmush tarzini yaxshilanishi ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirishni taqozo etadi. Ijtimoiy xizmatlarni insonlar tomonidan baholanishi asosan ularning sifat xususiyatiga e’tibor qaratishdan boshlanadi. Jamiyat taraqqiyotining modernizatsiyalash bosqichida ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish davlatning xarajatlarini doimiy ortishiga sabab bo‘ladi. Bu esa keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishda davlat mablag‘laridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarni isloh qilish asosida, davlat tomonidan ushbu sohalarga

yo‘naltirilayotgan moliyaviy mablag‘larni samarali ishlatishga erishish mumkin.

Ijtimoiy xizmatlar shaxsning turmushi sifatini oshirishga, unga jamiyat hayotida ishtirok etishning boshqa fuqarolar bilan teng bo‘lgan imkoniyatlarini yaratish va o‘zining zarur hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta’minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan xizmatlarga muhtoj shaxsga yordam ko‘rsatish bo‘yicha huquqiy, iqtisodiy, psixologik, ta’limga oid, tibbiy, reabilitatsiya va boshqa chora-tadbirlar majmuidir[159].

Ijtimoiy xizmatlar sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- aholining ijtimoiy yordamga muhtoj toifalarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash;
- ijtimoiy xizmatlarga muhtoj shaxslarni aniqlash va hisobga olish, ularga ushbu xizmatlar ko‘rsatilishini tashkil etish;
- ijtimoiy xizmatlar oluvchilarning oila va jamiyat bilan aloqalarini saqlash, ularning qulay muhitda bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash;
- ijtimoiy xizmatlar standartlariga rioya etilishini ta’minlash;
- ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish.

Aholining ijtimoiy muhtoj qatlamlariga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- qonuniylik;
- inson huquqlariga rioya etish;
- insonparvarlik;
- erkin foydalanish;
- profilaktik yo‘naltirilganlik;
- aniq yo‘naltirilganlik va individual yondashuv;
- ixtiyoriylik.

Ijtimoiy himoya tizimi doirasida ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlarni amalga oshirish mexanizmi turlicha bo‘lishi mumkin.

1. Umumiy ijtimoiy himoya – global miqyosda turli xalqaro hujjatlar va tashkilotlar tomonidan qabul qilingan majburiyatlar doirasida ijtimoiy siyosat chora-tadbirlarini amalga oshirishdan iborat. Jumladan, Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasining 22 moddasida “har bir inson

[159] O‘збекистон Республикасининг “Кексалар, ногиронлар ва аҳолининг бошқа ижтимоий эҳтиёжманд тоифалари учун ижтимоий хизматлар то‘ғрисида”ги қонуни

jamiyat a’zosi sifatida ijtimoiy ta’minot huquqiga ega”ligi belgilab qo‘yilgan. Ushbu sohada amalga oshirilayotgan global tadbirlarga Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan joriy etilgan ijtimoiy standartlar va “BMT 2030” barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida qabul qilingan ko‘rsatkichlarga erishish, Jahon banki guruhi va XMT tashabbusi bilan 2016 yilda aholini ijtimoiy himoyalash tizimida muvafaqqiyatlarga erishgan mamlakatlar tajribasini ommalashtirishga qaratilgan “Umumiy ijtimoiy himoya uchun global hamkorlik” (USP2030) kabi tadbirlarni misol keltirish mumkin.

2. Ijtimoiy himoyaning minimal darajasi – mamlakatda ijtimoiy ta’minot sohasida qabul qilingan minimal standart va bazaviy kafolatlardan tashkil topgan chora-tadbirlar bo‘lib, asosiy e’tibor kafolatlangan minimal daromad va sog‘liqni saqlash sohasidagi muhim xizmatlardan foydalanish imkonini yaratishga qaratiladi. Ijtimoiy himoyaning minimal darajasi ijtimoiy sug‘urta badallari va ijtimoiy yordam soliqlari hisobidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy xizmatlar orqali bolalar, farzand ko‘rgan onalar, kam ta’minlanganlar va ishsizlar, hamda kasallar, nogironlar va keksa yoshdagi aholi uchun munosib nafaqalar darajasini ta’minlab berishi zarur.

3. Kafolatlangan minimal daromad – aholining ijtimoiy muhtoj qatlamlarini aniqlash asosida ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish bo‘lib, byudjet mablag‘larini qat’iy tejash yoki byudjet konsolidatsiyasini amalga oshirayotgan mamlakatlar tomonidan qo‘llaniladi. Ushbu mexanizm universal bo‘lmasdan kam ta’minlangan aholi qatlamlariga manzilli ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishga asoslanadi.

4. Universal bazaviy daromad – mamlakatning har bir fuqarosiga hech qanday shartlarsiz ijtimoiy yordam ko‘rsatish (pulli transfertlar). Taklif etilayotgan mexanizm nafaqalar darajasi, moliyalashtirish mexanizmi va taklif etilayotgan nafaqa va xizmat turlariga ko‘ra farqlanadi. Ularning ayrimlari jamiyat rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatsa, ayrimlari aholi turmush farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

7.2. Ijtimoiy ta’minot va daromadlarni qo‘llab-quvvatlash

Ijtimoiy himoya sohasida olib borilayotgan siyosat aholi turmush farovonligini oshirish, kambag‘allik darajasini pasaytirish, inson kapitali va mehnat unumdorligini oshirish hisobiga iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, ichki talabni oshirish va milliy iqtisodiyot tarkibini o‘zgartirishda muhim rol o‘ynaydi. Tahlillar ko‘rsatishicha, dunyo

aholisining aksariyat qismi ijtimoiy xizmatlar bilan to‘liq qamrab olinmagan. 2015 yilda jahon aholisining 45,2%igina ijtimoiy himoya turining hech bo‘lmaganda birontasi bilan qamrab olingan, qolgan 54,8%i (4 mlrd. kishi) esa ushbu tizimda qisman qatnashadi yoki umuman qatnashmaydi[160].

Oilalar va jismoniy shaxslarning daromadlari turli manbalardan – xususiy sektorda ish haqi, boshqa oila a’zolarining moddiy yordami va davlat tomonidan beriladigan pulli nafaqalar shaklida shakllanadi. Ijtimoiy ta’minot tushunchasini muhokama etishda ijtimoiy ta’minotning moliyaviy manbai asos sifatida xizmat qiladi. Keng ma’noda ijtimoiy ta’minot deganda, uning barcha moliyaviy manbalari ko‘rib chiqilsa, tor ma’nodagi ijtimoiy ta’minot tushunchasi davlat tomonidan ijtimoiy ta’minotni moliyalashtirish dastaklari nazarda tutiladi. Ijtimoiy himoyaning turli modellari amal qiladigan mamlakatlarda ijtimoiy ta’minot tizimi orqali aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari daromadlarini qo‘llab-quvvatlashda kambag‘allar uchun minimal daromadlarni qo‘llab-quvvatlashdan tortib daromadlarni yo‘qotib qo‘yish riskiga uchragan aholi qatlamlarini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan keng qamrovli tizimlarda amal qiladi.

Buyuk Britaniyada ijtimoiy ta’minot uchun sarflanadigan xarajatlar davlat xarajatlarining uchdan bir qismini tashkil etib, sog‘liqni saqlash va ta’limga sarflangan xarajatlar yig‘indisiga teng. Ijtimoiy ta’minot xarajatlari har bir kishi uchun 2009–2010-yillarda yiliga o‘rtacha 3200 funt sterlingni tashkil etgan[161]. 2017-yilda mamlakat aholisining ijtimoiy ehtiyojlari uchun ajratilgan xarajatlar jami xarajatlarning 14,2%ini tashkil etdi.[162]

Buyuk Britaniyadagi uy xo‘jaliklarining 60%ga yaqini hech bo‘lmaganda bir marta ijtimoiy ta’minot xizmatlaridan foydalanishadi, 20%i daromadga bog‘liq nafaqalar olishadi, 57%ga yaqini esa ijtimoiy ijarachilardan iborat.

---

[160] World Social Protection Report 2014/15

[161] World Social Protection Report 2014/15

[162]http://blog.vestigio.co.uk/2017/11/22/%D0%B1%D1%8E%D0%B4%D0%B6%D0%B5%D1%82-%D0%B1%D1%80%D0%B8%D1%82%D0%B0%D0%BD%D0%B8%D0%B8-uk-autumn-budget-2017/



7.2.1-rasm. Jahon aholisining ijtimoiy himoya tizimi bilan qamrab olinganlik darajasi, % (2015-y.)[163]

Buyuk Britaniyada ijtimoiy xarajatlarning aksariyat qismini davlat pensiyalari, tayanch pensiyalar/pensiya kreditlari, uy-joy uchun nafaqalar, farzand uchun nafaqa, nogironlik bo‘yicha nafaqalar, ishsizlik nafaqasi tashkil etadi. Ijtimoiy ta’minot bo‘yicha nafaqalar umumiy soliqlar va ijtimoiy ta’minot uchun ajratiladigan badallar hisobidan moliyalashtiriladi.

Ijtimoiy ta’minot fuqarolar hayotida muhim rol o‘ynaydi. Iqtisodiy adabiyotda ijtimoiy ta’minot tushunchasiga berilgan umum qabul qilingan ta’rif yo‘q va unga turlicha tarif berish mumkin. Ijtimoiy ta’minot tushunchasi keng ma’noda kishilarning munosib turmush farovonligini ta’minlash maqsadida ishlab topayotgan daromadlariga erishishning barcha usullarini ifoda etadi. Demak, ijtimoiy ta’minot daromadlarning barcha manbalarini – ish beruvchilar tomonidan to‘lanadigan va o‘zini-o‘zi band qilishdan topiladigan daromadlar, xayriya tashkilotlarining moliviy yordami, oila a’zolarining pullari va davlat tomonidan ajratiladigan pul ko‘rinishidagi nafaqalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Agar ijtimoiy ta’minotning keng ma’nodagi tushunchasiga tayanadigan bo‘lsak, xususiy sektor daromadlarni ta’minlab berishning muhim manbai hisoblanadi. Tahlillar ko‘rsatishicha bandlik va o‘zini-o‘zi band qilishdan keladigan foyda aksariyat mehnatga layoqatli aholi uchun asosiy daromad manbai hisoblanadi. Pensiyaga chiqqandan keyin to‘lanadigan pensiyalar esa ushbu turdagi daromadlarga asoslanadi.

Ijtimoiy ta’minotning tor ma’noda tushunchasi bozor tizimida ko‘zda tutilgan daromadlardan tashqari barcha turdagi moliyaviy qo‘llab-

[163] https://www.imf.org/external/russian/pubs/ft/fandd/2018/12/pdf/ortiz.pdf

quvvatlash turlarini ifoda etadi. Demak, tor ma’noda ijtimoiy ta’minot deyilganda uy xo‘jaliklarini davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tushuniladi. Ijtimoiy ta’minot tushunchasi borasidagi munozaralar ijtimoiy siyosat doirasida o‘rganiladigan barcha ijtimoiy xizmat turlari bo‘yicha muhim ahamiyatga ega. Jumladan, sog‘liqni saqlash tushunchasi Milliy sog‘liqni saqlash xizmati faoliyatiga nisbatan kengroq tushuncha hisoblansa, tibbiy yordam ko‘rsatish esa ijtimoiy xizmatlar doirasidan chiqib ketadi.

“Ijtimoiy ta’minot” tushunchasi hukumat tomonidan aholining ijtimoiy muhtoj qatlamlariga pulli nafaqalar to‘lash tizimi sifatida juda oddiy va muammosiz tizimga o‘xshaydi. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, ayrim turdagi ijtimoiy xizmatlar davlat tomonidan ijtimoiy ta’minot tizimi doirasida amalga oshirilmaydi. Jumladan, Buyuk Britaniyada kasallik nafaqasi amaldagi qonunchilikka muvofiq davlat tomonidan moliyalashtirilsa-da, ushbu nafaqa fuqarolarning yuridik huquqi hisoblanadi va ish beruvchi tomonidan to‘lanadi. Shuningdek kasallik, bevalik va pensiyaga chiqish bo‘yicha kasbiy dasturlar mavjud bo‘lib, ular davlat nafaqalariga o‘xshaydi va o‘xshash vazifalarni bajaradi, ammo ish beruvchi tomonidan tashkil etiladi. Demak, ish beruvchilar tomonidan ixtiyoriy tashkil etiladigan ijtimoiy dasturlar va hukumat tomonidan tasdiqlangan aksariyat dasturlar ijtimoiy ta’minot dasturlari sifatida guruhlashtirilishi mumkin ekan. Bu esa ularning yuqorida qayd etib o‘tilgan ijtimoiy ta’minot tushunchasi tariflariga doim ham mos kelmasligini anglatadi. Shuning uchun ijtimoiy ta’minot tushunchasiga aniq ta’rif berish mushkul va xalqaro tashkilotlar ijtimoiy ta’minot tushunchasiga turlicha ta’rif berishadi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan “ijtimoiy himoya” va “ijtimoiy ta’minot” tushunchalariga ta’rif berishda turli yondashuvlar mavjud. Aksariyat manbalarda ikkala tushuncha bir-birining o‘rnini bosuvchi tushunchalar sifatida ishlatiladi. Xalqaro mehnat tashkiloti “ijtimoiy ta’minot” tushunchasidan insonning ijtimoiy ta’minotga bo‘lgan huquqi ma’nosida foydalanadi. Ushbu huquqlar 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi (22 modda), 1966-yilda qabul qilingan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (9 modda), BMTning inson huquqlariga oid boshqa hujjatlarida o‘z ifodasini topgan. “Ijtimoiy ta’minot” tushunchasi ijtimoiy sug‘urta, ijtimoiy yordam, nafaqalar va ijtimoiy to‘lovlarning boshqa shakllari, sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishni ta’minlash choralari va ijtimoiy himoyani ta’minlashga

qaratilgan natura ko‘rinishidagi nafaqalardan iborat ijtimoiy xizmat turlarini o‘z ichiga oladi.

Dunyo mamlakatlarida ijtimoiy ta’minot tizimi uzoq davr mobaynida rivojlanib, takomillashib kelgan. Ijtimoiy ta’minotning tarkibiy qismlari turli maqsadlar uchun mo‘ljallanganligi bois bosh maqsadni aniqlab, ajratib olish murakkab vazifa hisoblanadi.

Fikrimizcha, ijtimoiy ta’minotning maqsadlari quyidagilardan iborat bo‘lishi zarur:

- inson hayotida sodir bo‘ladigan pensiyaga chiqish, ishsizlik va kasallik kabi holatlardan sug‘urtalash;
- kambag‘allikni kamaytirish yoki daromadlarning minimal darajasini belgilash;
- insonning hayot sikli orqali resurslarni qayta taqsimlash (pensiyaga chiqish yoshida);
- resurslarni aholining yuqori daromadli qismidan kam daromadli qismiga qayta taqsimlash;
- aholining ayrim ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlari (bolalar, nogironlar) uchun qo‘shimcha xarajatlarni qoplash;
- “an’anaviy” oilalar barbod bo‘layotganda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash.

Ijtimoiy ta’minotning Buyuk Britaniya tizimi uchun quyidagilar maqsad sifatida belgilangan[164]:

- aholi turmush farovonligini qo‘llab-quvvatlashni rag‘batlantirish;
- ma’muriy xarajatlarni qisqartirish.

Buyuk Britaniya ijtimoiy ta’minot tizimi kontinental Yevropa mamlakatlari ijtimoiy ta’minot tizimiga nisbatan cheklanganligi bilan ajralib turadi. Kambag‘allikni kamaytirish aholi daromadlariga bog‘liq holda amalga oshiriladi. Muhtojlik bo‘yicha nafaqalar olish kishilar yoki oilalarning ixtiyoridagi resurslari (daromadlar yoki jamg‘armalar)ga bog‘liq holda belgilanadi. Daromadlar yoki jamg‘armalarga bog‘liq holda ijtimoiy ta’minotni amalga oshirish AQSh, Yangi Zelandiya va Avstraliyada qo‘llaniladi va markazlashgan xarakterga ega. Ushbu talablar kontinental Yevropadagidek daromadlarni qoplash va daromadlar darajasini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilmagan.

Buyuk Britaniya ijtimoiy ta’minot tizimi murakkab tarkibga va uzoq rivojlanish bosqichiga ega. Tadqiqotning turli usullari yordamida Buyuk Britaniya ijtimoiy ta’minot tizimiga xos bo‘lgan xususiyatlarni ajratib

[164] Social Policy an Introduction-Forth edition/ Ken Blakemore, Louis Warwick-Booth/Open University Press/UK 2013

ko‘rsatish mumkin. Masalan, imtiyozlar universal va jamg‘ariladigan turlarga ajratiladi. Huquq nuqtai nazaridan yondashilsa, ijtimoiy ta’minot quyidagi komponentlarga ajraladi: badallar to‘lashdagi imtiyozlar; soliq va muhtojlik nafaqalari bo‘yicha imtiyozlar (daromadga bog‘liq nafaqalar); shartli imtiyozlar (turli ijtimoiy guruhlar bo‘yicha).

Buyuk Britaniyada amal qilayotgan ijtimoiy ta’minot tizimining asoslarini 1940 yilning boshida Beveridj tomonidan e’lon qilingan hisobot tashkil etadi. Beveridj yondashuvining asosini badallardan imtiyozlarga yoki ijtimoiy sug‘urta g‘oyasi tashkil etadi. Amaliyotda aholining turmush darajasini pasaytiruvchi qator risklar mavjud. Ularga ishsizlik, mehnatga layoqatlilik qobiliyatini yoki oilada asosiy daromadni yo‘qotib qo‘yish kabi risklar kiradi. Ayrim turdagi (beva qolish) risklar kam uchraydi va iqtisodiy holat bilan bevosita bog‘liq emas. Pensiyaga chiqish kabi risklari keng tarqalgan va ularning oqibatini oldindan baholash mumkin.

Ijtimoiy sug‘urta bilan bog‘liq holda amaliyotda yuzaga keladigan muammolar:

- Ushbu xizmatlar nima uchun xususiy sektor tomonidan emas, balki davlat tomonidan ko‘rsatilishi kerak?
- Davlat va xususiy sug‘urta o‘rtasida qanday munosabatlar o‘rnatilishi zarur?
- Qanday risklar qamrab olinishi lozim?
- Ijtimoiy to‘lovlar qaysi tartibda amalga oshirilishi yoki hisoblanishi zarur?

Ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqalar olish huquqi ijtimoiy sug‘urta fondiga badallar to‘lashga asoslanadi va u individuallashtirilgan.

Muhtojlik bo‘yicha nafaqalar olish huquqi oila resurslari, jumladan, daromadlar va jamg‘armalar miqdoriga bog‘liq belgilanadi.

Buyuk Britaniya ijtimoiy ta’minot tizimida pensiya kreditlari, soliq krediti, uy-joy nafaqasi va soliq imtiyozlari amal qiladi[165].

Past daromadli aholi uchun mo‘ljallangan muhtojlik bo‘yicha imtiyozlar tizimi ba’zan “ijtimoiy yordam”, deb ataladi. Buyuk Britaniyada ijtimoiy yordam daromadlarni qo‘llab-quvvatlash (keksa yoshdagi kishilar daromadi, pensiya krediti) va ishsizlik bo‘yicha nafaqalarga asoslangan daromad sinonimi sifatida qo‘llaniladi. Ushbu nafaqalar oila turi va hajmidan kelib chiqqan holda daromadlari va

[165] Social Policy an Introduction-Forth edition/ Ken Blakemore, Louis Warwick-Booth/Open University Press/UK 2013.

jamg‘armalari muayyan darajadan past bo‘lganlar uchun belgilanadi va to‘lanadi.

Muhtojlik bo‘yicha nafaqalar belgilashda mamlakatlar o‘rtasida farqlar mavjud. Avstraliya va Yangi Zelandiyada ushbu turdagi nafaqalarni belgilashda daromadlar va jamg‘armalar miqdori o‘rganiladi. Ushbu holat kam daromadli aholi nafaqa olish huquqiga ega ekanligini anglatmaydi. Ba’zi hollarda maqsad yuqori daromadli aholini ijtimoiy ta’minot tizimi imtiyozlaridan chiqarib tashlashni nazarda tutsa, ba’zilarida ushbu tizimga faqat past daromadli aholi guruhlarini qo‘shmaslikni nazarda tutadi. Buyuk Britaniyada bolalar uchun soliq kreditlari ko‘p bolali oilalar uchun mo‘ljallangan. Shimoliy Yevropaning aksariyat mamlakatlarida ijtimoiy yordam ijtimoiy sug‘urta tizimi bilan qamrab olinmaganlar uchungina mo‘ljallangan. Jumladan, ijtimoiy yordam mahalliy tashkilotlar tomonidan manzilli shaklda amalga oshiriladi.

Shartli imtiyozlarni belgilashda farzandli bo‘lish (farzand uchun nafaqa), nogironlik (yashash uchun nafaqa) kabi muayyan shartlar nazarda tutiladi.

Buyuk Britaniya ijtimoiy ta’minot tizimida ba’zi imtiyozlar samarali hisoblanadi va ularga nisbatan qo‘shimcha to‘lovlar ko‘zda tutiladi. Jumladan, asrab olingan farzandlar uchun nafaqalar. Ushbu nafaqalarni tayinlashda oilalar daromadlari va jamg‘armalari tekshirib o‘tirilmaydi.

Buyuk Britaniya ijtimoiy ta’minot tizimida ko‘zda tutilgan imtiyozlarni uch guruhga bo‘linishi imtiyozlar o‘rtasidagi farqlarni soddalashtirishga qaratilganligini va shartli ekanligini isbotlaydi. Imtiyozlar uchun ajratilayotgan mablag‘lar miqdori moliyaviy resurslarga bog‘liq bo‘lish bilan birgalikda oilalar turi yoki ularning ijtimoiy holatlarga bog‘liq aralash belgilanadi. Jumladan, farzandi yo‘q yolg‘iz keksalar daromadlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan nafaqaga davo qilishi mumkin. Agar nafaqaga da’vogar shaxsiy yoki kasbiy pensiya oladigan bo‘lsa, nafaqa miqdori kamaytirilishi mumkin.

Aksariyat hollarda ijtimoiy ta’minot pulli to‘lovlar shaklida amalga oshiriladi, ayrim holatlarda ijtimoiy ta’minot “natura” shaklida, ijtimoiy xizmatlar yoki vaucherlar orqali amalga oshirilishi mumkin. AQShda kambag‘al oilalarga ovqatlanish uchun talonlar berish dasturlari samarali usul hisoblanadi. Ushbu xarajatlar oziq-ovqat mahsulotlariga almashtirilishi mumkin bo‘lgan vaucherlar yordamida to‘lanadi. Buyuk Britaniyada tishlar, ko‘zlarni davolash, yuridik yordam kabi xizmatlardan bepul foydalanish dasturlari amal qiladi.

7.3. Bandlik

Ijtimoiy himoya mehnatga layoqatli aholi uchun muhim ahamiyatga ega. Mehnatga layoqatli aholi ishsiz qolganda, ishlab chiqarishda jarohat olganda, kasal bo‘lib qolgan yoki farzandli bo‘lganida ijtimoiy himoya tizimi ularni daromad bilan ta’minlaydi yoki minimal ijtimoiy ta’minot darajasini kafolatlab beradi. Mehnat bozori mehnatga layoqatli aholi uchun mehnat faoliyati davomida kafolatlangan daromad manbai sifatida xizmat qiladi, ijtimoiy himoya daromadlarning uzluksizligini ta’minlashda muhim o‘rin tutai va shu tariqa iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarning amalga oshishiga ko‘maklashadi.

Dunyo bo‘yicha 2017-yilda o‘rtacha mehnatga layoqatli aholining mehnat yoshi davridagi kafolatlangan daromadlarini ta’minlash uchun sarflanadigan ijtimoiy himoya xarajatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2,3% ni tashkil etdi. Mintaqalar kesimida ushbu ko‘rsatkich 0,5% dan (Afrika) 5,9%ga (G‘arbiy Yevropa) o‘zgarib turadi[166].

Bandlik sohasidagi siyosatda band aholining mehnat faoliyatidan keyingi davrdagi turmush farovonligi muhim o‘rin egallaydi. Millionlab kishilar uchun haq to‘lanadigan bandlik yagona daromad manbai bo‘lishi bilan bir vaqtda ularning ijtimoiy holati va jamiyatdagi o‘rnini belgilab beruvchi manba hisoblanadi. Ishsizlik esa kambag‘allik holatiga tushib qolish va sog‘liqni yo‘qotib qo‘yish riskini oshiradi, ishsiz bo‘lib qolganlarning farzandlari yaxshi bilim olmasligi va yuqori haq to‘lanadigan ish o‘rinlariga ega bo‘lmasliklariga olib keladi. Ishsizlik darajasining yuqoriligi mamlakatlarda jinoyatchilik va ijtimoiy keskinlikning kuchayishi kabi ijtimoiy muammolarga sabab bo‘ladi[167].

Farovonlik tushunchasi ish qidiruvchilarni yaxshi haq to‘lanadigan ishga yo‘naltirishga qaratilgan siyosatga taalluqlidir. Ushbu siyosatga ijtimoiy ta’minotga muhtoj kishilar uchun ish joylarini ko‘paytirish, ish beruvchilarga ishsizlarni ishga qabul qilishlari uchun subsidiyalar ajratish yoki ish joylarini yaratish kabi tadbirlar kiradi.

Buyuk Britaniyada so‘ngi yillarda bandlik sohasida ijtimoiy ta’minot dasturlarida asosiy e’tibor ishsizlarni shaxsan qo‘llab-quvvatlash va maslahatlar berishga qaratila boshlandi. Ushbu tadbirlarning maqsadi uzoq muddatli ishsizlikni individual darajada hal etish, ishsizlarni ishga joylashishga rag‘batlantirish va ularni ish beruvchilar uchun jozibador qilishdan iborat. Ushbu siyosat mualliflari fikriga ko‘ra ishsiz shaxslarga

[166] World Social Protection Report 2018.

[167] Social Policy an Introduction-Forth edition/ Ken Blakemore, Louis Warwick-Booth/Open University Press/UK 2013.

individual ko‘rinishda maslahatlar berish, ish beruvchilar talab etayotgan yangi ko‘nikmalarga o‘rgatish samarali hisoblanadi[168].

Mehnatga layoqatli yoshdagi aholining ijtimoiy ta’minotga bo‘lgan ehtiyojlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Ishsizlik, ishlab chiqarish jarayonida olingan jarohat, nogironlik, kasallik, farzand ko‘rishlik natijasida vaqtinchalik yoki to‘liq yo‘qotilgan daromadlarni qoplashga bo‘lgan ehtiyoj.

2. Daromadlar miqdori kambag‘allik yoki ijtimoiy jihatdan alohidalashib, ajralib qolishni bartaraf etish uchun ijtimoiy himoyaga bo‘lgan ehtiyoj.

3. Yuqorida qayd etilgan holatlarda mehnat qobiliyatini tiklash va ishga joylashish uchun yordamga bo‘lgan ehtiyoj.

Ijtimoiy himoya doirasidagi siyosat bandlik, mehnat bozori va ish haqi sohasidagi ma’lumotlarga asoslanishi lozim. Bu esa milliy ijtimoiy ta’minot tizimlari xarajatlarini kamaytirish va samarali ijtimoiy siyosatni amalga oshirish imkonini beradi.

Sug‘urta badallari va bandlikka asoslangan ijtimoiy ta’minot dasturlari ilgari iqtisodiy faol bo‘lgan, ammo o‘z ish o‘rnini vaqtinchalik yoki umuman yo‘qotgan (ishsizlik nafaqasi), baxtsiz hodisa yoki kasalligi (ishlab chiqarish jarayonida jarohat olish bo‘yicha nafaqa), ish turi bilan bog‘liq bo‘lmagan (kasalligi, nogironligi va boquvchisini yo‘qotganlik bo‘yicha nafaqa) yoki homiladorlik holatlari, farzand ko‘rish va oilaviy sharoitlar (homiladorlik va farzand ko‘rish bo‘yicha nafaqa, ota bo‘lganlik yoki ota-onalar uchun nafaqa, bolalar yoki oilaviy nafaqalar) tufayli mehnat qobiliyatini yo‘qotgan yoki kasal bo‘lib qolgan kishilar va ularning qaramog‘idagilarni qamrab oladi.

Ushbu guruhga norasmiy sektorda band bo‘lganlar, rasmiy sektorda band, ammo past daromadlilar va uzoq muddat ishsiz yurganlar kiradi va ular odatda, sug‘urta badallariga asoslangan ijtimoiy ta’minot dasturlariga kirmay qoladilar. Ular sug‘urta badallari ajratilmaydigan, pulli yoki natura shaklida ijtimoiy yordam ko‘rsatiladigan dasturlar orqali qamrab olinishi mumkin. Ishchilarning aksariyat qismi ijtimoiy sug‘urta dasturlari orqali qamrab olingan mamlakatlarda sug‘urta badallariga asoslanmagan dasturlar odatda, ijtimoiy sug‘urta bilan qamrab olinmagan, uzoq muddat ishsiz yurgan va kam daromadli ishchilarga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

---

[168] Social Policy an Introduction-Forth edition/ Ken Blakemore, Louis Warwick-Booth/Open University Press/UK 2013.

Ba’zan ushbu dasturlar orqali nafaqa olish huquqiga ega aholi ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish dasturlari bilan bog‘lanadi. Ularga sog‘liqni saqlash yoki ta’lim (asoslangan ijtimoiy to‘lovlar), davlat bandlik (“bajarilgan ish uchun haq”) yoki kasbiy ta’lim va tadbirkorlik sohasini qo‘llab-quvvatlash dasturlarida qatnashish kabilar kiradi. Mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslar uchun ijtimoiy ta’minot sohasida quyidagi nafaqalar beriladi:

- Ishsizlik bo‘yicha nafaqa;
- Ishlab chiqarishda jarohat olganlik bo‘yicha nafaqa;
- Nogironlik nafaqasi;
- Onalikni muhofaza qilish.

Dunyoning aksariyat mamlakatlari yuqorida qayd etilgan holatlar bo‘yicha keng qamrovli yoki tor yo‘nalishga ega yangi tizimlarni amaliyotga joriy etishgan yoki ishlab chiqishmoqda. Ko‘pchilik hollarda milliy ijtimoiy ta’minot tizimlari sug‘urta badallariga asoslangan va sug‘urta badallariga asoslanmagan tizimlarni ijtimoiy himoya tizimini kengaytirish, badallar to‘lash imkoniyatiga ega bo‘lmagan aholi qatlamlarini qamrab olish maqsadida aralash qo‘llashni ma’qul ko‘rishmoqda. Aralash tizimlar milliy ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta’minot tizimining minimal darajasini shakllantirishga ko‘maklashadi.

Ishsizlikdan himoyalash tizimi ishlay olishi mumkin bo‘lgan ishsizlarga muayyan muddat mobaynida daromadlarini qo‘llab-quvvatlash uchun ko‘mak beradi. Ushbu tizim ishsiz shaxsning vaqtinchalik ishsiz yurgan davrida muayyan turmush darajasini qo‘llab-quvvatlash uchun yo‘qotgan daromadini qisman qoplash imkonini yaratadi. 2008–2009-yillardagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlari ishsizlik bo‘yicha beriladigan nafaqa ishsizlarni iqtisodiyotda sodir bo‘layotgan tarkibiy o‘zgarishlarga moslashtirishda muhim rol o‘ynashi mumkinligini ko‘rsatdi. Ishsizlik bo‘yicha nafaqa dasturlarining aksariyat qismi iqtisodiyotning rasmiy sektorida band bo‘lganlarni qamrab oladi.

Iqtisodiyotda norasmiy sektor ulushi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda bandlik sohasi va ijtimoiy himoya tadbirlarini aralash qo‘llashni nazarda tutuvchi, sug‘urta badallariga asoslanmagan ijtimoiy yordam dasturlari keng tarqalgan. Ushbu dasturlar bandlikni ta’minlash tizimlari, davlat bandlik dasturlari, yangi kasbiy malakani shakllantirishni qo‘llab-quvvatlash va ishga joylashish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini yaratish dasturlarini qamrab oladi.

Ishsizlik holatidan himoya qilish tizimi turlari. Jahon mamlakatlari ishsizlik holatidan ijtimoiy himoya qilishning quyidagi mexanizmlaridan foydalaniladi[169]:

- sug‘urta badallariga asoslangan;
- sug‘urta badallariga asoslanmagan;
- aralash.

Ishsizlik holatidan ijtimoiy himoya qilishning quyidagi turlarini farqlash mumkin:

Sug‘urta badallariga asoslangan ishsizlik nafaqasi tizimi. Ushbu tizim ijtimoiy sug‘urta shakliga ega bo‘lib, ish beruvchilar yoki ish beruvchi va yollanib ishlovchilarning sug‘urta badallari hisobidan moliyalashtiriladi, muntazam badallar undirish mumkin bo‘lgan rasmiy sektorda band bo‘lganlarni qamrab oladi[170].

Ishsizlik holatidan ijtimoiy sug‘urtalash tizimi afzalliklari birdamlik tamoyiliga asoslanganligi uchun risklarni taqsimlash, to‘lovlarni muntazam to‘lab borish va ulardan milliy iqtisodiyotda barqarorlashtirish vositasi sifatida foydalanishda namoyon bo‘ladi.

Sug‘urta badallari ko‘zda tutilmaydigan ishsizlik nafaqasi tizimi. Ushbu tizim ishsizlar uchun ijtimoiy yordam, deb ataladi va davlat byudjetidan moliyalashtiriladi. Ishsizlik nafaqasi miqdori sug‘urta tizimiga nisbatan kamroq bo‘ladi.

Ishsizlik bo‘yicha jamg‘armalar shakllantiriladigan tizimlar. Ushbu tizimda yollanib ishlovchilar individual hisob-raqamlarda jamg‘armalar jamg‘arishlari lozim. Ushbu jamg‘armalar ishsizlik holatida ishsizlik nafaqasi ko‘rinishida beriladi. Ushbu turdagi tizimlarda risklarni birlashtiruvchi muhim tarkibiy element yetishmaydi. Shaxsiy jamg‘armalar tugagandan so‘ng kafolatlangan daromadlar ham to‘xtaydi. Jamg‘arma hisoblarda katta miqdordagi mablag‘ jamg‘arganlar odatda, ishsiz bo‘lib qolish riskiga duch kelishadi. Ishsiz bo‘lib qolish riski yuqori bo‘lganlar esa kerakli daromadni kafolatlay oladigan zarur mablag‘larni jamg‘arishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Ushbu tizimlar ijtimoiy sug‘urta tizimidagi kabi ijtimoiy himoya darajasini ta’minlab bera olmasa-da, jami talabni barqarorlashtirish vazifasini bajaradi. Ushbu tizimlar pensiya hisob-raqamlaridan

---

[169] World Social Protection Report 2014/15.

[170] Skandinaviya mamlakatlarida ishsizlikdan himoyalash kasaba uyushmalari tomonidan amalga oshiriladi va badallar to‘lashni ko‘zda tutmaydigan tizimlar bilan to‘ldiriladi, ishsizlikdan himoyalashning ixtiyoriy tizimlari amal qiladi.

mablag‘larni qarzga olsa, keksayganda kafolatlangan daromadlarning keskin qisqarib ketishiga olib kelishi mumkin.

Bandlikni ta’minlash tizimlari. Ushbu tizimlar jamoat ishlari doirasida band bo‘lish va qishloq joylarda kam ta’minlangan ishchilar uchun pulli nafaqalar olish huquqini beradi. Bandlikni ta’minlashga qaratilgan yirik dasturlardan biri Hindistonda amalga oshirilgan Maxatma Gandi nomidagi qishloq joylarda bandlikni ta’minlash milliy tizimi hisoblanadi. Efiopiyada ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash dasturi qabul qilingan bo‘lib, ushbu dastur ishchilarni kafolatlangan daromad bilan ta’minlay olmasa-da, jamoat ishlarini oziq-ovqat va pul shaklidagi nafaqalar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi[171].

*Ishdan bo‘shaganda to‘lanadigan nafaqalar, a*ksariyat mamlakatlarda rasmiy bandlik turlari doirasida ishdan bo‘shatilganlarni daromad bilan ta’minlashning yagona shakli hisoblanadi. Nafaqaning ushbu turi risklarni ijtimoiy taqsimlash vositasi sifatida emas, balki ishchi uchun majburiy to‘lov sifatida ko‘rib chiqilishi lozim. Ishdan bo‘shaganda to‘lanadigan nafaqalar ishsiz qolgan shaxsni ishga qaytishi yoki ish beruvchining faoliyatiga tarkibiy o‘zgartirish nuqtai nazaridan yordam bermaydi va salbiy oqibatlarga ega bo‘ladi. Shu sababdan muntazam to‘lanadigan ishsizlik nafaqasi iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda ijobiy ta’sirga ega.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi natijasida aksariyat mamlakatlarda ishsizlik bo‘yicha nafaqa olish imkoniyatlari yaxshilandi yoki kengaytirildi. Misol uchun, Avstraliyada ishsizlik nafaqasini belgilash muddati qisqartirildi, Latviyada esa ishsizlik nafaqasini olish uchun zarur sug‘urta badallarini ajratish muddati qisqartirildi. Ba’zi mamlakatlarda ishsizlik nafaqasini olish huquqiga ega bo‘lmagan vaqtinchalik ishlayotganlar (Germaniya va Yaponiya), o‘zini-o‘zi band etuvchilar (Avstriya) va yoshlar (Argentina) ishsizlik nafaqasini olish huquqiga ega bo‘lishdi[172]. Ba’zi mamlakatlar ishsizlik nafaqasini to‘lash muddatini uzaytirishdi (Argentina, Braziliya, Yaponiya, Latviya, Ispaniya) yoki shoshilinch nafaqalar (AQSh) joriy etishdi[173]. Argentina va Braziliyada 2009-yilda retsessiyadan zarar ko‘rgan iqtisodiyot sektorlari uchun ishsizlik nafaqasini to‘lash muddatini vaqtinchalik uzaytirish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Uzaytirilgan muddatdan 103 ming kishi yoki ishsizlik bo‘yicha nafaqa oluvchilarning 20%i

[171] World Social Protection Report 2014/15.
[172] Bonnet, Saget and Weber, 2012
[173] World Social Protection Report 2014/15.

foydalanishdi; 2008-yilning oxirida Yaponiyada yangi ish joyini topish muammosiga uchraganlar uchun ishsizlik bo‘yicha nafaqa olish muddati 60 kunga uzaytirildi; Latviyada ishsizlik bo‘yicha nafaqa olish muddati to‘qqiz oyga qadar ketma-ket vaqtinchalik uzaytirildi (2009-yilning 1-iyulidan 2011-yilning 31-dekabiga qadar); Ispaniyada 2009-yilning oxiri va 2010-yilda uzoq muddatli ishsizlik holatlarida ishsizlik bo‘yicha nafaqa olish muddati uzaytirildi; AQShda 2008-yilning iyunidan 2014-yil 1-yanvarga qadar ishsizlik holatida ishsizlik bo‘yicha nafaqa miqdorini shoshilinch qoplash tadbirlari amalga oshirildi.

Demak, ishsizlikdan himoyalash, bandlik xizmati va bandlik bilan bog‘liq boshqa xizmat sohalari bilan hamkorlik ijtimoiy ta’minot tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ishsizlik nafaqasi iqtisodiy o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlash doirasida samarali bo‘lishi uchun ishsizlarni o‘qitish, qayta tayyorlash va mehnat bozoridagi boshqa faol tadbirlar bilan bog‘liq bo‘lishi zarur. Ushbu xizmatlardan ishsizlik bo‘yicha nafaqa oluvchilar, ishsizlik nafaqasini olmaydiganlar va iqtisodiyotning rasmiy va norasmiy sektorida band bo‘lganlar foydalana olishlari lozim.

7.4. Sog‘liqni saqlash

Sog‘liqni saqlash masalalari jahon mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Soliq to‘lovchilar mablag‘larining katta qismi sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishga sarflanmoqda. Shunga qaramasdan sog‘liqni saqlash sohasida tibbiy xizmatlarning qamrov darajasi pastligicha qolmoqda. Jumladan, past daromadli mamlakatlar aholisining 90%i tibbiy xizmatlardan foydalanish huquqiga ega emas. Jahon aholisining bor-yo‘g‘i 39%i sog‘liqni saqlash tizimi xizmatlaridan foydalan oladi. Natijada tibbiy xizmatlarga sarflanadigan xarajatlarning 40%i mijozlar zimmasiga tushmoqda[174].

Davlat o‘z fuqarolarining sog‘lig‘i uchun mas’ul hisoblanadi. Ushbu holat aksariyat rivojlangan mamlakatlarda davlat xarajatlari tarkibida sog‘liqni saqlash xarajatlarining yuqori ulushga ega ekanligida namoyon bo‘lmoqda.

Sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirishning quyidagi modellarini ajratish mumkin[175]:

- soliqlarga asoslanadigan;

[174] World Social Protection Report 2014/15./15.
[175] Social Policy an Introduction-Forth edition/ Ken Blakemore, Louis Warwick-Booth/Open University Press/UK 2013.

- davlat sug‘urtasiga asoslanadigan;
- xususiy sug‘urtaga asoslanadigan.

Buyuk Britaniya Milliy sog‘liqni saqlash xizmati (National Healthcare System) tadqiqotchilar tomonidan ijtimoiy ta’minotning asosi sifatida ko‘rib chiqiladi. Buyuk Britaniyada tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi barcha fuqarolar uchun joriy etilgan bo‘lib, tibbiy ko‘rikdan o‘tish, telefon orqali maslahatlar olish, terapevt ro‘yxatida turish va boshqalar bazaviy huquqlar hisoblanadi. Shu bir vaqtda dori-darmonlar olish uchun faqat vrach tavsiyasi zarur. Milliy sog‘liqni saqlash xizmati tarixan universitetlar qoshidagi kasalxonalarda shakllangan va rivojlangan. Jahon banki ma’lumotlargiga ko‘ra Buyuk Britaniyada 2012-yilda kasalxonalarda ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar uchun jami sog‘liqni saqlash xarajatlarining 83%i sarflangan va ushbu ko‘rsatkich mamlakat YaIMning 9,4%ini tashkil etgan. Umumiy tibbiy amaliyot aksariyat kasalliklarga (kasalliklarning 95%i) qarshi kurash olib borilayotganligiga qaramasdan sog‘liqni saqlash xarajatlarining 10%ga yaqin qismigina sarflangan[176].

Buyuk Britaniyada soliqlarga asoslangan moliyalashtirish tizimi amal qiladi. Shu bilan bir vaqtda mamlakat aholisining 10%idan ortig‘i xususiy tibbiy sug‘urta tizimidan foydalanadi. Mamlakatda birgalikda amalga oshiriladigan to‘lovlar – dori-darmonlar, kasalxonada mashinalarni parkovkalash uchun ham to‘lovlar mavjud.

Sog‘liqni saqlash tizimi xizmatlari boshqa tovarlar va xizmatlardan tubdan farq qiladi. Cog‘liqni saqlash xizmatlari talabni yuzaga keltiradi. Masalan, rak kasaliga qarshi ishlab chiqilgan yangi dori odamlarning hayotini saqlab qolmasa-da, yangi doriga bo‘lgan ishonch talabni shakllantiradi. Tibbiy xizmatlar bozori xususiy to‘lov qobiliyatiga asoslanganligi bois davolanishga muhtoj kishilarning tabaqalanishiga olib keladi. Kam ta’minlangan kishilar, imkoniyati cheklanganlar, bolalar va keksa kishilar sog‘liqni saqlash xizmatlariga ehtiyojlari yuqori bo‘lsa-da, ularda xususiy tibbiy sug‘urta yoki tibbiy xizmatlar uchun bevosita to‘lovlarni amalga oshirish imkoniyati past bo‘ladi.

Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda ko‘pchilik sog‘liqni saqlash ijtimoiy birdamlikning asosi bo‘lib, uni inson huquqlari sifatida ko‘rib chiqish zarur, deb hisoblashadi. Jamiyatda sog‘liqni saqlash xizmatlaridan aholining barcha qatlamlari birday foydalanish imkoniyati yaratilishi zarur.

---

[176] Paul Spicker. Social policy. Электронный ресурс. http://www.spicker.uk/social-policy/health.htm .

Sog‘liq tushunchasi. Umumjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti 1946 yilda sog‘liq tushunchasiga quyidagicha ta’rif bergan: “Sog‘liq – bu insonda oddiygina og‘riqlar va jismoniy nuqsonlarning yo‘qligi emas, balki insonning to‘laqonli jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligi holatidir”. Sog‘liqni saqlashni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi tibbiy yordamga bo‘lish mumkin. Birinchi tibbiy yordam tibbiy amaliyot, klinikalar va kasalxonalarda (jumladan mijozning uyida) umumamaliyot shifokorlari tomonidan ko‘rsatiladi. Tibbiyot xodimlari va mijozlar o‘rtasidagi aloqalarning 90%i birinchi yordam shaklida amalga oshadi. Birinchi tibbiy yordam profilaktika xizmatlari (immunizatsiya, skrining, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish), kasallarga qarash (mijoz sog‘lig‘ini kuzatish) va davolash (dori-darmonlar tayinlash, kichik operatsiyalar) dan iborat. Ikkinchi tibbiy yordam kasalxonalarda ixtisoslashtirilgan, maxsus tibbiy yordamdan iborat bo‘ladi. Tor sohada ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar uchinchi tibbiy xizmatlarga kiradi va maxsus murakkab sharoitlarda amalga oshiriladi[177].

Sog‘liqni saqlash xizmatlari mohiyati ko‘pincha kasbiy faoliyat turlari bilan aniqlanadi. Buyuk Britaniyada tibbiy xizmatlar naternalistik ruhda tashkil etilgan. Tibbiy xizmatlarning aksariyat qismi ko‘ngillilar va norasmiy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Jumladan, Buyuk Britaniyada kasallarga qarash bilan 7 million kishi shug‘ullanadi. Shuningdek, ko‘pchilik o‘zini-o‘zi davolash (masalan, dorilarni vrach ko‘rsatmasisiz sotib olish) bilan shug‘ullanadi[178].

Sog‘liqni saqlash xizmatlarini moliyalashtirish. Sog‘liqni saqlash sohasida jiddiy muvafaqqiyatlarga erishgan mamlakatlarda davlat tomonidan moliyalashtiriladigan yoki milliy, ijtimoiy, xususiy tibbiy sug‘urta tizimi shaklidagi daromadlarni yig‘ish, qayta taqsimlashga asoslangan moliyalashtirish mexanizmidan foydalanishadi.

Milliy tibbiy xizmatlarni moliyalashtirish uchun davlat mablag‘laridan (Kanada) va soliqlar yordamida moliyalashtiriladigan boshqa dasturlardan (Keniyada onalar uchun vaucherlar yoki Nikaraguada pulli to‘lovlar) foydalanish mumkin. Boshqa mamlakatlarda davlat mablag‘lari sog‘liqni saqlash tizimini subsidiyalash uchun foydalaniladi. Ushbu mamlakatlarda tibbiy xizmatlar sug‘urta badallari, jumladan, ijtimoiy tibbiy sug‘urta tizimi badallari (Germaniya va

[177] Social Policy an Introduction-Forth edition/ Ken Blakemore, Louis Warwick-Booth/Open University Press/UK 2013.
[178] Social Policy an Introduction-Forth edition/ Ken Blakemore, Louis Warwick-Booth/Open University Press/UK 2013.

Avstriya) va milliy tibbiy sug‘urta tizimlari mablag‘lari (norasmiy sektorda band bo‘lganlarning tibbiy sug‘urta badallari davlat subsidiyalari yordamida qo‘llab-quvvatlanadi (Gana)) hisobidan moliyalashtiriladi[179].

Tibbiy xizmatlarni moliyalashtirish ko‘rsatkichi xususiy moliyalashtirishni qamrab oladi, chunki to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirish mexanizmi barcha mamlakatlarda turli darajada uchraydi. Bunda naqd to‘lovlar shakli sog‘liqni saqlashni moliyalashtirish mexanizmi sifatida ko‘rib chiqilmasligi lozim. Tibbiy xizmatlarni moliyalashtirishda naqd to‘lovlar shaklidan xarajatlarni tartibga solishni rag‘batlantirish omili sifatida cheklangan holda qo‘llanilishi mumkin.

Sog‘liqni saqlash sohasida soliqlar va sug‘urta badallari asosida moliyalashtirish mexanizmi orqali aholining barcha qatlamlarini sog‘liqni saqlash tizimi bilan qamrab olishda jiddiy muvafaqqiyatlarga erishgan mamlakatlarga Buyuk Britaniya (Milliy sog‘liqni saqlash xizmati) va Germaniyani (ijtimoiy tibbiy sug‘urtadan foydalanuvchi) kiritish mumkin. Dunyoda XXI asr boshlarida sog‘liqni saqlashni moliyalashtirishning ikkala tizimini aralash qo‘llash amaliyoti keng tarqaldi.

Dunyo mamlakatlarining 88 nafarida mamlakat aholisining 80%i sog‘liqni saqlash tizimi xizmatlari bilan to‘liq qamrab olingan. Ayrim mamlakatlarda ushbu ko‘rsatkichga iqtisodiy inqirozlar va milliy daromadlar darajasining pastligi davrida qisqa muddatda erishildi (Taylandda 10 yil ichida).

Yuqorida qayd etilganidek, sog‘liqni saqlash xarajatlarining 40%idan ortig‘i mijozlar zimmasiga tushmoqda. 2014 yilda sog‘liqni saqlash sohasi xizmatlari bilan aholini naqd to‘lovlar shaklida qamrab olish darajasi 80%ni tashkil etdi[180]. Ushbu ko‘rsatkich naqd to‘lovlar shakli tibbiy xizmatlardan foydalanishda jiddiy to‘siqlarni yuzaga keltirishi, ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi va kambag‘allik darajasining ortishiga olib kelishi mumkin. Naqd to‘lovlar shakli tibbiy xizmatlarni moliyalashtirishda birdamlik tamoyillariga mos kelmaydi.

Naqd to‘lovlar shakli kambag‘al mamlakatlarda sog‘liqni saqlash xizmatlarini moliyalashtirishda yetakchi o‘ringa ega. Jumladan, Afrikada tibbiy xizmatlar uchun amalga oshiriladigan xususiy xarajatlar davlat xarajatlaridan ortib ketadi va mintaqa yalpi ichki mahsulotiga nisbatan

[179] World Social Protection Report 2014/15.
[180] World Social Protection Report 2014/15.

deyarli 3%ni tashkil etadi. Ushbu mamlakatlarda kambag‘allik darajasi va tibbiy xizmatlar uchun sarflanayogan xarajatlar tarkibida naqd to‘lovlar ulushi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud. Naqd to‘lovlar darajasi kambag‘allik chegarasidan pastda yashayotgan aholi soni ortgani sari ko‘payib bormoqda. Bir kunda yashash uchun 2 dollar sarflayotgan aholi ulushi 2%dan kam bo‘lmagan mamlakatlarda tibbiy xizmatlar uchun sarflanayotgan xarajatlar tarkibida naqd to‘lovlar shaklidagi xarajatlar 20%ni, kambag‘allik chegarasidan pastda yashayotgan aholi ulushi 50%ni tashkil etayotgan mamlakatlarda esa ushbu ko‘rsatkich 50%ni tashkil etadi[181]. Demak, kambag‘allik chegarasidan pastda yashayotganlar tibbiy xizmatlarga muhtoj aholi hisoblanadi va tibbiy xizmatlardan ko‘proq naqd to‘lovlar shaklida foydalanishadi.

Sog‘liqni saqlash tizimi xizmatlaridan ijtimoiy himoya orqali foydalanishning zamonaviy konsepsiyasi sog‘liqni saqlash tizimini inson huquqlari nuqtai nazaridan ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Xalqaro mehnat tashkilotining №202-tavsiyalari inson sog‘lig‘ini saqlash huquqini ijtimoiy va iqtisodiy omillar bilan bog‘laydi. Ushbu bog‘liqlikni sog‘liqni saqlash doirasida ko‘rib chiqadi. Bunday yondashuv ijtimoiy sog‘liqni saqlash institutlari va muassasalarini barqaror rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, aholini to‘liq tibbiy xizmatlar bilan qamrab olish va birlamchi sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratishni talab etadi. Sog‘liqni saqlash xizmatlarini ko‘rsatish turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasida tenglikni, ijtimoiy jihatdan alohidalashib qolmaslik va kambag‘allik darajasining oshib ketmasligini ta’minlashi zarur.

Aholini sog‘liqni saqlash tizimi xizmatlari bilan to‘liq qamrab olishning zamonaviy konsepsiyasi soliqqa tortish mexanizmidan foydalanish (milliy sog‘liqni saqlash xizmatlari) orqali xarajatlarni qayta taqsimlash, ish haqidan ajratiladigan sug‘urta badallari asosida moliyalashtirish (turli ijtimoiy, milliy yoki xususiy sug‘urta shakllari uchun) moliyalashtirishni ham o‘z ichiga oladi.

Naqd to‘lovlar shaklida tibbiy xizmatlardan foydalanish sog‘liqni saqlashni bevosita moliyalashtirish vositasi hisoblanmaydi, ammo minimal darajada, rag‘batlantirish omili sifatida qo‘llanilishi tavsiya etiladi. Tibbiy xizmatlar ko‘rsatish yordamida sog‘liqni saqlash

[181] World Social Protection Report 2014/15.

xizmatlaridan foydalanish huquqlariga rioya etish majburiyati sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish mexanizmiga bog‘liq bo‘lmasligi lozim.

7.5. Uzluksiz ta’lim

Inson hayotining barcha bosqichlarida ta’lim muhim o‘rin egallaydi. Ta’lim olish maktabgacha ta’lim muassasalarida, maktablarda, kollejlarda, universitetlarda, ishda, uyda yoki jamoat joylarida amalga oshishi mumkin va asosan kattalarga mo‘ljallangan bo‘ladi. Uzluksiz ta’lim ushbu tizimida har bir kishi ta’limning barcha bosqichlarida nima uchun o‘qiyotganini bilishi talab etiladi[182].

Yevropa ta’lim modeli boshlang‘ich maktabdan boshlab, o‘quvchilarga yuqori talablarni qo‘yish va ularga puxta bilim, jumladan tabiiy va muhandislik fanlari sohasida chuqur bilim berishga qaratilgan. Jumladan, maktabgacha ta’lim tizimi ham mavjud. Boshlang‘ich va o‘rta maktabda o‘qish jami 10-12 yil davom etadi va umumiy hisoblanadi. Keyingi bosqich kasb-hunar, oliy ta’lim va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limdir. Bu modelda barcha darajada bilim olish markazlashtirilgan bo‘lib, asosan davlat hisobidan bepul o‘qitiladi. Ushbu modelda o‘quvchilar bilimini boshlang‘ich maktabdan boshlab baholash mezonlari yuqori hisoblanadi va o‘quvchilar ushbu mezonlar asosida sinfdan-sinfga ko‘chiriladi.

Yevropada universitetlar avtonomiyasi chuqur tarixiy ildizga ega bo‘lsa-da, Amerikadagiga qaraganda mustaqilligi nisbatan kamroq. O‘quv yurtlarini boshqarishda akademik doiralarning roli katta, AQShda esa ushbu vazifa ustun darajada homiylik kengashlari zimmasiga yuklangan.

Yevropa modeli doirasida ingliz, fransuz va nemis ta’lim modellari. Jumladan, «dual prinsip» (ya’ni, ta’limni ishlab chiqarish bilan bog‘lash) nemis modelining, ta’limning barcha uchun bepulligi fransuz ta’lim modelining o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Yevropa ta’lim tizimi keng ko‘lamli o‘qitish tizimi va ishchi mutaxassisliklarga, jumladan mehnat va aholi bandligi organlari tomonidan bepul asosda qayta o‘qitish tizimini ham o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari asosan ish beruvchilar yoki o‘qiydiganlar tomonidan talab etiladigan va haq to‘lanadigan kadrlar malakasini oshirish bo‘yicha juda keng qamrovli tizim ham mavjud.

---

[182] Social Policy an Introduction-Forth edition/ Ken Blakemore, Louis Warwick-Booth/Open University Press/UK 2013.

Osiyo ta'lim modeli ta'limni moliyalashda davlatdan tashqari xususiy biznes muhim rol o'ynashi bilan ajralib turadi. Bu yerda maktablar munitsipal organlar tasarrufida, xususiy va davlat oliy o'quv yurtlari son jihatidan taxminan teng. Umuman olganda ta'limni moliyalashda mahalliy manbalar milliy manbalarga qaraganda ko'pchilikni tashkil etadi. Boshlang'ich va o'rta ta'lim asosan bepul, oliy ta'lim esa pullidir, talabalarga grantlar va kreditlar hisobidan ta'lim xizmatlari uchun pul to'lash bo'yicha yordam beradigan ko'p tarmoqli tizim mavjud.

Amerika tizimida davlat va xususiy maktablar, eng yaxshi va o'rtacha universitetlarda ta'lim sifati keskin farq qiladi. Boshlang'ich maktablarda o'quvchilarning bilim darajasiga nisbatan soddalashtirilgan talablar ularning bilim olishiga qarab ortib boradi. Boshlang'ich maktablarda ko'proq turli ijtimoiy fanlar o'qitilsa, o'rta maktablarda o'qishni ixtisoslashtirish uchun keng imkoniyat yaratilgan. Amerika modelida oliy o'quv yurtlarining ta'lim mazmun-mohiyatini belgilashda mustaqillik darajasi yuqori. Bu jarayonda davlat boshqaruv organlari deyarli ishtirok etmaydi.

Mutaxassislarni o'qitish, tayyorlashni tashkil etish va uslubiyati bo'yicha Sharq va G'arb, an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarning birikmasini ifoda etadi. Ushbu modelda Osiyo mamlakatlari uchun xos bo'lgan va mintaqa tashqarisidan, jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya, qator Yevropa davlatlaridan olingan ta'lim tizimini boshqarishning institutsional tuzilma elementlari o'z aksini topgan.

Yaponiya va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy etishda, jahon bozori va eksport ekspansiyasiga jadal kirib borishda katta muvaffaqiyatlarga erishgani uchun Osiyo yo'lbarslari, deb nom olgan to'rtta mamlakatda (Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur va Gonkongda) inson salohiyati va ta'limni imkon qadar rivojlantirishga azaldan alohida e'tibor qaratib kelingan. Buning sababi shundaki, ushbu mamlakatlarda foydali qazilmalar va hududlar yo'q, ularning asosiy boyligi – bu inson kapitali hisoblanadi. Aynan inson aqliy qobiliyati va innovatsion intilishi bilan ushbu mamlakatlarni qashshoq va texnik jihatdan qoloqlar qatoridan olib chiqdi. Keyinchalik Malayziya, Xitoy, Hindiston, Turkiya va Osiyoning turli tabiiy resurslarga boy boshqa qator mamlakatlari ta'lim sohasini rivojlantirishda yetakchilarga aylandi. Ta'lim sohasida ulkan natijalar va u bilan bog'liq ilmiy-texnik taraqqiyotga erishishda Sharq mentalitetiga xos ma'naviy mukammallik, oliy maqom va peshqadamlikka intilish,

umummilliy vazifalarni hal etishda vatanparvarlik va sog‘lom shuhratparastlik kabi xislatlar muhim rol o‘ynadi.

O‘zbekistonda tub o‘zgarishlar strategiyasi mahalliy qadriyatlar, tajriba va an’analarni hisobga olgan holda ilg‘or xorij tajribasidan foydalanishga asoslangan. O‘zbekiston milliy ta’lim tizimini isloh qilish jarayonidagi ta’lim modellari, jumladan, Osiyo ta’lim modelining elementlari muvaffaqiyatli qo‘llanilayotgan boshqa mamlakatlar yutuqlarini hisobga olish va ijodiy foydalanishga intilmoqda.

Bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yosh avlodga uzluksiz ta’lim berish va uni tarbiyalash jarayonini yaxlit qamrab oladigan yagona ta’lim majmui hisoblanadi. Bunda ta’lim tizimining har bir bo‘g‘ini alohida o‘rin va mas’uliyatga ega. Dasturni to‘liq amalga oshirish va qo‘yilgan vazifalarga erishish ushbu bo‘g‘inlarning holati va rivojlanish darajasiga, ularning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi O‘zbekiston Respublikasining “ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni qoidalariga muvofiq holda, milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan bo‘lib, yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro‘yobga chiqarish, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta’lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o‘zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni jamiyat, davlat va oila oldida o‘z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

7.6. O‘zbekistonda ijtimoiy xizmatlar va ularni moliyalashtirish xususiyatlari

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj toifalari (keksalar, nogironlar, ko‘p bolali oilalar va b.) turmush darajasini yaxshilashga va moddiy farovonligini oshirishga xizmat qilishi zarur. Ijtimoiy himoya tizimi maqsadli, mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasiga mos, samarali-manzilli (yaxshi boshqariladigan aks informatsion ta’sir ko‘rsatuvchi, qo‘yilgan maqsadga kam xarajatlar

bilan erishishi, adolatli) va xalqning urf-odatlari, madaniyati va an'analariga asoslangan bo'lishi lozim.

Bu boradagi ustuvor vazifalar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentyabrida Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyutsiyasiga muvofiq, 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlar rejasida o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilligini yanada kuchaytirish orqali 2030-yilgacha fuqarolarning qashshoqlik shaklini bartaraf etish (1.1-vazifa), 2030-yilgacha kam ta'minlangan erkaklar, xotin-qizlar va barcha yoshdagi bolalarning ulushini kam ta'minlanishning barcha ko'rinishlarida ikki barobarga qisqartirish (1.2-vazifa) kabi vazifalar belgilab olindi[183].

Mamlakatimizda ijtimoiy himoya dasturlari fuqarolarni hayot siklining barcha bosqichlarida ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi (7.6.1-rasm).

Aholini ijtimoiy himoya qilish masalalari 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "... aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarining ijtimoiy himoyasi, keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish" vazifasi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilab qo'yilganligini ta'kidlab o'tish joiz[184].

XXI asr boshlariga kelib rivojlangan ijtimoiy himoya tizimlari ob'ektiv sabablarga ko'ra jamiyat himoyasiga ehtiyoj sezayotgan aholi guruhlariga nisbatan ijtimoiy adolat va manzillilik tamoyillari asosida qurila boshlandi. Bunda "ijtimoiy manzillilik", deganda aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi guruhlarining real ehtiyojlarini e'tiborga olish ma'nosida tushunilishi zarur.

---

[183] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 20-oktyabr, 841-son qarori

184 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo 'yicha harakatlar strategiyasi to'g 'risida"gi 2017-yil 7-fevral, PF-4947-sonli Farmoni.



7.6.1-rasm. Inson hayoti sikli bosqichlarida ijtimoiy nafaqalar

Manzilli dasturlarning ijtimoiy himoya tizimidagi o‘rninni chuqurroq o‘rganishda ularning qamrov darajasi va maqsadliligini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Umumiy ijtimoiy himoya aholining nochor qatlamlarini kambag‘allik riskiga duch kelish yoki ijtimoiy alohidalashgan guruhlar sirasiga kirib qolishdan himoyalashi zarur. Shu sababdan ijtimoiy himoya tizimi aholi guruhlarining minimal farovonligini ta’minlashga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar va strategiyalarni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy himoya tizimi elementlarining samaradorligi kambag‘allikka va ijtimoiy himoyalanmaganlikka qarshi kurashga nisbatan kompleks yondashuv va har bir elementning boshqalari bilan bog‘liqlikda amalga oshirilishi bilan bog‘liqdir.

Ijtimoiy himoyaga investitsiya sarflash barqaror iqtisodiy o‘sish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va uning raqobatbardoshligini oshirishda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun ijtimoiy himoya muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida sarflanayotgan mablag‘lar davlat byudjeti xarajatlar qismida salmoqli

ulushga ega. Jumladan, 2018-yilda davlat byudjeti xarajatlarining 56,3%ini ijtimoiy xarajatlar tashkil etganligi buning yaqqol dalilidir (7.6.2-rasm).



7.6.2-rasm. Davlat byudjetidan ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun ajratilayotgan xarajatlar tarkibi, 2018 y. (jamiga nisbatan foiz hisobida)[185]

2018-yilda davlat byudjeti xarajatlar qismining 5,1%i ijtimoiy nafaqalar, moddiy yordam va pulli to'lovlardan iborat bo'ldi. Ushbu xarajatlar byudjetdan ajratiladigan jami ijtimoiy xarajatlarning 9%ini tashkil etdi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq kam ta'minlangan oilalarga quyidagi turdagi ijtimoiy nafaqalar to'lanadi:

- Kam daromadli oilalarga har oyda ko'rsatiladigan moddiy yordam;
- 2 yoshgacha farzandi bor onalarga bola parvarishi uchun oylik nafaqalar;
- 14 yoshgacha farzandi bor oilalarga oylik nafaqalar;
- tabiiy ofatlardan zarar ko'rgan oilalarga moddiy yordam.

14 yoshgacha farzandi bor kam ta'minlangan oilalarga to'lanadigan oylik nafaqalar miqdori quyidagicha aniqlanadi:

- bitta farzandi bor oilalarga eng kam ish haqi miqdorining 50%i darajasida;
- ikkita farzandi bor oilalarga eng kam ish haqi miqdorining 80%i darajasida;
- uch va undan ko'p farzandli oilalarga eng kam ish haqi miqdorining 100%i darajasida.

[185] Бюджет для граждан 2018. /Министерство финансов рУз. –Т.: Baktria press, 2018. С. 36.



7.6.3-rasm. Davlat byudjetidan aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilayotgan mablag‘lar tarkibi, jamiga nisbatan foiz hisobida[186]

Har oyda to‘lanadigan ijtimoiy nafaqalar miqdori har yili indeksatsiya qilinadi. 2018-yil 1-noyabrdan byudjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarining maoshi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar o‘rtacha 1,1 martaga oshirildi hamda ish haqining minimal miqdori 202 730 so‘m, yoshga doir pensiya 396 500 so‘m, bolalikdan nogironlik nafaqasi 396 500 so‘m, tegishli mehnat stajiga ega bo‘lmagan, keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolar uchun nafaqalar 243 300 so‘m miqdorida belgilandi[187].

2017-yilda ijtimoiy ta’minot (“Muruvvat” va “Saxovat” internat uylari) xarajatlari byudjet xarajatlarining 0,7%ini tashkil etib uning tarkibida protezlashtirish xarajatlari 3,8%ni, nogironlar uchun xarajatlarni qoplash 11,2%ni, uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatishning hududiy markazlari va bo‘limlarini moliyalashtirish 16,2%ni, ijtimoiy ta’minot muassasalarini saqlash 68,8%ni tashkil etdi[188].

[186] Бюджет для граждан 2018. /Министерство финансов рУз. –Т.: Baktria press, 2018. С. 53.
[187] https://sputniknews-uz.com/economy/20181013/9688558/Ozbekistonda-1-noyabrdan-oylik-stipendiya-va-pensiyalar-miqdori-oshirildi.html
[188] O‘ша манба.

Glossariy

O‘zbekcha	Ruscha	Inglizcha	Izoh
Ijtimoiy xizmatlar	Социаль-ные услуги	Social services	Mijozga amaldagi qonunchilikda ko‘zda tutilgan ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha xatti-harakat. Turli mulkchilik shaklidagi ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar, muassasalar, shuningdek, yuridik shaxs tashkil qilmasdan aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fuqarolar
Daromad	Доход	Revenue	Hisobot davrida iqtisodiy foydani aktivlar oqimi yoki ko‘payishi shaklida o‘sishi yoki passivlarni qatnashchilarning kapitaldagi omonatlaridan farq qiluvchi o‘sishiga olib keluvchi kamayishdir
Bandlik	Занятость	Employ-ment	Mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg‘ul bo‘lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan va qonunga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyat bilan mashg‘ulligi
Nafaqa	Пособие	Benefit	Yordam pul to‘lovi. Qonun xujjatlarida nazarda tutilgan hollarda fuqaro(oila)ga davlat mablag‘lari yoki boshqa manbalar hisobidan muntazam yoki bir martalik ko‘rsatiladigan yordam, pul to‘lovi
Ijtimoiy sug‘urta	Социаль-ное страхова-ние	Social insurance	Fuqarolarni ijtimoiy ta’minlashning shakllaridan biri. Fuqarolar nafaqa yoshiga yetganda, mehnatga qobiliyatini vaqtincha yoki doimiy yo‘qotganda ular sog‘lig‘ini saqlash maqsadida pul va moddiy ta’minlash tizimidan (davlat va jamoatchilik) iborat
Risk	Риск	Risk	Inson faoliyati, bu tanlash majburiy bo‘lgan hollarda mavhumlikni bartaraf etish bilan bog‘liq, mazkur jarayonda mo‘ljallangan natijaga, muvaffaqiyatsizlikka, yutqizishga,

			yutishga, maqsadga erishishga va maqsaddan chetlashish ehtimolini sifat va miqdor jihatdan baholash imkoniyati.
Ijtimoiy to‘lov	Социаль-ный платеж	Social payment	Kam ta’minlagan kishilarga pul yoki natural shaklda ijtimoiy yordam ko‘rsatishga qaratilgan tadbirlar tizimi
Mehnatga layoqatli	Трудоспо-собный	Ablebo-died	Kishilarning mehnat qilishda bilim va malaka, ishlab chiqara olish qobiliyati
Ishsizlik	Безработи-ца	Unemploy-ment	Aholi iqtisodiy faol qismining o‘ziga ish topa olmaslik holati. Mehnatga layotqatli bo‘lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta’minlanmagan ishchi kuchi
Sug‘urta badallari	Страховые взносы	Insurance contribu-tions	Sug‘urta polisi bo‘yicha sug‘urtalangan ob’ekt yoki sub’ekt uchun to‘lab boriluvchi to‘lovlar
Ishsizlik bo‘yicha nafaqa	Пособие по безработи-це	The unemploy-ment benefit	Qonunda belgilangan tartibda ishsiz deb tan olingan fuqarolarga pul to‘lovlari. To‘lov qonunda belgilangan miqdorda to‘lanadi. To‘lash shartlari va muddatlari qonun xujjatlari asosida amalga oshiriladi.
Ishlab chiqarishda jarohat olganlik bo‘yicha nafaqa;	Пособие по травму в произ-водстве	Benefit for injure in produc-tion process	Ishlab chiqarish jarayonida baxtsiz hodisa tufayli olingan jarohat uchun, mehnat qobiliyatini yo‘qotganligi uchun qonunchilikda belgilangan to‘lov.
Nogironlik nafaqasi;	Пособие по инвалид-ности	Benefit for the disable	Qonunchilikka asosan nogironlarga beriladigan nogironligiga ko‘ra nafaqa to‘lovi.
Onalikni muhofaza qilish	Защита мате-ринства	Protection of mother-hood	Davlat va jamoatchilik tadbirlari tizimi. Ona va bola sog‘lig‘ini himoya qilishga qaratilgan. Onalikning tibbiy-ijtimoiy va iqtisodiy o‘rni ayollar sog‘ligini saqlash, onalar va go‘daklar o‘limini kamaytirish, kasallanishini pasaytirish, ilk bolalikdan jismoniy va ruhiy sog‘lom avlodni ta’minlashda kattadir.

Bandlikni ta’minlash tizimlari.	Системы обеспечения занятости	Systems of maintenance of employment	Ushbu tizimlar jamoat ishlari bilan band bo‘lish va qishloq joylarda kam ta’minlangan ishchilar uchun pulli nafaqalar olish huquqini beradi. Bandlikni ta’minlashga qaratilgan yirik dasturlardan biri Hindistonda amalga oshirilgan Maxatma Gandi nomidagi qishloq joylarda bandlikni ta’minlash milliy tizimi hisoblanadi. Efiopiyada ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash dasturi qabul qilingan bo‘lib, ushbu dastur ishchilarni kafolatlangan daromad bilan ta’minlay olmasa-da, jamoat ishlarini oziq-ovqat va pul shaklidagi nafaqalar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi
Ishsizlik bo‘yicha jamg‘armalar shakllantiriladigan tizimlar.	Системы в котором формируется фонды по безработице	Systems with formed funds on unemployment	Ushbu tizimda yollanib ishlovchilar individual hisob-raqamlarda jamg‘armalar jamg‘arishlari lozim. Ushbu jamg‘armalar ishsizlik holatida ishsizlik nafaqasi ko‘rinishida beriladi. Shaxsiy jamg‘armalar tugagandan so‘ng kafolatlangan daromadlar kelishi to‘xtaydi. Jamg‘arma hisoblarda katta miqdordagi mablag‘ jamg‘arganlar odatda, ishsiz bo‘lib qolish riskiga kam uchrashadi. Ishsiz bo‘lib qolish riski yuqori bo‘lganlar esa kerakli daromadni kafolatlay oladigan zarur mablag‘larni jamg‘arishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.
Ishdan bo‘shatilganda to‘lanadigan nafaqalar.	Пособии по увольнение с работы	The grant on dismissal from work	Aksariyat mamlakatlarda rasmiy bandlik turlari doirasida ishdan bo‘shatilganlarni daromad bilan ta’minlashning yagona shakli hisoblanadi. Muntazam to‘lanadigan ishsizlik nafaqasi iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda ijobiy ta’sirga ega.
Sog‘liq tushunchasi.	Понятие здоровья	The concept of health	sog‘liq – bu insonning to‘laqonli jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holatidir

Nazorat savollari:

1. Ijtimoiy ta’minot va daromadlarni qo‘llab-quvvatlashning mohiyatini yoritib bering.
2. Bandlikka ko‘maklashish xizmati deganda nimani tushunasiz?
3. Sog‘liqni saqlash ijtimoiy xizmatlarini tasniflab bering.
4. Uzluksiz ta’lim xizmatlari va uning bosqichlarini tushuntirib bering.
5. Ijtimoiy yordam turlarini sanab bering.

Testlar:

1. Keng ma’noda ijtimoiy ta’minot deganda ...

a) Ijtimoiy ta’minotning barcha moliyaviy manbalari ko‘rib chiqiladi;

b) Davlat tomonidan ijtimoiy ta’minotni moliyalashtirish dastaklari nazarda tutiladi;

c) Ish beruvchilar tomonidan to‘lanadigan majburiy ijtimoiy to‘lovlar ko‘zda tutiladi;

d) Xayriya tashkilotlarining ijtimoiy yordam maqsadida beradigan moliyaviy mablag‘lari tushuniladi.

2. Tor ma’noda ijtimoiy ta’minot deganda ....

a) Ijtimoiy ta’minotning barcha moliyaviy manbalari ko‘rib chiqiladi;

b) Uy xo‘jaliklarini davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tushuniladi;

c) Ish beruvchilar tomonidan to‘lanadigan majburiy ijtimoiy to‘lovlar;

d) Xayriya tashkilotlarining ijtimoiy yordam maqsadida beradigan moliyaviy mablag‘lari tushuniladi.

3. Iqtisodiy faol aholi tarkibiga kimlar kiradi?

a) iqtisodiyotda doimiy ish band bo‘lganlar;

b) ish bilan bandlar va ishlamaydigan mehnatga layoqatlilar;

c) bandlar va faol ish qidirayotgan ishsizlar;

d) rasmiy va norasmiy bandlar.

4. Quyidagilardan qaysi biri mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslar uchun ijtimoiy ta'minot sohasidagi nafaqalar tarkibiga kirmaydi?

a) ishsizlik bo'yicha nafaqa;
b) ishlab chiqarishda jarohat olganlik bo'yicha nafaqa;
c) yoshga doir nafaqa.
d) nogironlik nafaqasi.

5. Qaysi mamlakatlarda bandlik sohasi va ijtimoiy himoya tadbirlarini aralash qo'llovchi sug'urta badallariga asoslanmagan ijtimoiy yordam dasturlari keng tarqalgan.

a) iqtisodiyotning rasmiy sektorida band bo'lganlar ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlarda;
b) iqtisodiyotning norasmiy sektorida band bo'lganlar ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlarda;
c) mehnat resurslari tarkibida chet ellik mehnat migrantlari ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlarida;
d) ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda.

6. Ushbu tizimda yollanib ishlovchilar individual hisob-raqamlarda jamg'armalar jamg'aradilar va ushbu jamg'armalardan ishsizlik holatida ishsizlik nafaqasi olishadi. Gap qaysi tizim haqida bormoqda?

a) sug'urta badallariga asoslangan ishsizlik nafaqasi tizimi;
b) ishsizlik bo'yicha jamg'armalar shakllantiriladigan tizim;
c) bandlikni ta'minlash tizimlari;
d) ishdan bo'shaganda to'lanadigan nafaqalar tizimi.

7. Buyuk Britaniyada sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishning qanday modeli amal qiladi?

a) soliqlarga asoslangan;
b) davlat sug'urtasiga asoslangan;
c) xususiy sug'urtaga asoslangan;
d) aralash.

8. Fransuz ta’lim modelining o‘ziga xos xususiyati nimada?

a) Universtetlar avtonomiyasi chuqur tarixiy ildizga ega;
b) O‘quv yurtlarini boshqarishda akademik doiralarning roli katta;
c) O‘quv yurtlarini boshqarishda homiylik kengashlarining roli katta;
d) Ta’lim barcha uchun bepul.

9. Nima uchun Yaponiya va Janubiy-Sharqiy Osiyoning yangi industrial mamlakatlari tarkibiga kiruvchi mamlakatlarda inson salohiyatini oshirishga alohida e’tibor qaratiladi?

a) ushbu mamlakatlarlarning eng asosiy boyligi – bu inson kapitali;
b) ushbu mamlakatlarning tarixiy an’analari shuni taqozo etadi;
c) ushbu mamlakatlarda inson salohiyati boshqa mamlakatlarga nisbatan past darajada;
d) ushbu mamlakatlarda inson salohiyatini oshirish masalasi dolzarb hisoblanmaydi.

10. Aholining normal hayot kechirishini ta’minlash uchun davlat tomonidan belgilangan kafolatlar tizimi – bu ...

a) ijtimoiy himoyalanish huquqi;
b) aholini ijtimoiy himoya qilish;
c) aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimi;
d) ijtimoiy ta’minot tizimi.

VIII bob. AHOLINI IJTIMOIY HIMOYALASH TIZIMI VA UNING MANZILLILIGINI KUCHAYTIRISH

8.1. Aholini yoppasiga ijtimoiy himoya qilish tizimidan manzilli himoya qilishga o‘tishning zaruriyati va mohiyati.

8.2. Jahon amaliyotida aholining ijtimoiy himoya qilish mexanizmi manzilliligini kuchaytirish dastaklari.

8.3. Aholini ijtimoiy himoyalashning tamoyillari.

8.4. Bolalar va yoshlarni ijtimoiy himoyalash.

8.5. Keksalarni ijtimoiy himoyalash.

8.6. Nogironlarni ijtimoiy himoyalash.

8.1. Aholini yoppasiga ijtimoiy himoya qilish tizimidan manzilli himoya qilishga o‘tishning zaruriyati va mohiyati.

Ijtimoiy himoya iqtisodiy adabiyotda nisbatan yangi va mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga o‘tishi bilan bog‘liq holda vujudga kelgan tushuncha hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotda ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta’minot, ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy yordam tushunchalari o‘rtasida jiddiy farqlar yo‘q. Ijtimoiy himoya tushunchasi keng ma’nodagi tushuncha bo‘lib, tarkibiga ijtimoiy ta’minot bilan bog‘liq kafolatlar bilan bir qatorda yollanma ishchilarning ish beruvchilar bilan bo‘ladigan munosabatlariga aloqador huquqlarining kafolatini o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy himoya – bu huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy kafolatlarning yaxlit tizimini tashkil etadi, mehnatga layoqatli fuqarolarga shaxsiy mehnat hissasi va tadbirkorligi hisobiga o‘z turmush farovonligini oshirish, aholining mehnatga layoqatli bo‘lmagan va muhtoj qismiga davlat tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri beriladigan moddiy yordamlar va boshqa to‘lovlarni o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy himoya tizimi – bu velfer (ta’minot) dasturlari tizimi bo‘lib, muhtoj aholining kambag‘allik darajasiga ko‘ra ta’minlanadigan nafaqalardan iboratdir. AQShdagi ijtimoiy himoya tizimiga – muhtoj aholi guruhlariga davlat tomonidan uy-joy berilishi, oziq-ovqat mahsulotlariga talonlar, ijtimoiy nafaqalar, jumladan, Medikeyd va boshqa dasturlar kiradi.

Ijtimoiy himoya tizimi deganda individ va turli ijtimoiy guruhlarni turli ijtimoiy risklardan himoya qilishga qaratilgan turli tashkilot va chora-tadbirlar yig‘indisi tushuniladi. Ijtimoiy risklar o‘z navbatida ob’ektiv ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar tufayli vujudga keladigan va ayrim

shaxs ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan risklardan iborat. Ijtimoiy himoya tizimi vaqtinchalik yoki uzoq muddatli mehnat qobiliyatini yo‘qotish, baxtsiz hodisa, qarilik, ishsizlik, kasalligi tufayli rejalashtirilmagan xarajatlar, boquvchisini yo‘qotish bilan bog‘liq xarajatlarni qamrab oladi. Ijtimoiy himoya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: a) tibbiy sug‘urta, b) qarilik va o‘limni sug‘urtalash; v) ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash; g) ishsizlikni sug‘urtalash; d) nogironlikni sug‘urtalash. Keng ma’nodagi ijtimoiy himoya tizimi tarkibiga minimal ijtimoiy ta’minot (ijtimoiy yordam) va uy-joy, ta’lim va oila siyosati doirasidagi ijtimoiy transfertlar kiradi.

Davlat ijtimoiy himoya tizimining ob’ektiv zaruriyati quyidagi omillar bilan bog‘liq:

- hozirgi zamon industrial jamiyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri jamiyat a’zolarining aksariyat qismi ishchilardan iborat;
- hozirgi nuklear oila hajmining kichkinaligi bilan bog‘liq bo‘lib, u aholini ijtimoiy risklardan himoya qila olmaydi;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi soni ko‘pligidan cherkov, masjid, kommunal, jamoat tashkilotlari ularni to‘la ijtimoiy himoya qila olmaydilar;
- aksariyat aholi uchun individual sug‘urtalash yo‘li bilan ijtimoiy risklarni yuqori sug‘urta badallari asosida pasaytirish mumkin;
- ishsizlik va inflyatsiya kabi risklarni xususiy ijtimoiy dasturlar qamrab ololmaganligi. Shuning uchun davlatning ijtimoiy dasturlari davriy tebranishlarga qarshi tura oladigan yagona vosita hisoblanadi;
- ijtimoiy risklarni majburiy sug‘urtalashning yo‘qligi sug‘urta qilinmagan shaxslar uchun iqtisodiy xarajatlar qilishga majbur etadi.

Jahon amaliyotida, aholini ijtimoiy himoya qilishning ikki modeli farqlanadi:

– ijtimoiy-demokratik yo‘naltirilgan davlat – daromadlarni umumlashtirishda yuqori rol o‘ynaydigan va umummilliy ijtimoiy boshqarish mexanizmiga asoslangan;

– yangi liberal – davlatning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi kamroq bo‘lgan.

Tanlab olingan yondashuvlarga ko‘ra quyidagi ijtimoiy himoya tizimlari farqlanadi:

– ijtimoiy jihatdan muhtoj jamiyat a’zolari to‘g‘risida bosh qotiradigan va ijtimoiy xayriyaga asoslangan davlat tizimi;

– jamiyatning har bir a’zosi o‘zi va oilasi taqdiri uchun o‘zi ishlab topgan daromadlari, tadbirkorlik faoliyatidan daromadlari, mulk daromadlari va shaxsiy jamg‘armalaridan foydalangan holda o‘zining javobgarligiga asoslangan xususiy tizim;

Ijtimoiy himoyaning bosh sub’ekti davlat hisoblanadi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj inson bir vaqtning o‘zida ijtimoiy himoyaning ob’ekti va sub’ekti hisoblanadi.

Ijtimoiy himoyaning ob’ektlari muayyan ijtimoiy tashkilot, idora, tizim (ta’lim, sog‘liqni saqlash, bandlik, mehnat, madaniyat, sport sog‘lomlashtirish komplekslari) lardan iborat.

Ijtimoiy himoyaning shakllari quyidagilardan iborat:

– qonunchilik tomonidan belgilangan ijtimoiy kafolatlar va ularni tayanch standartlar va dasturlar asosida qondirish;

– aholi daromadlari va xarajatlarini tartibga solish;

– ijtimoiy sug‘urta;

– ijtimoiy hamkorlik;

– ijtimoiy xizmatlar;

– maqsadli ijtimoiy dasturlar.

XX asrning 90-yillarida ma’muriy boshqaruvga asoslangan iqtisodiy tizimdan bozor tizimiga o‘tish, mamlakatdagi murakkab makroiqtisodiy holat, aholini barcha qatlamini yoppasiga ijtimoiy ta’minlashga asoslangan ijtimoiy himoya tizimidan manzilli himoya qilishga o‘tish zaruriyatini vujudga keltirdi.

Bozor munosabatlarining rivojlanish jarayonida mamlakatda amal qilayotgan ijtimoiy himoya tizimiga makroiqtisodiy holat va demografik jarayonlarning ta’siri kuchaydi. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning dastlabki bosqichida aholi turmush darajasining pasayishi ayrim aholi guruhlari daromadlarining keskin tabaqalashuviga olib keladi. Yuqoridagi sabablarga ko‘ra kam ta’minlangan oilalar, pensionerlar, nogironlar va boshqa aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- maqsadli;
- mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga mos;
- samarali;
- manzilli;

- yaxshi boshqariladigan;
- aks informatsion ta’sir ko‘rsatuvchi;
- kutilgan maqsadga kam xarajatlar bilan erishish imkonining mavjudligi;
- adolatli;
- xalqning urf-odatlari, madaniyati va an’analari hisobga olingan bo‘lishi kerak.

Bu boradagi ustuvor vazifalar Birlashgan Millatlar Tashkiloti maqsadlari tomonidan bayon qilingan.

8.2. Jahon amaliyotida aholining ijtimoiy himoya qilish mexanizmi manzilliligini kuchaytirish dastaklari

O‘zbekistondagi mavjud qonunchilikka muvofiq aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj toifalariga quyidagi shaxslar kiritiladi:

– o‘zgalarning parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz yashovchi keksalar;
– I va II guruh nogironlari, nogiron bolalar;
– muomalaga layoqatsiz va muomalaga layoqati cheklangan fuqarolar;
– ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarga chalingan shaxslar;
– ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishni tashkil etish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

– ijtimoiy xizmatlarga muhtoj shaxslarni aniqlash;
– ijtimoiy xizmatlarga muhtoj shaxslarning turmush holatini baholash;
– ijtimoiy xizmatlarning yakka tartibdagi dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
– ijtimoiy xizmatlarning yakka tartibdagi dasturlari monitoringini tashkil qilish.

Ijtimoiy xizmatlarga muhtoj shaxslar quyidagi uslublar asosida aniqlanadi:

– uyma-uy yurish jarayonida;
– jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan berilgan ma’lumotlar asosida;
– ijtimoiy xizmatlarga muhtoj shaxs mustaqil ravishda murojaat etganda amalga oshiriladi.

Jahonning turli mamlakatlarida aholining kam ta’minlanganligini aniqlash ko‘rsatkichlari tizimi umumiy bo‘lib, har bir mamlakat o‘z amaliyotida erishgan turmush darajasi bilan bog‘liq ravishda aniq tanlash mezonlaridan foydalanish lozim.

Jahon amaliyotida kambag‘allik chegarasini aniqlashning ikki uslubi mavjud: birinchidan tovar va xizmatlarning iste’mol savati – shaxsning fiziologik va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishning minimal yashash darajasini kafolatlaydi. Ikkinchidan, mamlakatdagi o‘rtacha jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad ko‘rsatkichiga asosan aniqlanadi.

Birinchi uslub, kambag‘alllik tushunchasini absolyut kategoriya sifatida tushunishga asoslangan. Kambag‘allik darajasi yashashning minimal standartlarini qondirishni ta’minlaydigan o‘zgarmas hayotiy ne’matlarning hajmi bilan aniqlanadi. Ushbu ko‘rsatkich turli jins, yosh va hayotiy faoliyatga (mehnatning og‘iriligi va intensivligi) ega kishilarning asosiy fiziologik ehtiyojlarini ekspert baholash orqali hisoblanadi.

Ushbu uslub kambag‘allikni fiziologik minimumdan past darajadagi daromadga ega oilalarga qo‘shimcha to‘lovlarni to‘lash orqali yo‘qotish imkonini beradi. Ushbu vazifani hal etishning hayotiyligi yashash uchun zarur bo‘lgan minimal vositalar savatchasini to‘g‘ri hisoblashga bog‘liq bo‘ladi.

Ikkinchi yondashuv kambag‘allikni nisbiy kategoriya sifatida qaraydi va jamiyatda erishilgan o‘rtacha turmush darajasiga nisbatan kam daromadga ega bo‘lgan oilalarni kambag‘allar qatoriga kiritadi. Shu maqsadda daromad va iste’moli turlicha bo‘lgan ijtimoiy qatlamlar va daromadlarga ega bo‘lgan oilalarning turmush darajasiga oid statistik ma’lumotlar tahlil etiladi.

1990-yilda Umumjahon Bankining bir guruh mustaqil tadqiqotchilari va xodimlari jahondagi kambag‘al aholi sonini dunyoning kambag‘al mamlakatlarida qabul qilingan standartlar asosida hisoblashni taklif etdi. Ular jahonning eng kambag‘al mamlakatlaridagi milliy kambag‘allik darajasini o‘rganib, ularni xarid-to‘lov qobiliyati pariteti (HTQP) asosida milliy kurslaridan foydalanib, yagona valyutaga o‘tkazdilar. Valyuta kurslari HTQP asosida hisoblanishi ushbu miqdordagi tovar va xizmatlar bahosining jahonning barcha mamlakatlaridagi ekvivalentini aniqlash imkonini beradi. Iqtisodchi olimlar ushbu darajalarni yagona valyutaga aylantirib hisoblashlari jarayonida olti kambag‘al mamlakatlarda kambag‘allik darajasi jon boshiga bir kunda 1 AQSh dollariga teng ekanligi aniqlandi. Ushbu

ko‘rsatkich ilk bor hisoblangan xalqaro kambag‘allik darajasi ko‘rsatkichi sifatida qabul qilindi. 1993 yildan boshlab jahonda yashash qiymatidagi farqlar o‘sa borgan sari ushbu o‘zgartirishlarni hisobga olgan holda kambag‘allikning global darajasi muntazam yangilanib bormoqda.

2005-yilda 15-milliy kambag‘allik darajalari asosida xalqaro kambag‘allik darajasi qayta ko‘rib chiqildi va xalqaro kambag‘allik darajasiga aniqlik kiritib jon boshiga bir kunda 1,25 AQSh dollar etib belgilandi. 2016-yildan boshlab Umumjahon Banki turli mamlakatlardagi turmush qiymatidagi farqlarni hisobga olib xalqaro kambag‘allik chegaralarini bir kunga 1,9 AQSh dollar qilib belgiladi. Kambag‘allikni aniqlashning yangi chegarasi jahondagi kambag‘al mamlakatlardagi real to‘lov qobiliyati darajasini ifodalaydi. Umumjahon Banki hisob-kitoblariga ko‘ra, 2015-yilda dunyo aholisining 10 foizi kambag‘allik chegarasidan past darajada yashadi. Ushbu xalqaro tashkilot jahonda kambag‘allikni barqaror sur’atlarda qisqartirish asosida 2030-yilga borib rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish, ta’lim va sog‘liqni saqlashga investitsiyalar yo‘naltirish, ijtimoiy sug‘urta dasturlari va ijtimoiy kafolatlar tizimini amalga oshirish orqali uni 15 yil ichida 3 foizga tushirishni rejalashtirmoqda.

BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi aholini kambag‘al qatlamiga jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad miqdori o‘rtacha mamlakat darajasini uchdan ikki qismini tashkil etadiganlarni kiritadi.

Har bir mamlakatda aholining kam ta’minlangan qatlamini aniqlashning o‘ziga xos uslubi mavjuddir. Jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Portugaliya kabi davlatlarda yashash minimumi 40 foizdan 60 foizgacha bo‘lgan. Polsha va Vengriyada esa minimal pensiya miqdori, Bolgariyada esa minimal ish haqi miqdori yoki summasi kam ta’minlanganlikni aniqlashda qo‘llaniladigan vositalardir.

BMT yondashuviga ko‘ra, turmush darajasi konsepsiyasi o‘z tarkibiga quyidagi tushuncha va ko‘rsatkichlarni oladi: sog‘liqni saqlash; ta’lim; bandlik va mehnat sharoitlari; uy-joy sharoiti; ijtimoiy ta’minot; kiyim-kechak; dam olish va bo‘sh vaqt; inson huquqlari. Turmush sifati konsepsiyasi kishining jismoniy, aqliy yoki ijtimoiy farovonligini belgilovchi shart-sharoitlar majmuidan iborat.

Kambag‘allikning absolyut chegarasini aniqlashda aholining moddiy jihatdan ta’minlanganlik darajasiga ko‘ra to‘rt yiriklashgan guruhlari farqlanadi:

•kambag‘allar – jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi daromad yashash minimumi byudjetining qiymatidan past bo‘lganlar;

•kam ta’minlanganlar – yalpi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi yashash minimumi byudjeti qiymatiga teng bo‘lsa;

•aholining ta’minlangan qismi – jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi daromadi mintaqada jon boshiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha daromadga teng bo‘lsa;

•boy aholi – jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi daromadi mintaqada jon boshiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha daromaddan ko‘p bo‘lsa.

Aholining kam ta’minlanganlik kategoriyasi indikatorlarini hisoblashda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

•oila tarkibi;

•daromadlar va ularni shakllanish manbalari;

•sog‘liqni saqlash;

•uy-joy sharoiti va maydon hajmi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj toifalari (keksalar, nogironlar, ko‘p bolali oilalar va b.) turmush darajasini yaxshilashga va moddiy farovonligini oshirishga xizmat qilishi zarur. Ijtimoiy himoya tizimi maqsadli, mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasiga mos, samarali-manzilli (yaxshi boshqariladigan aks informatsion ta’sir ko‘rsatuvchi, qo‘yilgan maqsadga kam xarajatlar bilan erishishi, adolatli) va xalqning urf-odatlari, madaniyati va an’analariga asoslangan bo‘lishi lozim.

Ijtimoiy himoya qilish mexanizmini quyidagi uch toifaga ajratishimiz mumkin:

1) yakka tartibdagi manzilli;
2) hudud tamoyili va indikatorlari bo‘yicha manzilli;
3) o‘zini-o‘zi manzilli himoya qilish.

Ijtimoiy himoya qilish tizimining yakka tartibdagi manzilli turida asosan shaxs kambag‘allik chegarasidan oila daromadi tadbirkorlik faoliyati natijasida oshishi mumkinligi, ularning ovqatlanishi, uy-joy sharoitlari alohida tarzda ko‘rib chiqiladi. Hudud tamoyili va indikatorlari bo‘yicha manzilli ijtimoiy himoya deyilganda yakuniy jihatdan ushbu hudud, tuman, mahalliy hokimliklarning mazkur hududdagi o‘rtacha farovonlik darajasiga ko‘ra aniqlanadi.

Manzilli ijtimoiy himoya tarkibiga quyidagi xarajatlarni qo‘shimcha yuk sifatida qabul qiladi:

- ma’muriy xarajat;
- motivatsiya xarajati.

Ma’muriy xarajatlarda asosan manzilli ijtimoiy himoyani ta’minlashda aholi tarkibidan kam ta’minlanganlarini tanlashni, himoyalash choralarini amalga oshirish, jumladan, mahalliy xarajatlar, ya’ni nafaqalarni tarqatish uchun qo‘shimcha xodimlarni jalb etish, zarur vositalarni qo‘llash xarajatlarini o‘z ichiga oladi.

O‘zini-o‘zi manzilli ijtimoiy himoya qilishni ta’minlash davlat tomonidan bandlikni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Motivatsiya xarajatlarida aholi ish vaqti va bo‘sh vaqt o‘rtasidagi tanlovda bo‘sh vaqtni tanlaydi va iloji boricha nafaqaga ilinishi uchun o‘z oylik maoshini kamroq qilib ko‘rsatadi va boqimandachilik kayfiyatini kuchaytiradi.

Siyosiy va iqtisodiy xarajatlarda davlat aralashuvi natijasida jamiyatda «yutganlar» va «yutqizganlar» mavjud bo‘ladi. Resurslar taqsimotida yutqazganlarga yutganlar tomonidan daromadlarni taqsimlanishi tushuniladi. Qat’iy manzilli ijtimoiy himoya kam ta’minlanganlar holatini yetarli darajada yaxshilanmasligini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy himoya o‘z mazmuniga ko‘ra murakkab aloqadorlikni o‘z ichiga oladi va buni davlatni fuqarolarga nisbatan olib borayotgan xatti-harakatida namoyon bo‘ladi.

Hozirgi vaqtda ijtimoiy himoyani oddiy vazifasini aholini alohida guruhlariga ijtimoiy nafaqa to‘lash asosida ular daromadlarini saqlab qolish, ya’ni nofaol shaklini namoyon qilmoqda. Murakkab ijtimoiy-iqtisodiy holat esa ijtimoiy himoya rolining o‘zgarishini taqozo etadi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish birinchi navbatda barcha ijtimoiy siyosat konsepsiyasini qayta qurish, uni milliy daromadini pasaytiradigan omildan muvozanatlashtiruvchi va o‘sishini ta’minlovchi omilga aylantirishni talab etadi.

Iqtisodchi-mutaxassislar fikricha, bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrini boshidan kechirayotgan kishilar quyidagi iqtisodiy qiyinchiliklarni ikki barobar kuchliroq his qilmoqdalar, jumladan:

1) har qanday o‘tish davri kishilarning ko‘pchiligida salbiy tomonga qarab o‘zgaruvchi, moddiy holatidagi beqarorlikni yuzaga keltiradi. Bu o‘tish davrining salbiy iqtisodiy asoratlarini o‘zida his qiluvchi aholi qatlamlariga ijtimoiy yordam ko‘rsatadigan mutanosib tizim yaratishini talab etadi;

2) kishilar odatda ideal, ko‘nikmani shakllantirish va tafakkur tarziga doir o‘zgarishlarni ruhiy jihatdan og‘ir kechiradi. Iqtisodiy shart-sharoitlar umumiy ijtimoiy munosabatlarga, kishilardagi yangi hayotiy

yo‘l-yo‘riqlarga bo‘lgan ruhiy tayyorgarlikka nisbatan tezroq yaxshilaniladi.[189]

Bu boradagi ustuvor vazifalar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentyabrida Barqaror rivojlanish bo‘yicha o‘tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyutsiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlar rejasida o‘z aksini topgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilligini yanada kuchaytirish orqali 2030-yilgacha fuqarolarning o‘ta qashshoqlik shaklini bartaraf etish (1.1-vazifa), 2030-yilgacha kam ta’minlangan erkaklar, xotin-qizlar va barcha yoshdagi bolalarning ulushini kam ta’minlanishning barcha ko‘rinishlarida ikki barobarga qisqartirish (1.2-vazifa) kabi vazifalar belgilab olindi[190].

Aholini ijtimoiy himoya qilish masalalari 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida **“...** aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish” vazifasi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilab qo‘yilganligini ta’kidlab o‘tish joiz[191].

XXI asr boshlariga kelib rivojlangan ijtimoiy himoya tizimlari ob’ektiv sabablarga ko‘ra jamiyat himoyasiga ehtiyoj sezayotgan aholi guruhlariga nisbatan ijtimoiy adolat va manzillilik tamoyillari asosida qurila boshlandi. Bunda “ijtimoiy manzillilik”, tushunchasini ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi guruhlarining real ehtiyojlarini e’tiborga olish ma’nosida tushunish zarur.

---

[189] O‘zbekiston: inson taraqqiyoti to‘g ‘risida ma'ruza. - T., 1999.-B. 10.

[189] O ‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘risida"gi 2018-yil 20-oktyabr, 841-son Qarori.

[189] O ‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O ‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo ‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi 2017-yil 7-fevral, PF-4947-sonli Farmoni.

Manzilli dasturlarning ijtimoiy himoya tizimidagi o‘rni va ahamiyatini chuqurroq o‘rganishda ularning qamrov darajasi va maqsadliligini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Umumiy ijtimoiy himoya ijtimoiy himoyalanmaganlikni bartaraf etishga qaratilgan bo‘lishi, ya’ni kambag‘allik riskiga duch kelish yoki ijtimoiy alohidalashgan guruhlar sirasiga kirib qolishdan himoyalashi zarur. Shu sababdan ijtimoiy himoya tizimi aholi guruhlarining minimal farovonligini ta’minlashga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar va strategiyalarni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy himoya tizimi elementlarining samaradorligi kambag‘allikka va ijtimoiy himoyalanmaganlikka qarshi kurashga nisbatan kompleks yondashuv va har bir elementning boshqalari bilan bog‘liqlikda amalga oshirilishi bilan bog‘liqdir.

Ijtimoiy himoyaga investitsiya sarflash barqaror iqtisodiy o‘sish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va uning raqobatbardoshligini oshirishda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun ijtimoiy himoya muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan YUNISEF, Jahon banki mutaxassislari tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari O‘zbekistonda oilalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularni kam daromadli oilalar guruhidan chiqarishga qaratilgan ijtimoiy himoya tizimi qator kamchiliklarga egaligi, yaxlit tizim sifatida shakllanmaganligi bois kam ta’minlangan oilalarning 75%i ijtimoiy nafaqalar olmasligini ko‘rsatdi. O‘zbekistonda ijtimoiy ta’minot va ijtimoiy nafaqa to‘lovlariga mamlakat yalpi ichki mahsulotining 10%ga yaqini, davlat byudjetining 56%i sarflanishiga qaramasdan, ushbu sohaga sarflanayotgan investitsiyalar samaradorligi pastligicha qolmoqda. Jumladan, bolalar, nogironlar va norasmiy sektorda band bo‘lganlarning aksariyat qismi amaldagi ijtimoiy himoya tizimi bilan qamrab olinmagan[192].

Jahon banki tadqiqotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda ijtimoiy ta’minot tizimining asosini yoshga doir nafaqalar tashkil etadi. Tadqiqotlar ijtimoiy nafaqalarning ustun darajada kam ta’minlangan oilalarga yo‘naltirilayotganligidan dalolat bermoqda. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi detsil guruhlarning nafaqalar turi bo‘yicha guruhlanishi ma’lumotlari tahlili ijtimoiy nafaqalar manzilligining kuchayib borayotganligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, jami ijtimoiy nafaqalar eng

[192] https://www.gazeta.uz/ru/2018/11/09/allowance/

kam daromadli detsil guruh daromadlarining 68,5%ini tashkil etgani holda eng yuqori daromadli detsil guruh daromadlarining 30,2%ini tashkil etmoqda (8.2.1-rasm).



8.2.1-rasm. Uy xo'jaliklarining yosh bo'yicha olayotgan nafaqa turlariga ko'ra, umumiy daromadga nisbatan foiz hisobida[193]

Ijtimoiy nafaqalar aholi guruhlari o'rtasida daromadlar tengsizligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, Jini koeffitsiyenti nafaqalarni hisobga olmagan holda 0,524 ga teng bo'lgani holda nafaqalar bilan hisoblaganda 0,445 ga qadar pasayganligini kuzatish mumkin. Tahlillar ko'rsatishicha, ijtimoy nafaqalar aholi guruhlari o'rtasida daromadlar bo'yicha tabaqalashuvning 15%ga qadar pasayishiga olib kelgan. O'tkazilgan tadqiqotlardan ijtimoiy nafaqalarning kambag'allik darajasiga ijobiy ta'sir etayotganligini ko'rish mumkin. Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi o'rtacha (mediana) daromadning 50%i miqdorida belgilangan kambag'allik chegarasiga ijtimoiy nafaqalarning ta'siri aholi yosh guruhlari o'rtasida jiddiy farq qiladi. Jumladan, 60 yosh va undan katta yoshdagilar o'rtasidagi nisbiy kambag'allik darajasiga yoshga doir nafaqalarning ijobiy ta'siri juda yuqori va bu ko'rsatkich kamida ikki baravardan yuqori hisoblanadi (8.2.2-rasm).

[193] http://unicef.uz/en/media-center/news-and-press-releases/3025?INVERT=Y



8.2.2-rasm. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha (mediana) daromadning 50%i miqdorida belgilangan kambag‘allik chegarasiga ijtimoiy nafaqalarning ta’siri[194]

Ijtimoiy nafaqalar kam ta’minlangan oilalar iste’molida muhim o‘rin tutadi. Ayrim hisob-kitoblarga ko‘ra ushbu turdagi nafaqalar kam ta’minlangan oilalar iste’molining 40%gacha bo‘lgan qismini tashkil etadi (8.2.3-rasm).



8.2.3-rasm. Ijtimoiy nafaqalarning iste’mol xarajatlariga nisbati, foiz hisobida[195]

[194] http://unicef.uz/en/media-center/news-and-press-releases/3025?INVERT=Y
[195] http://unicef.uz/en/media-center/news-and-press-releases/3025?INVERT=Y

Mutaxassislar fikricha, O‘zbekistonda amaldagi ijtimoiy himoya tizimining kuchli tomonlari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy nafaqalarning ustun darajada kam ta’minlangan oilalarga yo‘naltirilganligi;
- ijtimoiy nafaqalarning daromadlar tengsizligi va kambag‘allik darajasiga ta’sirining kuchliligi.

Ijtimoiy himoya tizimining kuchsiz tomonlari esa quyidagilardan iborat:

- qamrov darajasining pastligi;
- nafaqalar miqdorining kamligi;
- aksariyat kam ta’minlangan oilalarning nafaqa olmasligi;
- nafaqalarni tayinlash jarayonining murakkabligi;
- moliyalashtirish manbalarining yetishmasligi.

Fikrimizcha, mamlakatimiz ijtimiy-iqtisodiy tizimini modernizatsiyalash jarayonlarining chuqurlashuvi sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilishning manzilliligini kuchaytirish yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim:

- ijtimoiy himoyaning umumiy tamoyillaridan aholining turli ijtimoiy guruhlariga nisbatan tabaqalashgan yondashuvga asoslangan tamoyillarga o‘tishini jadallashtirish;
- aholi turmush darajasini oshirishda shaxsiy daromadlar rolini oshirish;
- ijtimoiy himoya va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining resurs bazasi barqarorligini ta’minlash;
- ijtimoiy kafolatlar tizimining egiluvchanligini ta’minlash;
- aholini ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha choralar tizimi samaradorligini oshirish;
- ijtimoiy himoyada jamoat tashkilotlari va xayriya fondlarining ishtirokini faollashtirish;
- ijtimoiy himoyaga yo‘naltirilgan mablag‘lardan foydalanishda oilaning rolini oshirish;
- ijtimoiy himoyaning manzilliligini kuchaytirish;
- aholini ijtimoiy himoyalashni tashkil etishda mahallalarning o‘rni va ma’suliyatini oshirish.

O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash tizimini qisqa va o‘rta istiqbolda yanada takomillashtirish quyidagi ijtimoiy-demografik va iqtisodiy jarayonlar bilan bog‘liq holda amalga oshirilishi zarur bo‘ladi:

•demografik yuklama koeffitsiyentining yuqoriligi. Mamlakatda tug‘ilish koeffitsiyentining pasayishiga qaramasdan, aholi tarkibida bolalar ulushi yuqoriligicha qolmoqda (2017-yil - 28,3%). Ushbu omil bolalar uchun sarflanayotgan xarajatlarning yuqori bo‘lishi va tegishlicha bolalar nafaqasiga bo‘lgan talabning ortishiga olib keladi;

•mamlakatning ayrim mintaqalarida ekologik vaziyatning yomonlashuvi aholi o‘rtasida nogironlar sonining ortishiga olib kelishi mumkin;

•aksariyat korxonalarda mablag‘lar yetishmasligi bois mehnat muhofazasi darajasi pasayib bormoqda. Ushbu holat kasb kasalliklari va ishlab chiqarishda mayiblanish darajasining ortishiga olib kelmoqda. Nogironlar sonining kamayib borishiga qaramasdan istiqbolda nogironlik darajasi yuqoriligicha qolishi kutilmoqda;

•korxonalarni tarkibiy qayta qurish jarayonlari ortiqcha ishchi kuchining ozod qilinishiga olib keladi va ijtimoiy himoyalanmaganlik muammosini chuqurlashtiradi;

•mamlakat mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan notekis rivojlanishi, ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanish imkoniyatlari cheklangan, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma rivojlanmagan (tog‘li va olis) hududlarning mavjudligi ushbu mintaqalar aholisini ijtimoiy yordamga bog‘liq etib qo‘yadi;

•ijtimoiy xodimlarni tayyorlash tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi (ayrim hisob-kitoblar bo‘yicha soha uchun 1,5 ming qo‘shimcha mutaxassis zarur). Ijtimoiy soha xodimlarining oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida professional kasbiy tayyorgarligini tashkil etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

O‘zbekistonda kam ta’minlangan aholini ijtimoiy himoyalashning manzilliligini kuchaytirishga amaldagi imtiyoz va nafaqalar tizimini tartibga solish, manzilli xarakterga ega bo‘lmagan imtiyozlarni keskin qisqartirish, natura shaklida taqdim etilayotgan imtiyozlarning bir qismini bekor qilish, ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarni aniqlash uslubiyotini dehqon xo‘jaligini yuritish, tadbirkorlik faoliyati va norasmiy sektordagi faoliyatdan olayotgan daromadlarga nisbatan qo‘llanilayotgan me’yorlarga aniqlashtirishlar kiritish orqali takomillashtirish, faqat bir mezon (masalan, daromadlar bo‘yicha ehtiyoj) belgilanayotgan ijtimoiy yordam turlarini birxillashtirish kabi tadbirlarni amalga oshirish orqali erishish mumikn.

Fikrimizcha, mamlakatimizda kam ta’minlangan aholini ijtimoiy himoya qilish darajasini oshirishga quyidagilar hisobidan erishish mumkin:

•aholini ijtimoiy himoya qilish tadbirlarini moliyalashtirish uchun byudjetdan tashqari manbalarni, jumladan xayriya tashkilotlari va homiylar mablag‘larini jalb etish. Bu kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoya bilan qamrab olish darajasini oshirish va to‘lovlar miqdorini oshirish imkonini beradi;

•ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarni moliyalashtirishda manzilli yo‘naltirilmagan ayrim nafaqa turlari va imtiyozlarni qisqartirish evaziga tejalgan mablag‘larni yo‘naltirish;

•minimal ijtimoiy standartlarni (jumladan, mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda) hisobga olish uslubiyatini takomillashtirish. Amaliyotga yashash minimumining ijtimoiy standartlarini joriy etish;

•kam ta’minlangan oilalarga uy-joy kommunal to‘lovlarni maqsadli va manzilli subsidiyalashni joriy etish;

•ijtimoiy himoyaga muhtoj, avvalo kam ta’minlangan oilalarga kreditlar ajratayotgan mikromoliyalashtirish institutlarini kengaytirish;

•kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar tayinlash mezonlari va muddatini qayta ko‘rib chiqish.

8.3. Aholini ijtimoiy himoyalashning tamoyillari

Milliy ijtimoiy himoya tizimlari mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shakllanadi. Shu bilan birgalikda, rivojlanish yo‘llari va tashkil etish xususiyatlari, xizmatlarning sifati va hajmi, moliyalashtirish usullaridagi farqlarga qaramasdan hamma ijtimoiy himoya tizimlari yagona tamoyillar asosida faoliyat yuritadi. Ijtimoiy himoya tamoyillarini ikkiga bo‘lish mumkin.

Birinchi guruhga ijtimoiy himoya tizimining fundamental asoslarini belgilovchi tamoyillar kiradi:

1. Sug‘urtalash tamoyili (ijtimoiy sug‘urta). Ushbu tamoyilga muvofiq ko‘rsatilayotgan xizmatlarni moliyalashtirish sug‘urta uning a’zolari badallari hisobidan amalga oshirilib, sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda individual badallar miqdoridan kelib chiqqan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatiladi (ekvivalentlik tamoyili). Sug‘urta jamg‘armasiga ish haqining ma’lum qismini badal ko‘rinishida kiritib sug‘urtalanganlar daromadini yo‘qotgan holda avvalgi ish haqining miqdoridan kelib

chiqib moliyaviy qoplash huquqiga ega bo‘ladi. Ekvivalentlik qoidasidan tashqari sug‘urta tamoyili birdamlik va qayta taqsimlanish elementlarini o‘z tarkibiga oladi. Shaxsiy (xususiy) va ijtimoiy sug‘urta o‘rtasidagi farqlar sug‘urtalash tamoyili harakatiga ma’lum o‘zgarishlar kiritadi. Shaxsiy sug‘urtalashda sug‘urta badallari har bir sug‘urtalangan kishiga riskni kirib kelish ehtimoli bilan bog‘liq holda hisoblanadi, sug‘urta to‘lovlari esa individual ekvivalentlik tamoyiliga muvofiq sug‘urta badallari hajmiga bog‘liq bo‘ladi. Ijtimoiy sug‘urtalash asosida individual sug‘urtalashning modifikatsiyalashgan tamoyili yotadi, ya’ni ijtimoiy sug‘urta badallari har bir sug‘urtalanuvchi (yoshi yoki oilaviy holatiga bog‘liq emas) risk ehtimolidan kelib chiqib hisoblanmaydi. Ijtimoiy sug‘urta shaxsiy sug‘urtadan farqli ravishda avval to‘langan badallar bilan bevosita bog‘liq emas. Ijtimoiy sug‘urtaning ijtimoiy ahamiyatga egaligi ijtimoiy himoya tizimida majburiy ishtirokni taqozo etadi. Ijtimoiy sug‘urtaning muhim farqli jihati birdamlik kafolati orqali moliya jihatdan kam ta’minlangan aholi foydasiga qayta taqsimlaydi. Ijtimoiy sug‘urtani moliyalashtirish ish beruvchilar va ishchilar badallari bilan birgalikda davlatning dotatsiyalari yoki kreditlari hisobidan amalga oshiriladi. Ijtimoiy sug‘urtalash tamoyili Germaniya, Fransiya, Italiya, Avstriya ijtimoiy himoya tizimida uch tomonlama, ishchilar, ish beruvchilar va davlat (Germaniya, Avstriya) yoki ustun darajada ish beruvchilar va davlat hisobidan (Fransiya, Italiya) moliyalashtiriladi.

2. Ta’minlash ta’moyili. Ta’minlash tamoyilida ijtimoiy xizmatlar davlat xizmatchilari va urush qurbonlari asosida byudjetni soliq tushumlari hisobidan moliyalashtiradi. Ushbu tamoyil asosida davlatning ijtimoiy siyosat dasturlari, o‘rta va oliy ta’lim tizimi moliyalashtiriladi. Ushbu ijtimoiy xizmat oluvchilar odatda badallar to‘lamaydilar va ushbu huquqni davlatga ko‘rsatgan alohida xizmatlari uchun oladilar (davlat xizmatchilari). Byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish iqtisodiyotning samaradorligi va byudjetning holatiga bevosita bog‘liq bo‘lib, davlat moliyasiga qo‘shimcha yuk bo‘ladi hamda sug‘urtalash tamoyilini qo‘llab bo‘lmaydigan risklarga nisbatan kafolat qo‘llanila olmaydigan holatlarda foydalaniladi. Ta’minlash tamoyili unifikatsiyalashgan baza ijtimoiy xizmatlari mavjud bo‘lgan ijtimoiy himoya tizimlarida yetakchi bo‘ladi va davlatning barcha fuqorolari tomonidan foydalaniladi. Ushbu tizimlar Skandinaviya mamlakatlari va Buyuk Britaniyada amal qiladi.

3. Birgalikda amal qilish tamoyili. Ushbu tamoyilga muvofiq ijtimoiy xizmatdan kambag‘allik holatidan mustaqil chiqa olmaydigan

har bir muhtoj shaxs foydalanishi mumkin. Mazkur tamoyil ijtimoiy ehtiyojni umumiy soliqlar hisobidan qondira olishni ko‘zda tutadi va davlat byudjeti holatiga bog‘liq bo‘ladi. Ijtimoiy dasturlarni birgalikda amal qilish xususiyati shundaki har bir benefitsiarni muhtojlik holatini tekshirish zarur bo‘ladi.

Ijtimoiy davlatning markaziy elementi hisoblangan ijtimoiy himoya tizimida har bir tamoyillarning ayrim tizimlarda tutgan o‘rni turlicha bo‘ladi. Jumladan, sug‘urta tamoyiliga bozorga yo‘naltirilgan liberal bozor iqtisodiyoti hukmron bo‘lgan mamlakatlarda ko‘proq ustuvorlik beriladi. Aksariyat Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida sug‘urta tamoyili hukmron hisoblanadi. Shuningdek, ko‘plab Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ijtimoiy himoya tizimi aralash tamoyillarga asoslangan holda faoliyat ko‘rsatadi.

4. Ijtimoiy himoya tizimiining muhim tamoyillaridan biri ijtimoiy birdamlik hisoblanadi va u ijtimoiy himoya tizimining barcha qatnashchilari uchun o‘zaro yordamni ko‘zda tutadi. Ushbu tamoyilning uch elementini farqlash lozim. Birinchi element ijtimoiy birdamlik bir xil badallar to‘lagan holda turli risklarni birlashtirishni ko‘zda tutadi. Ikkinchi element ijtimoiy birdamlik intertemporal qayta taqsimlash modeli, ya’ni ijtimoiy himoya tizimi qatnashchilari hisoblangan yosh mehnatga layoqatli aholi qatlamidan mehnat qobiliyatiga ega bo‘lmagan qariyalarga qayta taqsimlash uchun zarur bo‘lgan avlodlar shartnomasi bilan bog‘liq. Uchinchi element uni interpersonal qayta taqsimlashning asosi hisoblanadi.

Quyidagilar manzilli ijtimoiy himoyaning vazifalari hisoblanadi:

- jamiyatda adolatli aloqalar rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya tizimini yaratish;
- farovon yashash tarzini oshirish;
- o‘ziga xos daromadlar siyosati olib borish.

Ijtimoiy himoyaning tamoyillari:

1. Ijtimoiy sug‘urta
2. Ijtimoiy ta’minot
3. Ijtimoiy birdamlik
4. Ijtimoiy yordam

Aholining kam ta’minlangan qismi deyilganda eng kam zarur bo‘lgan iste’mol andozalariga ega bo‘lmagan jamiyat a’zolari tushuniladi. Kam ta’minlanganlik daromadlarning kundalik hayot kechirishning eng kam byudjetidan ortishi, biroq eng kam iste’mol byudjetiga yetmasligi holatini ifodalaydi.

Aholini ijtimoiy himoyalashning manzilligini kuchaytirishda ushbu mamlakatda yashovchi aholini guruhlashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Ba'zi toifadagi ishchilarning nisbatan past darajada ish haqi olishi, oila qaramog'ida kam daromadli yoki umuman daromad olmaydigan qismining mavjudligi aholi alohida olingan guruhlarining kam ta'minlanganligini keltirib chiqaradi.

Kam ta'minlangan aholi mavjudligi – o'tkir ijtimoiy muammo bo'lib, hamma mamlakatlar uchun xosdir. Bu esa doimo davlat tarafidan mazkur muammoga e'tibor berilishini va jamiyat tomonidan zudlik bilan chora-tadbirlar ko'rilishini talab qiladi.

Iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasiga erishish barcha sivilizatsiyalashgan davlat oldida muhim vazifa sifatida aholining ijtimoiy guruhlarini, jumladan, past darajadagi moddiy ta'minlanganlarni himoyalashni o'z oldiga qo'yadi.

Bunday aholi guruhlarining mavjudligi, bir tomondan ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarga sabab bo'lsa, boshqa tarafdan ushbu masalaga doimo e'tibor berish va faol g'amxo'rlik qilish insonparvar jamiyat ekanligidan darak beradi.[196]

8.4. Bolalar va yoshlarni ijtimoiy himoyalash

Bolalarni ijtimoiy himoyalashning vazifalari:

- Ijtimoiy siyosat bolalarning huquqlari va ularning farovon hayot kechirishlari uchun kafolatdir. Aynan davlatning ijtimoiy siyosati bolalarni qashshoqlikdan himoya etuvchi dastakdir.
- Ayrim mamlakatlarning ijtimoiy kafolati faqatgina o'rta daromad oluvchi oilalarda o'sayotgan bolalarning hayotini yengillashtiradi va davlatni ushbu sohada qilayotgan ishlarini yanada takomillashtirishni taqazo etadi .
- Dunyo bo'yicha bolalarni ijtimoiy himoyalash bo'yicha chora-tadbirlar 180 mamlakatni qamrab oladi, jumladan dunyoning 75 dan ortiq mamlakatida bolalarni ijtimoiy himoyalash bo'yicha davlat siyosati ishlab chiqilmagan.
- Bolalarni ijtimoiy himoyalash dasturlariga hukumat yiliga o'rtacha YaIMga nisbatan 0,4 % mablag' ajratadi. Ushbu ko'rsatkich G'arbiy Yevropada 2,2%, Afrika, Osiyo va Tinchokeani hududlarida 0,2 % ni tashkil etadi.

[196] Абакумова Н.Н., Подовалова Р.Я. Политика доходов и заработной платы. – М.: Инфра-М, 1999.–С.114.

• Har bir insonda ijtimoiy himoyaga huquq bor va ushbu huquq BMTning 1989-yilgi konvensiyasida “Bolalar huquqi” degan nomda belgilab qo‘yilgan[197].

Bolalar kattalardan ko‘ra ko‘proq ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘ladi, chunki aynan bolalarning qashshoqlik chegarasida yashashi ularni bilim olish va keyinchalik farovon hayot kechirishi uchun to‘sqinlik qiladi. Bolalarni oziq-ovqat bilan ta’minlanmaganligi ularni jismoniy jihatdan rivojlanishiga, tengdoshlaridan aqliy va jismoniy jihatdan orqada qolishiga olib keladi.[198]

2010-yilda Buyuk Britaniya aholisining 19 foizi 16 yoshgacha bo‘lgan bolalarni tashkil etdi, ya’ni 12 million.[199] Har bir bola ijtimoiy jihatdan farovon oilada yashaydilar. Bu esa o‘z navbatida mamlakatda yosh bolalarni himoyalash uchun kuchli ijtimoiy siyosat ishlab chiqilib olib borilayotganidan dalolat beradi.

O‘zbekiston aholisi yosh tarkibida mehnat qobiliyati yoshigacha bo‘lgan aholining ulushi oshib borish tendensiyasiga ega, jumladan, 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar ulushi 2014-yil 29.9%ni tashkil etgan bo‘lsa , 2018-yilga kelib 30.2%ga yetdi[200].

Bolalar ijtimoiy siyosatning ob’ekti bo‘lib hisoblanadi, ular ijtimoiy xizmat turlarini ta’lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy bilan ta’minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, bolalarni parvarishlash uchun ajratiladigan nafaqalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri iste’molchilaridir.

Ushbu xizmatlar uchun moliyaviy mablag‘larning manbai bo‘lib ijtimoiy nafaqalar va soliq tizimi hisoblanadi.[201]

Bolalarni ijtimoiy himoyalashning manzilliligini kuchaytirishda oila farovonligi va oilani ijtimoiy himoyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu holat quyidagilarda namoyon bo‘ladi[202]:

- Bolani parvarishlash uchun nafaqalarni joriy etish.
- Ijtimoiy xizmat turlarining sifatini yaxshilash.
- Uy-joy bilan ta’minlash.
- Mehnat bozorida yosh bolali ayollarga imtiyozlar berish.

O‘zbekistonda amal qilayotgan qonunchilikka muvofiq kam ta’minlangan oilalarga quyidagi turdagi ijtimoiy nafaqalar to‘lanadi:

- kam daromadli oilalarga har oyda ko‘rsatiladigan moddiy yordam;

---

[197] Доклад о социальной защите в мире 2014/15. 36.стр.
[198] Minujin and Nandy, 2012; Ortiz, Moreira Daniels and Engilbertsdóttir, 2012.
[199] “Social Policy”. P.385
[200] O‘zbekiston demografik yillik to‘plami. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi. Toshkent - 2018.
[201] “Social Policy”. P.386
[202] “Social Policy”. P.386-387

- 2 yoshgacha farzandi bo‘lgan oilalarga bola parvarishi uchun oylik nafaqalar;
- 14 yoshgacha farzandi bor oilalarga oylik nafaqalar;
- tabiiy ofatdan zara ko‘rgan oilalarga moddiy yordam.

14 yoshgacha farzandi bor kam ta’minlangan oilalarga oylik nafaqalar miqdori quyidagicha aniqlanadi:

- bir farzandi bor oilalarga eng kam ish haqining 50%i miqdorida;
- ikki nafar farzandi bor oilalarga eng kam ish haqining 80%i miqdorida;
- uch va undan ko‘p farzandli oilalarga eng kam ish haqining 100%i miqdorida.

Har oyda to‘lanadigan nafaqalar miqdori har yili indeksatsiya qilinadi.

Bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan ijtimoiy siyosat – bu mamlakatning kelajakka sarflayotgan investitsiyasi hisoblanandi. Mamlakatning ertangi kuni hozirda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatga bog‘liq bo‘lib, u qanchalik to‘g‘ri, puxta o‘ylangan va samarali amalga oishirilayotgan bo‘lsa, kelajakda ushbu mamlakat rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy oladi.

Bolalarni ijtimoiy himoyalash quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi lozim:

- Bolalarga ta’sir etadigan ijtimoiy-iqtisodiy risklardan himoyalash;
- agar bolalar ijtimoiy nochor holatga tushib qolsa, davlatning zudlik bilan aralashuvini ta’minlash;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning yoshi, jinsi bo‘yicha hisobini yuritish;
- ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqishda bolalar va ularning ota-onalarining fikrlarini hisobga olish.

O‘zbekistonda bu borada qator ishlar amalga oshirilmoqda jumladan, «Sog‘lom bola yili» davlat dasturida aholini ijtimoiy himoyalashni ta’minlashga qaratilgan quyidagi vazifalarni amalga oshirish ustuvor yo‘nalish qilib belgilandi.

- sog‘lom va har tomonlama barkamol avlodni shakllantirish uchun qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, bu borada qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan yangi qoida va me’yorlarni ishlab chiqish;
- sog‘lom bolaning dunyoga kelishi masalasiga sog‘lom va ahil oilaning mevasi sifatida qarab, oilada o‘zaro hurmat va mehr-muhabbat,

yuksak axloqiy va ma’naviy qadriyatlar muhitini shakllantirish, yosh oilalarning oyoqqa turib olishi uchun moddiy yordam ko‘rsatish, onalik va bolalik muhofazasini ta’minlash, ona va bolaning salomatligini mustahkamlash, ayollarning o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi, ularning ro‘zg‘or tashvishlarini yengillashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

- sog‘lom bolani voyaga yetkazishda, patologiyalarsiz bolalar tug‘ilishida sog‘liqni saqlash tizimi xodimlarining roli va mas’uliyatini oshirish, sog‘liqni saqlash tizimining moddiy-texnika bazasini va kadrlar salohiyatini yanada mustahkamlash, aholining tibbiy madaniyatini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli axborot-tushuntirish ishlarini muntazam olib borish;
- sog‘lom bolani shakllantirishda ta’lim-tarbiya tizimi va sportning rolini kuchaytirish, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, ularni yuqori malakali va tajribali pedagoglar bilan ta’minlash, boshlang‘ich ta’limning yuqori sifatini ta’minlagan holda bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan oshirish, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish, sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish, bolalar, jumladan qiz bolalar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportga mehr uyg‘otish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda davlat va jamiyat tomonidan ko‘rsatiladigan yordam va madadni kuchaytirish, mazkur jarayonlar uchun mas’ul bo‘lgan sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat, ijtimoiy muhofaza muassasalarida zamonaviy talablarga javob beradigan shart-sharoitlarni yaratish, ularni rivojlantirishga yo‘naltiriladigan mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish, sog‘lom bolani tarbiyalash bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribani keng ko‘lamda o‘rganish va uni amalga joriy etish;
- sog‘lom bolani, jumladan, qiz bolalarni tarbiyalab voyaga yetkazishda, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi uchun ularga ko‘mak berish, bolalarni turli to‘garaklarga jalb etish, tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha mahalla va boshqa jamoat tuzilmalarining rolini oshirish, huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, oilalar va jamiyatda o‘zaro hamjihatlik, tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash, kam ta’minlangan oilalarga moddiy va ma’naviy yordamni o‘z vaqtida va manzilli ko‘rsatish borasida mahalla va boshqa jamoat tuzilmalarining mas’uliyatini kuchaytirish;

O‘zbekistonda yoshlarni ijtimoiy himoyalash davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Yoshlar mamlakat aholisining 14 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan qismidan iborat. Yoshlarga oid davlat siyosati – davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intelektual, ijodiy boshqa yo‘nalishlardagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutadigan ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimidan iborat.

Yoshlar o‘rtasida ishsizlikni kamaytirish dunyo miqyosida dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdagi yoshlarning mehnat bozoriga yetib borilishi muammosi kuzatilmoqda.

Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida ishsizlik bo‘yicha nafaqalar mavjud. Bu esa yoshlarning ish topishlarida ko‘maklashish va nafaqa bilan ta’minlash, qayta tayyorlash va boshqa bandlikka ko‘maklashish yo‘nalishlari orqali amalga oshiriladi.

Yoshlarning bandligini oshirish bo‘yicha chora – tadbirlar majmuasi o‘zida ish bilan ta’minlash va tajriba orttirish bo‘yicha ishlarni qamrab olishi darkor.

2016-yilda O‘zbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” qonun qabul qilindi. Mamlakatimizda qonun xujjatlarida belgilangan tartibda yoshlarni ijtimoiy himoya qilish borasida quyidagilar kafolatlanadi:

- bepul tibbiy xizmat ko‘rsatilishi;
- bepul umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim olish;
- davlat ta’lim muassasalarida davlat grantlari doirasida bepul kasb-hunar va oliy ta’lim olish;
- davlat sport-sog‘lomlashtirish va madaniy-ma’rifiy muassasalariga borish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- uy-joy qurish, olish va uni rekonstruksiya qilish uchun imtiyozli kreditlar berish;
- ta’lim muassasalarida o‘qish uchun imtiyozli kreditlar berish;
- etim bolalarni va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni turar joylar bilan ta’minlash;
- o‘rta maxsus, kasb-hunar yoki oliy ta’lim muassasasini bitirganidan keyin bandlikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish;

- mehnat sohasida yoshga doir o‘ziga xosliklarni inobatga olgan holda imtiyozlar berish va ishni ta’lim bilan qo‘shib olib borish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- ijtimoiy infratuzilma ob’ektlarini loyihalashtirish va qurish chog‘ida yoshlarning ehtiyojlarini hisobga olish;
- jamoat transportidan foydalanishda imtiyozlar berish.

Ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo‘lmagan yosh fuqarolarni ishga joylashtirishga yordam beruvchi qo‘shimcha ish o‘rinlari va ixtisoslashtirilgan korxonalarni barpo etish, o‘qitish bo‘yicha maxsus dasturlarni tashkil etish, shuningdek ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan yoshlarni ishga joylashtirish uchun korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda ish joylarining eng kam miqdori zaxirasini yaratish yo‘li bilan ta’minlanadi.

Kam ta’minlangan yosh oilalarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda moddiy yordam berish choralari ko‘rilishi mumkin.

O‘quv jarayoni vaqtida o‘quvchilar va talabalarni jamoatchilik ishlariga jalb etishga yo‘l qo‘yilmaydi, bundan ular tomonidan tanlangan mutaxassislikka mos va o‘quv-ishlab chiqarish amaliyotining shakli bo‘lgan hollar yoxud o‘quvchilar va talabalar o‘qishdan bo‘sh vaqtida ixtiyoriy mehnat qilgan hollar mustasno. Mazkur mehnat faoliyatiga mehnat to‘g‘risidagi yoki fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq shartnoma mavjud bo‘lgan taqdirda yo‘l qo‘yiladi.

Yoshlarni va yosh oilalarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasida yoshlar ijtimoiy xizmati faoliyat ko‘rsatadi.

Yoshlar ijtimoiy xizmati faoliyatining yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- yosh fuqarolarga psixologik-pedagogik, yuridik yordam ko‘rsatish va maslahatlar berish;
- imkoniyati cheklangan yosh fuqarolarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish;
- yosh oilalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish;
- ta’lim va mehnat jamoalarida yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish;
- yosh mutaxassislarga yangi ish joyiga moslashishida, ularni qayta tayyorlashga va ularning malakasini oshirishga, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ularni uy-joy bilan ta’minlashga ko‘maklashish;

• voyaga yetmaganlar uchun ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalarida ijtimoiy yordam ko‘rsatish;

• ozodlikdan mahrum etish joylaridan va ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yosh fuqarolarni ijtimoiy moslashtirish;

• yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga ko‘maklashish;

• huquqiy targ‘ibot, yoshlarni ishga joylashish, ta’lim olish va kasbiy tayyorgarlik borasida, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, turizm va sport sohasidagi imkoniyatlar to‘g‘risida xabardor etish;

• yoshlarning yashash joylarida bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishini tashkil etish.

Yoshlar ijtimoiy xizmati o‘z faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha ham amalga oshirishi mumkin.

8.5. Keksalarni ijtimoiy himoyalash

Hayot farovonligi va sog‘liqni saqlash tizimini rivojlanishi bilan birga odamni umr ko‘rish davomiyligi ham uzayib bormoqda.

Aholini qarish jarayoni rivojlangan va rivojlaniyotgan mamlakatlarda tabiiy jarayon hisoblanadi. Umr ko‘rish davomiyligi erkaklarga nisbatan ayollarda ko‘proq qashshoqlikda yashash riski yuqori bo‘ladi. Keksa yoshdagi fuqarolar ijtimoiy ta’minot va ijtimoiy xizmatlarning asosiy iste’molchilari hisoblanadi.

Keksalar va nogironlar uchun ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: yashash joylarida ijtimoiy ko‘maklashish xizmatlari va maslahat xizmatlari; xonadon ishlariga qarashish xizmatlari; kunduzi va qisqa vaqt bo‘linadigan muassasalardagi xizmatlar; internat muassasalaridagi xizmatlar.

Keksalarni ijtimoiy himoyalashning asosiy g‘oyalari quyidagilardan iborat:

•Keksalikda daromadlarni kafolatlash jahonning ko‘pgina inson huquqlarini himoya qilish tashkilotlarining hujjatlarida va xalqaro mehnat normalari bilan har bir shaxsni keksalik chog‘ida daromadlar bilan ta’minlashni ko‘zda tutuvchi me’yoriy hujjatlarda mavjud.

•Keksalarning daromadlarini kafolatlash ularning sog‘ligini saqlash va dori-darmonlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirilishini ta’minlashdir.

•Daromadlarni kafolatlash esa, o‘z navbatida har bir mamlakat o‘z ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatidan kelib chiqib pensiya islohotlarini olib borish lozim.

Davlatning ijtimoiy va pensiya ta’minoti keksalarni munosib turmush tarzini kechirish uchun asosiy manba bo‘lib hisoblanadi.

Umuman jahonda pensiya ta’minoti manbai:

1. Fuqarolarning daromadlaridan pensiya jamg‘armasiga ajratgan sug‘urta badallari hisobidan;
2. Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan keksalik bo‘yicha pensiyalardir. Bular:

- Ma’lum bir yoshga yetganlar, fuqaroligi bo‘lgan shaxslarni qamrab oluvchi tizim;
- Pensiyani hisobga olgan holda yoki moddiy tomondan qanday ta’minlanganligini hisobga olgan holda ta’minot.

O‘zbekiston Republikasining 1993-yil 3-sentyabrda qabul qilingan “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risi”gi Qonuniga muvofiq:

- yoshga doir pensiya;
- nogironlik pensiyasi;
- boquvchini yo‘qotganlik pensiyalari mavjud.

Pensiya ta’minoti aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Pensiya ta’minoti tizimi mehnatga layoqatsiz va kam ta’minlangan fuqarolarning turmush darajasini ta’minlash va qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va tashkiliy xarakterga ega bo‘lgan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirilishini nazarda tutadi. Pensiya ta’minoti aholining faol mehnat qilish qobiliyatiga ega va o‘zining qarilik yoshi tufayli ishlay olmaydigan, biroq avval pensiya yoshidagi kishilarni sug‘urta badalini to‘lash orqali moddiy qo‘llab-quvvatlab turgan kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy shartnomaga asoslangan. Pensiya tizimi jamiyatda quyidagi funksiyalarni bajaradi: birinchidan, qarilik davrida kambag‘allikdan himoya qiladi; ikkinchidan, mehnat faoliyati yakunida kafolatlangan daromad olish imkonini beradi va uning hajmi olgan ish haqi miqdoriga mutanosib ravishda ma’lum summani tashkil etadi. uchinchidan, ushbu daromadni inflyatsiya tufayli real turmush darajasini pasayib ketishidan himoya qiladi; to‘rtinchidan, jamiyatda YaIMni aholining turli ijtimoiy guruhlari o‘rtasidagi ijtimoiy keskinlikni oldini olib daromadlarni adolatli taqsimlash imkonini beradi; beshinchidan, iqtisodiy vazifani jamiyatdagi aholini turli ijtimoiy guruhlarini boylar – kambag‘allar, bandlar – ishsizlar kabi sinflarga ajralishi, tabaqalanishi jarayonlarini sekinlashtiradi; oltinchidan, makroiqtisodiy vazifani mamlakatdagi ijtimoiy muhitni yaxshilash va iqtisodiy rivojlanishning barqarorligiga erishilishini ta’minlaydi.

Nuroniy qariyalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, boquvchisini yo‘qotgan oilalar uchun Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining hududiy tuman (shahar) bo‘limlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida” qonuniga muvofiq pensiyalar hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi 107-son qaroriga asosan ijtimoiy nafaqalar tayinlanadi va to‘lash uchun mablag‘lar bilan moliyalashtiriladi.

2019-yilning 1-aprel holatiga pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilarning umumiy soni 3 542 463 nafarni yoki aholi sonidagi ulushi 10,7% tashkil qildi. Ushbu ko‘rsatkich, Toshkent shahrida 13,5%, Navoiy viloyatida 11,9%, Toshkent viloyatida 11,7%, Buxoro viloyatida 11,4%, Farg‘ona viloyatida 11,1%, Andijon va Sirdaryo viloyatlarida 10,8%, Xorazm viloyatida 10,7%, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 10,4%, Namangan viloyatida 10,0%, Samarqand viloyatida 9,9%, Qashqadaryo viloyatida 9,5%, Surxondaryo viloyatida 9,3% va Jizzax viloyatida 8,9%.

3 542 463 nafar pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilardan:

- yoshga doir pensiya oluvchilar - 2 656 396 nafar (74,9%)ni;
- nogironlik pensiyasi oluvchilar - 374 999 nafar (10,6%)ni;
- boquvchisini yo‘qotganlik pensiya oluvchi oilalar - 175 907 ta (4,9%)ni;
- ijtimoiy nafaqa oluvchilar - 335 161 nafar (9,6%)ni tashkil qildi.

O‘zbekistonda 2019-yilning 1-aprel holatiga, Tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyalarining (TMEK) nogironlik belgilangani to‘g‘risidagi tibbiy ma’lumotnomalari va tibbiy xulosalariga asosan nogironlik pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilarning umumiy soni 658 747 nafarni tashkil qildi.

Fuqarolar pensiya olish huquqi paydo bo‘lgandan so‘ng mavjud qonunchilikka muvofiq 3 oy mobaynida pensiya tayinlanishini so‘rab murojaat etishlari mumkin.

Davlat pensiyalarining turli xillarini olish huquqiga ega bo‘lgan fuqarolarga ularning o‘zlari tanlagan bitta pensiya tayinlanadi.

Pensiyalarni tayinlash “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, yoshga doir pensiya olish huquqiga:

- erkaklar mehnat stajlari kamida 25 yil bo‘lgan taqdirda va 60 yoshga to‘lganda;

- ayollar mehnat stajlari kamida 20 yil bo‘lgan taqdirda va 55 yoshga to‘lganda olish huquqiga ega bo‘ladilar.[203]

Davlatning ijtimoiy nafaqalari bilan ta’minlash:

- 65 yoshga to‘lgan erkaklar;
- 60 yoshga to‘lgan ayollar.

Keksalarni munosib hayot kechirishlarini ta’minlash uchun pensiya va nafaqa miqdorini o‘rtacha ish haqiga nisbatan kamida 40% ni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga demografik omillar, jumladan bog‘liqlik koffitsenti, ya’ni mehnatga layoqatli aholini 60 yoshdan oshgan aholi soniga nisbati 4:1 bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Ushu muammo G‘arbiy Yevropa mamlakatlariga xos bo‘lib, 1946-1954-yillarda tug‘ilishning ortishi, hozirda ushbu yillarda tug‘ilgan aholining pensiyaga chiqishi, tug‘ilishning kamayishi, “Pay As You Earn” shaklidagi pensiya tizimlari davlatning maqsadli fondlaridan moliyalashtirilishi soliqlarni oshirilishiga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatmoqda[204]

Bu esa har bir mamlakatning pensiya tizimi islohotlarini o‘z vaqtida olib borishini talab etadi. XXI asrning boshlarida jahonda birdamlik va jamg‘arilish tizimiga asoslangan pensiya tizimlari amal qilmoqda. Birdamlik pensiya tizimi avlodlar, ish beruvchi va ishchilar birdamligiga asoslangan va birdamlik tamoyili asosida moliyalashtiriladi. XX asrning 70 yillariga kelib birdamlik tamoiyliga asoslangan pensiya tizimida pensiya fondlarining moliyaviy beqarorligi kuchayib, pensiya fondiga to‘lanadigan to‘lovlar stavkasini oshirish ehtiyoji kuchayib, byudjetdan transfertlar ajratish zaruriyati vujudga keldi.

O‘zbekistonda pensiya jamg‘armasining daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi mavjud va yaqin kelajakda kutilayotgan nomutanosiblik quyidagi omillar ta’sirida sodir bo‘lmoqda:

- demografik o‘zgarishlarning (aholi qarish global muammosi) ta’siri tufayli pensiya jamg‘armasi xarajatlarining ko‘payishi;
- 2018 yilda pensiya yoshidagi aholining ulushi 10,2%ni tashkil etgan holda 2027 yilda 12%ga yetishi kutilmoqda. Ushbu holat mamlakatdagi pensiyaga chiqish yoshini hozirgi o‘rtacha 57,5 yoshdan dunyodagi o‘rtacha pensiya yoshiga 62 yoshga oshirishni taqozo etmoqda;

---

[203] O‘zbekiston Republikasining 1993-yil 3-sentyabrda qabul qilingan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to‘g‘risi"gi Qonuning 7 - moddasi..

[204] “Social Policy”. P.340

•ijtimoiy sug‘urta tizimini moliyalashtirishda aholining mutanosib ishtirokini ta’minlash zaruriyati. Fuqorolarning ijtimoiy sug‘urta tizimidagi ishtiroki 62% bo‘lib, taxminan 10,2 mln. kishi davlat ijtimoiy sug‘urtasi bilan qamrab olinmagan. Xalqaro mehnat tashkiloti talablariga muvofiq fuqorolar pensiya ta’minoti tizimi barqaror rivojlanishi uchun badal to‘lovchilar sonining pensiya oluvchilar soniga nisbati 4:1 nisbatda bo‘lishi kerak, mamlakatimizda esa ushbu nisbat amalda 1,5:1ga teng;

•moliyaviy mablag‘larni taqsimlashdagi samarasiz instrumentlar va ijtimoiy sug‘urtadagi rag‘batlantiruvchi mexanizmlarning zaifligi. Jami tayinlangan pensiyalar tarkibida imtiyozli shartlarda tayinlangan pensiyalar ulushi 19,5 foizni tashkil etmoqda. Ushbu holat pensiya miqdori va xodimning sug‘urta staji o‘rtaisdagi bog‘liqlikni susaytirmoqda. Amaldagi pensiya ta’minoti tizimi, 7 yildan kam bo‘lmagan stajga ega bo‘lgan shaxslarga pensiya tayinlanishini nazarda tutadi. Xalqaro mehnat tashkilotining “Ijtimoiy ta’minotning minimal me’yorlari to‘g‘risida”gi 102-sonli Konvensiyasiga muvofiq, yoshga doir pensiyani tayinlash uchun talab etiladigan eng kam ish staji 15 yil qilib belgilangan. Dunyoning ko‘plab davlatlari, shu jumladan MDH davlatlarida talab etilgan eng kam ish staji 10-15 yil darajasiga yetkazilgan.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan barcha holatlar aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining pensiya ta’minotini isloh etishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-dekabrdagi “Fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimi samaradorligini oshirish va pensionerlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5597-son Farmoniga muvofiq 2019-yil 1-yanvardan boshlab ishlayotgan 118 000 pensionerlar pensiyalarni to‘liq hajmda olmoqdalar. Pensiya ta’minoti tizimida ijtimoiy adolatni ta’minlash uchun ish haqi, mehnat stajlari bilan pensiya to‘lovlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirish, yuqori ish haqi olgan pensionerlarni munosib pensiya to‘lovlari bilan ta’minlash maqsadida pensiyani hisob-kitob qilish uchun ish haqining maksimal miqdorini eng kam oylik ish haqining sakkiz barobaridan o‘n barobariga oshirildi. Natijada jami 519 ming nafardan ortiqroq pensionerlarning pensiya miqdorlari o‘rtacha 65 ming so‘mdan 263 ming so‘mgacha ko‘paydi.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq 2019-yilda Davlat pensiya ta’minoti tizimini isloh etish konsepsiyasi

loyihasi ishlab chiqildi, hozirda muhokama qilinib yil oxiriga qadar qabul qilinishi lozim.

Ushbu konsepsiya jahon amaliyotida sinalgan samarali faoliyat yurituvchi davlat pensiya tizimlariga qo‘yiladigan quyidagi xalqaro talablarga javob berishi lozim:

- majburiy ishtirok- pensiya tizimi majburiy to‘lovlar hisobiga shakllanadi;
- moliyaviy barqarorlik – pensiya fondiga to‘lanadigan badallar to‘lanadigan pensiyalar summasini to‘liq qoplashi kerak;
- samarali pensiya ta’minotining muhim belgisi ushbu tizim pensiya miqdori, pensionerlarning qarilik davrida munosib turmush darajasini ta’minlashi lozim. Xalqaro mehnat tashkiloti tavsiyalariga ko‘ra kishilar normal yashashlari uchun oladigan o‘rtacha oylik ish haqi 4,5 barobar yashash minimumi ekvivalentidan, o‘rtacha pensiya miqdori 2,5-3 barobar, minimal pensiya miqdori 2 barobar yashash minimumi ekvivalentidan kam bo‘lmasligi zarur;
- pensiya bilan ta’minlanganlik – pensiya olish huquqiga to‘langan badallar hisobiga erishiladi va uning qiymati pensiya fondiga to‘lanadigan badallar qiymati va to‘lovlar davomiyligiga bog‘liq bo‘ladi;
- pensiya tizimi barqarorligini muntazam baholash amaliyotini qo‘llash;
- mamlakatimiz pensiya tizimida “tuzilmaviy” islohotlarni amalga oshirish orqali “birdamlik” pensiya tizimidan bosqichma-bosqich aralash pensiya tizimiga o‘tish siyosatini izchillik bilan amalga oshirish zarur. Qarilikni sug‘urtalash tizimini modernizatsiyalashning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim: soliqlar yukini pasaytirish orqali yashirin iqtisodiyotda band aholining iqtisodiy faoliyatini legallashtirish yordamida pensiya tizimi bilan qamrab olishni kengaytirish, badallar stavkasini ish beruvchidan yollanma ishchilar hisobiga o‘zgartirish, badal undirish bazasi va pensiyalarni hisoblash formulasiga o‘zgartirishlar kiritish, pensiyalarni indeksatsiyalashda minimal ish haqining oshirilishiga asoslanmasdan iste’mol tovarlari va xizmatlar narxining o‘zgarishini hisobga olish.

Umumjahon Banki guruhi tavsiyasiga ko‘ra pensiya tizimi ko‘p darajali va quyidagi tarkibda bo‘lishi lozim:

- minimal pensiya kafolatlangan majburiy birdamlik tizimi;
- badallar hisobiga ortishi kafolatlangan majburiy jamg‘ariladigan pensiya tizimi;

- shaxsiy qo‘shimcha jamg‘armalar hisobiga pensiya qiymatining o‘sishini ta’minlovchi ixtiyoriy jamg‘ariladigan pensiya tizimi.

Eng kam ish haqi doimiy siyosiy tortishuvlar markazida bo‘lib qolmoqda. Eng kam ish haqini oshirish tarafdorlari kam ta’minlangan oilalarning daromadlarini oshiruvchi vosita deb qaraydilar.[205] Eng kam daromad past darajadagi yashash minimumi darajasini ta’minlab beradi.

Eng kam ish haqi darajasini oshirishga qarshi chiquvchilar esa, bu kam ta’minlangan aholini qo‘llab-quvvatlashning eng maqbul yo‘li emas, deb hisoblaydilar va ushbu holatning sabablari sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi:

1) ish haqi darajasining oshishi ishsizlikka olib keladi;

2) aksariyat holatlarda ijtimoiy yordam aholining muhtoj qatlamlariga borib yetmaydi.

Kam ta’minlangan aholi uchun minimal ish haqi to‘g‘risida qabul qilingan qonun va uni iste’mol mahsulotlari narxlari indeksi oshishiga ko‘ra indeksatsiya qilinishi qalqon sifatida qaralishi mumkin. Misol uchun Italiyada indeksatsiya iste’mol narxlari indeksi 1 foizga oshganda, Daniyada uch foizga, Belgiyada ikki foizga, Lyuksemburgda ikki yarim foizga oshganida indeksatsiya qilinadi. AQSh, Kanada, Fransiya, Shveysariya kabi mamlakatlarda esa indeksatsiya barcha aholiga nisbatan emas, balki yollanma ishchilarning bir qismini o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasida iste’mol narxlari indeksi oshganda indeksatsiya amalga oshiriladi. Bu o‘z navbatida eng kam ish haqini davlat tomonidan tartibga solinishini taqozo etadi. Rivojlangan mamlakatlardan farqli ravishda mamlakatimizda iste’mol narxlari indeksi necha foizga oshganida indeksatsiya amalga oshirilishining huquqiy asoslari belgilanmagan.

8.6. Nogironlarni ijtimoiy himoyalash

Nogironlik sodir bo‘lgan hollarda, yoshdan qa’tiy nazar, ish stajiga ega bo‘lmagan I va II guruh nogironlariga nafaqa mehnat qobiliyati doimiy yoki uzoq muddatga yo‘qotilganda tayinlanadi va to‘lanadi.

Mehnat faoliyatiga layoqati cheklanganligi darajasini aniqlash uchun fuqarolarni tibbiy tekshirish sog‘liqni saqlash muassasalari tibbiy – maslahat komissiyalari yo‘llanmalari bo‘yicha tibbiy – mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan amalga oshiriladi.

[205] Экономика / Под. ред. А.С.Булатова. – М.: Век, 1997.– С.53.

Fuqaro mehnat qobiliyatiga layoqatli emas yoki unga mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish mumkin emasligi belgilangan taqdirda, TMEK mehnat qobiliyatining doimiy yoki uzoq muddatga yo‘qotganligi to‘g‘risida xulosa chiqaradi. Qabul qilingan xulosa asosida TMEK yetti ish kuni muddatida tibbiy tekshirish dalolatnomasidan ko‘chirmani fuqaroni tekshirishga yuborgan Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga jo‘natadi.

Nogironlik nafaqasi mehnatga layoqatni yo‘qotishning butun davri uchun tayinlanadi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha dunyoda nogironlar umumiy aholining 15% ni tashkil etadi[206], 785 millionga yaqin nogironlar esa mehnatga qobiliyatli yoshda (15 yosh va undan katta)[207].

Aksariyat nogironlar mehnat bozorida qiyinchiliklarga, jumladan ularning ish joylari ishlashlari uchun maxsus shart-sharoitlarga ega emasligi kabi muammolarga duch kelish holatlari vujudga keladi.

Ijtimoiy himoya tizimi nogironlar huquqlarini himoya qiluvchi, daromadlarini kafolatlovchi, sog‘liqlarini himoyalashga qaratilgan va ijtimoiy integratsiya ijtimoiy dasturlarning mavjudligi, ularning hayot kechirishlari uchun qulayliklarni yaratadi.

8.6.1-jadval tahlillari ko‘rsatishicha 2014-2018 yillarda mamlakatimizda jami pensionerlar soni oshib borish tendensiyasiga ega bo‘lgan holda nogironlik bo‘yicha pensiya oluvchilar soni sog‘liqni saqlash tizimi rivojlanganligi va uchinchi guruh nogironligi bekor qilinganligi sababli kamaydi. Aholining ijtimoiy jihatdan kam ta’minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishning manzilliligini kuchaytirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirilishi tufayli nogironlik bo‘yicha o‘rtacha pensiya miqdori muttasil oshib borish tendensiyasiga ega bo‘ldi.

8.6.1-jadval

O‘zbekistonda nogironlik pensiyasi oluvchilar soni va pensiyalar miqdori [208]

	2014-y.	**2015-y.**	**2016-y.**	**2017-y.**	**2018-y.**
Jami pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar (ming kishi)	3 119.5	3 203.9	3 324.2	3 488.9	3 562.6
Nogironlik bo‘yicha pensiya oluvchilar (ming kishi)	380.5	367.7	360.6	368.5	375.8
Nogironlik bo‘yicha pensiya miqdori (ming so‘m)	379.0	414.6	473.7	536.7	623.1

[206] Доклад о социальной защите в мире 2014/15. с. 86.
[207] ВОЗ и Всемирный банк, 2011
[208] O‘zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Toshkent - 2018. 75-76 betlar.

Jahonda nogironlarning daromadlarini kafolatlashga qaratilgan nafaqalar mavjud. 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlarini himoya qilishning umumjahon deklaratsiyasi va 1966-yilda nogironlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni himoya qiluvchi BMTning konvensiyasi qabul qilingan[209].

XMTning 1967-yilda yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo‘qotganlik bo‘yicha nafaqalari to‘g‘risida konvensiyasi qabul qilingan va xalqaro tashkilotlarning huquqiy-me’yoriy hujjatlari asosida tartibga solib turiladi. Ushbu holat esa mamlakatimizda nogironlarni ijtimoiy himoya qilish borasida olib borilgan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va manzilli olib borilayotganidan dalolat beradi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarining guruhlanishini quyidagi chizma orqali ko‘rishimiz mumkin (8.6.1-rasm).



8.6.1-rasm. Aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarining guruhlanishini[210]

Ijtimoiy sohani rivojlantirishga, aholining ijtimoiy himoyalashni choralarini ta’minlashga davlat byudjetidan har yili barcha mablag‘larning yarmidan ortig‘i ajratilmoqda. Shu hisobdan onalik va bolalikni muhofaza qilish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda, davlatdan yordam olishga muhtoj bo‘lgan oilalarga alohida e’tibor berildi. Kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar to‘lanmoqda.

O‘zbekiston hukumati o‘z zimmasiga mamlakatimizda aholi tarkibida kam ta’minlangan qatlam miqdorini kamaytirish va jamiyatimiz hayotida insonparvarlik tamoyillarining yanada rivojlanishiga

[209] ВДПЧ, Ст. 25 (1); МПЭСКП, Ст. 9, 11, 12; КПЛОВ, Ст. 25, 28.
[210] Chizma muallif tomonidan turli manbalar asosida tuzilgan.

ko‘maklashish maqsadida Ming yillik rivojlanish maqsadlari doirasida ma’lum bir majburiyatlarni o‘z zimmasiga olgan. Xalqaro hamjamiyat, jumladan, BMTning turli tarkibiy tuzilmalari bu borada moliyaviy yordam berish va mamlakatimizdagi davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali ko‘maklashishga hozir. Mamlakatimizda aholini samarali himoya qilishga yo‘naltirilgan maqsadli chora-tadbirlar hamda barqaror iqtisodiy o‘sish va bandlik sur’atlari aholi farovonligini oshirishni ta’minlamoqda.

Iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan ta’riflarga ko‘ra aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi – bu moddiy yordam ko‘rsatish maqsadida aholining turli ijtimoiy-demografik va kasb guruhlari, shuningdek, davlat uchun alohida xizmat ko‘rsatgan fuqarolarga taqdim etiladigan ijtimoiy pensiya, nafaqa, kompensatsiya, subsidiya va imtiyozlar tizimidir.

Mamlakat iqtisodchilarning fikrlariga ko‘ra aholini manzilli ijtimoiy himoya qilish – bu aholining, asosan, muhtoj va nochor qatlamlarini ijtimoiy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tizim sifatida keltirilgan.

Fikrimizcha aholini manzilli ijtimoiy himoya qilish – bu mamlakatning muhtoj va nochor aholi qatlamlarini ijtimoiy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tizimdir.

Aholini ijtimoiy himoya qilish mexanizmi deganda, me’yoriy hujjatlar asosida aholini ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlashni tashkil etishda qo‘llanadigan usullar majmuasini tushunish mumkin.

O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilishning mavjud barqaror mexanizmi jamiyatning himoyaga muhtoj qatlamlari, jumladan kam ta’minlangan oilalar, yolg‘iz keksa-qariyalar, nogironlar, vaqtincha ishsizlar va yordamga muhtoj aholi vakillariga ijtimoiy yordam ko‘rsatish bilan izohlanadi. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, mamlakatdagi ijtimoiy islohotlar asosini tashkil qiluvchi aholining muayyan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishning samarali tizimiga o‘tilishi iqtisodiy taraqqiyotning strategik maqsadlariga mos keladi.

“Keksalarni e’zozlash yili” davlat dasturiga muvofiq 100 yoshga to‘lgan va undan oshgan shaxslarga munosib e’tibor qaratish, pensionerlar, 1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini manzilli ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo‘llab quvvatlashni kuchaytirish maqsadida 100 yoshga to‘lgan va undan oshgan fuqarolar pensiyasiga 2015-yilning 1-mayidan boshlab eng kam ish haqining 100%i miqdorida qo‘shimcha to‘lovlar to‘lana boshlandi. O‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz keksalar va nogironlarni asosiy

oziq-ovqat mahsulotlari va gigiyenik mahsulotlar bilan bepul ta'minlash bo'yicha Nizom tasdiqlandi va tovarlar tarkibi 15taga yetkazildi. Yolg'iz yashayotgan keksa va nogiron kishilar turmushini baholash, o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalar va nogironlar uchun yakka tartibdagi dasturlar shakllari tasdiqlandi.

8.6.2-jadval

Davlat byudjetining ijtimoiy sohaga xarajatlari tarkibi va dinamikasi, %da[211]

Yillar	2012	2015	2016	2017	2018
Ijtimoiy xarajatlar	**58,9**	**56,4**	**58,9**	**54,1**	**53,5**
shundan:					
1.Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari	**58,9**	**54,1**	**55,6**	**53,7**	**48,9**
jumladan:					
Ta'lim	34,1	32,2	33,8	31,8	25,9
Sog'liqni saqlash	14,5	13,8	14,2	14,6	12,0
Madaniyat va sport	1,1	1,0	1,1	1,5	1,7
Fan	0,7	0,6	0,6	0,5	0,6
Ijtimoiy nafaqa, moddiy yordam va kompensatsiya pul to'lovlari	8,2	6,0	5,4	4,4	3,8
Ijtimoiy sohaning boshqa xarajatlari	0,4	0,6	0,5	0,9	0,7
2.Qishloq joylarda yakka tartibdagi uy-joylar qurish dasturini birgalikda moliyalashtirishga kredit liniyasi	**0,0**	**2,3**	**3,3**	**0,4**	**4,6**

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatalar strategiyasi tadbirlarini amalga oshirish va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2017-yil 2-sentyabrdagi PF-5177-sonli Farmoniga muvofiq 2017–2018-yillarda aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha hududiy manzilli dasturlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi:

- muayyan mehnat turlari bilan shug'ullanish istagi bo'lgan kam ta'minlangan oilalarga ularning oilalarini yetarli darajada ta'minlash imkonini beradigan tijorat banklarining imtiyozli foiz stavkasi

[211] O'збекистон Республикаси Молия вазирлиги маълумотлари асосида тузилган.

bo‘yicha hunarmandchilik faoliyati uchun mashina va asbob-uskunalarni sotib olish, shaxsiy tomorqa uchastkalarini rivojlantirish, turar joylarni ta’mirlash maqsadlari uchun mikrokreditlar berish;

- og‘ir uy-joy va maishiy sharoitlarda yashayotgan, boquvchisini yo‘qotgan, nogironlarni parvarish qilayotgan oilalarga uy-joyi sharoitini yaxshilash uchun har bir tuman va shaharda o‘rta hisobda 2 va 5 oilaga 2017–2018-yillarda arzon uy-joylarni 10 yil mobaynida davlat ixtiyoriga o‘tkazish huquqisiz olish, mashina texnika yoki bir boshdan qoramol xarid qilish, og‘ir kasalliklar mavjud bo‘lgan vaziyatda tibbiy xizmatlar haqini to‘lash uchun har bir tuman va shaharda o‘rtacha hisobda 6 tagacha oilalarga beg‘araz yordam ko‘rsatish;

- mamlakatnning barcha mintaqalarida, jumladan, qishloq va olis tumanlardagi band bo‘lmagan fuqarolarni mahallalarni obodonlashtirish, ariqlarni, irrigatsiya shaxobchalarini tozalash, uy-joylarni ta’mirlash, infratuzilmani yaxshilash, yo‘llar va ko‘chalarni ta’mirlash bo‘yicha jamoat ishlariga, qishloq xo‘jalik ishlariga jalb etish ta’minlanadi. Jamoat ishlariga jalb etilayotgan jismoniy shaxslar daromad solig‘idan ozod etiladi va yagona ijtimoiy to‘lovga tortilmaydi. Yuqorida qayd etilgan holatlar aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilliligini kuchaytirishning huquqiy-institutsional asoslarini takomillashtirish imkonini beradi.

Shu o‘rinda davlat byudjetidan ijtimoiy sohani moliyalashtirishga ajratilayotgan xarajatlarning o‘sish tendensiyasiga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin (8.6.2-jadval).

O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan harakat dasturiga muvofiq aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini aniqlash uslubiyoti va aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilliligini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi, aksariyat ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalari tashkilotlari moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash davlat dasturlarini amalga oshirilganligi, qishloq joylarda yakka tartibda uy-joylarni qurish dasturi va “obod tuman” maqsadli davlat dasturlarining amalga oshirilishi munosabati bilan davlat byudjetining ijtimoiy sohaga yo‘naltirilayotgan xarajatlar miqyosi kamaydi, jumladan, tarkibida juz’iy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Shu bilan birgalikda davlat byudjetining ijtimoiy sohaga xarajatlarining YaIMdagi ulushi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tomonidan tavsiya etiladigan andozalar, standartlar talabiga javob berishi lozim (8.6.3-jadval).

8.6.3-jadval

Davlat byudjetining ijtimoiy himoya sohasiga xarajatlari dinamikasi (foiz hisobida)[212].

Yo‘nalishlar	Byudjetning umumiy xarajatlaridagi ulushi, %					
	2011-yil	2012-yil	2013-yil	2014-yil	2015-yil	2017-yil
ijtimoiy himoya	**9,6**	**8,6**	**8,6**	**9,6**	**9,7**	**5,7**
Shundan:						
Kasallik, mehnatga layokatsizlik va kam ta’minlan-ganlik	1,9	1,9	1,9	1,9	1,9	1,8
Qarilik	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,1
Oila va bolalar	6,1	5,7	4,1	3,8	3,9	2,5
Uy-joy	0,6	0,1	1,5	2,4	2,4	0,4
Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xarajatlar	0,5	0,5	0,5	1,1	1,1	0,9

O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilliligini kuchaytirish borasida amalga oshirilgan quyidagi chora-tadbirlar tufayli davlat byudjetidan ijtimoiy himoya sohasiga sarflangan xarajatlarning ulushi 9.6%dan 5.7%ga, jumladan oila va bolalar uchun ajratiladigan mablag‘lar mutanosib ravishda pasayish tendensiyasiga ega bo‘ldi:

- boquvchisini yo‘qotgan oilalardagi 16 yoshga yetmagan bolalar uchun beriladigan ijtimoiy nafaqalarni 14 yoshgacha berilishi;
- kam ta’minlangan oilalarda 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarni parvarishlash uchun beriladigan nafaqa 2 yoshgacha tushirilishi shular jumlasidandir.

[212] O‘збекистон Республикаси Молия вазирлиги маълумотлари асосида.

Glossariy

O‘zbekcha	Ruscha	Inglizcha	Izoh
Yashash minimumi	Прожиточ-ный минимум	Living wage	Iste’mol savatidagi mahsulotlarning qiymati, jumladan majburiy to‘lovlar va yig‘imlar. Yashash minimumi quyidagilar uchun mo‘ljallangan: - aholi turmush darajasini baholash; - mehnatga haq to‘lash va qarilik bo‘yicha nafaqa minimal miqdorini, stipendiyalar, moddiy yordamlar va boshqa to‘lovlar miqdorini belgilash uchun; - kam ta’minlangan fuqarolarga davlat tomonidan zaruriy yordamni ko‘rsatish; - turli darajadagi byudjetlarni shakllantirish.
Minimal pensiya	Минималь-ная пенсия	Minimum pension	Qonunchilikda belgilangan pensiyaning eng kam miqdori
Minimal ish haqi	Минималь-ная зарплата	Minimum wage	Qonunchilikda belgilangan ish haqining eng kam miqdori
Kam ta’minlan-ganlar	Малообес-печенные	The needy	Daromadi yashash minimumidan yuqori bo‘lmagan shaxslar. Kam ta’minlanganlik chegarasini hisoblashda minimal iste’mol savatidan foydalaniladi.
Muhtojlar	Нуждающий	Necessitous	Hayotiy zaruriy ehtiyojni qondirishda yetishmovchilik mavjud bo‘lgan shaxslar
Ijtimoiy himoya tizimi	Система социальной защиты	Social protection system	Ijtimoiy ta’minot dasturlari tizimi, muhtoj aholining kambag‘allik darajasiga ko‘ra ta’minlanadigan nafaqalardan iborat.
Yakka tartibdagi manzilli	Индиви-дуальный адрестность	Individual targeting	Shaxs kambag‘allik chegarasidan oila daromadi tadbirkorlik faoliyati tufayli oshishi mumkinligi, ularning ovqatlanishi, uy-joy sharoitlari alohida ko‘rib chiqiladi.
Hudud tamoyili va indikatorlari bo‘yicha manzilli;	Адрестносьт по территори-ально-причинному индикаторов	Targeting by territorial-cause indicators	Yakuniy jihatdan tuman, mahalliy hokimliklarning ushbu hududdagi o‘rtacha farovonlik darajasiga ko‘ra aniqlanadi

Ijtimoiy himoya dasturlari	Программы социальной защиты	Social protection program	Aholining barcha qatlamlarini himoyalashga yo‘naltirilgan choralar (sog‘liqni saqlash, ta’lim olish, turar joyga ega bo‘lish, madaniyat, pul daromadlarini inflyatsiyadan himoyalash, asosiy tovarlar va xizmatlar iste’moli pasayishining oldini olish, ish haqi va nafaqalar o‘z vaqtida berilishi va boshqalar)
Nofaol ijtimoiy dasturlar	Пассивные социальные программы	Passive program of social protection	Ijtimoiy yordam va imtiyozlardan tashkil topgan ijtimoiy dastur
Qashshoqlar	Нищие	pauper	Turmush darajasi yashash minimumidan, kambag‘allik chegarasidan pastda turuvchi shaxslar.
Kambag‘al-lik chegarasa	Черта бедности	Poverty line	BMT tomonidan bir kunda bir kishi uchun daromadning belgilangan eng kam miqdori (Hozirda u 1,9 dollarga teng)
Ijtimoiy himoya tizimi tarkibi	Элементы социальной защиты	Elements of social protection	Davlatning minimal ijtimoiy standartlari; pensiyalar, ishsizlik bo‘yicha nafaqalar, tibbiy yordam ko‘rsatish; imtiyozlar, ijtimoiy pensiya, nafaqalar; qo‘shimcha xizmat, davolanish, o‘qish uchun to‘lash.
Samarali ijtimoiy himoya tizimi	Эффектив-ная система социальной защиты	Efficient system of social protection	Maqsadli, iqtisodiy rivojlanish darajasiga mos, manzillik, yaxshi boshqariladigan, kam xarajatlar bilan maqsadga erishish imkonini beruvchi, adolatli, xalq urf-odatlari, mentaliteti, madaniyati, an’analarini hisobga oluvchi ijtimoiy himoya tizimi
Aholi turmush sifati	Качество жизни населения	Life quality of population	Insonning ijtimoiy erkinligi, har tomonlama rivojlanish imkoniyati, o‘z iqtidori va rejalarini amalga oshirish darajasini ifoda etuvchi uning turli ijtimoiy tizimlar va tuzilmalardagi mavqeini mujassamlashtiruvchi integral ko‘rsatkich
Aholini ijtimoiy himoya	Механизм социальной защиты	Mechanism of social protection	Ijtimoiy himoya qilish mexani-zmini quyidagi uch toifaga ajratishimiz mumkin:

qilish mexanizmi	населения		1) yakka tartibdagi manzilli; 2) hudud tamoyili va indikatorlari bo‘yicha manzilli; 3) o‘zini-o‘zi manzilli himoya qilish.

Nazorat savollari:

1. Kam ta’minlanganlikni aniqlashning zarurligi, turlari va usullarini izohlang.
2. Respublikamizda aholi ijtimoiy jihatdan muhtojlik darajasiga ko‘ra qanday guruhlarga ajratilgan?
3. Ijtimoiy himoya tizimi va uning tarkibiy qismlarini tushuntirib bering.
4. Aholini ijtimoiy himoya qilish mexanizmi va amalga oshirish dastaklarini tushuntirib bering.
5. Aholini ijtimoiy himoya qilishning tamoyillari va amal qilish mexanizmining afzalliklari nimalardan iborat?
6. Aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarining maqsadlari, turlari va ularning guruhlanishini tushuntirib bering.
7. Turmush sifati tushunchasi va uni shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadigan omillarni sharhlab bering.
8. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish amaliyotini tushuntiring?
9. Jahonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilligini kuchaytirish tajribasini O‘zbekiston amaliyotida qo‘llash imkoniyatlarini baholang.

Testlar:

1. Aholini ish bilan ta’minlashga ko‘maklashuvchi davlat jamg‘armasini nazorat qiluvchi organlarni ko‘rsating.

a) Vazirlar Mahkamasi, Moliya vazirligi;
b) Markaziy bank, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi;
c) O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Moliya vazirligi;
d) Moliya vazirligi huzuridagi nazorat taftish boshqarmasi, Iqtisodiyot vazirligi.

2. Mehnat bozorining shakllanish asoslari qanday munosabatlardan iborat?

a) ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi;

b) mulk egalari va ishchilar;
c) ishchi kuchi xaridi;
d) ishlab chiqarish vositalariga egalik qiluvchilar va ishchi kuchiga ega bo‘lgan erkin kishilar.

3. Demografiya nima?

a) aholi sonining rivojlanish jarayonini o‘rganish;
b) tug‘ilish va o‘lishni hisoblash;
c) bolalar va onalar o‘limini kamaytirishga qaratilgan siyosat;
d) aholining taqsimlanishini o‘rganadigan fan.

4. Aholini ish bilan ta’minlashga ko‘maklashuvchi davlat jamg‘armasining vazifalari nimadan iborat?

a) ishsizlarni moddiy qo‘llab-quvvatlash, mehnat bo‘limlarini moliyalashtirish;
b) kredit liniyalarini ochish;
c) fuqarolarni ishga joylashtirish, me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, ijtimoiy kuzatuvlar o‘tkazish, kredit liniyalarini ochish;
d) a,v javoblar to‘g‘ri.

5. Ijtimoiy himoyani keng ma’noda tariflab bering?

a) mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy himoyalanishini ta’minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui;
b) mamlakat aholisini moddiy jihatdan rag‘batlantirish va himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui;
c) mamlakat aholisini moddiy jihatdan shakllantirishdan iborat;
d) mamlakat aholisining oylik maoshlarini oshirishdan iborat bo‘lgan tadbirlar majmui.

6. Ijtimoiy himoyaning maqsadi nima?

a) aholi farovonligi, qatlamlarning ta’lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlar jihatidan keskin tabaqalanishiga barham berish, insonni munosib hayot darajasi va taraqqiyoti bilan ta’minlashga yordam berish;
b) mamlakat aholisini oylik maoshlarini oshirishdan iborat bo‘lgan tadbirlar;
c) mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy jihatdan himoya qilinishi;
d) mamlakat aholisini turli tajovuzlardan himoyalash.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 10 dekabrdagi farmoni bilan necha yoshgacha farzandi bo‘lgan kam ta’minlangan oilalar davlatning alohida otalig‘iga olindi?

a) 16 yoshgacha;

b) 17 yoshgacha;
c) 18 yoshgacha;
d) 15 yoshgacha.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 25 yanvardagi farmoniga binoan ijtimoiy yordam ko‘rsatiladigan farzandli oilalar doirasi umumta’lim maktablarida akademik litseylarda va kasb-hunar kollejlarida o‘qiyotgan necha yoshgacha farzandi bo‘lgan oilalar hisobiga kengaytirildi?

a) 20 yoshgacha;
b) 18 yoshgacha;
c) 16 yoshgacha;
d) 17 yoshgacha.

9. O‘zbekistonda norasmiy ijtimoiy yordamning qanday turlari mavjud?

a) Davlat tomonidan beriladigan pensiyalar;
b) korxona va tashkilotlarning pensionerlarga beriladigan pensiyalari;
c) qarindoshlarning o‘zaro yordami, milliy va diniy urf-odatlar asosida qilinadigan yordam, korxona va tashkilotlarning pensionerlarga, kam ta’minlangan ko‘p bolali oilalarga, beva-bechoralarga yordam puli;
d) qarindoshlarning qarzlari.

10. Ijtimoiy ta’minotning nechta turi bor?

a) 2ta
b) 3ta
c) 4ta
d) 5 ta

IX bob. IJTIMOIY SIYOSATNI AMALGA OSHIRISHNING JAHON TAJRIBASI

9.1. Ijtimoiy siyosatning tarkibi va rivojlanish modellarining uslubiy jihatlari.

9.2. Yevropa Ittifoqi ijtimoiy siyosatining xususiyatlari.

9.3. Shimoliy Amerika liberal ijtimoiy siyosatining mazmuni va amalga oshirish yo‘nalishlari.

9.4. Sharqiy Osiyo mamlakatlarida amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat xususiyatlari va amalga oshirish bosqichlari.

9.1. Ijtimoiy siyosatning tarkibi va rivojlanish modellarining uslubiy jihatlari

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirish amaliyotini qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan bir qator qarashlar mavjud. Qiyosiy izlanishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, bir jamiyatning “ijtimoiy muammolari” boshqa bir jamiyatda o‘zgacha talqin etiladi. Ushbu savollarga javob berish uchun ijtimoiy ta’minot dasturlari maqsad va yo‘nalishlarining davlat, nodavlat va aralash uslublarini qo‘llash asosida tahlil etish mumkin. Moliyalashtirish nuqtai nazaridan olib qaraganda soliq to‘g‘ri va egri, milliy va mahalliy soliqlar, majburiy va ixtiyoriy sug‘urta ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy siyosatning ikki turdagi “Farovonlik modeli”ga uchinchi ideal turdagi modelni qo‘shish mumkin[213]:

1. Farovonlik modeli (AQSh modelini misol qilsa bo‘ladi), bunda keng qamrovli nodavlat, ijtimoiy-bozor, jamiyat ehtiyojlari va xizmatlar ta’minotiga asoslangan;
2. Institutsional qayta taqsimlash modeli (Shved modeli) bunda ko‘proq universal huquqlar asosida davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar industrial jamiyatning normal funksiyalari sifatida qaraladi;
3. Sanoat modeli (G‘arbiy Germaniya) ijtimoiy ta’minotga davlatning qo‘shimcha iqtisodiy vazifalaridan biri sifatida qaraladi.

Daniyalik tahlilchi Esping-Andersen davlatning farovonligini quyidagi bir-biriga bog‘liq uch darajada ko‘rib chiqishni taklif etdi:

- dekommodifikatsiya darajasi, bunda davlat mehnat bozoriga bog‘liq bo‘lmagan holda insonlarning ijtimoiy ta’minlangan turmush kechirishlarini ta’minlaydi;

[213] “Social Policy”. P. 422.

• taqsimlangan daraja, ijtimoiy davlat ijtimoiy sinflarga ajratiladi hamda ijtimoiy integratsiya va tenglikka intiladi;

• xususiy-davlat ko‘rinishida, bunda davlat bozor va oilaning farovonlikni ta’minlashdagi nisbiy o‘rnini belgilaydi.[214]

Shu yo‘nalishda Esping-Andersen uchta muhim nafaqa (pensiya, kasallik nafaqasi, ishsizlik nafaqasi) ko‘rsatkichlaridan foydalandi. Uning tahlillari “farovonlik rejimi” ning uch ideal turlarini kashf etdi.

• ijtimoiy-demokratik rejimi, (Skandinaviya mamlakatlariga xos) bunda mehnat tashkilotlari va kichik fermerlar birlashadilar, davlat to‘la bandlikni ta’minlaydi, universal nafaqalarni qayta taqsimlaydi va o‘rta sinf vakillarining talablari qondiriladi;

• konservativ-korporativ rejim, ustun darajada kontinental Yevropa mamlakatlariga xos bo‘lib, davlat o‘rta sinf vakillariga tayangan holda ijtimoiy siyosatni yuritadi;

• liberal ijtimoiy ta’minot rejimi, ingliz tilida so‘zlashadigan mamlakatlarga xos, sinflararo ittifoqlarning bo‘lmasligiga qaramasdan, davlat umumfarovonlikka, kambag‘al qatlamni o‘z himoyasiga oladi.

9.1.1-jadval

Esping-Anderson yondashuvi bo‘yicha jahonda amal qilayotgan ijtimoiy himoya modellarining qiyosiy tahlili

IJTIMOIY SIYOSAT MODELLARI		
Liberal (anglo-sakson) modeli (AQSh, Kanada, Avstraliya, Yangi zellandiya)	**Konservativ (korporativ) model (YI mamlakatlari, Yaponiya)**	**Ijtimoiy-demokratik model (Skandinaviya mamlakatlari, Niderlandiya, Shveytsariya)**
Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda davlat ishtirokining pastligi, davlat bandlik siyosatining passiv xarakterga egaligi	Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda davlatning muvofiqlashtiruvchi o‘rni	Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda davlatning yuqori darajadagi ishtiroki. Aktiv ijtimoiy himoya dasturlariga asoslangan holda ijtimoiy siyosatda davlat maqsadining maksimal ahamiyatga egaligi
Ijtimoiy sohaga yo‘naltiriladigan davlat xarajatlarining kamligi	Ijtimoiy sohaga davlat xarajatlarining yuqoriligi	Ijtimoiy sohaga davlat xarajatlarining yuqoriligi

[214] “Social Policy”. P. 423.

Ijtimoiy siyosat bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida shakllantiriladi	Ijtimoiy siyosat ish beruvchi va yollanma ishchi o‘rtasida ijtimoiy sheriklik asosida shakllantiriladi	Ijtimoiy siyosat keng qamrovli ijtimoiy kelishuv asosida shakllantiriladi
Yuqori bandlik darajasi va ish haqining pastligi	Bandlik darajasining pastligi va ish haqining yuqoriligi	Yuqori darajadagi bandlik va yuqori ish haqi
Ijtimoiy ta’minot xizmatlarining qoldiq tamoyili asosida ko‘rsatilishi	Ijtimoiy ta’minot xizmatlarini ish joyidan ko‘rsatilishi	Ijtimoiy ta’minot xizmatlarini ko‘rsatish universal ahamiyatga ega
Ijtimoiy siyosat dasturlarining aksariyat qismi ish beruvchilar badallari, homiylik mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilib, davlat xarajatlari past bo‘ladi. Qayta taqsimot darajasi 40 foizdan yuqori bo‘lmaydi	Ijtimoiy siyosat dasturlarini moliyalashtirishda ish beruvchilar badallarining ustunlik qilishi, ayrim ijtimoiy chora-tadbirlarni davlat va homiylik mablag‘lari hisobidan teng nisbatda moliyalashtiriladi. Qayta taqsimot darajasi 50 foizdan yuqori bo‘lmaydi	Ijtimoiy siyosat dasturlarini moliyalashtirishda davlat byudjeti mablag‘laridan foydalanish ustunlik qilib, xarajatlarning bir qismi ish beruvchilar tomonidan qoplanadi. Qayta taqsimot darajasi YaIM ning 60 foizini tashkil etadi
Ijtimoiy sug‘urta xizmatlari aholining ayrim ijtimoiy guruhlarini qamrab olib, majburiy hisoblanmaydi	Ijtimoiy sug‘urta xizmatlari barcha yollanib ishlovchilar va ularning oila a’zolarini qamrab oladi	Ijtimoiy sug‘urta xizmatlari bilan aholining barcha ijtimoiy guruhlari qamrab olinadi
Aholini ijtimoiy himoya qilish cherkov va boshqa xayriya tashkilotlari orqali amalga oshiriladi	Aholini ijtimoiy himoya qilish cherkov va xususiy xayriya tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi	Aholini ijtimoiy himoya qilish barcha sohalarda ikkala tomondan birdek amalga oshiriladi
Aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish xususiy sektor tomonidan amalga oshiriladi va ushbu sohadagi davlat dasturlari aholining ayrim ijtimoiy guruhlarini qamrab oladi	Aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish ijtimoiy sug‘urta xizmatlari bilan uzviy bog‘langan	Aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish asosan davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi
Pensiya va nafaqalarning minimal standartlar	Pensiya va nafaqalarning ijtimoiy xavfsizlik	Pensiya va nafaqalarning yashash minimumi

asosida to‘lanishi va vaqtinchaligi	darajasidan kelib chiqqan holda belgilanishi va to‘lanishi	asosida belgilanishi va to‘lanishi
Ijtimoiy muhtojlikni qo‘llab-quvvatlash majburiy tekshiruv asosida amalga oshiriladi	Ijtimoiy muhtojlikni qo‘llab-quvvatlash majburiy tekshiruv asosida amalga oshiriladi	Ijtimoiy muhtojlikni qo‘llab-quvvatlash ikkilamchi tekshiruv asosida amalga oshiriladi

Esping-Andersenning tahlillari ko‘rsatishicha, rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy ta’minot tizimi quyidagi uch darajada bo‘lishi mumkin:

- Umumfarovonlik davlat rejimi;
- “Norasmiy xavfsizlik” rejimi;
- Ta’minlanmaganlik rejimi.

Tahlillarning ko‘rsatishicha, uch rejimda ikki xil yondashuv mavjud, jumladan, birinchi rejim sobiq SSRI mamlakatlari va Janubiy Amerika davlatlariga xos bo‘lib, bunda davlat o‘zining xarajatlari va dasturlaridan qat’iy nazar umumfarovonlikni ta’minlaydi. “Norasmiy xavfsizlik” rejimida (Xitoy, Sharqiy Osiyo mamlakatlari, Janubiy va Markaziy Amerika davlatlari, Eron, Turkiya) tashqi va ichki kuchlar ta’siriga qaramasdan mamlakatlar ijobiy ko‘rsatkichlarga erishdilar.

9.2. Yevropa Ittifoqi ijtimoiy siyosatining xususiyatlari.

Yevropa Ittifoqidagi ijtimoiy siyosatning keng qamrovli olib borilishi uning kelib chiqishiga borib taqaladi. Yevropa Ittifoqining ijtimoiy siyosati keng qamrovli va saxovatli bo‘lib, Amerika ijtimoiy siyosatiga qiyosiy taqqoslaganda ushbu xulosa tasdiqlanishi mumkin. Yevropa Ittifoqiga 2004-yilda 10 davlatning va 2007-yilda yana ikki davlatning qo‘shilishi Ittifoq hududlarining kengayishi va ijtimoiy ta’minotning kamayishiga olib keldi. Davlatlar ijtimoiy xarajatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi bo‘yicha qiyosiy tahlil etilsa, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan davlatlar ijtimoiy xarajatlar bo‘yicha ancha yuqori pog‘onada joylashadi. Oxirgi yigirma yillik ko‘rsatkichlar natijasiga qaralsa, Yevropa qit’asidagi davlatlar, AQSh, Kanada, Yangi Zelandiya va Yaponiya mamlakatlari o‘rtasida keskin farqlar mavjudligi kuzatiladi. 2004-yilgacha bo‘lgan muddatda Yevropa Ittifoqi davlatlarida ijtimoiy maqsadlarga yo‘naltirilgan yalpi xarajatlar hajmi Yevropa Ittifoqiga kirmagan mamlakatlarga nisbatan yuqori darajada ekanligi kuzatilgan edi. Tahlillar ko‘rsatishicha, Yevropa Ittifoqining 15 davlati

YAIMning 20 foizini ijtimoiy himoyaga sarfladi va o‘sha davrga qadar hech bir davlat bunday yuqori ko‘rsatkichga ega emas edi. Yevropa Ittifoqiga a’zo mamlakatlarning boshqa mamlakatlardan farqli o‘laroq ijtimoiy ta’minotda ko‘p mablag‘ ajratishini qanday baholash mumkin? IHTT davlatlari turli xatarlarga (ishsizlik, kasallik va x.k.) duch kelganda daromadlar darajasi va oilaviy yo‘qotishlar bo‘yicha hisob-kitoblar olib boradi. 2005-yilda Yevropa Ittifoqining ko‘plab davlatlarida daromadlarning 90 foizi tekshiruvlarsiz taqsimlanishi ta’minlangan edi. IXTT mamlakatlarida davlat va xususiy ijtimoiy himoyasida keskin farqlar bor. Xususiy davlat pensiyalari miqdori ancha ko‘proq foizlarni tashkil etsa ham, ularning doimiyligini ta’minlash talab qilinadi.

Yevropa Ittifoqi (YI) mamlakatlarining integratsiyalashuvi mintaqada aholini ijtimoiy himoya qilish amaliyotida umumiy normalarni ishlab chiqilishi va qabul qilinishi uchun zamin yaratdi. Mintaqa miqyosida iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan integratsiyalashuv jarayoni amalga oshirildi, YI mintaqasida “Yevropa fuqarosi”, “Ijtimoiy davlatlar tarmog‘i” tushunchalari vujudga keldi. Bunga sabab ijtimoiy normalarning umumittifoq mamlakatlari bo‘ylab qabul qilinishi bo‘ldi.

YI mamlakatlarida aholini ijtimoiy himoya qilish mamlakatlarning ijtimoiy siyosatida yetakchi o‘ringa ko‘tarildi. Maqsad YIga a’zo bo‘lgan mamlakatlarda aholining turmush farovonligini barqaror o‘sib borish tendensiyasiga erishish va ijtimoiy jihatdan muhtojlikni qisqartirish bo‘ldi. J. Mon’e va R. Shuman kabi iqtisodchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda YI mamlakatlarida iqtisodiy qayta qurish va aholini ijtimoiy himoya qilish amaliyoti chuqur o‘rganilgan bo‘lib, unga ko‘ra mintaqada aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining vazifalari etib quyidagilar ko‘rsatilgan:[215]

- YI mamlakatlari aholisining 2/3 qismini o‘rta farovonlik darajasida yashashini ta’minlash;
- davlat va xususiy sektor o‘rtasida ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish;
- aholini ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan YI yoki mamlakatlarning davlat dasturlarini amalga oshirilishida hukumatlar o‘rtasida o‘zaro moddiy yoki ijtimoiy xizmat ko‘rsatish shaklida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- fuqarolarning huquqiy va moliyaviy savodxonligini oshirish;

[215] Экономика Европейского союза: учебник/коллектив авторов; под. ред. Р.К.Щенина. – М.: КНОРУС, 2012. С. 254-268.

• ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlarini turmush sharoitlarini mintaqa bo‘yicha belgilangan yashash minimumidan oshirish va o‘rta darajadagi turmush farovonligiga yetkazish;

• ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda ijtimoiy adolatlilikka qat’iy rioya qilish va jamiyatning barcha a’zolariga ularning ijtimoiy mavqeidan kelib chiqqan holda ijtimoiy yordam ko‘rsatish;

• ijtimoiy xizmatlarning qamrovi va sifatini.

YI mintaqasida amalga oshirilayotgan aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarining o‘ziga xos xususiyati ushbu chora-tadbirlarni amaliyotga tadbiq etishda trans milliy korporatsiya (TMK) lar ishtirok etishi bilan belgilanadi. TMKlarning aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlaridagi ishtiroki quyidagilarda namoyon bo‘ladi:[216]

• davlat ijtimoiy himoya dasturlarini amalga oshirilishida homiylik qilish;

• o‘z xodimlariga ijtimoiy nafaqalar to‘lash, pensiya ta’minoti, tibbiy va ta’lim xizmatlarini bepul yoki imtiyozli asosda ko‘rsatish;

• ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilayotgan investitsion dasturlarni amalga oshirilishida ishtirok etish;

• YI mintaqasida mamlakatlararo ijtimoiy integratsiyalashuv jarayonlarini rivojlantirishga yordam ko‘rsatish;

• ijtimoiy yo‘naltirilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish jarayonida ishtirok etish va boshqalar

YI shartnomasida aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlariga quyidagicha ta’rif beriladi: “ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi – bu YI mintaqasida o‘rnatilgan yashash minimumidan quyi darajadagi turmush farovonligiga ega bo‘lgan aholi qatlamlaridir”. Ushbu me’yoriy xujjatga ko‘ra, YIga a’zo bo‘lgan davlatlar o‘zaro hamkorlikdagi ijtimoiy siyosat dasturlarini ishlab chiqish orqali yevropa fuqarolarini ijtimoiy jihatdan muhtojlikdan himoya qilishlari lozim. Shu bilan bir qatorda mintaqada aholi bandligini rag‘batlantirish va mehnatga layoqatli aholi qatlamlarini munosib ish haqi olishlari mumkin bo‘lgan ish o‘rinlari bilan ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishlari talab etiladi.

[216] Экономика Европейского союза: учебник/коллектив авторов; под. ред. Р.К.Щенина. – М.: КНОРУС, 2012. С. 254-268.



9.2.1-rasm. Yevropa Ittifoqida ijtimoiy muammolarni aniqlash konsepsiyasi[217]

2002-yilda Yevrostat tomonidan mintaqada ijtimoiy muammolarni aniqlash konsepsiyasi ishlab chiqildi (9.2.1-rasm). Unga ko‘ra, jamiyatda vujudga keladigan ijtimoiy muammolar, jumladan, aholining ijtimoiy jihatdan muhtojlik holatlari ularning yetarli daromadga ega emasliklari bilan bog‘liq bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, aholining yetarli darajadaga turmush farovonligini ta’minlay olmaydigan daromadga ega bo‘lishi ijtimoiy muammolarni vujudga keltirib chiqaradi. Buning oldini olish uchun mamlakatlar mehnat bozorini rivojlantirishda o‘zaro hamkorlik faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa mintaqa bo‘ylab ish haqi va turmush farovonligi darajalari bo‘yicha belgilangan normani barcha mamlakat qabul qilganligi va davlatlararo ijtimoiy hamkorlikning mavjudligidan dalolat beradi.

YI mintaqasida aholining ijtimoiy jihatdan muhtojligini kamaytirish, aholi daromadlarini shakllantirish va bandligini rag‘batlantirish asosida jamiyatda o‘rta qatlamning ulushini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi, ularning samaradorligini nazorat qilish maqsadida, Yevropa Ittifoqi bandlik, ijtimoiy siyosat, sog‘liqni saqlash va iste’mol masalalari bo‘yicha vazirlar kengashi (EPSCO) tomonidan ijtimoiy muammolarning vujudga kelishi va kambag‘allik riskini aniqlash bo‘yicha “AROPE” deb nomlangan integral ko‘rsatkichlar

[217] Измерение бедности и социальной интеграции в ЕС: достижения и дальнейшие улучшения. Рабочий документ 25. Подготовлен Евростатом. 20 января 2014 г. с. 20.

tizimi ishlab chiqilgan. Ushbu ko‘rsatkichni hisoblash uchun har yili Yevropa Komissiyasi va Yevrostat hamkorligida mintaqa bo‘ylab kambag‘allik riski, mehnat samaradorligi past bo‘lgan, kam daromadli, ijtimoiy muammolar mavjud bo‘lgan uy xo‘jaliklarining bandligi, ta’lim, tibbiy, uy-joy kommunal xizmatlardan foydalanish darajasi, moddiy holatini o‘rganish bo‘yicha “EU-SILC” tadqiqoti amalga oshiriladi.

EU-SILC tadqiqoti natijalari umumlashtirilgan holda AROPE integral ko‘rsatkichini ifodalaydi. Ushbu ko‘rsatkich quyidagi uch komponentdan tashkil topadi:

- nisbiy komponent: daromad yetishmasligi, kambag‘allik riski;
- absolyut komponent: moddiy muhtojlik;
- mehnat bozoridagi ishtirokining cheklanganligi bo‘yicha: mehnat intensivligining keskin pastligi.

Nisbiy komponent bu mintaqada belgilangan o‘rtacha oylik ish haqining 60 foizidan kam daromadga ega bo‘lgan fuqarolarga tegishlidir. Ushbu aholi qatlami kambag‘allik riski holatidagi kishilar hisoblanadi. Ya’ni, turmush farovonligi ko‘rsatkichi muntazam ortishi bilan bir qatorda iste’mol tovarlari va xizmatlarining narxlarini o‘sib borish tendensiyasiga ega ekanligi keyinchalik ularni ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlari qatoriga qo‘shilib qolishi xavfini tug‘diradi.

2016-yilda amalga oshirilgan EU-SILC tadqiqoti natijalariga ko‘ra, mintaqada kambag‘allik riski holatida bo‘lgan aholi soni YI aholisining qariyb 18 foizni tashkil etdi. Tadqiqot natijalariga tayangan holda Yevropa komissiyasi ekspertlari tomonidan berilgan ilmiy prognozlarga ko‘ra, 2021 yilga borib Norvegiya (10,2 foizdan 18,1 foizga) Lyuksemburg (13,8 foizdan 20,0 foizga), Islandiya (8,9 foizdan 12,9 foizga), Avstriya (12,4 foizdan 15 foiga), Niderlandiya (11,1 foizdan 14,2 foizga), Shvetsariya (15,0 foizdan 17,4 foizga) mamlakatlarida kambag‘allik riski holatida yashovchi aholining soni demografik muammolar hisobiga ortishi mumkin bo‘ladi[218].

2018-yilda Yevrostat tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, YI (28) mamlakatlarida o‘rta hisobda aholini ijtimoiy himoya qilishga yo‘naltirilayotgan xarajatlarni YaIMdagi ulushi 27,6 foizni tashkil etib, jumladan, Fransiya (32,2 foiz), Finlandiya (31,9) va Daniya (31,8) mamlakatlarida aholini ijtimoiy himoya qilishga

[218]Евростат маълумотлари асосида. https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Social_protection_statistics_-_social_benefits#Publications

yo‘naltirilayotgan davlat byudjeti xarajatlarining YaIMdagi ulushi 30 foizdan yuqori bo‘lib, mintaqa bo‘yicha yetakchilik qilmoqdalar[219].



9.2.2-rasm. YI mamlakatlarida ijtimoiy ijtimoiy ta’minot xarajatlarining tarkibi (2017 y., foiz hisobida)[220]

YI mintaqasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning o‘ziga xos jihati shundan iboratki, bozor iqtisodiyotining aholi turmush farovonligiga salbiy ta’sirini yumshatish maqsadida universal ijtimoiy nafaqalar joriy etilgan bo‘lib, yevropa fuqarosi hisoblangan har bir shaxs universal ijtimoiy nafaqa olish huquqiga ega bo‘ladi. Ijtimoiy muhtojlik bo‘yicha nafaqa esa faqatgina ijtimoiy jihatdan muhtoj bo‘lgan aholi qatlamlariga beriladi. Bu esa o‘z navbatida mamlakat iste’mol bozorida ichki talabni rag‘batlantirish mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, mintaqada global aholining qarishi muammosi avj olib borayotganini inobatga olgan holda 2011 yildan boshlab har bir hukumatda farzand ko‘rishni rag‘batlantirish maqsadida yosh bolali oilalar uchun uch yillik universal nafaqalar joriy etildi. Global aholining

[219]Евростат маълумотлари асосида. https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Social_protection_statistics_-_social_benefits#Publications

[220] Евростат маълумотлари асосида https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Social_protection_statistics_-_social_benefits#Publications

qarishi muammosi o‘z navbatida ayrim uy xo‘jaliklarida mehnat intensivligining pasayishiga olib keldi. Uch yillik universal nafaqalarni tayinlanishi ushbu muammoni bartaraf etishga qaratilgan hisoblanadi. Ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlariga ushbu turdagi nafaqalarni olish muddati 3 yildan 14 yilgacha davom etadi. Mintaqada universal ijtimoiy nafaqalar ijtimoiy ta’minot xarajatlarining asosiy qismini tashkil etadi.

AROPE integral ko‘rsatkichining absolyut komponenti hisoblangan moddiy muhtojliklik holati 2018-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra quyidagi ko‘rsatkichlar asosida hisoblanadi:[221]

- etarli darajada jihozlangan, issiqlik, elektr va gaz ta’minoti bo‘lgan uyda istiqomat qilish;
- qisqa muddatli qarz olishi va uni qaytarish qobiliyatining mavjudligi (20 kalendar kuni);
- avtomobilga egalik qilishi;
- yotoqxona va mehmonxona mebellariga egalik qilishi;
- kompyuter;
- internet tarmog‘iga ulanganlik va undan foydalanishi;
- har bir mavsum uchun yangi ust-bosh kiyim sotib olishi (kamida 4 ta);
- ikki juft yaroqli oyoq kiyimi bo‘lishi (har bir mavsum uchun);
- har kuni meva va sabzavotlar iste’mol qilishi;
- bir kunda kamida 1 marta go‘sht va go‘sht mahsulotlari bo‘lgan taom iste’mol qilishi;
- uyida mutoala qilishi uchun tegishli kitob javoni va kitoblari bo‘lishi;
- ochiq havoda dam olish uchun zarur bo‘lgan jihozlarga ega bo‘lishi;
- haftada kamida 1 sutkalik to‘liq dam olish kuni bo‘lishi;
- har bir bayramni munosib nishonlashi (mehmon kutishi, sovg‘a olishi va boshqa bayram xarajatlari);
- uyiga mehmonlarni chaqirishi (har ikki oyda kamida 1 marta);
- bir yilda kamida bir marta uydan tashqarida (kurort zona) dam olishi;
- ta’lim olish uchun munosib shart-sharoitga ega bo‘lishi;
- mehnat qilish uchun munosib shart-sharoitlarga ega bo‘lishi;

[221] Евростат маълумотлари асосида https://ec.europa.eu/eurostat/web/social-protection/methodology

- sport mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanishi.

Mamlakat fuqarosining yuqorida keltirilgan 19 ko‘rsatkichdan kamida oltitasidan mahrum bo‘lishi uning absolyut komponenti bo‘yicha ijtimoiy jihatdan muhtojligini bildiradi.

Ijtimoiy siyosatning chora-tadbirlari tizimida, Yevropa mamlakatlarining ko‘pchiligi kambag‘allikka qarshi kurashish choralarini qo‘llab-quvvatlab boradilar. Ulardan Benilyuks, Avstriya, Shveysariya, Fransiya mamlakatlari eng yaxshi ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldi.[222] Shu bilan birga, daromadlar tabaqalanishining eng past darajasini IHTT mamlakatlarida kuzatish mumkin.[223]

Yevropa Ittifoqining ijtimoiy siyosati boshqa mamlakatlardan farqli o‘laroq, davlat xarajatlarining yuqori darajasida ekanligi, fuqarolikning ijtimoiy huquqlarini kafolatlanishini keng qamrovli ekanligi, nafaqa va pensiyalar miqdorining kattaligi bilan ajralib turadi. Yevropa Ittifoqining qator mamlakatlari kambag‘allik chegarasidan ancha yiroqlashib ketdilar.

Ijtimoiy siyosatni moliyalashtirish manbalari ijtimoiy sug‘urta badallari, egri va to‘g‘ri soliqlarning tushumidan shakllanadi. Yevropa mamlakatlari ijtimoiy sug‘urta badallari stavkasiga katta e’tibor beradilar. 2017-yilda Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy sug‘urta fondi xarajatlarining YaIM dagi ulushi 10-16 foizini tashkil etdi, Yevropa mamlakatlarining aksariyat qismida kasaba uyushmalari va ish beruvchi tashkilotlar ijtimoiy siyosat dasturlarida pensiyalar, ishsizlik va kasallik nafaqalari, kasallik sug‘urtasi ulushi markaziy o‘rinni egallaydilar. Shu bois, ijtimoiy sug‘urta ijtimoiy siyosatning yetakchi bo‘g‘ini sifatida shakllanib bormoqda. Markaziy va Shimoliy Yevropa mamlakatlarida imzolangan kelishuvlar asosida ijtimoiy siyosat ijtimoiy ta’minotni tartibga soluvchi omil bo‘lib kelmoqda.[224]

Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy siyosatning rivojlangan tizimi mavjud bo‘lib, yevropaliklar boshqa mintaqadagilardan farqli o‘laroq faol ijtimoiy siyosatni amalga oshiradilar. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari kambag‘allikka qarshi kelishilgan yagona ijtimoiy siyosat olib bormaydilar. Birlashgan Qirollikda ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanishida yuqori ko‘rsatkichlarga erishilgan holda, mehnat munosabatlari va mehnat muhofazasi borasida olib boriladigan ijtimoiy siyosat jihatdan Yevropa Ittifoqi ijtimoiy siyosatidan bir muncha farq

[222] “Social Policy”. P. 427.
[223] “Social Policy”. P 428
[224] “Social Policy P 429

qiladi. Bozor munosabatlariga asoslangan ijtimoiy siyosatning qator turlari mavjud. Yevropa Ittifoqining “Yangi Marshall Rejasi” deb nomlangan rivojlantirish rejasi 2008-yil 26-noyabrda tasdiqlandi.[225] Ushbu rejada jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotni modernizatsiyalash yo‘nalishlari quyidagicha belgilangan: aholining xarid-to‘lov qobiliyatini yaxshilash, yalpi talabni qo‘llab-quvvatlash, ishonchni rag‘batlantirish, “aqlli” investitsiyalarni kiritgan holda resurslarni tejaydigan yuqori texnologiyali atrof-muhitni ifloslantirmaydigan, raqobatbardosh texnologiyalarni kiritish, infratuzilmani rivojlantirishga investitsiyalar kiritish. Ijtimoiy ta’minotning muhim tamoyillari ijtimoiy mas’uliyat va birdamlikdan iborat bo‘ldi. Yevropa Ittifoqining iqtisodiyotini qo‘llab-quvvatlash inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturi uchun 200 mlrd. yevro ajratildi. Yevropa Markaziy banki qayta moliyalash stavkasini 0,5% ga tushirdi, Yevropa Investitsiya Banki va Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot bankining resurslari ko‘paytirildi, 3%dan katta byudjet defitsiti bo‘lgan mamlakatlarga jarima sanksiyalari belgilandi, QQSni kamaytirish yo‘llari belgiland va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun davlat kafolatlari ostida qarzlar berildi.

Bandlik muammosi ijtimoiy davlatning muhim muammolaridan biridir. To‘la bandlik muammosi Yevropa Ittifoqining Rim shartnomasida tasdiqlangan edi. Yevropa Ittifoqining ijtimoiy sohadagi islohotlarining birinchi bosqichi iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish edi. Hozirda yangi sifatli ish o‘rinlarini tashkil etish iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning omillaridan biri hisoblanadi. Yevropa Ittifoqiga a’zo mamlakatlar o‘rtasida ish o‘rinlarini kengaytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish, bandlikni oshirish bo‘yicha analitik tahlillar olib borish rejalashtirildi. Bandlik siyosati Yevropa Ittifoqining ijtimoiy siyosatini isloh etishni ustuvor yo‘nalishi deb belgilandi. O‘tgan asrning 90-yillarining o‘rtalarida Yevropa Ittifoqi iqtisodiy, bandlik siyosati va ijtimoiy siyosatning o‘zaro bog‘liqligiga e’tiborni qaratdilar. Shu bilan birga kichik va o‘rta biznes sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash, ayollar mehnatini rag‘batlantirish, soliq imtiyozlari, imkoniyati cheklangan insonlar bandligini ta’minlash kabi chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqildi.

1994-yilda bandlik muaamosi va ishchi kuchi oqimini tartibga solish uchun Yevropa bandlik xizmati tashkil etildi. Shu bilan birga, Yevropa Ittifoqi mehnat bozoridagi talab va taklif muvozanatini ta’minlash

[225] A European Economic Recovery Plan. –Brussels, 26.11.2008\\ htpp:\\ec.europa. eu\economy_finance\ publications\publication 13504_en.pdf

bo‘yicha samarali mexanizm ishlab chiqildi, ishchilarning turmush tarzi va mehnat sharoitlari haqida ma’lumotlar jamlandi. 1997 yilda qabul qilingan Amsterdamdagi shartnomaga binoan Yevropa Ittifoqining har bir davlati o‘zining bandlik siyosatini mustaqil hal qila oladi. 1998-yilda Lyuksemburgdagi Yevropa Ittifoqi sammitida umumiy strategik maqsadlar qabul qilindi. Hozirgi kunda Yevropa Ittifoqining barcha hukumat rahbarlari har yili bandlikni ta’minlash borasidagi dasturlarni taqdim etadilar. Ular umumevropa strategiyasini muvofiqlashtirish bo‘yicha Yevropa komissiyasi, Bandlik qo‘mitasi, kasaba uyushmalari bilan birgalikda hamjihatlikda mehnat muammolarni hal qilishga kirishdilar. Yevropa Ittifoqi rahbariyatining ijtimoiy siyosatni amalga oshirish borasidagi ishlari a’zo hukumatlarning iqtisodiy siyosatidan orqada qola boshladi. 2000-yilda Yevropa kengashining Lissabon sessiyasida “2010-yilda Yevropa Ittifoqini dunyodagi eng innovatsion, raqobatbardosh, dinamik ravishda rivojlanayotgan iqtisodiyotga aylantirish” maqsadli dasturi qabul qilgan edi. Dasturdan ko‘zlangan maqsad aholining 70 % ni ish bilan ta’minlab, jumladan 60 % ni ish bilan ta’minlangan ayollar tashkil etishi lozim edi. “Lissabon shartnomasi” ning amalga oshirilishining muhim vositalari yevropa ijtimoiy modelini modernizatsiyalashda mehnat bozoridagi tarkibiy o‘zgarishlardan samarali foydalanish, professional qayta tayyorlash va ta’lim tizimiga investitsiyalarni jalb etishdan iborat.[226] Yevropa Ittifoqining har bir mamlakatida ijtimoiy sohani rivojlanishi tegishli me’yoriy-huquqiy xujjatlar bilan tartibga solinadi. Jumladan, Germaniyada ish bilan ta’minlash bo‘yicha “Malakali ta’lim va ish bilan ta’minlash choralari” va “Nemis fuqaroligiga ega bo‘lmaganlarni ish bilan ta’minlashga ruxsatnomalar berish” qonunlari bilan tartibga solinadi.

Davlat tomonidan ishlab chiqilgan kuchli ijtimoiy siyosat aholi farovonligini ta’minlashda yetakchi o‘rinni egallaydi. Demokratik jamiyatlarda aholining ba’zi bir hayotiy zaruriy ehtiyojlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralari kambag‘allikning oldini olishda muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy siyosatda ijtimoiy sug‘urta va daromadlarni samarali qayta taqsimlashning o‘zaro bog‘likligini tasdiqlash qiyin. Ijtimoiy sug‘urta daromadlarni qayta taqsimlashni ancha osonlashtiradi, chunki har bir inson bunda ishtirok etadi va o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Birlashgan Qirollikda ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish dolzarb

[226] Зубченко Л.А. Лиссабонская стратегия Евросоюза: разочарования и надеждк\\ htpp\\ www. Perspektivy info /oykumena/ Europe/lissabonskaja_strategiya_jevrosojuza_razocharovanija_i_nadezhdy_2007-09-26.htm

masaladir. Birlashgan Qirollikda sog‘liqni saqlash tizimi soliqlar hisobidan moliyalashtiriladi, bu esa bozor munosabatlarida sog‘liqni saqlash tizimining bir maromda ishlashini ta’minlaydi. Britaniyada pensionerlar mexnat bozoridagi faoliyatiga qarab pensiyalarini oladilar, qayta taqsimlash jarayonida iqtimoiy sug‘urta ijtimoiy xavfsizlik jihatidan kuchli asos bo‘la olmaganligi sababli davlat quyidagi chor-tadbirlarni ishlab chiqishi lozim:

- Pensionerlarning avvalgi ish joyining bor yoki yo‘qligidan qat’iy nazar turmush darajasining kafolatlangan minumumi bor yoki yo‘qligi;
- Turli shakldagi ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan chora-tadbirlar;
- Turmush darajasining ijtimoiy kafolatlar darajasida tartibga solinishi.[227]

Buyuk Britaniyada amal qilayotgan pensiya tizimi ushbu savollarga javob beradi. Turmush tarzining kafolatlangan minimum darajasi mavjud va kambag‘allik chegarasini kafolatlovchi ijtimoiy ta’minot ta’minlangan. Bunday afzalliklardan biri pensiya kreditlaridir. Shu tariqa davlat boy va kambag‘al aholi o‘rtasida ijtimoiy ta’minotni kafolatlovchi sub’ekt sifatida ishtirok etibgina qolmay, ularni ijtimoiy ta’minotini talab darajasiga olib chiqadi. Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun daromadlar bo‘yicha soliqlarni taqsimlash, qayta taqsimlash va aholi tomonidan tanlama so‘rovnomalar o‘tkazib borilishi ijtimoiy ta’minotni adolatli taqsimlanishiga zamin bo‘la oladi.

Yevropa mamlakatlari ijtimoiy siyosatining muhim muammolaridan biri ijtimoiy sohada globalizatsiya oqibatlariga qarshi kurashdir. Global iqtisodiy jarayonlar davlatlar tomonidan milliy iqtisodiyotni tartibga solishning susaytirilishi tufayli ko‘pgina mamlakatlar ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurashda ojiz qolmoqdalar. Odatda, ishchi kuchi aholi ijtimoiy himoyasiga katta e’tibor beriladigan mamlakatlarga qarab ko‘proq intiladi, chunki ish haqi, ishsizlik bo‘yicha nafaqalar, ijtimoiy sug‘urta ushbu mamlakatlarda yaxshi ta’minlangan. Shu bilan birgalikda globalizatsiyaning ijobiy tomonlari ham mavjud bo‘lib, demokratiya, erkinlik va bozor bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy sohalar rivojiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Ushbu dolzarb muammolarni hal etishda Xalqaro mehnat tashkiloti globalizatsiyaning ijtimoiy jihatlari bilan shug‘ullanuvchi Butunjahon komissiyasini tashkil etdi. Ushbu komissiya mehnat bozorini tartibga solish, aniq talab va taklif asosida ish yuritish, ish bilan ta’minlash

[227]. “Social Policy”. P. 437.

borasida ijtimoiy huquqlar, ayollarni ish bilan ta’minlanishidagi huquqlarini amalga oshirish bilan shug‘ullanadi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdan maqsadi, maksimal to‘la bandlikka erishish, kambag‘allik va ishsizlikka qarshi kurash, sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimini rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirishga, ijtimoiy sohani modernizatsiyalashga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishga qaratilgan[228].

9.3. Shimoliy Amerika liberal ijtimoiy siyosatining mazmuni va amalga oshirish yo‘nalishlari

Bozor munosabatlarining Liberal modeli quyidagi tamoyillarni o‘z ichiga oladi: bozor mexanizmlarining ustunligi, iqtisodiy o‘sishning muhimligi, ish joyining ahamiyati kabilar. Liberal modelning muhim afzalligi raqobatbardoshlikka jiddiy ta’sir ko‘rsatishdir. Esping-Andersenning ta’kidlashicha, jamiyatdagi iqtisodiy faoliyat ijtimoiy siyosat va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida muhim omil bo‘la olishini tasdiqladi. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirish iqtisodiy o‘sishning ta’minlashda alohida o‘rin tutadi.

AQSh ijtimoiy ta’minot tizimi bir muncha murakkab tuzilgan bo‘lib, turli ijtimoiy nafaqa, to‘lov va dotatsiyalarni o‘z ichiga oladi. Uzoq yillar mobaynida AQShda davlat va xususiy sektor tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy ta’minot xizmatlari shakllangan. Davlat tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarda faqatgina minimal ijtimoiy kafolatlar ta’minlansa, xususiy sektor aholi turmush farovonligini oshirishga ixtisoslashgan ijtimoiy ta’minot xizmatlarini ko‘rsatadi. Xususiy sektor tomonidan to‘lanadigan pensiya, ijtimoiy nafaqa va sug‘urta to‘lovlari davlat tomonidan to‘lanadigan ushbu to‘lovlardan birmuncha ko‘proq hisoblanadi. AQSh amaliyotida davlat tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy ta’minot xizmatlari quyidagilarga ajratiladi.

- davlat ijtimoiy sug‘urta dasturi – qarilik pensiyasi, ishsizlik nafaqasi, keksalarga tibbiy xizmat ko‘rsatish va boshqa turdagi minimal ijtimoiy nafaqalarni o‘z ichiga oladi;
- ijtimoiy yordam – bunda ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlariga ularning yoshidan qat’iy nazar ijtimoiy nafaqalar bilan ta’minlash amaliyoti tushuniladi.

---

[228] Доренко К.С. Социальная политика США, стран ЕС и России на современном этапе: приоритеты, принципы, правовое обеспечение\К. С. Доренко \\ Право и управление. XXI век.-2012. с. 58.

Amerika Qo‘shma Shtatlari erkin bozor jamiyatining arxitipik ko‘rinishidir. Ijtimoiy siyosatni ishlab chiqishda xarajatlar miqdori va kambag‘allik darajasi nuqtai-nazaridan kelib chiqqan holda yondashiladi. 1930 yillarda ijtimoiy siyosatning amalga oshirish shakllari ishlab chiqildi, pensiya ta’minoti, nogironlik nafaqalari, ishsizlik bo‘yicha nafaqalar tayinlandi. Shu bilan birgalikda, AQShda sog‘liqni saqlash tizimini isloh etishning kompleks chora-tadbirlari ishlab chiqilmagan edi.[229]

Aholini ijtimoiy himoya qilishda AQSh amaliyoti bozor iqtisodiyoti mexanizmlariga moslashgan liberal ijtimoiy siyosat dasturlaridan hisoblanadi. AQShda ijtimoiy siyosat chora-tadbirlari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- pensiya ta’minoti, jumladan, xususiy pensiya ta’minoti tizimi;
- AQShda o‘rnatilgan kambag‘allik chegarasidan kam daromadga ega bo‘lgan aholi guruhlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;
- aholining ta’lim, sog‘liqni saqlash va axborot xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- mamlakatdagi aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj guruhlari, jumladan, urush qatnashchilari, harbiy xizmatchilar, bolali oilalar, ijtimoiy muhtoj bo‘lgan pensionerlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlari.

AQShda amalga oshirilayotgan aktiv ijtimoiy siyosat chora-tadbirlari mehnat bozorida yuqori darajadagi malakali ishchi kuchini shakllantirish uchun zamin yaratdi.

AQShda 1960-yillarda keksalar uchun davlat tibbiy yordami (Medicare) va kambag‘al aholi uchun (Medicaid) davlat tibbiy yordami chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan. 2010-yilda AQSh Prezidenti Barak Obama tomonidan AQSh Kongressida tibbiy sug‘urta bo‘yicha isloxotlar qabul qilindi.[230]

Avstraliya, Yangi Zelandiya, Kanada Irlandiya, Birlashgan Qirollik mamlakatlarining bir-biriga o‘xshash bo‘lgan “anglo-sakson” modelida AQShdan farqli o‘laroq sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlarga oid bir qator kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi AQSh ijtimoiy siyosati, aholini ijtimoiy himoyalash tizimiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Oxirgi o‘n yilliklarda mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy sohani rivojlantirishda davlatning mavqei,

---

[229] “Social Policy”. P. 435.
[230] “Social Policy”. P. 436.

o‘rni borgan sari ortib bormoqda. Shu o‘rinda ommaviy ta’limni rivojlantirish, uning aholini turmush darajasi va iqtisodiy o‘sishga ta’sirini oshirish, ITT rivojlanishida salmoqli o‘rin egallash, davlatning pensiya ta’minoti va tibbiy sug‘urta ijtimoiy dasturlarida ijtimoiy vazifalarini belgilash kabi strategik maqsadlar qo‘yilgan edi.[231] Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi bank tizimining barcha bo‘g‘inlariga ta’sir etib, soliq tushumilari hisobiga amalga oshiriladigan davlat xarajatlarining pasayishiga va ijtimoiy ta’minot xarajatlarining ortishiga olib keldi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida hukumat ijtimoiy siyosat xarajatlarining qisqartirilishining yo‘llarini izlab, bandlikni oshirish orqali ijtimoiy xarajatlarni qisqartirishga harakat qildilar.

AQShda aholini ijtimoiy himoya qilish va jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi borasidagi tadqiqotlar ish haqi darajasi bilan bog‘langan. AQShda minimal ish haqi soatiga 5-8 AQSh dollarini tashkil etadi. Ushbu miqdordagi ish haqi past darajadagi malakaga ega yollanma ishchilar uchun belgilanib, yuk tashuvchilar, sotuvchilar, idish-tovoq yuvuvchilar, tozalovchi kabilar shular jumlasidandir. 2011-yilda AQShda o‘rtacha ish haqi soatiga 25 AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2015-yilga kelib mamlakatdagi o‘rtacha oylik ish haqi 3 906 AQSh dollariga teng bo‘ldi.

AQSh iqtisodchi olimlari tomonidan amalga oshiriladigan jamiyatning ijtimoiy rivojlanishini baholashga qaratilgan ayrim tadqiqotlarda mamlakatdagi soliqqa tortish tizimi ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. AQSh aholisining 90 foiz qismi daromadlarining 25 foizi soliqqa tortilsa, qolgan 10 foiz aholi daromadlarining soliqqa tortiladigan qismi ayrim holatlarda 50 foizgacha yetishi mumkin.

2000-yilda AQSh demokratlar partiyasi ijtimoiy ta’minot tizimini qo‘llab-quvvatlash maqsadida islohotlar dasturi ishlab chiqdilar. Ushbu davturda to‘rt muhim makroiqtisodiy muammoni hal etishga e’tibor qaratildi:

- 2012 yilga kelib federal hukumat qarzini tugatish;
- Ijtimoiy ta’minot tizimini takomillashtirish, “Mediker” dasturini himoya qilish, jumladan davlat qarzlarini davlat byudjeti ijrosini profitsit ko‘rinishida ta’minlash orqali qoplash va ijtimoiy ta’minot tizimini saqlab qolish;

[231] Супян В. Роль государства в реализации приоритетов социально-экономического развития США./ /http:www.r-reforms.ru/indexpub26.htm.

- Sog‘liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, ta’lim tizimi kabi yetakchi ijtimoiy sohalarga mablag‘larni investitsiya qilishni ko‘paytirish;
- O‘rta mulkdorlar daromadlariga solinadigan soliqlarni 500 mlrd.doll.ga pasaytirish.[232]

Ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan federal byudjet xarajatlarining o‘rni o‘zgardi. AQSh federal byudjeti ijtimoiy yo‘naltirilgan byudjetga aylanib bormoqda. Rasmiy AQSh byudjet statistikasi ikki xil yo‘nalishda ijtimoiy maqsadlar uchun xarajatlar moliyalashtirilmoqda, jumladan “inson resurslariga yo‘naltirilgan xarajatlar” va “jismoniy shaxslarga transfert to‘lovlari” besh yo‘nalish bo‘yicha amalga oshiriladi:

1) Ta’lim, ishchi kuchini mexnatga tayyorlash va bandlik;
2) Sog‘liqni saqlash;
3) Daromadlar bo‘yicha kafolatlar;
4) Ijtimoiy ta’minot;
5) Veteranlarga to‘lovlar va xizmatlar.[233]

Ijtimoiy sohadagi islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri Oliy ta’lim tizimni rivojlantirish hisoblanadi. Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan omillardan biri hisoblanadi.

Sog‘liqni saqlash tizimi xizmatlarini kengaytirish maqsadida maqsadli davlat dasturlari qabul qilindi. 55-61 yoshdagi kishilar o‘rtasidagi ish joyini yo‘qotgan aholi, yosh bolalar va 62-65 yoshlardagi aholi guruhlarini qamrab olgan. Ularni tibbiy sug‘urtalashga qaratilgan yanada takomilashtirilgan dasturlar qabul qilindi.

AQShda ijtimoiy siyosatning huquqiy asoslari ijtimoiy davlatning talablariga to‘liq javob bera oladi. AQShda ta’lim tizimini ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishi sifatida isloh etish, uni iqtisodiy va demografik muammolarga nisbatan takomillashtirish zamon talabidir.

AQSh amaliyotida kambag‘allikni aniqlashning oila tarkibi va uning a’zolari sonidan kelib chiqqan holda 48 xil kambag‘allik chegaralari mavjud. Aksariyat holatlarda kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda mamlakatda aholining soliqqa tortilmagan holdagi daromad darajasi inobatga olinadi. 2016 yilda mamlakatda o‘rnatilgan ijtimoiy me’yorlarga ko‘ra, quyidagi kambag‘allik chegaralari o‘rnatildi:

- to‘rt kishilik oilalarning umumiy daromadi yiliga 24 563 doll.;

---

[232] Prosperity for Amerika s Families. The Gore-Lieberman Economic Plan. September 2000. Nashvilli, 2000.-P-172.
[233] Травкина Н.М. США: партии, бюджет, политика.\Ин-т США и Канада РАН.М.:Наука,2008.-с.126,127.

- uch kishilik oilalarning umumiy daromadi yiliga 19 105 doll.;
- ikki kishilik oilalarning umumiy daromadi yiliga 15 569 doll.;
- oila a’zolari bo‘lmagan yolg‘iz kishilar uchun umumiy yillik daromadi 12 228 doll.dan kam bo‘lsa kambag‘al hisoblanadi.

2017-yilda AQSh Statistik byurosi tomonidan berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2016-yilda 40,6 mln. aholi, yoki mamlakat aholisining 12,7 foizi yuqorida keltirilgan kambag‘allik chegarasidan past daromadga ega bo‘lgan va ijtimoiy jihatdan muhtoj hisoblangan. AQSh Statistik byurosi tomonidan kambag‘allikni o‘rganishda aholi yoshi bo‘yicha quyidagi guruhlarga ajratiladi va ularning daromadlari hisoblanadi:

- 18 yoshgacha;
- 18-64 yosh;
- 65 va undan katta yoshdagilar.

AQSh statistik byurosi ma’lumotlariga ko‘ra, 2016-yilda 13,3 mln. bolalar va 18 yoshgacha bo‘lgan yoshlar kambag‘al oilalarda katta bo‘layotganligi aniqlandi. Mehnat layoqatiga ega bo‘lgan 18-65 yoshdagi aholining 11,6 foizi va pensiya yoshidagi aholining 9,3 foizi kambag‘allik chegarasidan past darajada yashayotganligi aniqlandi. Shu bilan bir qatorda, AQShda istiqomat qilayotgan qora-tanli aholining 22,0 foizi, lotinamerikaliklarning 19,4 foizi, osiyoliklarning 10,1 foizi va oq tanlilarning 8,8 foizi kambag‘alligi aniqlangan.

Tadqiq etilayotgan davrda AQShda kambag‘al hisoblangan uy xo‘jaliklarining to‘rtdan uch qismi shaxsiy avtomobil va yuk tashish mashinasiga, 80 foizida konditsionerga, 92 foizida mikroto‘lqinli pechga, 70 foizi videomagnitofonga, 65 foizdan ortig‘i kabelli yoki sputnikli dasturlarga ulangan televideniya xizmatlariga ulanganligi, 60 foizdan ko‘prog‘i DVD-pleyerga, 31 foizi esa ikki yoki undan ortiq shaxsiy avtomobil yoki yuk mashinasiga ega ekanligi aniqlangan. AQShda kambag‘al hisoblangan oilalarning 70 foizdan ko‘prog‘i oila a’zolari jon boshiga ikki yoki undan ortiq xonadan tashkil topgan uy-joyga egalik qiladi. Faqatgina mamlakatdagi 6 foiz kambag‘al oilalarda uy-joy muammosi mavjud hisoblanadi. Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, AQShdagi kambag‘al aholining uy-joy bilan ta’minlanganligi holati Shvetsiya, Fransiya va Buyuk Britaniyadagi o‘rta qatlamning uy-joy bilan ta’minlanganligi holatidan sezilarli darajada yaxshiroqdir.

AQShda kambag‘allarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish quyidagi dasturlarni o‘z ichiga oladi:

- ijtimoiy ta’minot nafaqasi;
- medikeyd;
- oziq-ovqat mahsulotlari sotib olish uchun mo‘ljallangan kuponlar;
- maktab o‘quvchilari uchun bepul nonushta va tushlik;
- oziq-ovqat mahsulotlari xarajatlarini taqsimlash (ijtimoiy jihatdan muhtoj va kambag‘al aholi guruhlari o‘rtasida birlamchi iste’mol mahsulotlari qatoriga kiradigan oziq-ovqat tovarlarini bepul tarqatish.

AQShda ijtimoiy sug‘urta xizmatlari quyidagilarni qamrab oladi:

- yoshga doir va boquvchisini yo‘qotganlik bo‘yicha sug‘urta;
- mehnatga layoqatsizlik sug‘urtasi;
- “Mediker” tibbiy sug‘urtasi;
- kasallik sug‘urtasi (kasalxona to‘lovlarini to‘lash, malakali parvarish to‘lovlari, uyda tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun to‘lovlar)

AQShda pensiya yoshidagi aholi daromadlari quyidagi manbalar hisobidan shakllanadi:

- 40 foiz pensiya fondi mablag‘alari;
- 13 foiz davlat yoki xususiy pensiya to‘lovlari;
- 18 foiz ish haqi;
- 25 foiz mol-mulkdan olinadigan daromad;
- 1 foiz davlat yordami;
- 3 foiz boshqa manbalar hisobidan

AQShda pensiya tizimining zamonaviy ko‘rinishi quyidagilardan tashkil topadi:

- davlat pensiya ta’minoti;
- an’anaviy xususiy pensiya ta’minoti;
- ish joyidan jamg‘ariladigan pensiya ta’minoti;
- individual pensiya;
- davlat nafaqasi (ijtimoiy pensiya).

Bugungi kunda AQSh aholisining savodxonligi darajasi 99 foizni tashkil etadi va 30 foiz aholi bakalavr darajasidagi ma’lumotga ega hisoblanadi.

AQSh ijtimoiy siyosatining strategik yo‘nalishlari quyidagilarda aks etadi:

- federal darajada davlatning ijtimoiy majburiyatlarini kengaytirish;
- davlat ijtimoiy siyosatini isloh etish;

- ijtimoiy sohada tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish;
- mamlakat ijtimoiy siyosatini neoliberal tamoyillar asosida amalga oshirish.

9.4. Sharqiy Osiyo mamlakatlarida amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat xususiyatlari va amalga oshirish bosqichlari

XX asrning 70-yillarigacha Sharqiy Osiyoda ijtimoiy siyosatga yetarlicha e’tibor berilmagan edi. Faqatgina Yaponiyada ijtimoiy ta’minot tizimi ishlab chiqilgan edi.

Sharqiy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida Yaponiyada ijtimoiy siyosatning rivojlangan tizimini ko‘rish mumkin. Aholini ijtimoiy himoya qilish amaliyotining jahon tajribasi tahliliga ko‘ra, AQSh modelida ushbu dasturlar individual yondashuv asosida jamiyat a’zosining, Shved modelida esa jamiyatning barcha a’zolarini yoppasiga ijtimoiy himoya qilishga e’tibor qaratilsa, Yaponiyada aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlari ishlovchi ishlayotgan korxona ma’muriyati tomonidan jamoa turmush farovonligini yaxshilashga yo‘naltirilgan hisoblanadi. Yaponiya ijtimoiy siyosatida har bir insonning farovonligini oshirish yoki uni mustahkamlanishi uchun emas, balki yaxlit bir jamoa haqida qayg‘uriladi. Iqtisodiy adabiyotda ijtimoiy siyosatning “Yapon” modeli korporativ model sifatida e’tirof etiladi.

1960-yildan keyingi davrda Yaponiyada “YaIMni ikki barobarga oshirish” siyosati amaliyotga tadbiq etila boshlandi. Mazkur davrda mamlakatda mehnatkashlarni munosib ijtimoiy himoyalash masalasi e’tibor markazida bo‘ldi. Ushbu vaziyatni inobatga olgan holda hukumat-xususiy sektordagi ish beruvchilar, xususiy sektordagi ish beruvchilar-yollanma ishchilar o‘rtasida qat’iy kelishuvga asoslangan xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosatiga ustuvorlik qaratildi. Xalqaro ekspertlarning jahon mamlakatlarida aholini ijtimoiy himoya qilish amaliyotini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarida bu turdagi o‘zaro iqtisodiy kelishuvga asoslangan bandlik uch yoqlama ijtimoiy sheriklik asosidagi ijtimoiy himoya dasturining poydevori deb baholangan. Shu bilan bir qatorda Yaponiyada bu turdagi o‘zaro kelishuvning mavjudligi yollanma ishchilarning ijtimoiy holati to‘g‘risida ish beruvchilarning ko‘rsatgan ijtimoiy himoya tadbirlari hisobiga ularning o‘z kompaniyalari uchun bor imkoniyatlari bilan mehnat qiladilar.

Davlat, ish beruvchi va yollanma ishchi o‘rtasidagi ijtimoiy kelishuvga asoslangan mehnat bozorining tashkil etilishi mamlakatda fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishning o‘ziga xos bo‘lgan mexanizmini yaratish imkonini berdi.

Ikki karra YaIM siyosatida davlat milliy ijtimoiy himoya tizimini o‘z qo‘liga olib, ishchilardan ishga bo‘lgan munosabat, mas’uliyat bilan yondashuv ishning samaradorligi va sifati uchun javobgarlik talab qilinar edi. Ushbu jarayonda davlat ijtimoiy hamkorlik bo‘yicha kafil sifatida ishtirok etib, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarni o‘z himoyasiga olgan edi, bu esa o‘z navbatida ish samaradorligini oshirib, kutilgan natijalarni bera boshladi. Bandik siyosati bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirildi, bunda bo‘sh ish o‘rinlarini yaratish, daromadlar o‘rtasida keskinlik kamaytirildi, tengsizlikka barham berila boshladi. Ijtimoiy sohaga katta miqyosdagi investitsiyalar kiritildi, bu esa o‘z navbatida inson kapitalining rivojlanishida jahonda yetakchi o‘rinlardan biriga chiqib olish imkonini berdi.

Yaponiya aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- iste’mol tovarlari va ijtimoiy xizmatlar sifatini takomillashtirish va ularning tannarxini optimallashtirish evaziga aholini iste’molini rag‘batlantirish;
- tabaqalashgan ijtimoiy sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish, jumladan, tabaqalashgan tibbiy sug‘urta xizmatlari. Bunda yollanma ishchining bandlik maqomi, ishlayotgan tashkiloti obro‘-e’tibori, sug‘urtalanuvchining moddiy holatidan kelib chiqqan holda sug‘urta xizmatlari ko‘rsatiladi;
- davlatning ish beruvchilar nomidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy himoya xizmatlariga kafolatining mavjudligi;
- yirik ish beruvchi tashkilotlarning o‘z yollanma ishchilarining ijtimoiy ta’minoti uchun kafolatining mavjudligi;
- ish beruvchi tomonidan umrbod yollangan ishchilarga ta’lim va tibbiy xizmatlarning bepul yoki tegishli imtiyoz asosida ko‘rsatilishi;
- xususiy sektordagi ish beruvchilar tomonidan aholiga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlarning moliyalashtirilishida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash dasturlarining mavjudligi.

Yaponiya aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining uch yoqlama ijtimoiy sheriklikka asoslanganligi mamlakat mehnat bozorida

fuqarolarni ishsizlikdan maksimal himoyalash, yangi ish o‘rinlarini yaratishni rag‘batlantirish bilan bir qatorda aholi daromadlari tabaqalanish darajasini kamaytirish imkonini beradi. Mamlakat soliq siyosati esa daromadlarni emas, balki boyliklarni qayta taqsimlashga asoslangan bo‘lib, jamiyatda ijtimoiy tengsizlik, ijtimoiy jihatdan muhtojlikni qisqartirish uchun zamin yaratdi.

Yaponiya ijtimoiy himoya tizimi aholining yoshi ulg‘aygan sari fuqaroning turmush farovonligini yaxshilab borishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bandlik muddatlari va ish haqi to‘lash tartibi ham shunga yarasha o‘zgarib boradi. Masalan, Yaponiya mehnat bozorida bandlik quyidagi davrlarga bo‘linib, ish haqi ortish tartibi qat’iy o‘rnatilgan:

•yollanma ishchining 30 yoshgacha bo‘lgan mehnat faoliyati – bunda ishchi ish haqining bazis stavkasining o‘zini oladi. Mazkur davr oila qurishga tayyorgarlik davri deb ataladi.

•yollanma ishchining 30-40 yosh oralig‘idagi mehnat faoliyati – bunda ishchi ish haqining bazis stavkasi bilan bir qatorda 70-80 foizgacha ustama haqi olish huquqiga ega bo‘ladi. Ushbu davr oila qurish va farzandli bo‘lish davri deb ataladi.

•yollanma ishchining 40-45 yosh oralig‘idagi mehnat davri – bunda yollanma ishchi ish haqining bazis stavkasi, ustama haq va turli bonuslar olish huquqiga ega bo‘ladi. Bonuslar miqdori ish beruvchining daromadi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu davr yollanma ishchi mehnat faoliyatining yetuklik davri sifatida e’tirof etiladi.

•yollanma ishchining 46 yoshdan keyingi davrdagi mehnat faoliyati – bu mehnat faoliyatidagi pensiyaga chiqishga tayyorgarlik muddati bo‘lib, mazkur davrda yollanma ishchining bazis ish haqi miqdori o‘zgarmay qoladi.

Yaponiya davlat byudjeti tomonidan faqatgina aholini minimal darajadagi turmush farovonligini ta’minlash kafolatlanadi va u quyidagilardan iborat bo‘ladi:

•kunlik minimal iste’mol;

•ta’lim va tibbiy xizmatlar ko‘rsatish;

•uy-joy bilan ta’minlash va kommunal xizmatlar ko‘rsatish;

•onalikni himoyalash;

•ishsizlikdan himoyalash;

•dafn marosimi uchun beriladigan nafaqa.

Yuqorida keltirib o‘tilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun xarajatlarning 75 foizi davlat byudjetidan, qolgan 25 foizi mahalliy byudjet tomonidan moliyalashtiriladi.

Yaponiyaning ijtimoiy siyosati qariyalar hayotini farovonlashtirishga alohida e’tior qaratilgan. Fuqarolarga pensiya ta’minotini davlat bor- yo‘g‘i 1/3 qismini to‘laydi, qolgan qismi nodavlat yoki ixtiyoriy pensiya ta’minoti hisobidan moliyalashtiriladi.

Yaponiya eng uzoq umr ko‘radigan aholiga ega davlat. Mamlakatda o‘rtacha umr ko‘rish 83,5 yosh va eng past o‘lim darajasini tashkil etadi. Hozirgi kunda Yaponiyaning 25.8 % aholisi 65 yoshdan katta kishilar, tug‘ilish darajasining kamligi, insonlarni kech turmush qurishi demografik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu maqsadda Yaponiya davlati global aholi qarishi muammosini hal qilishda immigratsiyani cheklash va tug‘ilishni rag‘batlantirish choralarini qo‘llamoqdalar.

Yaponiyada ta’lim tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, mamlakatda 1947-yildan boshlab boshlang‘ich maktab va o‘rta maktab majburiydir. Yaponiyaning ta’lim tizimi juda raqobatbardosh, ko‘pchilik aholi ta’limni davom ettirib, o‘rta-maxsus va Oliy ta’limni davom ettiradilar, davlat ham ushbu tizimni muntazam rag‘batlantirib boradi.

Sog‘liqni saqlash tizimida ham katta islohotlar olib borilmoqda. Tibbiy xizmat tibbiy sug‘urtalar orqali amalga oshiriladi, barcha o‘z ish joyiga ega aholi o‘z tibbiy sug‘urtasiga ega, sug‘urtasi yo‘q insonlar esa davlat tomonidan kafolatlanadi. 1973-yildan beri sug‘urta davlat tomonidan moliyalashtirilib boriladi. 2025-yilga kelib ijtimoiy ta’minot xarajatlarini moliyalashtirilishni oshirish va kam ta’minlanganlarning ijtimoiy himoya darajasini ham oshirilishi kutilmoqda.

Yaponiyada aholi turmush farovonligi darajasi muntazam ravishda ortib bormoqda. Mamlakat aholisining 80 foizdan ortig‘i shahar hududlarida istiqomat qilishi ushbu fikrimizning yaqqol dalilidir. 2025-yilga borib hukumat aholini ijtimoiy himoya qilish qamrovini yanada oshirish rejasini o‘z oldiga qo‘ymoqda.

Gonkong va Singapur mamlakatlari ijtimoiy siyosati o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Singapurda ijtimoiy siyosat davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi, Gonkong ijtimoiy xarajatlar uchun davlat byudjetidan oz miqdorda mablag‘ ajratar edi. Qiyosiy tahlillar ko‘rstaishicha Fransiya, Germaniya, Avstriya va Shveysariya davlatlarida amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat va Yaponiyadagi ijtimoiy siyosat farq qiladi. Yaponiyadagi ijtimoiy siyosat oila barqarorligini ta’minlashga qaratilgandir.

Sharqiy Osiyodagi demografik o‘zgarishlar, aholini qarishi, aholi tug‘ilish darajasining pasayishi va o‘limning ortishi achinarli holatdir.

Yaponiya va Janubiy Koreyadagi aholining qarishi va aholi sonining kamayishi shundan dalolatdir.

Yaponiya, Janubiy Koreya va Tayvanda ayollar o‘rni faqat farzand tug‘ish va keksalarga qarash bilan asosan belgilanar edi. Hozirda mehnat resurslarining yetishmovchiligi tufayli turmush qurgan ayollar ham mehnat bozoriga jalb qilinmoqda. Lekin ayollar ko‘proq bola parvarishi bilan shug‘ullanishi, keksalar parvarishi bilan shug‘ullanib, oilada o‘z o‘rnini topishi kerak. Bu o‘rinda ijtimoiy siyosatning ahamiyati kattadir[234].

Glossariy

O‘zbekcha	Ruscha	Inglizcha	Izoh
Ijtimoiy muammolar	Социальные проблемы	Social problems	Maqsadli faoliyat va uning natijasi o‘rtasidagi nomu-vofiqlik. Ushbu nomuvo-fiqlik maqsadga erishish vositasi yo‘qligi yoki yetarli emasligi tufayli yuzaga keladi, hamda faoliyat sub’ekti ijtimoiy ehtiyojlarini qondirmaslikka olib keladi.
Farovonlik modeli	Модель благосостоя-ния	Model of welfare	keng qamrovli nodavlat,ijtimoiy- bozor, jamiyat ehtiyojlari va xizmatlari ta’minoti
Institutsional qayta taqsimlash modeli	Институцио-нальная модель перераспреде-ления	Institutional redistribu-tion model	universal huquqlar asosida davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar industrial jamiyatning normal funksiyalari sifatida qaraladi
Sanoat modeli	Промышлен-ная модель	Industry model	ijtimoiy ta’minotga iqtisodiyotga qo‘shimcha davlatning funksional vazifalaridan biri sifatida qaraladi
Davlat farovonligining dekommodifi-katsiya darajasi	Уровень декоммоди-фикации государствен-ного благодеяния	Decommo-dification level of state welfare	davlat insonlarni mehnat bozoriga bog‘liq bo‘lmagan holda ijtimoiy ta’minlangan hayot kechirishlarini ta’minlaydi

[234]. “Social Policy”. P. 446.

Davlat farovonligining taqsimlan-magan darajasi	Нераспреде-ленный уровень государствен-ного благодеяния	Undistribu-ted level of state welfare	Jamiyat ijtimoiy sinflarga ajratiladi, hamda ijtimoiy integratsiya va tenglikka intiladi
Ijtimoiy-demokratik rejim	Социально-демократи-ческий режим	Social-democratic regime	mehnat tashkilotlari va kichik fermerlar uyushmalariga birlashadilar, davlat to‘la bandlikni ta’minlaydi, universal nafaqalarni qayta taqsimlaydi va o‘rta sinf vakillarining talablari qondiriladi
Konservativ-korporativ rejim	Консерватив-но-корпоратив-ный режим	Conserva-tive-corporative regime	Kontinental Yevropa mamla-katlariga xos bo‘lib, davlat o‘rta sinf vakillari ehtiyoj-larini ta’minlagan holda ijtimoiy siyosat yuritadi
Liberal ijtimoiy ta’minot rejimi	Режим либерально-социального обеспечения	Liberal social welfare regime	ingliz tilida so‘zlashadigan mamlakatlar uchun xos bo‘lib, sinflar o‘rtasidagi ittifoqning emasligiga qara-masdan, davlat umumfarovon-likka intiladi va kambag‘al qatlamni o‘z himoyasiga oladi
Yangi Marshall rejasi	Новый план Маршала	Marshal’s New Plan	Yevropa Ittifoqining iqtisodiyotni rivojlantirish rejasi 2008 yil 26 noyabrda tasdiqlangan. Ushbu reja moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida iqtisodiyotni modernizatsiyalashning ustuvor yo‘nalishlarini quyidagicha belgiladi: aholi xarid-to‘lov qobiliyatini yaxshilash, yalpi talabni qo‘llab-quvvatlash, ishonchni rag‘batlantirish, “aqlli” investitsiyalarni resurslarni tejaydi-gan, raqobatbardosh, yuqori texno-logiyali, atrof-muhitni ifloslantir-maydigan texnologiyalarga va infra-

			tuzilmaga kiritish. Yevropa Ittifoqi iqtisodiyotini qo‘llab-quvvatlash uchun 200 mlrd. yevro ajratilish ko‘zda tutilgan.
Lissabon shartnomasi	Лиссабонс-кий договор	Lisbon contract	Yevropa ijtimoiy modelini modernizatsiyalashda mehnat bozorida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, kasbiy qayta tayyorlash va ta’lim tizimiga investitsiyalarni jalb etish
Institutsional nazariya	Институцио-нальная теория	Institutional theory	Iqtisodiy qarorlar qabul qilish va yo‘nalishlarini aniqlashda, ularning samaradorligini oshirishda institutlarga katta e’tibor qaratuvchi va ularning muhimligini asoslovchi iqtisodiy nazariya
Umumfarovon-lik davlat rejimi;	Режим государство всеобщего благодеяния	General welfare state regime	davlat xarajatlari va maqsadli dasturlaridan qat’iy nazar davlat aholi farovonligini ta’minlaydi
Norasmiy xavfsizlik rejimi;	Режим неформальной безопасности	Regime of non-formal protection	“Norasmiy xavfsizlik” reji-mida (Xitoy, Sharqiy Osiyo mamlakatlari, Janubiy va Markaziy Amerika davlatlari, Eron, Turkiya) tashqi va ichki kuchlar ta’siriga qara-masdan ijobiy ko‘rsatkich-larga erishish ko‘zda tutiladi.
Ekzogen	Экзоген	Exogenous	Tashqi, tizim ichida bo‘lmagan
Endogen	Эндоген	Endoge-nous	Ichki, tizim ichida bo‘lgan
Benilyuks	Бенилюкс	Benelux	Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg davlatlarining birgalikdagi nomlanishi.
Ishsizlik darajasi	Уровень безработицы	Unemploy ment rate	Mavjud ishsizlarning iqtisodiy faol aholi soniga nisbati
Immigratsiya	Иммиграция	Immigra-tion	mamlakat hududiga mehnatga layoqatli aholining boshqa mamlakatlardan ko‘chib kelishi.
Emmigratsiya	Эммиграция	Emigration	mehnatga layoqatli aholining mamlakat hududidan xorijga ko‘chib ketishi.

Nazorat savollari:

1. Ijtimoiy siyosatning rivojlanish modellarining metodologik asoslari nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari yoritib bering.
3. AQShda liberal ijtimoiy siyosatning mohiyati va amalga oshirish yo'nalishlarini sharhlab bering.
4. Sharqiy Osiyoda ijtimoiy siyosat xususiyatlari va amalga oshirish bosqichlarini tushuntirib bering.
5. Yaqin Sharq mamlakatlarida ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlarini aytib bering.

Testlar:

1. Esping-Andersen nazariyasiga ko'ra farovonlik rejimining qaysi turida mehnat tashkilotlari va kichik fermerlar uyushmaga birlashadilar, davlat to'la bandlikni ta'minlaydi, universal nafaqalarni qayta taqsimlaydi va o'rta sinf vakillarining talablari qondiriladi?

a) ijtimoiy-demokratik rejim;
b) konservativ-korporativ rejim;
c) liberal ijtimoiy ta'minot rejimi;
d) liberal-korporativ rejim.

2. Noto'g'ri javobni aniqlang. Yevropa Ittifoqi ijtimoiy siyosatining farqlanuvchi jihatlari ...

a) davlat xarajatlarining yuqori darajada ekanligi;
b) ijtimoiy siyosatning faqat davlatga qarashli ekanligi;
c) nafaqa va pensiyalar miqdorining kattaligi;
d) ijtimoiy fuqarolikning keng qamrovli ekanligi.

3. Yevropa ittifoqi ijtimoiy ta'minotining tamoyillariga nimalar kiradi?

a) manzillilik;
b) ijtimoiy adolat va tenglik;
c) ijtimoiy mas'uliyat va birdamlik;
d) ijtimoiy kafolat.

4. Yevropa Ittifoqining ijtimoiy siyosatidagi ustuvor islohot – bu ...

a) sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish;
b) ta’lim tizimini rivojlantirish;
c) bandlik muammosini hal qilish;
d) ijtimoiy sohada globalizatsiya oqibatlarini tugatish.

5. AQSh ijtimoiy siyosatining Birlashgan Qirollik, Irlandiya, Avstraliya mamlakatlari bilan umumiy jihatlari nimadan iborat?

a) ushbu mamlakatlarda ingliz tilida gaplashiladi;
b) ushbu mamlakatlarda ijtimoiy siyosatning anglo-sakson modeli amal qiladi;
c) ushbu mamlakatlarda ta’lim tizimi ustuvor hisoblanadi;
d) ushbu mamlakatlarda bandlikni ta’minlash ustuvor hisoblanadi.

6. 2016 yil 1 yanvardan boshlab xalqaro hamjamiyat e’tirof qilgan kambag‘allik darajasini aniqlang.

a) 1.9 AQSh dollari;
b) 1.7 AQSh dollari;
c) 1.8 AQSh dollari;
d) 1.6 AQSh dollari.

7. Yaponiyaning ijtimoiy siyosat modeli qaysi modelga to‘g‘ri keladi?

a) Ijtimoiy-demokratik;
b) Liberal;
c) Korporativ;
d) Katolik.

8. Yaponiyada ijtimoiy to‘lovlar markaziy va mahalliy byudjetdan qanday nisbatda moliyalashtiriladi?

a) 40 % ga 60 %;
b) 60 % ga 40 %;
c) 30 % ga 70 %;
d) 70 % ga 30 %.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Asosiy adabiyotlar:

1. The Student's Companion to Social Policy. Fourth Edition. Edited by Pete Alcock, Margaret May, and Sharon Wright. / UK 2012. John Wiley & Sons Ltd. 496 p.

2. Understanding theories and concepts in social policy/ Ruth Lister/The policy press/UK 2010. 328 p.

3. Social Policy an Introduction-Forth edition/ Ken Blakemore, Louis Warwick-Booth/Open University Press/UK 2013. 376 p.

4. World Social Protection Report 2014/15: Building economic recovery, inclusive development and social justice International Labour Office – Geneva: ILO, 2014. – 364 r.

5. Introduction to Social Work in the South African context / Paul Mbedzi, Lulama Qalinge, Peter Schultz, Johannah Sekudu, Mimie Sesoko / Oxford University Press/ Southern Africa 2015. p. 218

6. Social Policy: An Introduction, Fifth Edition Pate Alcock, Tina Haux, Margaret May and Sharon Wright © 2016 John Wiley & Sons Ltd. 526 p

7. Pensiya tizimini rivojlantirishning xorij tajribasi: Darslik / A.V. Vaxabov, Sh.X. Xajibakiyev, B.B. Baxtiyorov va boshqalar; - T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018. – 400 b.

8. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta’minotga kirish: Darslik / A.V. Vaxabov, Sh.Sh. Zaxidova, B.B. Baxtiyorov va boshqalar; - T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018. – 168 b.

9. Вахабов А.В., Мажидов Н.М. Жамғариб бориладиган пенсия жамғармасининг Ўзбекистонда инвестиция сиёсатини амалга оширишдаги роли. Монография. Тошкент: Университет, 2017. 128 б.

10. Маргулян Я.А. Социальная политика «Учебник». Санкт-Петербург. 2011. 236 с.

11. Социальная политика. Учебник для бакалавров. Под ред. проф. Е.И. Холостовой. М.: Юрайт 2012. 367 с.

12. Рустамов Д.Р. Пенсия тизимининг молиявий барқарорлигини таъминлаш йўналишлари. Монография/ ТМИ. – Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2013. – 156 б.

13. Далимов.Р.Т. Мировой опыт реформирования пенсионной системы и его применения в условиях переходной

экономики.Ташкент: Университет, 2003.
14. Ижтимоий соҳа иқтисодиёти. Дарслик. Проф. Қ.Х. Абдурахмонов таҳрири остида –Т.: Иқтисодиёт, 2013 – 418 б.
15. Уйда ижтимоий ёрдам кўрсатиш хизмати фаолиятини ташкил этиш методик қўлланма. М. Карамян. – Тошкент: Baktria press, 2014 – 100 б.
16. Абдурахмонов К.Х. Зокиров И.К. Человеческое развитие: Учебник. – Т.: ФГБОУ ВПО РЭУ им. Г.В. Плеханова. 2014 – 320 с.
17. Роик В.Д. Пенсионное страхование и обеспечение. – 2-е издание. – М.: Изд-во Юрайт. 2018.
18. Роик В.Д. Социальное страхование. – 2-е издание. – М.: Изд-во Юрайт. 2018.
19. Роик В.Д. Социальная политика: качество жизни пожилого населения и страховые институты социальной защиты. – М.: Изд-во Юрайт. 2018.
20. Роик В.Д. Пенсионные системы в странах СНГ: итоги преобразований и пути совершенствования // ЭКО. Экономика и организация промышленного производства. (статья) 2019. № 3 (523). С. 94-116
21. Роик В.Д. Социальная политика: заработная плата и страхование рисков ее утраты. – М.: Изд-во Юрайт. 2019.
22. Роик В.Д. Социальная политика: Социальные обеспечение и страхование. – М.: Изд-во Юрайт. 2019.
23. Роик В.Д. Социальная политика: финансовые механизмы. – М.: Изд-во Юрайт. 2019.
24. Соловьев А.К. Пенсионная реформа: иллюзии и реальность: учебное пособие. – Москва: Проспект, 2014. – 296 с.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

25. Women at Work: Trends 2016 International Labour Office – Geneva: ILO, 2016. -138 r.
26. World Employment and Social Outlook 2016: Transforming jobs to end poverty International Labour Office – Geneva: ILO, 2016. – 192 r.
27. Mamatov B.S. Pensiya jamg’armasi faoliyati. O’quv qo’llanma. – T.: “Barkamol fayz media”, 2017, 280 bet.
28. Социальна политика: долгосрочные тенденции и изменения последних лет. Краткая версия доклада: док. К XVI апр. Междунар. Науч. Конф. По проблемам развития экономика и общества, Москва, 7-10 апр. 2015 г. / отв. Ред. Я.И. Кузьминов, Л.Н. Овчарова,

Л.И. Якобсон; Нац. Исслед. ун-т «Высшая школа экономики». – М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2015. -51, [1] с.

29. Социал иқтисодиёт. К.С. Саидов, Р.А. Сейтмуратов, Д.Х. Асланова, С.А. Исҳокова. –Т.: “Ўзбекистон” 2006 й. 365 б.

30. Антропов В.В. Социальная зашита в странах Европейского союза. Монография. -Москва.: Издательство «Экономика».2006. 173 с.

31. Ваҳобов А.В. Бозор муносабатлари тизимидаги ижтимоий фондлар. –Т.: Шарқ. 2003. –320 б.

32. Срожиддинова З.Х. Ўзбекистон Республикаси бюджет тизими. Т.: Infocom. 2010.

33. Уайтхауз Э. Пенсионная панорама: пенсионные системы 53 стран. –М.: «Весь мир», 2008.

34. Ерошенков С.Г. Переход к накопительной пенсионной реформе: мировой опыт и возможности применения его в России. - М: МАКС Пресс., 2001. - 251 с.

35. “Пенсия таъминоти тизимини ривожлантириш истиқболлари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: Университет, 2014. 272 б.

36. “Пенсия тизимини молиялаштириш: хориж тажрибаси ва уни такомиллаштириш истиқболлари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: Университет, 2016. 210 б.

37. “Ўзбекистон Республикасида пенсия таъминоти тизимининг долзарб муаммолари” мавзусидаги вазирлик миқёсидаги илмий-амалий анжуман тезислари тўплами. – Т.: Иқтисод-Молия, 2017. 432 б.

38. OECD (2017), Pensions at a Glance 2017: OECD and G20 Indicators, OECD Publishing. Paris. P. 167.

39. Вахабов А.В. Охундадаева М.О. Пенсия таъминотининг аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимидаги ўрни // Ижтимоий ҳамкорлик иқтисодий муносабатларни эркинлаштириш омили. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. Иккинчи қисм. –Тошкент. 2014, 97-99 бетлар.

40. Вахабов А.В. Охундадаева М.О. Жаҳон пенсия тизимини ривожлантириш хусусиятлари // “Молия” илмий журнал. 2014, №2, 97-91 бетлар.

41. Вахабов А.В. Ўтиш иқтисодиёти мамлакатларида пенсия тизимини модернизациялаш истиқболлари. // Пенсия таъминоти

тизимини ривожлантириш истиқболлари. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. –Тошкент, 2014. 28-38 бетлар.

42. Вахабов А.В. Мухамедова С.А. Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишда пенсия таъминотининг ўрни // Пенсия таъминоти тизимини ривожлантириш истиқболлари. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент, 2014. 42-45 бетлар.

43. Вахабов А.В. Охундадаева М.О. Жаҳон мамлакатларининг пенсия тизимидаги ўзгаришлар // Пенсия таъминоти тизимини ривожлантириш истиқболлари. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент, 2014. 133-135 бетлар.

44. Вахабов А.В. Ўтиш иқтисодиёти мамлакатларида пенсия тизимини модернизациялаш истиқболлари. / “Пенсия таъминоти тизимини ривожлантириш истиқболлари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: Университет, 2014 й. б. 28-38

45. Вахабов А.В. Мухамедова С.А. Ўзбекистонда пенсия тизимини ривожлантириш муаммолари ва истиқболлари // “Иқтисодиёт назарияси муаммолари: талқини ва ечимлари” мавзусидаги олий ўқув юртлариаро илмий – амалий конференцияси материаллари 2015 й. 24 апрель, Тошкент, ТМИ. 675 б.

46. Вахабов А.В. Охундадаева М.О. Ўзбекистонда пенсия тизимининг ривожланиш тенденциялари ва истиқболлари // Иқтисод ва молия, №3, 2015. 54-64 б.

47. Вахабов А.В. Закирходжаева Ш.А Ўзбекистонда пенсия таъминотини молиявий барқарорлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари // “Пенсия тизимини молиялаштириш: хориж тажрибаси ва уни такомиллаштириш истиқболлари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция матераллари. 2015 йил 21 ноябрь. - Т.: Университет, 220 б.

48. Вахабов А.В. Рахмонов Ш.И. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирозининг пенсия тизимини ислоҳ этишга таъсири. // “Ижтимоий ҳамкорлик – иқтисодий муносабатларни эркинлаштириш омили” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. Асосий қисм. Тошкент. 2014. б. 20-31

49. Вахабов А.В. Хажибакиев Ш.Х. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози шароитида меҳнат бозори ҳолати ва аҳоли

бандлигини оширишнинг устувор йўналишлари. // “Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланиш ва аҳоли бандлигини ошириш йўллари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. I қисм. Тошкент. 2015. б. 3-14

50. Вахабов А.В. Ўзбекистонда пенсия таъминотининг молиявий барқарорлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. / “Пенсия тизимини молиялаштириш: хориж тажрибаси ва уни такомиллаштириш истиқболлари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: “Университет” 2016 й. б. 15-21

51. Вахабов А.В. Хажибакиев Ш.Х. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида аҳоли бандлигини ошириш барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш омили сифатида. / “Иқтисодий ислоҳотларни ҳозирги босқичида аҳоли турмуш даражаси ва сифатини ошириш йўллари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Термиз. 2016 й. б. 5-11

52. Вахабов А.В. Миллий пенсия тизимини молиявий барқарорлигини таъминлаш механизми ва амалга ошириш дастаклари / “Ўзбекистон Республикасида пенсия таъминоти тизимининг долзарб муаммолари” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани тезислар тўплами. – Т.: “Iqtisod-Moliya”. 2017 й. б. 10-18

53. Вахабов А.В. Пенсия тизимининг молиявий барқарорлигини таъминлаш муаммолари / “Пенсия тизимининг молиявий барқарорлигини таъминлаш ва самарадорлигини ошириш” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: “Университет” 2017 й. б. 4-11

54. Вахабов А.В. Бахтиёров Б.Б. Канада пенсия фондларининг молиявий сиёсати // “Ўзбекистон Республикасида пенсия таъминоти тизимининг долзарб муаммолари” мавзусида вазирлик миқёсидаги илмий-амалий анжуман: Тезислар тўпласи. – Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2017. -432 б.

55. Вахабов А.В. Бахтиёров Б.Б. Инсон капиталининг инвестицион самарадорлигини баҳолашнинг услубий асослари / “Миллий иқтисодиёт тармоқларида олий маълумотли кадрларга бўлган эҳтиёжни баҳолаш ва прогнозлаштириш” мавзусида илмий мақолалар тўплами. – Тошкент. 2017 й. б. 5-12

56. Вахабов А.В. Хажибакиев Ш.Х. Аҳолини ижтимоий ҳимоя

қилишнинг таркиби ва манзиллилигини кучайтириш муаммолари: халқаро тажриба ва миллий хусусиятлар / “Ижтимоий соҳани модернизациялаш ва ривожлантиришнинг устувор йўналишлари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент. 2018 й. б. 14-24

57. Вахабов А.В. Ўзбекистон пенсия тизимининг молиявий барқарорлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари // “Пенсия таъминоти тизимини ислоҳ этиш концепцияси: халқаро тажриба ва тенденциялар, Ўзбекистонда пенсия таъминоти тизимини ривожлантириш истиқболлари” республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. Тошкент “Iqtisod-Moliya”, 2018 й. 331 б.

58. Вахабов А.В. Хажибакиев Ш.Х. Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимининг манзиллилигини ошириш амалиётини модернизациялаш – ижтимоий хизматлар рақобатбардошлигини оширишнинг устувор йўналишидир. // “Рақобатбардош иқтисодиёт ва уни амалга ошириш йўналишлари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: ЎзМУ. 2018 й. б. 386 б.

59. Вахабов А.В. Хажибакиев Ш.Х. Ўзбекистонгда қариликни суғурталаш тизимини модернизациялашнинг устувор йўналишлари // Миллий иқтисодиётда суғурта тизимини модернизациялашнинг устувор йўналишлари: республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент: INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI, 2019. – 180 б.

60. Вахабов А.В. Олий таълим сифатини оширишнинг хориж тажрибасидан Ўзбекистон олий таълим тизимини исоҳ этишда фойдаланиш имкониятлари // Олий таълим сифати иқтисодий диагностикаси: жаҳон амалиёти ва миллий хусусиятлар. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. 403-407 бетлар.

61. Бахтиёров Б.Б. Закирходжаева Ш. Ўзбекистон миллий пенсия тизимининг кекса аҳоли қатламларини ижтимоий ҳимоя қилишдаги аҳамияти / Ўзбекистон Республикасида пенсия таъминоти тизимининг долзарб муаммолари” мавзусида вазирлик миқёсидаги илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. – Тошкент. 2017. 151-155 бетлар.

62. Бахтиёров Б.Б. Ўзбекистонда аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимининг манзиллилигини кучайтириш йўналишлари. /

“Ижтимоий соҳани модернизациялаш ва ривожлантиришнинг устувор йўналишлари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент. 2018 й. б. 175-179

63. Бахтиёров Б.Б. Ўзбекистонда аҳолининг ижтимоий жиҳатдан табақаланиш мезонлари ва тенденциялари. Иқтисод ва молия № 10 (118), 2018. 32-42 бетлар.

64. Бахтиёров Б.Б. Пути совершенствования методологии оценки уровня жизни населения в Узбекистане. Экономика и предпринимательство, №1, 2019. с. 375-379

65. Бахтиёров Б.Б. Ўзбекистонда аҳолига ижтимоий хизмат кўрсатишнинг ҳозирги ҳолати ва ривожланиш тенденциялари. Бизнес-Эксперт. 2019. № 2. 49-59 б.

66. Бахтиёров Б.Б. Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимининг ижтимоий-иқтисодий механизми самарадорлигини баҳолашнинг методологик асосларини такомиллаштириш йўналишлари. Иқтисод ва молия 2019.№ 3.

67. Бахтиёров Б.Б. Социально-демографические риски устойчивого равития. SCIENCE, RESEARCH, DEVELOPMENT # 12. MONOGRAFIA. Belgrade-2018. p.107-110.

68. Bakhtiyorov B.B. Social Support in the Social Welfare System of Foreign Countries. SCIENCE, RESEARCH, DEVELOPMENT # 13. MONOGRAFIA. Berlin-2019. p.38-41.

69. Бахтиёров Б.Б. Укрепление социальной защиты и обслуживания граждан Узбекистне. SCIENCE, RESEARCH, DEVELOPMENT # 15. MONOGRAFIA. Rotterdam (The Netherlands)-2019. p.38-41.

70. Доклад о социальной защите в мире 2014/15: обеспечение экономического восстановления, инклюзивного развития и социальной справедливости / Группа технической поддержки по вопросам достойного труда и Бюро МОТ для стран Восточной Европы и Центральной Азии. – Москва: МОТ, 2015. 436 с.

71. Доклад по целями развития тысячелетия Узбекистана 2015 / под общ. Ред. Г.К. Саидовой. – Ташкент. Центр экономических исследований, 2015. – 100 с.

72. Бюджет для граждан, 2018. / Министерство финансов РУз. – Ташкент: Baktria press, 2017. – 104 с.

73. Бюджет для граждан, 2019. / Министерство финансов РУз. – Ташкент: Baktria press, 2018. – 82 с.

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

74. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон, 2013

75. Ўзбекистон Республикасининг "Кексалар, ногиронлар ва аҳолининг бошқа ижтимоий эҳтиёжманд тоифалари учун ижтимоий хизматлар тўғрисида"ги 26.12.2016 йилдаги ЎРҚ-415-сонли Қонуни.

76. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Кексалар ва ногиронларни манзилли ижтимоий ҳимоя қилиш ва қўллаб-қувватлашни янада кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида" ги 10.08.2015 йилдаги 327-сон Қарори.

77. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида" ги 09.07.2015 йилдаги 185-сон Қарори.

78. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Давлат пенсияларини тайинлаш ва тўлаш тартибини янада такомилаштиришга йўналтирилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида" 2011 йил 8 сентябрдаги 252-сон қарорига ўзгартиришлар ва қўшимча киритиш ҳақида"ги 10.06.2015 йилдаги 153-сон Қарори.

79. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2011 йил 7 апрелдаги 107-сон қарори «Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ҳамда Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодексига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунини амалга ошириш учун зарур бўлган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш ҳақида

80. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Кексалар ва ногиронларни манзилли ижтимоий ҳимоя қилиш ва қўллаб-қувватлашни янада кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 10.08.2015 йилдаги 237-сон Қарори.

81. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Кексаларни ижтимоий ҳимоя қилиш ва моддий қўллаб-қувватлашни янада кучайтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги 2015 йил 14 апрелдаги ПФ-4715-сон Фармони.

82. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли"Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги

фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон.

83. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Аҳолининг кам таъминланган қатламларини қўллаб-қувватлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 12.09.2017 йилдаги ПҚ-3268-сон Қарори.

84. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг 2019 йилги асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари прогнози ва давлат бюджети параметрлари ҳамда 2020-2021 йилларга бюджет мўлжаллари тўғрисида”ги 2018 йил 26 декабрдаги ПҚ-4086-сон Қарори.

85. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Харакатлар стратегиясини “Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили”да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги 17.01.2019 йилдаги ПФ-5635 сонли Фармони.

86. Мирзиёев Ш.М., Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожатномаси. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. – 80 б.

87. Мирзиёев Ш.М., Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожатномаси. – 29.12.2018 й. www.xs.uz.

Internet saytlar:

1. http://www.worldbankgroup.org
2. http://www.imf.org
3. http://www.oecd.org
4. http://www.cbu.uz
5. http://www.urwealthy.com
6. http://www.mybank.ua.
7. http://www.gov.uz
8. http://www.stat.uz
9. http://www.undp.uz
10. http://www.mineconomy.uz.
11. http://www.mehnat.uz
12. http://www.mf.uz
13. http://www.minzdrav.uz
14. http://www.pfru.uz

MUNDARIJA

KIRISH 3
I bob. IJTIMOIY SIYOSAT FANINING PREDMETI VA METODLARI 7
1.1. Ijtimoiy siyosat fanining predmeti va rivojlanish bosqichlari..... 7
1.2. Ijtimoiy siyosatning nazariy asoslari 10
1.3. Ijtimoiy siyosat metodlari 13
1.4. Ijtimoiy ehtiyojlar, ijtimoiy ta’minot va ijtimoiy muammolar 14
1.5. Ijtimoiy adolat. Samaradorlik va tanlov 16
II bob. IJTIMOIY SIYOSATNING NAZARIY ASOSLARI..... 24
2.1. Ijtimoiy siyosat tushunchasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari 24
2.2. Ijtimoiy siyosat tamoyillari va uni rivojlanishida neoliberal ilmiy maktabning o‘rni 30
2.3. O‘ng partiyalarning ijtimoiy siyosat to‘g‘risidagi qarashlarining o‘zgarishi…..... 33
2.4. Ijtimoiy siyosat va so‘l partiyalarning ijtimoiy siyosat sohasidagi qarashlari 36
2.5. XXI asr arafasida ijtimoiy siyosatga bag‘ishlangan feministik, yashillar va post modernizatsiyalash yondashuvlarining rivojlanishi ... 38
III bob. IJTIMOIY SIYOSATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI. 51
3.1. Ijtimoiy siyosatning shakllanish shart-sharoitlari va omillari 51
3.2. XIX asrda Yevropada ijtimoiy siyosat 58
3.3. XX asr boshlarida ijtimoiy siyosatdagi islohotlar 61
3.4. Aholining ijtimoiy ta’minoti tizimini isloh etishning neoliberal modeli 66
3.5. XXI asr boshlarida ijtimoiy siyosatni modernizatsiyalashning ustuvor yo‘nalishlari..... 68
IV bob. IJTIMOIY SIYOSATNI TARTIBGA SOLISH DASTAKLARI 79
4.1. Ijtimoiy ta’minot tizimini boshqarish va nazorat qilishni isloh etish 79
4.2. Ijtimoiy ta’minot tizimi faoliyatida hisobot berish mexanizmi 82
4.3. Farovonlik davlati va ijtimoiy xizmatlar iste’molchilari o‘rtasidagi nisbat 84
4.4. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda markaziy va mahalliy boshqaruv organlarining tutgan o‘rni. 88
4.5. Ijtimoiy siyosatning milliy modeli va jahon amaliyoti..... 94

4.6. Xalqaro tashkilotlar va global islohotlar. 103
V bob. MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA IJTIMOIY SIYOSATNI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI. 111
5.1. Ijtimoiy siyosatning shakllanishi va uni amalga oshirishda demografiyaning o‘rni. 111
5.2. Iqtisodiy va ijtimoiy siyosat o‘rtasidagi nisbat. 122
5.3. Dinning ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdagi o‘rni. 126
5.4. Oila siyosati ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida 128
5.5. Aholining turli ijtimoiy qatlamlari va ijtimoiy siyosat. 129
5.6. Kambag‘allikka qarshi kurash ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning ustuvor vazifasi. 130
5.7. Daromadlarni taqsimlash va aholi farovonligini oshirish masalalari. 142
VI bob. AHOLI FAROVONLIGI VA IJTIMOIY TA’MINOT 158
6.1. Aholi farovonligining o‘sishi, omillari va ko‘rsatkichlari. 158
6.2. Umumjamiyat farovonligi davlati. 170
6.3. Davlat va tijorat tashkilotlari ijtimoiy xizmatlarining rivojlanishi.174
6.4. Ijtimoiy ta’minot va mehnatni muhofaza qilish. Ixtiyoriy ijtimoiy ta’minot. 176
6.5. Uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish. 178
6.6. Ijtimoiy ta’minotni moliyalashtirishda davlat va bozor mexanizmi o‘rtasidagi nisbat. 180
VII bob. IJTIMOIY XIZMATLAR 192
7.1. Ijtimoiy xizmatlar tushunchasi 192
7.2. Ijtimoiy ta’minot va daromadlarni qo‘llab-quvvatlash. 194
7.3. Bandlik 201
7.4. Sog‘liqni saqlash 206
7.5. Uzluksiz ta’lim 211
7.6. O‘zbekistonda ijtimoiy xizmatlar va ularni moliyalashtirish xususiyatlari 213
VIII bob. AHOLINI IJTIMOIY HIMOYALASH TIZIMI VA UNING MANZILLILIGINI KUCHAYTIRISH 224
8.1. Aholini yoppasiga ijtimoiy himoya qilish tizimidan manzilli himoya qilishga o‘tishning zaruriyati va mohiyati. 224
8.2. Jahon amaliyotida aholining ijtimoiy himoya qilish mexanizmi manzilliligini kuchaytirish dastaklari. 227
8.3. Aholini ijtimoiy himoyalashning tamoyillari 238
8.4. Bolalar va yoshlarni ijtimoiy himoyalash. 241
8.5. Keksalarni ijtimoiy himoyalash. 247

8.6. Nogironlarni ijtimoiy himoyalash..... 253
IX bob. IJTIMOIY SIYOSATNI AMALGA OSHIRISHNING JAHON TAJRIBASI..... 265
9.1. Ijtimoiy siyosatning tarkibi va rivojlanish modellarining uslubiy jihatlari. 265
9.2. Yevropa Ittifoqi ijtimoiy siyosatining xususiyatlari..... 268
9.3. Shimoliy Amerika liberal ijtimoiy siyosatining mazmuni va amalga oshirish yo‘nalishlari. 279
9.4. Sharqiy Osiyo mamlakatlarida amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat xususiyatlari va amalga oshirish bosqichlari..... 285
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI 294

ОГЛАВЛЕНИЕ

ВВЕДЕНИЕ
Глава I. ПРЕДМЕТ И МЕТОДЫ КУРСА СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ
1.1. Предмет и этапы развития курса социальной политики
1.2. Эволюция основ развития социальной политики
1.3. Методы социальной политики
1.4. Социальные потребности, социальное обеспечение и социальные проблемы
1.5. Социальная справедливость. Эффективность и выбор
Глава II. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ
2.1. Формирование и развитие понятия социальной политики
2.2. Принципы социальной политики и роль неолиберальной школы в её развитие
2.3. Изменение подхода правых партий к социальной политике
2.4. Социальная политика и отношение левых партий к социальной политике
2.5. Развитие подхода феминистов, зелёных и постмодернистов к социальной политике на пороге XXI века
Глава III. ФОРМИРОВАНИЕ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ
3.1. Условия и факторы формирования социальной политики
3.2. Социальная политика в Европе в XIX веке
3.3. Реформы в социальной политике в начале XX века
3.4. Неолиберальная модель реформирования системы социального обеспечения населения
3.5. Приоритетные направления модернизации социальной политики в начале XXI века
Глава IV. МЕТОДЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ
4.1. Реформирование управления и регулирования системы социального обеспечения
4.2. Механизм отчетности в системе социального обеспечения
4.3. Государство благосостояния и распределение социальных услуг между потребителями
4.4. Роль центрального и местных органов управления в реализации социальной политики
4.5. Национальная модель и мировой опыт социальной политики

4.6. Международные организации и глобальные реформы в социальных отношениях
Глава V. ОСОБЕННОСТИ РЕАЛИЗАЦИИ СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В УСЛОВИЯХ МОДЕРНИЗАЦИИ
5.1. Место демографии в разработке и осуществление социальной политики
5.2. Соотношение экономической и социальной политикой
5.3. Место религии в реализации социальной политики
5.4. Политика семьи как структурная часть социальной политики
5.5. Социальная политика и различные социальные слои населения
5.6. Борьба с бедностью как приоритетная задача реализации социальной политики
5.7. Распределение дохода и задачи повышения благосостояния населения
Глава VI. БЛАГОСОСТОЯНИЕ НАСЕЛЕНИЯ И СОЦИАЛЬНОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ
6.1. Показатели и факторы повышения благосостояния населения
6.2. Государство всеобщего благосостояния
6.3. Развитие социальных услуг государства и коммерческих организаций
6.4. Социальное обеспечение, защита труда и добровольное социальное обеспечение
6.5. Оказания социальной помощи дома
6.6. Соотношение государства и рыночного механизма в финансирование социального обеспечения
Глава VII. СОЦИАЛЬНЫЕ УСЛУГИ
7.1. Социальные услуги и их классификация
7.2. Социальное обеспечение и стимулирование доходов
7.3. Занятость
7.4. Здравоохранение
7.5. Непрерывное образование
7.6. Социальные услуги и особенности их финансирования в Узбекистане
Глава VIII. СИСТЕМА СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ НАСЕЛЕНИЯ И ПОВЫШЕНИЯ ЕЁ АДРЕСНОСТИ
8.1. Необходимость и сущность перехода от всеобщей к адресной социальной защите населения
8.2. Мировой опыт использования инструментов механизма социальной защиты населения и усиления адресности

8.3. Принципы социальной защиты населения
8.4. Социальная защита детей и молодежи
8.5. Социальная защита пожилых людей
8.6. Социальная защита инвалидов
Глава IX. МИРОВОЙ ОПЫТ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ
9.1. Структура социальной политики и методические особенности моделей её развития
9.2. Особенности социальной политики Европейского Союза
9.3. Сущность и направления реализации либеральной социальной политики в Северной Америке
9.4. Особенности и этапы реализации социальной политики в Восточной Азии
СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

CONTENTS

INTRODUCTION
Chapter I. SUBJECT AND METHODS OF THE COURSE OF SOCIAL POLICY
1.1. Subject and stages of development of the course of social policy
1.2. Development evolution of Social policy
1.3. Social policy methods
1.4. Social needs, social security and social problems
1.5. Social justice. Efficiency and choice
Chapter II. THEORETICAL ASPECTS OF DEVELOPMENT OF SOCIAL POLICY
2.1. Formation and development of concept of social policy
2.2. Principles of social policy and a role of the neoliberal Schools in its development
2.3. Change of the approach of right parties to social policy
2.4. Social policy and the relation of left-wing parties to social policy
2.5. Development of the approaches of feminists, green movement and a post modernist to social policy on a threshold XXI Century
Chapter III. FORMATION AND STAGES OF DEVELOPMENT OF SOCIAL POLICY
3.1. Conditions and factors of formation of social policy
3.2. The social Policy in Europe in XIX Century
3.3. Reforms In social policy in the beginning of XX Centuries
3.4. The neoliberal Model of reforming of system of social security of the population
3.5. Prior directions of modernization of social policy in the beginning of XXI Centuries
Chapter IV. METHODS OF REGULATION OF SOCIAL POLICY
4.1. Reforming of management and regulation of system of social security
4.2. The reporting mechanism in social security system
4.3. The state of well-being and distribution of social services between consumers
4.4. A role central and local controls in social policy realization
4.5. National model and world experience of Social policy
4.6. The international organizations and global reforms in social relations
Chapter V. FEATURES OF REALIZATION OF SOCIAL POLICY IN THE CONDITIONS OF MODERNIZATION
5.1. Role of demography in working out and social policy realization

5.2. Proportion between economic and social policy
5.3. Role of religion in social policy realization
5.4. Family policy as a structural part of social policy
5.5. Social policy and various social strata of the population
5.6. Struggle against poverty as a priority problem of realization of social policy
5.7. Distribution of the income and a problem of increase of well-being of the population
Chapter VI. THE PROSPERITY OF THE POPULATION AND SOCIAL SECURITY
6.1. Indicators and factors of increasing of the prosperity of the population
6.2. The general welfare state
6.3. Development of social services of the state and the commercial organizations6.4. Social security, Protection of work and voluntary social security
6.5. Rendering of the social help of the house
6.6. A state and market mechanism parity in social security financing
Chapter VII. SOCIAL SERVICES
7.1. Social services and their classification
7.2. Social security and stimulation of incomes
7.3. Employment
7.4. Public health services
7.5. Continuous eduation
7.6. Social services and features of their financing in Uzbekistan
Chapter VIII. SYSTEM OF SOCIAL PROTECTION OF THE POPULATION AND INCREASING ITS TARGETING
8.1. Necessity and essence of transition from the general to targeted social protection of the population
8.2. World experience of use of tools of strengthening targeted mechanism of social protection of the population
8.3. Principles of social protection of the population
8.4. Social protection of children and youth
8.5. Social protection of older persons
8.6. Social protection of disabled
Chapter IX. WORLD EXPERIENCE OF REALIZATION OF SOCIAL POLICY
9.1. Structure of social policy and methodical features of models of its development

9.2. Features of social policy of the European Union
9.3. Essence and directions of realization of liberal social policy in The northern America
9.4. Features and stages of realization of social policy in East Asia
THE LIST OF THE USED LITERATURE

Prof. A.V. Vaxabovning umumiy tahriri ostida

Vaxabov Abduraxim Vasikovich, Zaxidova Shirin Shirzatovna,
Xajibakiyev Shuxrat Xo‘jayarovich, Raxmanov Sherzod Ibragimovich,
Odinayev Dilshodjon Shavkatovich, Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich,
Baxtiyorov Bobur Baxodir o‘g‘li, Abdulxakimov Sirojiddin Nurboy o‘g‘li

IJTIMOIY SIYOSAT

O‘quv qo’llanma

Nashriyot muharriri: Ilhom Yo‘ldashev
Musahhiha: Gulnigor Murodova
Texnik muharrir: Behzod Boltaboyev

«MUMTOZ SO‘Z»
mas’uliyati cheklangan jamiyati
nashriyoti

Manzil: Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 69.
Тел.: 241-60-33

Nashriyot litsenziyasi AI № 103. 15.07.2008
Bosishga ruxsat etildi 27.12.2018
Qog‘oz bichimi 60x84 1/32. Ofset qog‘ozi.
Times New Roman garniturasi. Hisob-nashriyot tobog‘i 38,5 b.t.
Shartli bosma tobog‘i 20, Adadi 200.Buyurtma № 212.
Bahosi kelishilgan narxda.

O‘zMU bosmaxonasida chop etildi.